

XUDO, QAERDASAN?!

O'Z CHO'LINGIZDA
KUCH VA MAQSADNI
QO'LGA KIRITING



JON BIVER

Aziz do'stim

Biz sinov va qiyinchiliklarga duch kelganimizda, Xudoning va'dalarini osonlikcha ko'zdan qochirib qo'yishimiz mumkin. Bu kitobni hayotning har bir davrida, hatto cho'l davrida ham maqsad borligini aytib, sizga dalda berish uchun yozdim.

Biz aynan cho'ldan o'tayotganimizda Xudo bizning yuragimizni yumshatadi va bizning fe'limizni shakllantiradi, shu asnoda, U biz uchun tayyorlab qo'ygan buyuk rejalarga bizni tayyorlaydi. Sizga Xudo sukut saqlab turgandek va Uning huzuri juda uzoqdadek tuyulishi mumkin, biroq Xudo sizni tashlab ketgani yo'q; U sizda O'z faoliyatini amalga oshirmoqda. Ushbu kitobning sahifalarida, siz cho'ldan muvaffaqiyatli o'tganingizda, taraqqiyot kelishini ko'rasiz.

Bu kitob – siz uchun tuhva. Bu kitobdan dalda olishga muhtoj bo'lgan imonli do'stlaringiz bilan, uni tortinmay bo'lishishingiz mumkin. Shuningdek, hayotingizni o'zgartirishga qodir bo'lgan boshqa ko'plab manbalarni o'z ona tilingizda o'rganish va yuklab olish uchun **MessengerX.com** sahifasiga tashrif buyuring.

Siz Uning kuchi va hokimiyatini yanada ko'proq me'yorda qo'lga kiritib, Uning ovozi yaxshiroq eshitishga qobiliyatli bo'lgan va hamdardlikka to'lgan holda, o'z cho'lingizdan chiqishingiz uchun ibodat qilib qolaman. Oltin olovda tozalanganidek, sizning poklanish davringiz ham, toza oltinni keltirib chiqarsin deb Xudodan so'rab qolaman.

Uning va'dalarini saqlang va o'z yo'lingizni muvaffaqiyatli yakunlang!

Xudo marhamatlasin!



MessengerX

Jon
JohnBevere@ymail.com



Messenger
INTERNATIONAL



XUDO, QAERDASAN?!

**O'Z CHO'LINGIZDA
KUCH VA MAQSADNI
QO'LGA KIRITING**



XUDO, QAERDASAN?!

**O'Z CHO'LINGIZDA
KUCH VA MAQSADNI
QO'LGA KIRITING**



JON BIVER

God Where Are You?! John Bevere, Uzbek Latin
© 2025 Messenger International
MessengerInternational.org
Originally published in English as God Where Are You?!

Additional resources in Uzbek Latin are available for free download and video streaming at **MessengerX.com** and on the **MessengerX** App
To contact the author: JohnBevere@ymail.com

This book is a gift from Messenger International and is NOT FOR SALE

“Xudo, qayerdasan?!” Jon Biver, o‘zbek tilida, lotincha
© 2025 Messenger International
MessengerInternational.org
Dastlab “God Where Are You?!” nomi ostida ingliz tilida nashr qilingan.

Jon va Liza Biverlarning o‘zbek tilidagi, lotincha qo‘shimcha manbalarini va xabarlar oqimini **MessengerX.com** va **MessengerX** ilovasidan bepul yuklab olishingiz mumkin.
Muallif bilan aloqa uchun elektron manzil: JohnBevere@ymail.com

Bu kitob – “Messenger International” xizmatining sovg‘asi va
SOTISH TAQIQLANADI.



App Store AQShda va boshqa mamlakatlarda ro‘yxatga olingan Apple Inc.ning tovar belgisidir.
Google Play va Google Play logotipi Google LLC ning tovar belgisi hisoblanadi.

MUNDARIJA

SOʻZ BOSHI	VII
KIRISH	1
1 “QAYERDASAN?”	5
2 YAXSHI DAVRA	17
3 ZARUR BOʻLGAN CHOʻL	29
4 OʻZARO MUNOSABATLAR	39
5 YANGI SHAROB.....	53
6 SAMOVIY MUKOFOT	69
7 XUDONING YUKSAK YOʻLI	81
8 MUSTAHKAM QURING	99
9 KUCHNI MASHQ QILDIRISH.....	115
10 CHOʻLDA SUV	131
11 RABBIYNING YOʻLINI TAYYORLANG	147
12 CHOʻLDAGI GʻALABA	163
MULOHAZA UCHUN SAVOLLAR	183
ILOVA.....	189

SO‘Z BOSHI

“Chunki Rabbiy Sionni yupatadi, uning hamma xarobalarini yupatadi, uning sahrolarini Adan bog‘idek va uning cho‘llarini Rabbiyning bog‘idek qiladi. Unda quvonch va shodlik, minnatdorchilik va musiqa sadolari bo‘ladi”.

– Isha‘yo 51:3

Men Isha‘yo kitobini yoqtiraman – u men uchun eski ahd payg‘ambarlarining ichida eng sevimlisi. Xudo bizning bepusht yerlarimizni boqqa aylantirishni va ularni hayot bilan to‘ldirishni chin yurakdan istashini tushuntirish maqsadida, Isha‘yo ushbu oyatda qochirimdan foydalangan. Uning so‘zlari, cho‘l joydagi quruq yerlar, aslida o‘zgarish uchun bizga omil ekanini ko‘rsatmoqda. Biz hamma narsamizdan butunlay ajralganimizdagina kelajak haqida vahiy olamiz. Bizning Otamiz va‘da qilingan yerga olib borish uchun, bizni tayyorgarlik davridan o‘tkazadi.

Men xo‘jaynim bilan oyoq botib ketadigan g‘amginlik qumlari, bizni ko‘mib yuborishga tahdid solayotgan umidsizlik cho‘lidan o‘tish baxtiga muyassar bo‘lganmiz. Men uning ibodat qilgani, mulohaza yuritgani va hayqirib: “Xudo, qayerdasan?” – deganini diqqat bilan kuzatganman.

Biz u bilan ko‘pincha, qayerda noto‘g‘ri qadam qo‘yganimizni o‘ylab, yarim tungacha o‘tirar edik. Balki biz tuzatishimiz zarur bo‘lgan xatoga yo‘l qo‘ygandirmiz yoki qayerdadir loqaydlik qilgandirmiz, deb o‘ylaganmiz?

Har kuni tong otardan quyosh chiqqunicha Jon, aynan manashu kun aniqlik va o‘zgarishlar olib kelishiga umid bilan, savollariga javob olish uchun uydan chiqib ketar edi. Men esa uni xavotir bilan kutib

o'tirar edim. U qaytib kelganida bizning o'g'illarimiz o'yg'ongan bo'lishardi.

Xudodan biror narsani eshitdingizmi? – deb shivirlab so'rar edim undan.

Jon boshini chayqardi. Shunda mening yuragimni qayg'u to'ldirar va umidim so'nishni boshlar edi.

Balki biz telba bo'lgandirmiz? Biz Xudoni umuman eshita olamizmi? Nahotki, bu haqiqat bo'lsa? Agarda Xudo bizni shu yerga olib kelgan bo'lsa, nega unda U cho'lning o'rtasida bizga sukut saqladi?

Ha, men cho'lda nolidim.

Hozir bilganlarimni, o'sha paytda bilganimda qaniydi! Men bu davrni ancha yengilroq yurak va imonga to'la qadamlar bilan o'tgan bo'lar edim. Men tozalanish va tayyorgarlik jarayonidan o'tayotganimni anglagan bo'lardim.

Yuqorida aytib o'tganlarimdan kelib chiqib, ushbu kitob – sizga qo'llanma va ko'p narsalarda sovg'a bo'lib xizmat qiladi deb hisoblayman. Ushbu davrning darslarini qabul qiling va kelajakda ular sizga a'lo darajada xizmat qiladi.

Dadil bo'ling! Siz yolg'iz emassiz!

“Nyu-York Tayms” ning fikricha ommabop kitoblarning muallifi,

“Messenjer Interneyshnl” xizmatining asoschilaridan biri

– Liza Biver

KIRISH

Bu kitob mening cho'lda bo'lgan vaqtim va shuningdek, shunga o'xshash boshqa ko'plab boshimdan kechirganlarim haqida hikoya qiladi. Xudo men uchun tayyorlab qo'ygan barcha narsalarga hali "erishganim" yo'q, biroq ushbu sahifalarda, sizning Xudodagi da'vatingizga intilishda jur'at va kuch topishingiz uchun ibodat qilib qolaman.

Bu yerda yozilgan narsalar to'la-to'kis va har tomonlama o'rganib chiqilgan xulosalar deb ayta olmayman. Ushbu mavzuga bag'ishlangan yana ko'plab kitoblar mavjud. Ammo men chin yuragimdan bo'lishgan bu hikoya, cho'lga mansub asosiy jihatlarni o'z ichiga olgan. Bu kitobning maqsadi – Muqaddas Ruhga ushbu maktubni sizning hayotingizda qo'llashiga imkon bergan holda, sizga taqdim etishdir.

Bu kitobda cho'l nimaligi va nima emasligi – uning maqsadlari va foydali tomonlari haqida gap boradi. Kitobdagi misollar va nasihatlar yordamida, cho'l mavsumidan qanday qilib donolik bilan o'tishni tushunib olishingizni Xudodan so'rab qolaman.

O'qish jarayonida, hayotimdan olingan aksariyat misollar, mening jamoatdagi birinchi ikkita xizmat davridagi yillarimga tegishli ekanini payqab olasiz. Birinchi xizmatimda men to'rt yarim yil davomida Texasdagi Dallas shahrida, o'z cho'ponimga va uning mehmonlariga xizmat qildim. O'sha xizmatdagi yillarimning oxirgi o'n sakkiz oylarida mening hayotimda cho'l mavsumi bo'ldi. Ikkinchi cho'l mavsumi, men Floridadagi bir jamoatda ikki yarim yil yoshlar cho'poni bo'lib xizmat qilgan paytim boshlandi. Bu yerdagi cho'lning oldida, Dallasdagi cho'ldagi vaqtim xuddi hordiq chiqarish bilan barobar bo'lib qoldi. G'alati tomoni shundaki, ikkinchi cho'l ham bu o'sha yerdagi xizmatimning oxirgi o'n sakkiz oyini o'z ichiga oldi.

Mening hayotimda boshqa cho'l davrlari ham bo'lganmi? Ha, bo'lgan. Biroq ular kelguniga qadar, men allaqachon bu nima ekani haqida ko'p narsalarni bilib olgan edim. Natijada, men: "Xudo, nimalar bo'lyapti?" yoki "Xudo, qayerdasan?" – degan savollarni qayta va qayta takrorlaganim yo'q. Keyingi mavsumlar davomida cho'l vaqtida nimalar sodir bo'lishi va bunga qanday tayyor bo'lishimiz haqida ko'p narsalarni o'rganib oldim.

Men ushbu davrdan o'tayotgan ko'plab ayol va erkaklar bilan suhbatlashganman. Mana shunday suhbatlarda ularda sarosima va umidsizlikni kuzatganman. Ularning aksariyati hayotida nima sodir bo'layotganini tasavvur ham eta olmas edilar. Yaqinda men rafiqam Liza bilan cho'l haqida ikkita audio dastur yozib tugatdik va butun xizmatimiz davomida bu mavzuga nisbatan odamlardan olgan fikrlardek, bunchalik ko'p fikr hech qachon olmagan edik. Bu meni avval "Cho'ldagi g'alaba" nomi ostida nashr etilgan birinchi kitobimni qaytadan ko'z yugurtirishga majbur qildi.

Men bu kitobni taxminan o'ttiz yil ilgari yozgan edim. Uni diqqat bilan o'qib chiqqach, ushbu maktub 1980-yillarning oxiri va 1990-yillarning boshiga tegishli bo'lgan bashorat ekanini tushundim. Shunday qilib, men va mening muharririm vaqtdan tashqari bo'lgan haqiqatni ajratib oldik va unga o'ttiz yil davomida olgan bir dunyo vahiyларimni qo'shib, kitobni boshqatdan yozdik. Alqissa, bu yangilangan va qayta ko'rib chiqilgan kitob emas, balki yangi tandirdan uzilgan vahiyлар hisoblanadi. Siz qo'lingizda tutib turgan kitob, vaqtdan tashqarida bo'lgan maktub ekaniga, qolaversa, zamondoshlarimizga va kelajak avlodga ushbu muhim mavsumdan o'tishda yordam berishga ishonaman.

Yozilganki: "Har ishning o'z fursati bor va osmon ostidagi har narsaning o'z vaqti bor" (Voiz). Hayotimizda turli xil mavsumlar bor va ularning har biri o'z maqsadiga ega. To'g'ri ish tutish uchun har bitta mavsumning maqsadini bilib olish juda muhim. Biror kishining, qishki korjomada arqon yo'lidan snoubordda sirg'anish uchun

belgilangan moslamalar bilan toqqa ko'tarilgach, yuzi bilan yerga yiqilishini kuzatish, qiziq bo'lar edi. Nima uchun? Negaki bu voqea yozda, qor yo'q payti sodir bo'lyapti! Uning harakatlari qish vaqtida foydali bo'lar edi, biroq hozirgi mavsumda bu unga halokat olib keldi.

Mening maqsadim – qo'lingizdagi kitob orqali ushbu muhim mavsum davrining donoligi bilan bo'lishish va sizni mustahkamlashdir. Bu mavsumning maqsadi – tayyorlash. Men bu yerda xizmat haqida ko'p gapirganimni bir zumda payqab olasizlar. Biz turli sohalarda xizmat qilish uchun da'vat etilganmiz – tadbirkorlik, ma'rifat, sog'liqni saqlash, davlat boshqarmasi va boshqalar. Mening da'vatim – besh qirrali xizmat hisoblanadi va bu narsa kitobimdagi hikoyalarda o'z aksini topgan. Ammo quyidagi qoidalarni, Xudo sizni tayinlagan barcha sohalarda qo'llasa bo'ladi. Tadbirkorlik sohasidagi odamlar ham, Xushxabar xizmatidagi odamlar singari o'z da'vatiga kirish uchun tayyorgarlik davriga muhtoj. Va bu hayotimizning barcha sohalariga tegishli.

Yana bir fikr: men bu kitobga "Cho'ldan qanday o'tish kerak" deb nomlangan qo'shimcha matnlar ham qo'shib qo'ydim. Bu qisqa dalda so'zlari va alohida fikrlar, shuningdek bu cho'ldagi vaqtingizni imkon qadar mahsuldor qilish uchun ko'mak hisoblanadi. Bu maktub sizga ravshanlik olib keladi va bir paytlar mendek bilimsizlikdan qiynalishning oldini oladi, qolaversa, bizga haqiqiy baxtiyorlikni bera oladigan Yagona shaxsga nisbatan bo'lgan doimiy intilishingizda sizni ruhlantiradi deb umid qilaman.

Chin yurakdan,
Jon Biver,
2019-yanvar.


”QAYERDASAN?”

“Biz qurg’oqchilik va xarobazorlikdan xotirjamlikda o’tsak, bu Xudoga bo’lgan sevgimizdan guvohlik beradi; U bizni O’z huzuridagi ezgulik bilan to’ldirishi esa, Xudoning bizga bo’lgan sevgisining guvohligi hisoblanadi”.

– Gyuyon Xonim / Janna-Mariya Buve de la Mott Gyuyon

“Mana, men oldinga boryapman, biroq U yo’q va orqaga qaytyapman, ammo Uni topa olmayapman. U chap tomonda nimadir qilyaptimi, men ilg’ay olmayapman; o’ng tomonda yashirinyaptimi, ko’ra olmayapman”.

– Ayub 23:8-9



Men hammadan jahlim chiqqan edi. Buning sababini esa o'zim bilmas edim.

Hayotda hammasi yomondek tuyular edi.

Bizning katta o'g'limiz, Edison o'n sakkiz oylik edi va unga mening sabrim chidamas edi.

Men xotinim, Lizaga baqirar edim.

Men cho'ponimdan hafsalam pir bo'lgan edi.

Birga ishlaydigan odamlarga ham g'azabda edim.

Ochig'ini aytadigan bo'lsam, hoynahoy, men Xudodan ham ko'nglim qolgan va Undan xafa edim. Men Unga: "Nima qilyapsan?" – deb nolir edim.

"Nega hayotimda hech narsani o'zgartirmayapsan?"

"Sen menga bergan va'dalarning bajo bo'lgani qani?"

"Nega hammasi yomon?"

"Nima uchun menga gapirmayapsan?"

Men qayta va qayta o'z noroziligimni bildirib: "Qayerdasan?" – der edim.

Siz biror marta Rabbiyni, Uning ismini shivirlab aytgan zahoti, U kelgan va shu zahoti sizga javob beradigan darajada Uni yaqin his etganmisiz?

Biroq keyin shunday vaqt keladiki, siz Unga qayta-qayta xabarlarni yuboraverasiz, javob esa yo'q. U xuddi hayotingizni umuman tark etgandek tuyuladi. Balki siz hozirning o'zida shunday holatdadsiz va

siz ham menga o'xshab, jimlikka qarab: "Xudo, qayerdasan?" – deb baqirishni istarsiz.

Men cho'lda bo'lganimda, qayerdaligimni bilmaganman. Men Texas shtatidagi Dallas shahrida yashardim va o'zimni Xudo unutgan, Isoning yaxshi izdoshi deb hisoblardim. Men o'shanda yosh masihiy edim va o'sha payti birinchi marta chinakamiga cho'ldan o'tganman deb o'ylayman.

Bundan avvallari, Rabbiyga murojaat etgan zahotim, U menga javob berar edi. U eng oddiy iltijolarimga ham juda tezkorlik bilan javob berganini eslayman. Uning huzuri juda yaqin, ko'rinarli va kuchli edi. Men nima sodir bo'layotganini tushunmay qoldim. Har kuni Xudoning qarshisida tiz cho'kib: "Xudojon, nimalar bo'lyapti? Menimcha Sen mendan million kilometr uzoqdadek tuyulyapsan!" – der edim.

Men doim hayotimni ko'zdan kechirar va o'zimdan: "Qanday dahshatli gunoh sodir qilgan bo'lishim mumkin?" – deb so'rar edim.

Haqiqat shundaki, men ham boshqa odamlar singari vaqti-vaqti bilan gunoh qilib qo'yar edim, biroq men shu zahoti tavba qilar, Iso menga berayotgan kechirimni so'rar edim. Bilishimcha, hayotimda davomiy va atayin amalga oshirilgan gunohlar yo'q edi.

Mana shu qurg'oqchilik vaqtida har kuni: "Xudojon, nega menga gapirmay qo'yding?" – deb aytar edim.

Albatta, meni Muqaddas Kitobdagi buyuk qahramon bo'lmish, Ayub bilan taqqoslab bo'lmaydi, lekin mening o'z vaziyatimga bo'lgan munosabatim, uning o'z vaziyatiga bo'lgan munosabatiga qisman o'xshab ketadi. Ayubning, qachonlardir men uchun begona bo'lgan so'zlari, endi mazmunga ega bo'lishni boshladi. Uning ayrim so'zlari hayotimdagi xarobazor cho'lining hissini aniq tasvirlar edi:

"Mana, men oldinga boryapman, biroq U yo'q,
Orqaga qaytyapman, ammo Uni topa olmayapman.
U chap tomonda nimadir qilyaptimi, men ilg'ay olmayapman;
o'ng tomonda yashirinyaptimi, ko'ra olmayapman" (Ayub 23:8-9).

Men ibodat qilishda davom etdim, ammo samo xuddi misdek qotib turardi.

Shunda Rabbiiy menga, masihiylik hayoti bolaning ulg'ayib borishi bilan o'xshash jihatlari borligini ko'rsatdi. Men ruhiy go'dak edim, lekin yangi pog'onaga ko'tarilishga shaylanib turgan edim. O'sha payt men hayratli bir tabiiy misolni ko'ra oldim. Edison taxminan o'n sakkiz oylik edi. Liza ajoyib ona edi, Edison injiqlik qilganida, u bolaga g'amxo'rlik qilish uchun birdan uning yoniga borar edi. Bir lahzada u onasining bag'rida bo'lib qolar, uning yordamidan zavqlanar va ona suti bilan yupanar edi.

Ammo Edison ham, boshqa bolalar singari, ulg'ayishi uchun o'sishi zarur edi. Bizning to'rtta o'g'limiz bor, ularning har biri mustaqil ravishda ovqat yeyishni o'rganish davridan o'tishgan. Eh, bu payti naqadar tartibsizlik boshlanar edi! Meni tushunyapsiz deb o'ylayman. Ular o'zlari ovqatlanishga urinib, ovqatning yarmini stuliga va polga tushurib yuborar edi.

Bolalar, ularni oldingidek siz ovqatlantirmayotganingizdan xafa bo'lishadi, biroq siz mas'uliyatli ota-ona bo'lganingiz uchun shunday qilasiz. Bolalarimiz ovqatini hamma joyga to'kib yeyishni boshlaganida, qoshiqni qo'lidan olib, o'zimiz unga ovqat yedirishni istar edik, biroq bu narsa ularning rivojlanishiga halal berishini bilardik. Biz farzandlarimiz o'sishiga imkon yaratar edik. Biz ularning birortasini o'n sakkiz yoshgacha o'zimiz ovqatlantirib qo'yishni xohlamas edik!

Yangi tug'ilgan chaqaloq ulg'ayishni boshlaydi va ular o'sishi hamda rivojlanishini kuchaytirish uchun, ular oladigan yordam saviyasi o'zgarib boradi. Biz ruhan rivojlanishimiz va yetuklikka erishishimiz uchun, Xudo ham biz bilan qariyb shu asnoda yo'l tutadi. Biz yuqoridan tug'ilib, Uning Ruhi bilan to'lganimizda, U biz chaqirgan zahoti hozir bo'ladi. Lekin ulg'ayish va yetuklikka yetishimiz uchun yordam berish vaqti kelganida esa (biz ulg'ayib, faqat sut ichishni istashni bas qilamiz, deb umid qilaman, Ibroniylarga 5:12), U bizga

shunday damlardan o'tishga yo'l qo'yadiki, ya'ni biz Uni chaqirgan payt, har doim ham javob beravermaydi.

Rabbiy menga ruhiy yetuklik jarayoni har bitta inson yoshligida o'tishi zarur bo'lgan jarayonga o'xshash ekanini tushunishga yordam berganida, men bu haqda mulohaza yurita boshladim va o'zimdan quyidagicha so'radim: "Nahotki men adashgan bo'lsam? Men boshimdan kechirayotgan narsa, Rabbiydan kelgan jazo bo'lmasachi? Men biror narsani o'rganishim, yanada ulg'ayishim va Iso Masihning xizmati uchun tayyorgarlik ko'rishim uchun cho'lga olib kelingan bo'lishim mumkinmi?"

Shunda, Iso Masih bilan ham aynan shu narsa sodir bo'lgani yodimga tushdi. Yahyo Isoni cho'mdirgandan va Uning Otasi Uni maqtagandan so'ng ko'p vaqt o'tmay, U Muqaddas Ruh tomonidan cho'lga olib ketildi. Iso uchun bu jazo emas edi va shubhasiz, U hech qanday gunoh sodir qilmagan edi.

Xullas, g'azabga va o'kinchga to'lib, oxir-oqibat shunday deb o'yladim: *"Ehtimol cho'l kechinmalari unchalik ham dahshatli emasdir, balki men o'zim uni qiyinlashtirayotgandirman?"*

Cho'l tushunchasi

Agarda biz Iso Masihga o'xshash bo'lishni istasak, bizning tabiatimiz rivojlanib borishi zarur. Buni amalga oshirish uchun Xudo ahamiyatli ravishda – cho'lni tanladi. Ko'p hollarda, Xudo bizdan qancha kilometrlar uzoqdadek va Uning va'dalari quruqdek tuyuladi. Biroq bu noto'g'ri fikr, bu bizga shunday tuyuladi, xolos. Bunga ishonib. U doim biz bilan, chunki U bizni hech qachon tashlab ketmaslikka va qoldirmaslikka va'da bergan (Ibroniylarga 13:5).

Cho'l – bu siz orzu qilgan, Xudo bir kuni sizga bergan va'dasiga amin bo'lgan narsangizdan qarama-qarshi tomonga ketayotgandek tuyuladigan vaqt. Siz cho'lda ruhiy o'sish va taraqqiyotni his qilmaysiz. Sizga oldinga emas, balki xuddi ortga ketayotgandek bo'lib ko'rinadi, siz o'zingizni kamsitilgan va sevimsizdek his qilasiz, ammo bu unday emas.

Cho'l – bu Masihning barcha haqqoniy izdoshlari o'tadigan joy hisoblanadi. Lekin shunga qaramay, u joyda bo'lganingizda o'zingizni o'ta yolg'iz sezasiz. Haqiqat shundaki, Xudoning har bitta farzandi uchun cho'ldan o'tish juda muhim. Iso Masihning sog'lom va yetuk shogirdi bo'lishingiz uchun, ehtimol, siz ko'p marta cho'ldan o'tishingizga to'g'ri kelar.

Bu qurib qolgan yerdan o'tishning eng yaqin yo'lini yoki uni chetlab o'tish yo'lini xaritadan ko'rsatishni qanchalik istamay, bunday yo'l mavjud emasligini sizga aytib qo'yishni istardim. Ammo, birodar, bu yaxshi xabar, chunki biz o'zimizning va'da qilingan yerimizga borishni istasak, cho'ldan o'tishimiz, ya'ni bu davrni yoki mavsumni qabul qilishimiz zarur.

Cho'l nima?

Baxtimizga, ko'pchiligimiz bunday suv tanqis va pana topish mushkul bo'lgan qurg'oqzor bo'lmish – haqiqiy cho'lda jismonan kun kechirishga majbur emasmiz. Cho'lda aslida, kunduzi issiq, kechqurun esa sovuq bo'ladi va biz u yerda yolg'iz, chanqagan va ochlik holatiga tushamiz. Bundan tashqari biz adashib qolamiz va u yerdan qanday chiqib ketishni tasavvur ham eta olmaymiz. Ehtimol, siz hayotingizda bunday narsalarni boshdan kechirmagandirsiz, biroq sizda cho'ldalik hissi bo'lgan. Ushbu kitobda mening cho'lda bo'lgan paytlarimning asosiy tomonlarini hikoya qilib beraman. Bunday holatdan bir necha marta o'tganman va ularning birortasi yengil bo'lmagan.

Yaxshi xabar shundaki, agar biz Xudoga itoat etishni istasak, cho'l biz uchun salbiy vaqt bo'lmasligi lozim. Bu mantiqsiz bo'lib eshutilishini bilaman, ammo cho'lning maqsadi juda ijobiy – u bizni yanada mahsuldor qilish uchun Xudo Ruhining yangi harakatiga bizni tayyorlaydi, mustahkamlaydi, poklaydi va o'rgatadi.

Aksariyat kishilar cho'lda bo'lganida, o'zlari bilmagan holda tahlikaga tushib qoladilar va o'ylamasdan qadam qo'yadilar. Ular

tushunmagan holda, noto'g'ri narsalar qilishadi va noto'g'ri narsalarni izlashadi. Buning misoli tariqasida aytishim mumkinki, inson bu paytda o'z kasbini tubdan o'zgartiradi yoki bir jamoatdan boshqa jamoatga o'tib ketadi – har qanday keskin o'zgarish ularga baxt olib keladi va oldingi me'yordagi hayot tarzini qaytarib beradi deb o'ylaydilar. Jumladan, turmushga chiqmagan va uylanmagan kishilar og'riqli uzilishdan so'ng mulohazasizlik bilan yangi munosabatlarni boshlashlari mumkin.

Xudo sizni ma'lum bir cho'lga nima maqsadda joylashtirganini anglamay turib, undan chiqib ketishga urinsangiz, siz o'zingiz bilmagan holda uning muddatini uzaytirasiz. Natijada, siz ko'proq qiyinchilik, hafsalasi pirlik va hatto mag'lubiyatga duch kelasiz, negaki siz Xudo sizni qayerga va nima sababdan olib borayotganini tushunmaysiz.

Isroilliklar bilan cho'lda qirq yil davomida aynan shu narsa sodir bo'ldi. Ular o'zlari bilan sodir bo'layotgan narsalarni tushunmagani uchun, butun boshli avlod va'da qilingan yerni meros qilib olishga yaroqsiz bo'lib qoldi. Bu naqadar ayanchli! Xudo ularni sinash, o'rgatish, tayyorlash va o'zlarining yangi vatani bo'lmish – ilohiy va'dani qo'lga kiritishga qodir bo'lgan, kuchli jangchi qilish uchun cho'lga olib borgan edi. Ammo isroilliklar buning o'rniga, cho'lni jazo deb xato o'yladilar; shu bois, ular to'xtovsiz nolidilar, shikoyat qildilar va ko'nglida boshqa narsalarni qumsadilar.

Ular uchun cho'lni qoldirib, va'da qilingan Yerni egallash vaqti keldi. Biroq ayg'oqchilar qaytib kelib, ko'rganlarini so'zlab berganlarida, xalq noliydigan va zorlanadigan odamlarning yomon xabariga quloq tutishdi. Bir tomondan Xudoning va'dalari va qudrati hamda boshqa tomondan insoniy tushuncha va zaiflik tanlovi qarshisida turib, ular Xudoga emas, insonga ishonishni afzal topdilar. Ular mag'lubiyatga uchraymiz hamda sut va asal oqadigan yerga erisha olmaymiz degan yolg'onga sotildilar. Ular Xudoning tabiati va fe'lini bilmasligi tufayli, betavfiqlarcha yo'l tutdilar.

Xudo bunga nisbatan quyidagicha mufassal javob berdi: "Yaxshi,

sizlar istagandek bo'la qolsin". Oqibatda cho'ldagi bir yillik safar, ularning umrining oxirigacha davom etdi.

Ehtiyot bo'ling! Men va sizning hayotimiz haqidagi xulosamizda bunday qaror bo'lishini istamaymiz! Biroq biz havoriy Pavlus ko'rsatganidek, ularning xatosidan dars olishimiz mumkin: "Bularning hammasi ularda namuna sifatida sodir bo'lgan" (1-Korinfliklarga 10:11).

Biz cho'lga kelgan zahotimiz, tishlarimizni g'ijirlatib, nolishning o'rniga, uni tanib-bilishni o'rgansak, biz buning ortida yetuklik, kuch, marhamat, imkoniyat va va'dalarning amalga oshishi kabi "va'da qilingan Yer" turganini bilib, minnatdor bo'lamiz. Buning natijasida, mushkul davr unchalik ham mushkul emasdek bo'lib ko'rinadi va Yoqubning quyidagi so'zlariga qo'shilamiz:

"Birodarlarim, sizlar turli vasvasalarga tushib qolganingizda ham, buni butun quvonch bilan qabul qilinglar... Sabr-toqatingiz esa amalda mukammal bo'lsin, toki sizlar hamma narsada kamchiliksiz, yetuk va komil bo'linglar" (Yoqub 1:2, 4).

Cho'l men jiddiy adashib qolganimni bildiradimi?

Yaxshi savol!

Ko'pchilik cho'lga tushib qolganida, o'zidan: "Men qanday xatoga yo'l qo'ydim ekan? Qaysi ishim Xudoga yoqmad?" – deb so'rashi aniq. Buning sababi – inson cho'lning ma'nosi va maqsadini bilmasligi hisoblanadi.

Muqaddas kitobda va butun tarix bo'ylab, ko'plab ayollar va erkaklar, inson o'z da'vatiga kirishi uchun cho'l – tayyorgarlik vaqti degan fikrga kelganlar. Xullas, cho'l – bu Xudo sizdan yuz o'g'irgan vaqt emas, balki U tayyorgarlik uchun sizni qo'ygan joy.

Albatta, noto'g'ri qarorlar oqibatida ham cho'lga tushib qolish mumkin. Haqiqat shundaki, biz naqadar Isoga o'xshashga harakat qilmaylik, baribir gunoh bilan kurashib yashashimiz lozim va jiddiy

Cho'ldan qanday o'tish kerak

#1 Qaysi mavsumda ekaningizni tushuning.

Aksariyat kishilar cho'lga kelib qolganida hayron bo'ladilar. Xudo shunchalik ezguki, biz Uning marhamatlari, huzuri va va'dalariga o'rganib qolamiz. Bu yaxshi damlar tugashi xayolimizga ham kelmaydi. Biroq, kunlarning birida nimalardir o'zgarganini anglab qolamiz. Shu bois, tahlikaga tushishning o'rniga, yuzaga kelgan vaziyatga qarash zarur. Nimalardan o'tayotganingizni tushunishingiz kerak, agarda qaysi mavsumda va qaysi joyda ekaningizni tushunmasangiz, siz bu vaziyatga noto'g'ri munosabat bildirasiz.

Janubiy Floridaning iqlimidan shimoliy Kanadaning iqlimiga o'tishni, bunga namuna sifatida olish mumkin. Qish kelib, termometrning ko'rsatkichi noldan pastga tushsa, siz yashayotgan joyda issiq ustki kiyimsiz ko'chaga chiqish mumkin emasligini bilish foydali.

Bu misolni cho'lga ham qo'llash mumkin. Cho'lga kelganingizni ko'rsatadigan belgilarga e'tibor bermasangiz, siz ko'p hafsalasi pirlikni boshdan kechirasiz va hatto ertaga sizga qimmatga tushadigan xatolarni ham sodir qilishingiz mumkin. Biz Eski Ahdda Issoxorning o'g'illari: "Isroil nimani qachon qilishi kerakligini biladigan, dono kishilar edilar" – deb o'qiyimiz (2-Yilnomalar 12:32). Cho'lda ekaningizni anglagan zahoti, nima qilish kerakligini ham tushunib yetasiz.

adashishlarga uchrab qolishimiz ehtimoldan xoli emas. Shuning uchun bitta noto'g'ri qaror yoki bir nechta unchalik muvaffaqiyatli bo'lmagan qarorlar, bizni jiddiy muammolarga olib kelishi mumkin.

Biroq yana bir haqiqat shundaki, bizni kechiradigan Xudo va bizning zaifliklarimizni tushunadigan buyuk Oliyruhoniymiz bor. Shunday ekan, jiddiy muammolardan chiqishning birlamchi yo'li yoki

o'zimiz tug'dirgan cho'ldan chiqishning birinchi qadami, bu bizning sevuvchi Otamizning qarshisiga kelib, quyidagicha ibodat qilishdir: "Otajon, _____ (bo'sh joyni to'ldiring) ni amalga oshirib, gunoh qildim. Iltimos, meni kechirgin. Men bu gunoh uchun tavba qilaman va shu vaqtdan e'tiboran, Sening inoyating bilan, boshqacha yashashni boshlayman".

Aytmoqchimanki, bordi-yu, o'z xatoingiz tufayli cho'lga tushib qolgan bo'lsangiz ham, Rabbiy bilan munosabatlaringizni to'g'rilang va U sizga o'rgatmoqchi bo'lgan narsalarni qabul qiling, oldinga boring va cho'ldan imkon qadar tezroq chiqishga urining. Shubhasiz, Uning O'zi vaqt-soatni belgilaydi. Sanochi deydi: "Mening kunlarim Sening qo'llaringdadir" (Sanolar 30:16).

Hatto bularning barini hisobga olsakda, siz cho'ldagi davringizda, Xudosisnihoziraynanshujoydako'rishniistashinibilishingizzarur.Sizbu qiyinchiliklar joyiga xatoga yo'l qo'yganingiz uchun kelib qolmadingiz. Bu qandaydir ma'noda vaziyatni yanada chigallashtirishini bilaman. Bu kitobni yozishimning muhim sabablaridan biri – Xudoning cho'lga bo'lgan munosabati va Xudo siz Isoga ko'proq o'xshashga erishishingiz va ruhiy o'sishda ko'mak sifatida, cho'ldan foydalanishini istashini bilib olishingiz uchun yordam berishdir!

Biz quyidagi haqiqatni aniq anglab yetishimiz zarur: Xudo sizni shaytonning to'riga tashlab qo'yish va sizni unutish uchun cho'lga olib kelmaydi. Xudo Chiqish davrida ishtirok etgan ikkinchi avlodga va'da qilingan Yerga kirishga ruxsat berishdan oldin, ularga shuni eslatdi:

"Rabbiy Xudoying seni bo'ysundirish uchun, seni sinash uchun va yuragingda nima borligini: Uning amrlariga rioya qilasanmi yoki yo'qmi bilish uchun seni sahrodan olib o'tgan bor yo'lni yodda saqlagin" (Qonunning takrorlanishi 8:2).

Isroilliklar jiddiy adashishdi va o'zlarining mulohazalisizligi, noshukurchiligi va isyoni tufayli cho'lda uzoq vaqtga qolib ketgan

bo'lishsa-da, Xudo bularning barini yaxshilikka o'girmoqchi bo'lgan edi. U har doim shunday yo'l tutadi va men bu uchun xursandman! Sizchi?

Cho'l haqida noto'g'ri tasavvurga ega bo'lmang. Biz cho'lda bo'lganimiz uchungina, Xudo biz bilan ishlashni to'xtatib qo'ymaydi. Xudo bizni undan olib o'tadi; biz Xudosiz hech qachon undan o'ta olmaymiz. Boz ustiga, cho'l Xudo bizni foydalanish uchun yana qayta olmaguncha olib qo'yadigan javon emas. Bizning shafqatli Otamiz bunday yo'l tutmaydi. Aksincha, bu joy U qudratli tarzda harakat qiladigan joydir.

Ehtimol siz: "Daraxtlar tufayli o'rmonni ko'ra olmaysiz" – degan iborani eshitgandirsiz. Cho'l haqida ham qariyb shunday deyish mumkin. Xudo faoliyatining o'rtasida turganingizda, Uning harakatini ko'rish qiyin.

Biz bu muhim haqiqatni ravshan tarzda ko'rsatishimiz lozim: cho'l – bu hech bo'lmaganda, Xudoga itoat qiladigan kishilar uchun mag'lubiyat joyi emas. Iso ochlikdan zaiflashib, tayanadigan va dalda oladigan kishisiz, qirq kun davomida jismoniy qulaylik yoki g'ayritabiiy hodisalarsiz qolganida, shayton unga hujum qildi. Iso esa uni Xudoning So'zi bilan yengdi! Cho'l – Xudo farzandlari uchun mag'lubiyat vaqti emas: Lekin Xudoga shukronalar bo'lsinki, U bizni Masihda hamisha zafarona tantanada olib yurmoqda..." (2-Korinfliklarga 2:14).

Isroil xalqi cho'lda bo'lganida, o'sha yerlik xalqlar ularga tashlanar edilar. Har safar Rabbiy isroilliklarga ular bilan jang qilishni buyurardi va Isroil o'g'illari amoriylarni (Chiqish 21:21-25), madianlarni (Chiqish 31:1-11) va Vasan xalqini (Chiqish 21:33-35) mag'lub qildilar. Cho'l mag'lubiyat joyi bo'lmasa ham, ko'pchilik isroilliklar va'da qilingan Yerga kira olmasdan o'lib ketdilar. Bu Xudoning irodasi emas edi, ammo bu ularning itoatsizligining oqibati edi.

Siz cho'l Xudoning jazosi yoki norizoligining natijasi emasligiga amin bo'ldingiz deb umid qilaman. Qolaversa, cho'l – bu Xudo bizni tashlab ketadigan yoki unutib qo'yadigan joy emas. Bu biz o'z mag'lubiyatimizga iqrar bo'lib, yerga yiqiladigan joy ham emas!

Xudo yaxshi narsani o'ylab qo'ygan!

Cho'l – alomatlar, marhamatlar, to'kinchilik va mo'jizalar izlash vaqti emas, balki Xudoning yuragini izlash vaqtidir, aynan mana shu bizda fe'l-atvor va kuchni keltirib chiqaradi. Bu o'z maqsadimizni saqlab qolish vaqti. Aksincha bo'ladigan bo'lsa, Xudoning va'dalari haqida ravshan maqsadga ega bo'lmasak, cho'l mavsumi bizni siqilish va nolishga olib kelishi muqarrar.

Agar siz hayotdagi o'z o'rningizni bilib olsangiz, kelajagingizni ko'rishni boshlaysiz. O'shanda Xudoning huzurini his etmasangiz ham, Uning qo'li boshqarayotgan narsalarni ko'ra boshlaysiz. Mana shu payt sizning Unga bo'lgan sevgingiz yetila boshlaydi va siz Undan: "Men uchun nima qila olasan?" – deb so'rashning o'rniga, "Sen mendan nimani istaysan?" – deb so'rashni boshlaysiz.

Bundan sal oldin, men umidsizlik hissi haqida gap ochgan edim. Qadimda o'tgan muqaddas kishi bo'lmish Ayub, Xudoning qilayotgan ishlarini tushunmagani uchun umidsizlikka tushgan edi. U qayerga qaramasin, hech qayerdan Xudoni topa olmadi! Biroq Ayub ruhan cho'kmadi va taslim bo'lmadi, u umid va imonga to'la quyidagi so'zlarni e'lon qildi:

"Biroq U mening yo'limni biladi, mayli meni sinasin: oltin kabi chiqaman" (Ayub 23:10).

Naqadar hayratli vahiy! Xudo bizni qayerga olib borayotganini tushunishga qanchalik urinmaylik, U yo'lni bilishini unutmang. Biz unga to'liq tayanishimiz mumkin, negaki havoriy Pavlus shunday degan: "Sizlarning ichingizda yaxshi ishni boshlagan Xudo buni Iso Masihning kunigacha amalga oshirishiga aminman" (Filippiliklarga 1:6).

Bu haqiqat... cho'lda ham haqiqat bo'lib qolishini bilamiz.

2


YAXSHI DAVRA

“Masihiylar bo‘ronlar qarshiligi bilan yuzma-yuz kelganlarida, yorqin jamol sochib ko‘tarilishlari mumkin. Ular tog‘ cho‘qqisidagi shamollar bilan urilgan, biroq eng mustahkam yog‘ochga o‘xshaydilar”.

– Billi Grem

“Iso Muqaddas Ruhga to‘lib... Ruh tomonidan sahroga olib borildi”.

– Luqo 4:1



Cho'lga marhabo! Sizni bunday quvonchli qarshi olishim ajablantirdimi? Odatda biz ruhiy cho'lni yaxshi narsa deb kutmaymiz, ammo siz bizning sevuvchi Otamiz bu joy haqida yuqori fikrga ega ekanini bilishingiz zarur, endi yaxshi davradasiz.

Agar siz imon yo'lidagi cho'lga umuman tushmaganimizda yaxshi bo'lardi deb hisoblasangiz, o'z fikringizni qayta qarab chiqishni qat'iy tarzda so'rab qolaman. Aslida, biz cho'lda bo'lganimizda, u yerdagi tumonat muqaddaslarning izini topamiz, – hatto bu joyda ko'p vaqtini o'tkazgan, Xudo O'g'lining izi ham bor.

Boshqacha qilib aytganda, cho'lda bo'lganimizda, biz yaxshi davradamiz... biz yolg'iz emasmiz.

O'tinaman, meni cho'lda yashagan kishilarning ro'yxatini keltirib, sizni lol qoldirishga uringanlikda ayblamang, ammo bu ro'yxat aql bovar qilmas darajada.

Albatta, Muqaddas Kitobda "Sharqdagi eng mashhur kishi" (Ayub 1:3) deb aytilgan Ayubni tilga olib o'tdim. U bor-butini – mol-mulki, bolalari, sog'lig'i va xotining daldasini yo'qotdi. Ayub namunali haq kishi bo'la turib, do'stlari tomonidan sirli gunohlarda ayblandi. Ayub o'z cho'lida shu qadar ezilgan ediki, u tug'ilganiga pushaymon ekanini aytdi.

Cho'lda Ibrohimning izidan borasiz. Xudo bu qulay hayot kechirib kelayotgan, Urlik boy kishiga, hamma narsasini qoldirishni va yangi

va'da qilingan yer tomon yo'lga o'tlanishni aytdi. Ibrohimning yonidagi Soro, unga qadamma-qadam ergashar edi. Ularning safarining ko'p qismi cho'lda o'tdi.

Muso ham cho'l bilan yaxshi tanish edi. U fir'avnning saroyida shahzoda sifatida o'sdi, biroq bir misrlikni o'ldirib qo'yib, uzoq cho'lga qochib ketishga majbur bo'ldi. U cho'lda qirq yil davomida qo'y boqdi va aynan o'sha joyda Xudo unga yonib turgan butada namoyon bo'ldi:

“Musoning qaynatasi Yitro – Midian yurtining ruhoniysi edi.

Muso uning podasini boqar edi. U podani sahroning orqa tomoniga haydab, Xudoning tog'i Xorebga keldi. Birdan butadagi alangada Rabbiyning farishtasi Musoga zohir bo'ldi. Muso hayron bo'ldi: buta yonardi-yu, ammo yonib bitmas edi. Muso:

“Borib, bu buyuk alomatni ko'ray-chi, nima uchun buta yonib bitmayapti?” – dedi. Rabbiy uning qarash uchun kelayotganini ko'rib, butaning orasidan: – Muso! Muso! – deb chaqirdi. U: – Labbay, shu yerdaman, – deb javob berdi” (Chiqish 3:1-4).

So'ng, Muso Misrga qaytgani va o'z xalqini Misrdan... yana cho'lga olib chiqqanini bilamiz.

Shuningdek cho'lda, otasining eng sevimli o'g'li bo'lgan, akalari tomonidan chuqurga tashlangan, keyin Misrga qullikka sotilib yuborilgan Yusufni uchratasiz. Keyinroq Yusufni u sodir qilmagan jinoyatda ayblab qamoqqa tashladilar. Fir'avnning o'sha zindonida Xudo Yusufga namoyon bo'ldi va u sharobdor va nonchining tushini ta'birladi. Bu uni tushunmagan holda fir'avnning tushini ta'bir qilishga tayyorladi.

U yerda shoh Dovud ham bo'lgan. Shomuil navbatdagi shoh u bo'lishini bashorat qilgan edi, shunday so'ng, Dovud tez orada g'orlarda yashab, cho'lda darbadarlikda yurib, taxtga o'tirishga tayyorgarlik ko'rishni boshladi. O'sha yerda Xudo Dovudga uning Cho'poni, Kuchi, Qalqoni va Qal'asi sifatida namoyon bo'ldi.

Yahyo Cho'mdiruvchi buyuk payg'ambar bo'lish uchun da'vat etilgan edi; bu uning otasiga vahiyda aytilgan edi. Xudo Yahyoga

Muqaddas Kitobni o'rganish maktabida emas, balki aynan cho'lda, u Yahudiyaning cho'llarida yashab, hayvonning terisidan kiyim kiyib va hashoratlarni yeb yurgan paytida namoyon bo'ldi. Luqo 3:2-3 da yozilgan: "...sahroda yashayotgan Zakariyoning o'g'li Yahyoga Xudoning so'zi keldi. Yahyo Yordan daryosi atrofidagi barcha yurtlarni kezib yurib, gunohlar kechirilishi uchun tavba cho'mdirilishini voizlik qilar edi".

Xudo havoriy Pavlusga, kelgusida Yangi Ahdning katta qismini tashkil etgan sirlarni aynan Arabistonning cho'llarida berdi va u Xudoning maqsadi: "majusiylar orasida Uning Xushxabarini voizlik qilish uchun O'z O'g'lini menga zohir qilishni ma'qul ko'rganida, men shu zahotiy oq tana-yu qon bilan maslahatlashmadim va Yerusolimga mendan oldin havoriy bo'lganlarning yoniga ham bormadim, lekin Arabistonga ketib, yana Damashqqa qaytdim"- deydi (Galatiyaliklarga 1:16-17).

Havoriy Yuhanno Iso Masihning Vahiyini qayerda oldi?

"Men – Iso Masihning azobi, saltanati hamda bardoshiga sherik bo'lgan birodaringiz Yuhanno, Xudoning so'zi hamda Iso Masihning guvohligi uchun Patmos nomli orolda edim" (Vahiy 1:9).

Patmos tashlandiq orol bo'lib – u cho'lni boshdan kechirish uchun a'lo darajadagi joy edi.

Eng muhimi, siz O'z Otasining duosini olib, Muqaddas Ruh bilan to'lishib, ilohiy ravishda shaytonning vasvasalariga qarshi turish uchun cho'lga olib borilgan Iso Masihning davrasidasiz.

Men aksariyat hollarda shunday tarzda ro'y berishining guvohi bo'ldim. Xudo kelajakda biz orqali amalga oshirishga bel bog'lagan buyuk narsalarni bizga ko'rsatadi, so'ngra bizni bunga tayyorlash uchun to'ppa-to'g'ri cho'lga yetaklaydi.

Agar buyuk muqaddaslar va Rabbimiz Iso Masih cho'ldan o'tgan bo'lsa, garchi men ham boshqa yengilroq yo'l bo'lishini istasam ham, u joyda biroz vaqt o'tkazsak, yomon bo'lmasdi degan xulosaga kelaman. Cho'l – bu Xudo bizni sinaydigan, jilovlaydigan, mustahkamlaydigan

va tozalaydigan joydir. Aynan mana shu yerda U bizda ilohiy tabiatni shakllantiradi. Bu joy kelajakda, Uning shohligida mahsuldor faoliyat ko'rsatish uchun tayyorgarlik joyidir.

Eng ajablanarlisi shundaki, Xudo bu yerda bizga yangicha tarzda ochiladi! Isha'yo payg'ambar shunday deb yozgan:

“Chunki Rabbiy Sionni yupatadi, uning hamma xarobalarini yupatadi, uning sahrolarini Adan bog'idek va uning cho'llarini Rabbiyning bog'idek qiladi. Unda quvonch va shodlik, minnatdorchilik va musiqa sadolari bo'ladi” (Isha'yo 51:3).

Adan bog'i Xudo Odam Atoga O'zini namoyon qilgan va u bilan muloqotda bo'lgan joy edi.

Cho'lda bizda Rabbiyga nisbatan chanqoqlik va ochlik yuzaga keladi. Siz ko'p narsadan mahrumlikka chidaysiz va ko'proq Unga diqqat qaratasiz. Shu bois, Xudo sizga yuzlanmoqchi bo'lganida, sizga mana shunday holatda bu hayotdan voz kechib, Unga burilish oson kechadi. Agar biz Xudoning chorloviga rozi bo'lsak, cho'lga olib ketilamiz. Aynan cho'lda Xudo bizga yangicha tarzda ochiladi. Isha'yo 45:15 da aytilgan: “Haqiqatan ham Sen – El-Satar (yashirin Xudo), Isroilning Xudosi, Najotkorsan”. Xudo buni, U bilan bo'lishni kuchli istaydigan kishilar uchun amalga oshiradi, shu asnoda, insonda U bilan yaqin munosabatlardan zavqlanishga chanqoqlikni kuchaytiradi. Xuddi shuningdek, Rabbiy Unga chanqoq bo'lmagan kishilardan O'zini yashiradi. Xudo hech qachon, O'ziga nisbatan oddiy narsadek yoki o'z-o'zidan shunday bo'lishi kerak degan munosabatda bo'lishimizga yo'l qo'ymaydi.

Xudoga nisbatan ochlik

Xudo Uni chin yurakdan izlaydigan odamlarga O'zini ochadi.

Yodingizdami, Xudo isroilliklarni jilovlash va ochlikda ushlash uchun, ularni cho'lga olib chiqqanini aytgan edi. Yeshua Bin Nun bilan sodir bo'lgani kabi Xudoga nisbatan ochlikni his etishni o'rniga, xalq

Cho'ldan qanday o'tish kerak

#2 Biz o'zimizni qanchalik yolg'iz his etmaylik, Xudo biz bilan.

Cho'lining eng xavotirli tomoni – ko'pincha, Xudo bizni batamom tashlab ketgandek tuyulishidir! Siz Uning huzurini his etishga eng ko'p muhtoj bo'lgan vaqtda, U xuddi million kilometr uzoqdadek bo'lib ko'rinadi.

Siz Xudoning ikki turdagi huzurini tushunib olishingiz zarur. Birinchisi quyidagi so'zlarda o'z aksini topgan: “Men seni tark etmayman va tashlab ketmayman” (Ibroniylarga 13:5). Bu Xudoning har yerda hozirligini bildiradi. Bu shoh Dovud aytgan so'zlarda ham mujassamlashgan: “Osmonga chiqsam – Sen o'sha yerdasan, yer ostiga tushsam, u yerda ham Sen borsan” (Sanolar 137:8). Haqiqat shundaki, agar siz Yozuvga va Xudoga ishonsangiz, siz nimani his qilishingizdan yoki nimalar sodir bo'lishidan qat'iy nazar, Xudo siz bilanligini bilasiz.

Rabbiy ulardan olib qo'ygan narsalarga tashna bo'lar edilar. U Musoga o'zini ko'rsatganidek, ularga ham namoyon bo'lish uchun kelganida, ularda Xudo bilan uchrashishga xohish yo'q edi. Mohiyatan ular Xudoni rad etishdi. Qonunning takrorlanishida quyidagicha o'qiymiz:

“Sizlar zulmat ichidan ovozni eshitganingizda va tog' olovda yonayotganida, sizlar, qabilalaringizning boshliqlari va oqsoqollaringiz mening oldimga kelib, dedingizlar: “Mana, Rabbiy Xudoyimiz bizlarga O'z shuhratini va buyukligini ko'rsatdi, bizlar Uning ovozini olov ichidan eshitdik. Bugun bizlar Xudoning inson bilan gaplashishini va u tirik qolishini ko'rdik. Ammo bizlar nima uchun o'lishimiz kerak? Zero bu buyuk olov bizlarni yamlab yutadi. Agar bizlar Rabbiy

Xudo huzurining, biz yoqtiradigan va masihiylik hayotining bir qismi sanalgan boshqa ko'rinishi – bu Uning aniq namoyon bo'lishidir. “Namoyon bo'lish” ko'rinmas, eshitilmas va mavhum dunyodan ko'rinadigan, eshitiladigan va biz bilgan dunyoga o'tish degani. Mana shu narsa sodir bo'lganida, Xudo bizning jismoniy hislarimizda namoyon bo'ladi. Sajda va shaxsiy ibodat payti, o'rmonda sayr qilayotganingizda, odatiy kundalik ishlar bilan mashg'ul bo'lganingizda va boshqa siz o'ylamagan har qanday holatda, bunday uchrashuvning guvohi bo'lishingiz va bundan zavqlanishingiz mumkin.

Xullas, agar siz ruhiy och bo'lib, cho'lda tashna bo'lsangiz-u, Xudo O'zining hayratli huzuri bilan mo'jizaviy ravishda sizning yoningizga kelib, sizni marhamatlamasa, shunchaki tinchlaning va Uning va'dalariga tayaning, ularning eng muhimlaridan biri shunday jaranglaydi – “Seni qoldirmayman va tashlab ketmayman”. Biz Xudoning yaqqol namoyon bo'lgan huzurisiz ham U bilan quvonganimizda, bu bizning Unga bo'lgan sevgimizni yanada yaqqolroq ko'rsatadi.

Xudoyimizning ovozi yana eshitsak, bizlar o'lamiz. Zero biror vujud bormiki, bizga o'xshab olov ichidan gapirgan tirik Xudoning ovozi eshitgan bo'lsa va tirik qolgan bo'lsa? Sen borib, Rabbiy Xudoyimiz aytadigan gaplarning barchasiga quloq sol va Rabbiy Xudoyimiz senga aytadigan hamma gaplarni bizlarga aytib ber, bizlar esa quloq solamiz va bajaramiz” (Qonunning takrorlanishi 5:23-27).

Xullas, Xudo Musoga O'zini ochganidek, cho'lda xalqqa ham O'zini ochmoqchi edi, ammo ular ortga tisarildilar va Musoga: “Sen borib, Rabbiy Xudoyimiz aytadigan gaplarning barchasiga quloq sol va Rabbiy Xudoyimiz senga aytadigan hamma gaplarni bizlarga aytib ber, bizlar esa quloq solamiz va bajaramiz” – dedilar.

Afsuski, ular Xudoni tanib-bilmay o'lib ketishdi; ular faqat Xudo haqida bilishar edi. Aynan shuning uchun ular Xudoning amrlari bo'yicha yashay olmadilar. Ular Xudoni tanib-bilmaganlari uchun, ularga va'da qilingan yerni ko'ra olmay, umrining oxirigacha cho'lda qolib ketdilar.

Xudo bizni Yuhanno, Muso, Dovud, Yusuf, Pavlus va boshqalarga o'xshab, cho'lga olib kelganida, biz Unga tashnaligimiz yoki biz mahrum bo'lgan qulaylik va rohatli hayotga tashnaligimiz sinovdan o'tadi. Yoqub shunday deb yozgan:

“So'rayapsizlar-u, lekin olmayapsizlar, chunki hirsrlaringizni qondirish uchun yomonlikka so'rayapsizlar. Zinokorlar va fohishalar! Dunyo bilan do'stlik – Xudoga dushmanlik ekanligini bilmaysizlarmi?! Shunday qilib, kim dunyo bilan do'st bo'lishni xohlasa, u Xudoga dushman bo'ladi. Nahotki sizlar Yozuvda: “Bizning ichimizda yashayotgan Ruh rashk qadar sevadi”, – deyilgani bekor deb o'ylasangiz? Lekin U yanada ko'proq inoyat ato qiladi. Shuning uchun aytilgan: “Xudo mag'rurlarga qarshi turadi, lekin kamtarlarga inoyat ato etadi”. Shuning uchun Xudoga bo'ysuninglar, iblisga qarshi turinglar va u sizlardan qochib ketadi. Xudoga yaqinlashinglar va U sizlarga yaqinlashadi. Ey, gunohkorlar, qo'llaringizni tozalanglar! Ey, fikrida ikkilanayotganlar, yuraklaringizni poklanglar!” (Yoqub 4:3-8).

Biz Xudoni chin yuragimizdan izlab, Unga yaqinlashganimizda, U ham bizga yaqinlashadi. Isroil o'g'illarini shaxsiy istaklari (yoki hirsleri), Xudoning istaklaridan ko'ra ko'proq qiziqtirar edi. Ular bu bilan zinokorlar va fohishalardek bo'lishgan; ular bu dunyoning yo'llaridan yurib, qo'lga kiritish mumkin bo'lgan qulaylik va xavfsizlikni izlashgan. Ular hashamat va ta'minot misrliklarni va ularning qo'shinini qutqara olmaganini unutishgan.

Xudo Unga yaqinlashish uchun biz ikkita narsa qilishimiz zarurligini aytadi. Birinchidan, biz o'z qo'llarimizni tozalashimiz darkor (2-Korinfliklarga 7:1 da yozilgan):

“Shunday qilib, sevganlarim, shunday va’dalarga ega bo’lib, o’zimizni tananing va ruhning har qanday nopokligidan tozalab, Xudoning qo’rquvida muqaddasligimizni kamolotga yetkazaylik”. Gunoh bizni Xudodan ajratadi: “Lekin sizlarning qonunbuzarliklaringiz sizlar bilan Xudoyingiz orasida bo’linish olib keldi va gunohlaringiz sizlarni eshitmaslik uchun Uning yuzini sizlardan berkitmoqda” (Isha’yo 59:2).

Ikkinchidan, biz o’z yuragimizni poklashimiz lozim. Buning kaliti Yoqubning so’zlarida mujassamlashgan: “Ey, fikrida ikkilanayotganlar, yuraklaringizni poklanglar!” (4:8). Ikkilanuvchi kishilar Ruh bilan tananing o’rtasida tebranib turadilar. Ularning fikrlari va hislari Xudoga qaratilmagan. Kolosaliklarga 3:1-2 da aytilgan: “Shunday qilib, agar sizlar Masih bilan birga tirilgan bo’lsangizlar, unda yuqoridagi narsalarni, ya’ni Masih Xudoning o’ng tomonida o’tirgan joydagi narsalarni izlanglar. Yer yuzidagi narsalar emas, balki yuqoridagi narsalar haqida fikr yuritinglar”.

Siz fikrlaringiz va hislaringiz qaratilgan narsalarni jon-jahdingiz bilan izlaysiz. Bu yerdagi muhim so’z – qaratilgan hisoblanadi. Misol uchun, ayol kishining sochlarini tekislayotganlarida, uning sochlarining har bir tolasi kimyoviy o’zgarishga duchor bo’ladi. Uning sochlari bir maromda o’rama shaklga kiradi, chunki har bir qatori shu tarzda tekislanadi. Siz uni tortib, to’g’irlashingiz mumkin, lekin uni qo’yib yuborganingizda, u yana o’z holiga qaytib, tekislangan shakliga kiradi.

Odamlar jamoatga borishi, hamdu-sano jamoasida kuylashi va masihiylik faoliyatlarida ishtirok etishi mumkin, biroq ular “masihiylik” faoliyati bilan shug’ullanmaganda, ularning ongi qayerda bo’ladi? Qayerga qarab turgan bo’lsa, o’sha yerda bo’ladi. Bunday odam jamoat binosidan yoki masihiycha muhitdan chiqqani zahoti, uning ongi tekislangan soch qatorlari singari o’z holiga qaytib qolaveradi.

Men davlatimizdagi jamoatlarimizda hamdu-sanoda kuylaydigan, voizlik vaqtida tushunganlarini yozib oladigan va hatto vaqtini

jamoatdagi turli xizmatlarga bag'ishlaydigan har xil odamlar bilan gaplashganman. Albatta, bularning bari yomon emas, ammo jamoat yig'inlari bilan xolisona xizmatlarning o'rtasida, ularning bilgan gapi bu pul, professional sport, kiyim, ijtimoiy tarmoqlardagi yangiliklar, shaxsiy qiziqishlari, yigitlar va qizlar, yegulik, xarid qilgan narsalari, telefon uchun sevimli ilova va boshqa dunyoviy narsalardir. Ular yuqoridagi narsalarni gapirganida, yuzlari porlab ketadi, biroq Muqaddas Kitobni o'qiganlarida, ibodat va voizlik qilganlarida, odamlarga yordam berganlarida va hatto jamoatga borganlarida – bularni o'z burchini bajarish uchungina bajaradilar.

Yigit qiz bolani sevib qolib, u bilan nikoh tuzish uchun unashtirilganda, uni bo'lajak rafiqasi haqida o'ylashga va gapirishga majburlashning hojati yo'q. U doim yigitning fikrida bo'ladi va yigit uning ismini tilga olganida ovozi o'zgarib ketadi. Buning sababi uning qizga bo'lgan sevgisidir. Uning yuragi qizga qaratilgan. U boshqa qizlar haqida o'ylamaydi. U sevib qolgan!

Dovud 15-sano 8-oyatda "Men Rabbiyni doimo ko'z o'ngimda tutdim" deydi. Uning ongi riyokor bo'lmagan. Uning yuragi toza edi. Uning yuragida Rabbiy bilan birdek sevadigan boshqa narsalar bo'lmagan. Uning Xudoga bo'lgan sevgisi bu dunyo taklif qilishi mumkin bo'lgan har qanday ezgulikni to'sib qo'ygan. Biz biror narsani Isodan ko'ra ko'proq sevsak yoki Undan ko'ra boshqa narsaga ko'proq tayansak, bu but hisoblanadi. Dovud quyidagicha yozgan:

"Kim Rabbiyning tog'iga chiqa oladi? Yoki kim Uning muqaddas joyida tura oladi? Kimning qo'li pok va yuragi toza bo'lsa, kim jonini behudalikka og'dirmagan va yolg'on qasam ichmagan bo'lsa" (Sanolar 23:3-4).

Isoni hammadan ko'ra ortiqroq sevadigan, har narsadan ko'ra ko'proq yoqtiradigan, Unga hammadan ko'ra kuchliroq tayanadigan inson pok yurakli inson hisoblanadi. Iso Masih Matto 10:7 da: "Kim

o'z otasi yoki onasini Mendan ko'ra ko'proq sevs, u Menga loyiq emas; kim o'z o'g'lini yoki qizini Mendan ko'ra ko'proq sevs, Menga loyiq emas" – deydi.

Keling, cho'lda bo'lgan davrida, yerlik hayotini kuchli sevgani uchun, Xudoni tanib-bilish imkoniyatini qo'ldan boy bergan isroilliklarga o'xshamaylik.

Isha'yo 35:1-2 da aytilgan:

"Sahro va quruq cho'l shodlanadi, dasht quvonadi va nargis guli kabi yashnaydi. U qiyg'os gullaydi, quvonib va hayqirib shodlanadi. Lebanonning shuhrati va Karmel bilan Sharonning ulug'vorligi unga beriladi. Ular Rabbiyning shuhratini, bizning Xudoyimizning buyukligini ko'radilar".

Xudoning sharafi aynan cho'lda namoyon bo'ladi.

Keling, bizgacha yashab o'tgan ulug' muqaddaslarning davrasiga qo'shilamiz. Keling, Dovud, Muso, Pavlus, Yusuf va boshqa buyuk erkak va ayollar singari, Xudoga pok qo'llar va yurak bilan yaqinlashamiz!

3


ZARUR BO'LGAN CHO'L

Fikran boshdan kechirganlaringizni esga oling. Rabbiy sizni qay tarzda cho'lda boshqargani, sizni oziqlantirgani va har kuni kiyintirgani to'g'risida mulohaza yuriting. Xudo qay tarzda sizning yomon xulqingizga chidagani, sizning nolishlaringizga ko'ngani va "Misrning hissiy lazzatlari"ni qumsashlaringizga bardosh berganini eslang. Rabbiyning inoyati sizning barcha musibatlaringizni qoplashga yetarli bo'lgani haqida o'ylab ko'ring".

– Charlz Sperjen

"...Rabbiy Xudoying seni bo'ysundirish uchun, seni sinash uchun va yuragingda nima borligini bilish uchun seni sahrodan olib o'tdi".

– Qonunning takrorlanishi 8:2



Men ilk bora cho'lda bo'lganimda, bu men uchun butkul kutilmagan hodisa edi. Ochig'ini aytsam, mening Masihga ergashgan birinchi yillarim uzaytirilgan asal oyiga o'xshab ketar edi. O'shanda biz Liza bilan Texas shtatining Dallas shahriga ko'chib o'tdik. Men o'sha yerda bir qancha vaqt muhandis bo'lib ishlaganimdan so'ng, jamoatimizda xizmat mansabiga tayinlandim. Mening "ishim" cho'ponimga va uning rafiqasiga xizmat qilish hamda bizning katta jamoatimizga keladigan mehmon voizxonlarni kutib olish edi. Men bundan juda mamnun edim! O'zimni, xuddi samoga tushib qolgandek his etardim. Bizning jamoatimiz Amerikadagi eng mashhur jamoatlardan biri bo'lgani sababli, men yer sayyorasidagi eng buyuk Ruhiy xizmatchilarni kutib olar edim.

Bu milliy va xalqaro xizmatchilar aeroportga kelganlarida, men ularni qarshi olar va jamoatga yoki tunash uchun qoladigan joyiga eltib qo'yar edim. Ular bizning jamoatimizda mehmon bo'lgan vaqti mobaynida, men ularni olib yurar va ular bilan tushlik qilar edim. Men bizning kunlarimizdagi buyuk xizmatkorlarning ayrimlari bilan ko'p soatlab birga vaqt o'tkazganman. Mening birinchi yillardagi xizmatim aql bovar qilmas darajada hayot bilan to'lib-toshgan edi.

Ammo keyinchalik hayotimda qiyinchiliklar boshlandi. O'ta ulkan qiyinchiliklar. O'sha vaqt men cho'lga yuborilganimni bilmas edim, negaki Xudo buni menga ochmagan edi. Cho'l Xudo bizni

tayyorlaydigan joy. Bu joyda bizning tabiatimiz shakllanadi va imonimiz mustahkamlanadi. Bu zarur bo'lgan cho'l.

Quyidagilarni ko'z oldingizga keltirib ko'ring: siz bir umr qullikda yashagan isroilliksiz va yaqindagina ozodlikka chiqdingiz. Siz haligina qo'rqinchli va hayajonli hislarni boshdan kechirgan edingiz: siz ikki tomondan to'liqlanib, qaynab turgan suvli devorning o'rtasidan o'tdingiz. Qayrilib, ortga qaraganingizda, o'sha sizni himoya qilib turgan devorlar dushmanlaringizni yutib yuborganini ko'rdingiz. Sizga tazyiq o'tkazadigan kishilar umrbod qirib tashlandilar! Siz Xudoning g'olibona xaloskorligini ko'rib, quvonch bilan shodlandingiz va raqsga tushdingiz. Xudo siz tomondaligini bilib, o'zingizni yengilmas deb his etdingiz. Uning kuchi va sadoqatiga endi hech qachon shubhalanmaslikka qaror qildingiz.

Biroq hozir hammasi boshqacha. Bir necha kun o'tib, siz toliqqan, chanqagan va issiqdan charchagan holda o'tiribsiz. Siz hali "va'da qilingan" yerning bo'sag'asida ham emassiz; buning o'rniga, ilon va chayonlar bilan liq to'la cho'lda maqsadsiz kezib yuribsiz. Siz endi otliqlari otlari bilan birga dengizga g'arq bo'lgani haqidagi qo'shiqni kuylamayapsiz va raqsga tushmayapsiz, balki rahbaringizga: "Nega sen bizni Misrdan olib chiqding? Bizni, bolalarimizni va chorvamizni qurg'oqchilikdan halok qilish uchun olib chiqdingmi?" – deb shikoyat qilyapsiz.

Endi siz haqingizda gaplashamiz. Xudo sizni faqatgina sarosima va jimjitlik hukm suradigan cho'lda maqsadsizlikda va noaniqlikda kezishga tashlab qo'yish uchun, buyuk qudrati bilan dushmanning qo'lidan ozod qilganiga chindan ham ishonasizmi? Albatta, yo'q! Shunchaki siz va'da qilingan yerga kirishingiz uchun cho'ldan o'tishingiz zarur.

Rabbiy isroilliklarni Misrdan cho'lga olib bordi; sizni ham xuddi shunday olib bormoqda. Sizni cho'lga shayton emas, Xudo olib keldi. Ushbu sahroda Uning siz uchun g'ayritabiiy rejasi bor. U bizni avval jilovlaydi, so'ng sinaydi. U bu narsani, biz o'z yuragimizning haqiqiy ahvolini bilib olishimiz uchun qiladi.

U bizni qanday qilib jilovlaydi? "U seni bo'ysundirar edi, ochlikdan

tinkangni quritar edi va manna bilan seni boqar edi” (Qonunning takrorlanishi 8:3). U isroilliklarning och qolishiga yo’l qo’yib, ularni jilovlar edi. Biroq keyin, U shu zahoti ularni manna bilan ta’minlar edi. Bu ziddiyatli harakatlar bo’lib ko’rinishi mumkin. U qanday qilib ularni ochlikda qoldirib, so’ng manna bilan oziqlantirdi?

Manna – bu eng oliy ozuqa; u farishtalarning ovqati! Ilyos mannadan tayyorlangan ikkita kulchani yeb, qirq kunlik yo’lni bosib o’tish uchun kuch olgan. Isroilliklarda esa manna to’la-to’kislikda edi. Ular olti kun davomida, har ertalab samodan yangi yog’ilgan mannalarni terib olar edilar, oltinchi kun yiqqan mannalar, yettinchi kunga mo’jizaviy ravishda saqlanib qolar edi. Isroilliklar Xudo ularga manna berishni boshlagan birinchi kundan boshlab, to va’da qilingan Yerning chegarasida ikkita qarorgohga bo’linmagunlaricha, biror kun mannasiz qolmadilar.

Unda Xudo nega: “Seni ochlikda tinkangni quritar edim” – demoqda? U qanday ochlik haqida gapirmoqda? Buni tushunish uchun ularning qanday holatda bo’lganini ko’z oldingizga keltirib ko’ring. Tasavvur qiling, siz nonushtaga ham, tushlikka ham, kechlikka ham faqat non yeysiz. Yog’, yer yong’oqli yog’, murabbo, yaxna yoki baliq bilan emas; nonning o’zi. Ular shu tarzda bir necha kun emas, balki butun qirq yil davomida oziqlandilar!

Men yoshlar cho’poni bo’lganimda, biz ellik oltita yoshlar bilan Trinidadga sakkiz kunlik xizmat uchun sayohatga bordik. Trinidaddagi jamoat bizga ovqat tayyorlar edi va ular juda saxiy edilar. Biroq biz har kuni tovuq go’sht yer edik. Ular tovuqni turli tarzda tayyorlashar va bizga guruch, sabzavotlar bilan tortiq qilishar edi, ammo dasturxonda doim tovuq bo’lar edi.

Sakkiz kun tovuq yegach, biz boshqa narsalarga nisbatan ochlikni sezdik. Ortga qaytganimizda, jamoamizdagi bir bola uyiga kelgach, onasidan tushlikka nima tayyorlaganini so’raganida, onasi unga: “Tovuq” – deyishi bilan, qichqirib yubordi va unga gamburger sotib olib berishini iltimos qildi.

Trinidadda biz bor-yo'g'i sakkiz kundan so'ng yashirincha shikoyat qildik; endi qirq yilni tasavvur etib ko'rolasizmi? To'rt yil emas, qirq yil davomida bir xil ovqat! Xudo ularni ochlikdan tinkasini quritganini endi tushunamiz. Xudo ular istagan narsani bermadi, shunga qaramay, ular tirik va sog'lom bo'lishi uchun, ularga chindan ham zarur bo'lgan ozuqani berdi.

Ularning vaziyatida, ular ega bo'lmagan yana nimaga erishishga intildilar? Biz bu voqeani o'qiganimizda, ularning kiyimi va poyabzali eskirmaganini o'qib, hayratda qolamiz; iqtisodiy tomondan oila uchun bu naqadar tejalish! Nahotki siz qirq yil davomida bir xil kiyinishni istasangiz? Bu zerikarli-ku! Birorta ham shahobchaga bormaysiz yoki internet orqali chiroyli kiyimlarni buyurtma bermaysiz. Qirq yil davomida bitta malla shippakni kiyib yurasiz!

Ha, ularning eng muhim ehtiyoji hisoblangan – issiqdan va sovuqdan himoya – qondirildi, biroq ular ega bo'lishni istagan narsalar juda ko'p edi.

Cho'ldagi har kungi bir xillik haqida ham o'ylab ko'ring, - bu bir necha haftaga emas, balki qirq yilga cho'zilgan. Siz shildiragan jilg'alar, gurkiragan o'rmon, xushmanzara uzumzor va chiroyli ko'llardan mahrum bo'lib, kun sayin bir xil qumanjir, qamish va qurub ketgan yerni – faqat cho'lni ko'rishni xohlarmidingiz?

Ular o'zlari istagan narsalarga emas, ular uchun zarur bo'lgan narsalarga ega edilar. Bularni tushungan holda, keling, bu oyatni yana bir bor o'qib chiqamiz:

“U seni bo'ysundirar edi, ochlikdan tinkangni quritar edi va sen ham, sening otalaring ham bilmagan manna bilan seni boqar edi, toki senga inson faqat non bilan emas, balki Xudoning og'zidan chiqadigan har bir so'z bilan tirik ekanligini ko'rsatsin” (Qonunning takrorlanishi 8:3).

Xudo ularning tanasi istagan va intilgan narsalaridan mahrum qilib, ochlikda qoldirdi, ammo ularning hayotiy muhim ehtiyojlarini

Cho'ldan qanday o'tish kerak

#3 Vaziyatni o'z qo'lingizga olish vasvasasiga qarshi turing.

Oramizda mustaqil va faol bo'lgan kishilar uchun, cho'ldagi eng kata sanalgan vasvasa – o'z kuchimiz bilan qandaydir chora ko'rishni boshlashga kirishish hisoblanadi. Rabbiy bizni tashlab ketgandek va U bizdan million kilometr uzoqdadek tuyulgan paytda, Uning shohligida nimadir qilish uchun eng kamtarona harakatlarimiz ham muvaffaqiyatsizlikka uchrayverganda, ibodat soatlarimiz ko'kargan tizzalardan boshqa hech narsani bermaganda, nimadir sodir bo'lishi uchun, noumidlik bilan tavakkal, to'g'ri kelgan ishni qilishni boshlaymiz. Bu yomon fikr. Aslida, cho'lda juda kam narsa bo'ladi; u yerda faqat ozroq suv va bir xil ozuqa bor. Bu qurg'oqchilikda, hayot biz qila oladigan ishlarimizdan va ega bo'lgan narsalarimizdan ancha kattaroq ekanini o'rganamiz. Hayotning mazmuni – Xudoni yaqindan bilish va Uning xohishlarini har kuni bajarishdir.

qondirishda davom etdi. Bu ochlik ularni sinadi: Xudo ular qoldirib kelgan narsalaridan ko'ra Xudo bilan bo'lishni istaydilarmi, yo'qmi buni ko'rishni istadi. Ular Xudoni izlaydilar yoki tanasi sog'ingan narsalarnimi? Ular haqlikka tashna va och bo'ladilar yoki qulay hayot va rohatgami? Afsuski, isroilliklarning yuragi tashnalik va ochlikni qondiradigan Yagona shaxsga qaratilmagan edi, shu bois, ular bu sinovdan yiqildilar:

“Ularning oralaridagi musofirlar ochko'zlik qila boshladilar. Ular bilan birga Isroil o'g'illari ham yana yig'lab, dedilar: “Kim bizlarni go'sht bilan boqadi? Bizlar Misrda tekinga yegan baliq, bodringlar, qovunlar, ko'k piyoz, boshpiyoz va sarimsoqlar

Cho'l mavsumlaridan birida, mening har bir kunim bir haftadek – haftalarim oylardek tuyular edi, negaki menda maqsad, olov va intilish qariyb yo'q edi. Lekin men o'z yo'limni davom ettirishim zarur edi. Men yurishda davom etishim, yuragimda jo bo'lgan Xudoning So'zi bilan oziqlanishim, a'lo darajada xizmat qilishim, yig'inlarga kelishim va sabrsizlik oqibatida yuzaga keladigan beo'rin harakatlardan o'zimni tiyishim lozim edi. Men o'zimga Xudo istagan joydaligimni doim ta'kidlab turishim kerak edi. Xudo esa vaqtini behuda sarflamas edi va O'z va'dasini amalga oshirish niyatiga ega edi.

Albatta, cho'l – bu shaxsiy taraqqiyot yo'li emas. Yodingizdami, cho'lda siz tozalanish va tayyorgarlikdan o'tasiz, shu bois, siz har qanday gunohli vasvasaga qarshi turish va uni yengish uchun g'ayrat qilishingiz zarur.

Rabbiy cho'lda qurgan yo'lda bo'lganingizda, doim U bilan birga yuring. Xudo sizningcha, juda sekin harakatlanayotgani uchun, Uni uzib o'tish vasvasasiga yo'liqmang.

yodimizda, endi esa jonimiz o'rtanmoqda; hech narsa yo'q, ko'z o'ngimizda faqat manna" (Sonlar 11:4-6).

Ular Misrda qoldirgan narsalarini qumsar edilar. Hatto zulm ostidagi qullik, Xudo olib borgan quruq yerdan afzalroq tuyular edi. Ular go'sht so'rab, yig'lab, shikoyat qilishni va nolishni boshladilar. Va Xudo ularning faryodini eshitdi:

"Ular (go'sht, ya'ni bedanalarni) yeb to'ydilar, ularga istaganlarini berdi. Xudo ularning xohishini bajardi, biroq ularning qalbiga yara yubordi" (Sanolar 77:29; 105:15).

Ular o'zlari istagan narsani qo'lga kiritdilar, ammo bu ularga qimmatga tushdi. Ular go'sht bilan birga qalblari uchun yarani ham orttirdilar. Bu yara yoki zaiflik tufayli holdan toyishni boshladilar va sinovdan o'tishga madorsiz bo'lib qoldilar, natijada, shu asnoda ular va'da qilingan Yerga kira olmadilar. Ularning gunohi go'sht so'ragani emas, balki ular buni qanday tarzda so'ragani edi. Ular bu bilan Xudoga, Uning g'amxo'rligiga va Xudo ularni bu yerga olib kelganiga nisbatan noroziligini bildirdilar. Qolaversa, bu ular Misrda qoldirib kelgan hayotga nisbitan kuchli ishtiyoqini ham ko'rsatdi. Ular Misrda qul bo'lganlarini unutib, u yerdagi yoqimli lahzalarni eslar edilar.

Bu har birimiz uchun hushni joyga soladigan misol. Bordi-yu, biz va'da berganning O'ziga emas, nuqul va'dalarning afzalliklariga intilsak, cho'limizdan o'tish uchun zarur bo'lgan kuchdan mahrum bo'lamiz. Biz eski yaxshi kunlarni qumsashimiz muqarrar, agar haqiqatning yuziga qaraydigan bo'lsak, Xudosiz o'tgan kunlarimiz umuman yaxshi bo'lmagan, bu qullikdagi kunlar bo'lgan.

Xudoni, siz uchun biror narsani amalga oshirishi yoki sizga biror narsa berishi uchun izlash – bitta narsa. Rabbiyni Uni tanib-bilish uchun izlash – umuman boshqa narsa. Birinchi yo'l manfaatparaslik va xudbin niyat bo'lib, bu kamida, Xudo bilan yetilmagan munosabatlarga olib keladi. Xudoni O'zini tanib-bilish uchun Uni izlash esa, biz barchamiz istaydigan yaqin va kuchli munosabatlarni quradi.

Muqaddas kamchilik

Kutilgandek, qurg'oqchil cho'l imkoniyatlarning cheklanganligini – jumladan, vaqtning tanqisligini, istagan narsangizni emas, hissiy, jismoniy va moddiy zarur bo'lgan narsanigina olishingizni ko'zda tutadi. Xudo bizning muhim ehtiyojlarimiz uchun g'amxo'rlik qilishga va'da bergan; shu bois, U cho'lda hamma narsani to'la-to'kislikda ta'minlamaydi, balki kunlik nonimizni beradi.

Amerikada odamlar yaxshi davrlarni boshdan kechirganida,

saralangan go'sht bo'lagini yeymiz, deydilar. Cho'lda esa go'sht umuman yo'q. Bu kechinma turli xildagi yo'qchiliklarni o'z ichiga oladi. Bu siz istagan hayot emas, sizga zarur bo'lgan ijtimoiy hayot beriladigan vaqtdir. Cho'lda Xudo sizga ruhan nima kerakligini biladi, biroq bu sizningcha kerak bo'lgan narsa bo'lmasligi mumkin! Bu mavsumda U bizning istaklarimizni emas, balki ehtiyojlarimizni ta'minlaydi.

Cho'lning maqsadi – bizni tozalash va mustahkamlashdir. Biz Uning ta'minotini emas, Uning yuragini izlashimiz zarur. O'shanda, farovonlik vaqtlari kelganida, Rabbiiy Xudoyimiz O'z ahdini o'rnatish uchun farovonlik berishini yodda tutamiz (Qonunning takrorlanishi 8:2-18).

Jiddiy muammo shundaki – bizning muhtojlik va istaklarimizga bergan ta'rifimiz, voqelikdan farq qiladi. Biz o'z istaklarimizni muhtojlik deb ataymiz, garchi bu shunday bo'lmasa-da! Ehtimol, ko'pchiligimiz Pavlus quyida nimani nazarda tutganini tushunib yetishimiz lozimdir:

“Men buni muhtoj bo'lganim uchun gapirmayapman, chunki menda bori bilan qanoatlanishga o'rganib qoldim (shu darajada qanoatlanganmanki, tashvishlanmayman va bezovta bo'lmayman): men yetishmovchilikda ham, mo'lichilikda ham qanday yashashni bilaman. Har yerda va hamma narsada to'q bo'lishni, ochlikka toqat qilishni, mo'lichilikda va muhtojlikda bo'lishni o'rgandim. Meni qo'llab-quvvatlayotgan Iso Masihda men hamma narsa qila olaman” (Filippiliklarga 4:11-13).

Pavlus Masihning kuchi bilan, yetishmovchilikda ham, mo'lichilikda ham bir xil qanoatli bo'lishni o'rgangan. Menimcha, biz G'arbdagi jamoatlar qanoatli bo'lishga hech o'rganmadik-da, afsuski, ko'pchilik mo'lichilikda yashaydiganlar, yetishmovchilikda yashaydiganlardan qanoatliroq emas. Bordi-yu, bizning fikrimizcha, biz ega bo'lishga haqli bo'lgan narsalarni qo'lga kirita olmasak, o'zimizni bir narsadan quruq qolgandek hisoblaymiz. Biz odamlarning ruhiy holatini, ularning fe'l-atvori va imoniga emas, ularning mulkiga, yutug'iga yoki ijtimoiy vaziyatiga qarab baholaymiz.

Isroil misrliklardan – kumush va tillodan boʻlgan buyumlar va koʻrkam kiyimlarni yigʻib olib, ulkan boylik bilan Misrdan chiqdi. Biroq ular bu qimmatli buyumlardan choʻlda but yasash uchun, koʻrkam kiyimlardan esa butning qarshisida raqsga tushish uchun foydalandilar. Shubhasiz, boylik ularning xudojoʻyligining belgisi emas edi, aksincha. Chiqishning faqat ikkita ishtirokchisi vaʼda qilingan Yerga kirishga va uni qoʻlga kiritishga imkon beradigan axloqqa ega edilar. Vaʼda qilingan yerga faqat Yeshua Bin Nun va Kaleb kira oldilar, chunki ularda boshqacha ruh bor edi – ular Xudoga butkul itoat etdilar (Sonlar 14:24).

Bordi-yu, biz bir-birimizni kimligimizga qarab emas, nimaga ega ekanimizga qarab baholaydigan boʻlsak, unda bizning qadriyatlarimiz buzilgan. Boshqa tomondan, aksariyat hollarda, masihiylar moddiy farovonlikka yetganida yoki boshqaruvchilik mansabini va nufuzli mansabni egallaganlarida, bu Xudo ularga, kallasiga kelgan ishni qilishi uchun ruxsat beradigandek boʻlib tuyulishi mumkin! Bunday odamlar odatda istagan narsalarini xarid qilishadi, pullarini oʻz istaklarini qondirish uchun sarflashadi yoki oʻz nufuzidan shaxsiy maqsadlari yoʻlida foydalanadilar. Bunday yoʻl tutadigan odamlar, choʻl mavsumidagi sinovlardan oʻta olmaganini koʻrsatadi. Aslida, moliyaviy moʻlchilik va katta hokimiyat bizni Xudoning maqsadlari va boshqaruvining ortidan borish uchun, Unga bogʻliq boʻlishga olib kelishi lozim.

Iso Oʻzining xizmatiga qanday yondoshgani toʻgʻrisida fikr yuritib koʻring. Unda xudbin niyatlar boʻlmagan. U bizning gunohlarimiz, kasalliklarimiz va oʻlimga mahkumligimizni Oʻz yelkasiga oldi. U bizning farovonligimizni Oʻzinikidan ustun qoʻydi, garchi U birorta ham gunohda aybdor emas edi. Uning hayotining va xizmatining maqsadi manfaat boʻlmagan. U Oʻzidan kechdi va bizga eng buyuk inʼom – abadiy hayotni sovgʻa qildi.


O‘ZARO MUNOSABATLAR

“Ichki dunyo tartibga solingan zahoti, hayratlanarli darajada, qanchadan-qancha qiyinchiliklar o‘z-o‘zidan g‘oyib bo‘ladi”.

– E. U. Tozer

“Agar Meni sevsangizlar, Mening amrlarimga rioya qilinglar”.

– Yuhanno 14:15



Xudo bizni sahroga yuborganida, shaxsan O'zi uchun nimani istaydi? Yuqorida cho'l bizga beradigan bir nechta imtiyozlarni tilga olib o'tdik va buni davom ettiramiz, ammo bizning cho'ldan o'tishimizda, Xudo uchun ham qandaydir foyda bormi? Ha, albatta. U bizning O'zi bilan o'zaro muloqotimizning darajasini o'stirishni xohlaydi. Biz U bilan yaqin bo'lishimizni istaydi. Afsuski, aksariyatimiz, Xudo bilan munosabatlarimizdan shaxsiy maqsadlarimizda foydalanishga moyilmiz, shu tarzda, Unga bo'lgan sevgimiz sovishiga yo'l qo'yib beramiz.

Men Liza bilan unashtirilgan paytlarim, butun fikr-u hayolim unda edi. Men to'xtovsiz u haqida o'ylar edim. U bilan ko'proq vaqt o'tkazish uchun hamma narsaga tayyor edim. Agar unga biror narsa kerak bo'lsa, nima bilan band bo'lishimdan qat'iy nazar, mashinamda uchib borib, unga shu narsani olib kelar edim.

Yodimda, bir marta uning ota-onasining uyida taxminan besh soat birga vaqt o'tkazdik. Men ularnikidan arang ketdim. Uyimga kelgan zahotim, telefonim jiringlab qoldi. Bu Liza edi. U muloyim va maftunkor ovozi bilan: "Azizim, kostyumingizni biznikida qoldirib ketibsiz" – dedi.

Bu mening quloqlarimga yoqimli musiqadek yoqdi. Uzoq o'ylab o'tirmasdan, javob berdim: "Unda hozirning o'zida borib, uni olib kelishim shart".

Men ularnikiga qaytib bordim va biz yana uch-to'rt soat birga vaqt o'tkazdik. Bu ajoyib kun edi.

O'sha vaqtlarda, bordi-yu, Liza menga qo'ng'iroq qilib: "Azizim, men muzqaymoq yeyishni xohlayapman" – desa bormi, men quvonch bilan: "Men o'n daqiqada sening uyingda bo'laman! Muzqaymoqning mazasi qanday bo'lsin? – deb javob bergan bo'lar edim. Men o'sha paytlarda u bilan vaqt o'tkazish uchun fursat va bahona izlab yurar edim. Unga bo'lgan kuchli sevgim tufayli, u istagan narsalarni amalga oshirishdan, o'zimni baxtiyor sezardim. Men bu narsalarni unga bo'lgan sevgimni isbotlash uchun emas, balki uni sevganim uchun qilar edim.

Odamlarga u haqida aytish uchun, o'zimni majburlashning hojati yo'q edi... eshitisga tayyor bo'lgan har bitta kishiga Lizani maqtar edim. Agar biror kishi bilan muloqotimiz to'xtab qolsa, shu zahoti o'ylanmay, mavzuni o'zgartirib, Liza va kelajakdagi to'yimiz haqida gapirishni boshlar edim. Men sevib qolgan edim!

Biroq oila qurganimizdan so'ng, bir necha yil o'tib, mening diqqatim boshqa narsalarga, jumladan sport, do'stlarim bilan muloqot va ayniqsa, xizmatimdagi ishimga ko'proq qaratila boshladi. Menda u bilan vaqt o'tkazishni yoki birgalikda nimadir qilish istagi yo'q edi. Liza haqida oldingidek, ko'p o'ylamay qo'ydim. Unga faqat Tavallud ayyomida, to'yimiz kunida va tug'ilgan kunlarda sovg'a berar edim, hatto shuni ham qilishga menda istak yo'q edi. Bir kuni sevishganlar kunida unga sovg'a olishni unutib qo'ydim. U qattiq xafa bo'ldi. Meni esa undan kechirim so'rashdan bo'lak, ilojim yo'q edi. Eng ma'yus tomoni, men o'sha vaqtda hali g'o'r bo'lganim tufayli, nikohimiz mavsumlarining belgilarini tushunmaganman. Bir muncha vaqt o'tib, bizning munosabatlarimiz tanglashib qoldi; mening birinchi muhabbatim yakun topayotgan edi!

Shukurki, oxir-oqibat, Xudo e'tiborimni O'ziga tortdi va yuragimni o'zgartirdi. U men naqadar xudbin bo'lib ketganimni ko'rishimga imkon yaratdi. Xudo O'zining shafqati bilan bizning sevgimiz gulxanini qayta yoqdi va munosabatlarimizni shifoladi.

Xudo bilan munosabatlarimizda ham shunga o'xshash holat yuz berishi mumkin. Masihning ko'pchilik izdoshlari muayyan

qulaylik doirasiga yoki bosqichiga erishadilar-da, boshqa narsalarga intilishni to'xtatib, shu holatini saqlab qolishga urinadilar. Xudoga chanqoqligini yo'qotadilar. Ular o'zlarini boshqalar bilan qiyoslab yoki yetarli deb hisoblagan pog'onaga tayanib, o'zining ruhiy qoliplarini o'rnatadilar. Ular Xudoni Shaxs sifatida chuqurroq tanib-bilishga intilmay qo'yadilar. Diqqat markazda kundalik vazifalar, yutuqlarga intilish va bu dunyoning tashvishlari turadi. Ular endi Xudoni tanib-bilish uchun emas, Undan marhamat olish uchun izlaydilar. Odamlar Xudodan o'zi tomonga burilib, yuraklarida adashadilar. Ehtimol, ular masihiylar bilan do'stona munosabatlarni davom ettirar va Jamoatda o'z holatini yoki mavqeini qurib borar, biroq ular allaqachon, ularga hayot Beradiganni izlamay qo'yadilar.

Biz Xudoni U bilan yaqin munosabat uchun emas, balki o'z foydamiz va baraka olish uchun Uni izlasak, osonlikcha adashib ketamiz. Keling, haqqoniy bo'lamiz: biz ibodat qilganimiz uchun o'zimizni maqtaymiz, ammo agarda biz bunga Xudoning ko'zlari bilan qaraganimizda edi, biz Undan foydalanishga urinayotganimizni ko'rar edik. Biz Xudoni muhtojlik paytida murojaat qiladigan yordam manbasi darajasiga tushurib qo'yganimiz. U bizni kuchli sevgani sababli, bizni bunday yolg'onda qoldirib qo'ymaydi. Iso Masih Uni izlagan buyuk olomon uchun nima degan bo'lsa, bizga ham shunday deydi:

“Keyingi kuni dengizning o'sha qirg'og'ida turgan xalq, Iso ham, Uning shogirdlari ham bu yerda yo'qligini ko'rganlarida, ular qayiq'larga tushdilar va Isoni izlab Kafarnahumga suzib keldilar. Isoni dengizning u tomonida ko'rib, Unga: – Ravviy, Sen qachon bu yerga kelding? – dedilar. Iso ularga javoban dedi: – Rostini, sizlarga rostini aytaman, sizlar mo'jizalar ko'rganingiz uchun emas, balki non yeb to'yganingiz uchun Meni izlayapsizlar” (Yuhanno 6:22-26).

Iso bizning harakatlarimizdagi niyatni biladi. Tumonat odam Uni izlab kelganida, ularni mo'jiza va alomatlarni ko'rish va tushunish

emas, boshqa narsa (tekin tushlik) qiziqtirishini fahmladi. Alomatlar yo'nalish yoki ma'lumot beradi; u o'zini tasdiqlamaydi. Olomon Isoni tasdiqlaydigan alomatlarining ortidan emas, balki o'z qorinlarini to'ldirish uchun yurganini bilar edi.

Sizga faqat biror narsaga muhtoj bo'lganida yoki sizdan biror narsa undirish uchun qo'ng'iroq qiladigan tanishlaringiz bormi? Yoki yanada yomoni, siz bilan do'st bo'lishni istayotgandek tuyulib, aslida sizdan biror narsa – mansab, pul yoki moddiy yordamni qo'lga kiritishni ko'zlagan odamlar bilan muloqotda bo'lganmisiz? Bu odam sizga nisbatan samimiy g'amxo'rlik yoki sevgiga ega emas; shunchaki qandaydir vaqt siz uning maqsadi bo'lib xizmat qilishingizni ko'zlaydi. Kimdir sizdan shu tarzda foydalanishi juda yoqimsiz!

Bunday xudbin munosabatlar bizning jamiyatimizga ham, qolaversa, Masihning Tanasiga ham kirib olgan. Jamoatdagi ko'pchilik norozi bo'lib yurishadi; ularning Masihga bo'lgan sevgisi sovib qolgan. Ular Rabbiyga nisbatan ishtiyoqli sevgisi tufayli emas, balki shaxsiy foydasini ko'zlab xizmat qiladilar. Qisqasi, Xudo ularning istaklarini bajo qilib tursa, ular baxtiyor bo'ladilar va Undan ilhomlanadilar. Biroq muammolar kelganida va hayot qiyinlashganida, ularning yuragidagi haqiqiy niyatlari yuzaga chiqishni boshlaydi.

Har safar, inson o'ziga diqqat qaratganida, nolishga duchor bo'ladi. Nima uchun? Negaki, hammamiz bir kuni muammo va qiyinchiliklarga duch kelamiz. Bu narsalar kelganida, biz xudbinlik bilan alangalangan shikoyatlar bildirishni boshlaymiz. Qiyinchilik cho'zilgan sari, norozilik ham cho'zilaveradi. Biz isroilliklarning hayotida buning guvohi bo'lamiz. Rabbiy odamlarni fir'avn hukmdorligidagi misr qulligining dahshatlaridan ozod qilgach, ular xursand bo'lishdi:

“Aharonning singlisi, payg'ambar Maryam childirmani qo'lga oldi va hamma ayollar childirma chalib va raqsga tushib unga ergashdilar. Maryam ularning oldidan borib, qo'shiq kuyladi: “Rabbiyga kuylanglar! Zero U ulug'vor yuksaldi, otni va uning chavandozini dengizga uloqtirdi!” (Chiqish 15:20-21).

Isroilliklarning quvonchining cheki yo'q edi. Isroilliklar ularni zolimning qo'lidano qutqargan Xudoning buyukligi, mo'jizaviy qudrati va Uning ezguligidan lol qolgan edilar. Biroq atigi uch kundan so'ng, cho'ldagi So'ring achchiq suviga yetib kelganlarida, nolishni boshladilar: "Endi nima ichamiz?" (Chiqish 15:24). Ularning shikoyati ma'nosiz edi. Nahotki, yaqindagina Qizil dengizni ikkiga bo'lgan Xudo, ichish uchun suv bera olmasa? Nahotki, uch kun oldingi o'sha qahramon Muso o'zgarib qolgan bo'lsa?

Aslida, Xudo achchiq suvni shirin suvga aylantirdi. Ammo bu mo'jiza ham uch kunda unutilib ketdi. Bir necha kundan so'ng odamlar yana nolishni boshladilar, bu safar endi ovqat deb. Ular: "Xudo bizni ozod qilishidan oldingi hayotimiz yaxshiroq edi" – deb vaysadilar. Rostdanmi? Nahotki g'isht yasash va qo'riqchilarning belidagi qamchisining zarbalarini his etish yaxshiroq bo'lsa?

"Isroil o'g'illarining butun jamoasi sahroda Muso bilan Aharonga nolidilar va Isroil o'g'illari: "Qaniydi, bizlar Misr yerida go'sht solingan qozon boshida o'tirganimizda to'ygunimizcha non yeyayotgan vaqtimizda Rabbiyning qo'lidano o'lganimizda edi! Sizlar butun jamoani ochlikdan o'ldirish uchun bizni bu sahroga olib keldinglar" (Chiqish 16:2-3).

Og'irvaqurg'oqchilikdamlardanorozilikjamoatboshqaruvchisiga, oilaning a'zolariga, do'stlarga, dushmanlarga va hatto hukumatga qaratilgan bo'ladi. Ko'pchiligimizning (qo'rqqanimizdan), barcha ofatlarimning o'chog'i Xudo deb aytishga hech qachon tilimiz bormaydi. Xuddi shunday, isroilliklar Muso va Aharonga shikoyat qilar, lekin aslida:

"Rabbiy bizga pand berdi" - deb o'ylar edilar. Muso buni tushunar edi va ularga shunday dedi: "Sizlar bizdan emas, Rabbiydan nolidingizlar" (Chiqish 16:8).

Cho'l yuragimizning niyatlarini yuzaga chiqaradi; u niyatlarimiz

xudbinlikda qurilganmi yoki fidokorlikkami, ko'rsatadi. Muqaddas Ruhdan yuragingizda, aslida, nimalar sodir bo'layotganini va sizni nima boshqarayotganini ko'rsatishini so'rang. Qanday munosabatlar va qanday hatti-harakatlar sizni "Misr" qulligida ushlab turibdi va ular sizni cho'lda jovrashga majbur qilyapti? Kelajakda muvaffaqiyatli bo'lish uchun samimiy munosabatni saqlashimiz va Uning sevgi bilan tuzatishiga ochiq bo'lishimiz o'ta muhim.

Har birimiz uchun yaxshi xabar shundaki, hech narsa bizni tavba qilishdan va yuragimizning holatini o'zgartirishdan ushlab tura olmaydi. Xudodan manba sifatida foydalanishga urinishning o'rniga, bir lahzada nolishni bas qilib, Xudo bilan munosabatlarni izlashni boshlashimiz mumkin.

Xullas, Xudo bizni sevgani uchun cho'lga yuborishi mumkin.

Xudo formula emas

Isroilliklarning maqsadi Xudo emas edi, shu bois, ular Uni tanib-bila olmadilar. Ular Xudoning buyuk ishlaridan ilhomlanar edilar, ammo Xudoning g'ayritabiiy kuchi namoyon bo'lmaganida, ular Xudodan yuz o'girar edilar. Muso tog'da bo'lganida, ular Xudodan yuz o'girdilar va ayshi-ishrat qilishni boshladilar. Ularga najotning faqat foydasi kerak edi. Ular Xudoga yaqin bo'lishga va Uni ko'proq tanib-bilishga intilmas edilar.

Bir kuni cho'lda, Xudo Musoga xalqning oldiga tushishni buyurdi va "xalq o'zini muqaddaslasin, chunki Men Sinay tog'iga kelaman va Muso bilan qanday gaplashgan bo'lsam, ular bilan ham shunday gaplashaman", dedi. Lekin o'sha kun kelib, Rabbiiy O'zining qudratli kuchida tushganida va O'z ulug'vorligida namoyon bo'lganida, odamlar bunga bardosh bera olmadilar:

"Butun xalq momaqaldiraq va chaqmoqni, burg'uning tovushini va tutayotgan tog'ni ko'rdi. Xalq bularni ko'rib ortga

Cho'ldan qanday o'tish kerak

#4 O'z rejalaringizni aniqlab oling.

Cho'ldan o'tgan ilk yillarimda, ijobiy munosabatni saqlash men uchun juda og'ir bo'lgan edi, chunki hech narsa o'zgarmaydigandek tuyular edi. Aslida, meni kutishdan ham ko'ra, kutish vaqtidagi alam tashvishga solar edi. Xudo menga sayohatchi voiz xizmatini olib borish orzusini bergan edi. Menga bu orzuni amalga oshishiga xalaqit berayotgandek tuyulayotgan vaziyatdan shunchaki charchar edim. Rabbii meni tozalash uchun cho'ldan foydalanganini ochdi. Biroq navbatdagi gal, bu cho'l yo'li nega buncha uzunligini tushuntir, deb faryod qilganimda, Rabbii menga: "Sen o'z orzuinga xizmat qilasanmi yoki Menga xizmat qilasanmi, shuni ko'rishni istayman" – deb bu haqiqatni yodimga soldi.

Bu chindan ham mening e'tiborimni tortdi! Men yuragimdagi orzuim bo'lmish, Xushxabarni butun dunyo bo'ylab voizlik qilish xizmatini amalga oshirishni ko'proq istaymanmi yoki bundan ham yaxshiroq bo'lgan boshqa maqsadga – Xudoga itoatkorlik bilan tayanib, hayotimda U gapirgan paytda harakat qilishni kutishni istaymanmi, shu haqda ko'proq o'ylashim va ibodat qilishim kerak edi. Faqat o'shanda mening istaklarim Uning xohishlariga to'g'ri keladi.

Shunday ekan, sizga maslahatim: Xudo sizga bergan ajoyib orzu, siz uchun Uning huzuri va Otangizning xohishlarini bajarishdan muhimroq bo'lib qolmasin.

chekindi va uzoqroqqa borib turdi. Xalq Musoga: – Bizga o'zing gapirgin, biz eshitaylik. Lekin Xudo bizga gapirmasin, toki o'lib ketmaylik, – dedi" (Chiqish 20:18-19).

Ular Musoga yolvordilar: "Sen bizning o'rnimizga Xudo bilan gaplash va Uning gaplarini bizga yetkaz, biz esa Unga quloq solamiz"

– deyishdi (ma'nosi). Ular shu tarzda Xudo bilan munosabatlarsiz, Undan foyda olish uchun yana o'zlarining xudbin istaklarini namoyon qildilar. Ehtimol, ularning niyati yaxshi bo'lgandir – ular Xudoning So'zini yuragida saqlashni istagandir; biroq U bilan yaqin munosabatlarsiz, ular Unga mukammal tarzda ergasha olmas edilar.

Isroilliklar munosabat o'rniga, o'z muammolariga javob olishni xohladilar va Xudo ularga javoban, O'nta amrni berdi.

Bugungi avlod haqida nima deyish mumkin? Qanchamiz a'lo niyatlar bilan Xudoning yo'llarini saqlashga urinamiz? Biz to ahvolimiz og'irlashib qolib, ibodatlarda uyalganimizdan ovozimiz chiqmaydigan bo'lib qolguncha, va'da va ahdlarni beramiz, lekin ularni bajarmay yuraveramiz. Biz qandaydir cho'ponni, erimizni, xotinimizni yoki sevimli blogerimizni eshitamiz va qandaydir tarzda uning Xudoni izlash uslubini o'zlashtirishga va U bilan munosabatlarimizni yaxshilashga umid qilamiz. Biz ham isroilliklarga o'xshab, U bilan shaxsiy, tirik munosabatlarni qo'llamay, Xudoning So'zini – Uning amrlarini saqlashga urinamiz. Iso Yuhanno 14:21 da shunday degan: “Kim Mening amrlarimga ega bo'lib ularga rioya qilsa, o'sha odam Meni sevadi. Meni sevganni esa Otam sevadi, Men ham uni sevaman va unga O'zimni namoyon qilaman”.

Ushbu oyatni o'qiganimda, Rabbiy quyidagilarni nazarda tutyapti deb o'ylagan edim: “Jon, agarda sen Mening amrlarimga rioya qilsang, Meni sevishingni isbotlaysan”. Lekin Rabbiy bir kuni bu oyatni qaytadan o'qishimni aytdi. Men qayta o'qiganimda, U dedi: “Sen hali ham Men nimani nazarda tutganimni tushunmadingmi; bu oyatni yana bir bora o'qi”. “Xo'p, Rabbim”. Shu asnoda, men bu oyatni to'qqiz yoki o'n marta o'qishimga to'g'ri keldi.

Oxiri, men Rabbiyga hayqirib: “Rabbiy, mening bilimsizligimni kechirgin, bu oyatning ma'nosini ochgin!” – dedim.

“Jon, Mening amrlarimni bajarib, sen Meni sevishingni isbotlaysan deganim yo'q” – dedi U. – “Sen Meni sevisht,

sevmasligingni O'zim yaxshi bilaman! Agar inson bor yuragi bilan Meni sevsa, amrlarimni bajarishga qodir bo'ladi!"

Tushundim! Bu qonun emas, bu munosabatlar. Men bunga amr – qonun deb qaraganman, biroq U munosabatlarning muhimligini ochib berdi.

- Xudoni qoidalar va qarorlar orqali tanib-bilishning imkoni yo'q.
- Xudoni uslublarda topa olmaysiz.
- Muqaddas va Qudratli formula darajasiga tushmaydi.

Aksariyat kishilar, Rabbiy haqida aynan shunday deb o'ylaydilar. Biz Xudo bilan munosabatlarni baxtli hayotning yettita qadami, najotga erishish uchun to'rtta qadam, muvaffaqiyatli munosabatlarning besh tomoni yoki ibodatga javob olishning tekshirilgan uslubi kabi qonun va formulalarni bilamiz. Xudo O'zining va'dalari bilan, qandaydir tarzda qutichada cheklangan va biz ularni kerakli paytlarda birma-bir chiqarib olishimiz mumkin deb tasavvur etamiz. Bordi-yu odamlar, Xudoga shu tariqa yaqinlashadigan bo'lishsa, ular gunohni yengishga qodir emasligiga hayron qolish mumkinmi?

Inson o'zini kamolotga yetkazishi uchun Xudo yangi formula emas. U O'z farzandlarida – sizda va menda yashaydigan Tirik Xudo. U bizni bilishni hamda hayotimizning barcha sohalarida va barcha ishlarimizda ishtirok etishni istaydi! Uning maqsadi – biz bilan chin yurakdan muloqot qurish. Insonda sevgi sovushiga moyillik borligini hisobga olib, Iso quyida nega shunday deganini tushunish mumkin:

“Lekin senga qarshi bir da'voyim borki – sen ilk muhabbatingni tark etding. Endi, qayerdan qulaganingni yodga ol! Tavba qil va ilgari ishlarini qilib yurgin. Aks holda, tavba qilmasang, Men sening oldingga tezda kelib, sening chirog'ingni o'z joyidan qo'zg'ataman” (Vahiy 2:4-5).

Boshqa isroilliklardan farqli o'laroq, Muso faqat uzoqdan Xudoga

sajda qilib qo'yish bilan qanoatlanmadi. Xudoning namoyon bo'lganini ko'rganida, u ortga chekinmadi. U oldinga bordi. Chiqish 20:21 da yozilgan: "Shunday qilib, xalq uzoq masofada turaverdi. Muso esa Xudo turgan quyuq zulmatga kirdi". Muso nufuz va hokimiyatga ega bo'lishiga, uch milliondan ortiq odamning rahbari, Eski Ahddagi eng hayratli mo''jizalarning ishtirokchisi bo'lishiga qaramay, bu narsalarning bari uni qanoatlantira olmasligini bilgan edi. U bu barcha ajoyib mo''jiza-yu alomatlarni boshdan kechirgach, nima deb ibodat qilganiga qarang:

"Shuning uchun agar men Sening nigohingda iltifot topgan bo'lsam, iltijo qilaman: Menga O'z yo'lingni ochgin, toki Sening nigohingda iltifot topishim uchun Seni chuqur bilayin... agar Sening O'zing bizlar bilan bormaydigan bo'lsang, bizni bu yerdan olib chiqmagin... menga shuhratingni ko'rsatgin" (Chiqish 33:13-18).

Xudo Musoga o'ziga tortadigan taklifni aytdi. Ayovsiz cho'lning o'rtasida, Xudo unga isroilliklarni olib, va'da qilingan Yerga yetaklab borishni buyurdi. U hatto ularni bexavotir eltib qo'yadigan qudratli farishta yuborishini ham aytdi. U Musoga, bu yer naqadar yaxshi – sut va asal oqadigan, go'zal adirlar, manzara va yaylovlar bilan to'la ekanini tushuntirdi. Lekin Xudoning O'zi ular bilan bormasligini aytdi. Muso bu haqda eshitgan zahoti, Xudoning saxiy takliflaridan voz kechdi. Mohiyatan, u dedi: "Men Sening huzuringsiz va'dalarga ega bo'lgandan ko'ra, va'dalarsiz Sening huzuring bilan qolishni afzal ko'raman". Muso Xudoga bunchalik tashnaligi, Xudoga ma'qul kelganiga aminman.

Muso yanada ko'prog'ini istagan; U jasorat bilan: "Seni tanib bilishim uchun, menga O'z yo'llaringni ochgin" – dedi (Chiqish 33:13). Biz Xudoni tanib-bilishimiz uchun, avval Uning yo'llarini tanib-bilishimiz zarur! Xudo o'z yo'llarini, Uning faqat kuchi va ta'minotini

emas, balki Uning yuragini izlaydigan kishilarga ochadi. Uning yuragini biladigan kishilar, Uning kuchida yuradilar:

“...o‘z Xudosini tanib-bilgan odamlar kuchayib, harakat qiladilar” (Doniel 11:32).

Men endigina xizmatga qo‘yilganimda, qariyb har ertalab bir soatdan ikki soatgacha ibodatda vaqt o‘tkazar edim. Mening ibodatlarim taxminan quyidagicha edi: “Xudojon, odamlarga najot berish, kasallarni shifolash va jinlarni quvib chiqarish uchun, mendan foydalangin”. Men bu narsani har xil so‘zlar bilan so‘rab, ibodatimni davom ettirar edim. Men Xudodan katta miqyosdagi xizmatni so‘rab, o‘zimni o‘ta fidokor kishi deb hisoblar edim.

Biroq bir safar Rabbiy menga murojaat etib: “O‘g‘lim, sening ibodatlaring xudbinlikning o‘zginasi va ular maqsadga borib yetmayapti” – dedi. Uning aytgan so‘zlaridan men o‘zimni yo‘qotib qo‘ydim.

U mendan: “Bularni amalga oshirish uchun seni nima undayapti?” – deb so‘radi. – “Men sendan doim: “Mendan foydalan...” – degan gapni eshitaman. Ibodatlaringning markazida o‘zing turibsan. Men seni jonlarni qutqarish, jinlarni quvish va kasallarni shifolash uchun yaratganim yo‘q. Men seni O‘zim bilan yaqin munosabatlar uchun yaratganman; mening maqsadim mana shu”.

Buni eshitib, qotib qoldim. O‘shanda Xudo men hech qachon unutmaydigan bir gapni aytdi: *“Yahudo ham Mening nomim bilan odamlarni ozod qilgan va kasallarni shifolagan edi!”* Chindan ham, Iso o‘n ikki shogirdini xizmatga yuborganida, U hammasini – keyinchalik Unga xiyonat qilgan Yahudoni ham yuborgan edi. Men shu paytgacha boshqa narsalarga diqqat qaratgan ekanman. Xudoning biz uchun maqsadi – Uning samoviy mukofoti bo‘lmish, Iso Masihni tanib-bilish ekan (Filippiliklarga 3:10).

Bir necha yillar oldin Liza ham yig‘inga tayyorlanayotib, shu haqda ibodat qilgan. O‘sha kuni u Xudoni eshitgan. Xudo unga: “Liza, Men

odamlardan foydalanmayman; Men ularni moylayman, shifolayman, o'zgartiraman, O'z timsolimga o'xshash qilaman, lekin ulardan foydalanmayman" – deb aytgan. U quyidagicha davom etib, so'ragan: "Liza, birorta do'sting sendan biror marta foydalanganmi?"

"Ha" – deb javob bergan u.

"Sen bunday holda o'zingni qanday his etgansan?" – deb so'ragan Rabbiy.

"O'zinga nisbatan xiyonatni sezganman!"

Rabbiy davom etgan: "Ko'p xizmatkorlar, Men ulardan foydalanishimni so'rab ibodat qiladilar: "Mendan shifolash uchun, ta'sirga ega bo'lish uchun, qutqarish uchun foydalangin" – deyдилar. Men ularning yuraklariga ega bo'lish umidida, ularga javob berganman, biroq ular vaqt o'tib, xizmat bilan keragidan ortiq band bo'lib qolishadi. Ular Mening yo'llarimni bilish uchun o'zlarini qiynamaydilar, natijada, shaxsiy shohligini qurish yo'lida Men bergan in'omlardan foydalanishadi. Qiyinchiliklar kelganida, ular Menga faryod qiladilar, biroq Men ularning ibodatlariga, o'zlari istagan paytda va o'zlari istagandek javob bermaganim uchun, Mendan xafa bo'ldilar. Ular o'zlarini, Men ulardan foydalangandek his etdilar va Menga nisbatan g'azablandilar. Ular Meni bilmagani uchun yiqildilar".

Erini yaqindan bilishga intilmaydigan, biroq bitta-yu bitta orzusi, undan faqat bola ko'rishni istaydigan ayol haqida nima deb o'ylagan bo'lar edingiz? U erining oyoqlariga yiqilib: "Xo'jayin, siz uchun bolalar dunyoga keltirishimda mendan foydalaning! O'tinaman, menga bola bering yoki bo'lmasa, men o'lib qolaman!" – deb faryod qiladi. Bu narsa bizga g'alati eshutiladi, ammo biz ham Xudo bilan jiddiy munosabatlarga ega bo'lmay turib, Unga "odamlar najot topishi uchun mendan foydalan" deb yolvorganimizda, xuddi shunday qilgan bo'lamiz. Biz Xudo bilan yaqin bo'lganimizda, atrofimizdagi odamlar o'z-o'zidan najot topadilar, bu ham er-xotinning yaqin munosabatlariga o'xshaydi.

Xullas, isroilliklar noto'g'ri narsalarni izlaganlar va ularga intilganlar.

Ular Yaratuvchini emas, yaratilgan narsalarni izlaganlar. Ular bilan nima sodir bo'lganini esa biz yaxshi bilamiz. Cho'l ularga oldinda kutib turgan qiyinchiliklar uchun donolik va kuch beradigan, tayyorgarlik joyi bo'lishning o'rniga, oqibatda, bir boshli avlodni o'z qa'riga yutib yuborgan tashvishlar yeriga aylandi. Qanday katta yo'qotish! Axir, va'da qilingan Yer juda yaqin edi!

Bu biz uchun qanday katta dars! Biz ushbu sharaflı yaqinlik yo'lida tayyorlik bilan cho'limizni qabul qilishimiz zarur.

5


YANGI SHAROB

“Hamma narsani yangilaydigan Sening yangi sharobing uchun, biz idishlar bo‘laylik”.

– Efrem Sirin

“Sizlar avvalgilarini esga olmaysizlar va qadimgilar haqida mulohaza qilmaysizlar. Mana, Men yangisini bunyod qilyapman. Endi u unib chiqadi. Nahot buni ham bilishni istamaysizlar? Men sahroda daryolar va dashtda yo‘l o‘tkazaman”.

– Isha‘yo 43:18-19



Xudoni yaqindan tanib-bilishimiz uchun, biz o'zgarishlarga tayyor bo'lishimiz zarur. O'zgarishlar amalga oshishi uchun cho'ldan yaxshiroq joy yo'q. Mana shu hosilsiz va unutib yuborilgandek tuyulgan yerda, o'z ko'zlarimiz bilan Muqaddas Ruhning yangi harakatini ko'ramiz.

Ko'pchilik: "O'zgarishlarni ko'rish uchun, nega og'ir yoki tashnalik vaqtlaridan o'tish kerak?" – deb so'raydilar. Ushbu bobda biz bunga javob topishga urinib ko'ramiz.

Men o'n sakkiz oy davomida, qiyin cho'ldan o'tganimdan so'ng, bir qancha vaqt o'tib, Florida shtatidagi bir jamoatda yoshlar cho'poni qilib tayinlandim (bu juda ko'p yillar ilgani bo'lgan!). Bu jamoat o'sha paytda Amerikadagi eng tez o'sayotgan jamoat edi. Men esa yoshlar cho'poni xizmatida tajribaga ega bo'lmaganim uchun, biroz ikkilanar edim. Ammo u yerga meni Xudo yuborayotganini va shijoat bilan Uni izlasam, hammasi yaxshi bo'lishini bilar edim.

U yerdagi yoshlar xizmati an'anaviy uslub bo'yicha qurilgan edi, bu uslubga ko'ra yoshlar turli xil qiziqarli mashg'ulotlarga jalb etilgan edi. Afsuski, ularning ko'pchiligi ruhan o'smas edi. Ularning aksariyati nazoratsiz hayot kechirar edi. Men bu xizmatga qo'yilganimdan so'ng, Muqaddas Ruh menga: "Sen ularga tavba qilish, muqaddaslik, itoatkorlik va hokimiyat to'g'risida voizlik qilishing zarur" – deb aytayotganini his etdim. Men bu haqda voizlik qilishni va ta'lim berishni boshladim, shundan so'ng, xizmatda keskin o'zgarishlar boshlanib ketdi.

Natijalar aql bovar qilmas darajada edi. Bor-yo'g'i bir necha oyning ichida yoshlar safi uch barobarga ko'paydi. Ko'pchilik bezori guruhlarining va oqimlarning a'zolari yoki shunchaki Xudodan uzoqda bo'lgan yoshlar Iso Masihni qabul qilishni boshladilar. Yoshlar xizmatidan ketib qolgan ko'pgina guruhlar ham, yana yonishni boshladi. Hammamiz Xudoning mo'l-ko'l huzuridan baxtiyor edik va Unga bo'lgan sevgimiz yanada o'sib borar edi. Xudo bizni va urinishlarimizni serob marhamatlar edi.

Dallasdagi birinchi cho'l mavsumimdan chiqqach, hayotimda endi hech qachon cho'l mavsumi bo'lmaydi deb hisoblar edim. Chunki men endi, o'z da'vatimda edim va Xushxabarni voizlik qilar edim. Agar Iso bir marta cho'ldan o'tgan bo'lsa, men bilan ham shunday bo'ladi deb o'ylar edim. Men naqadar xato o'ylagan ekanman! Meni hali yana ko'p tozalanish va mustahkamlanishlar kutib turgan ekan, qolaversa, cho'l mavsumi haqida boshqa ko'p narsalarni bilib olishim kerak ekan. Oldingi o'n sakkiz oy, keyingi cho'lga tushgan paytimga nisbatan bolalar o'yiniga o'xshab qoldi.

Muqaddas Ruh bizning xizmatchilar jamoamizga ko'plab yangi g'oyalarni berar edi. Bu biz cho'l mavsumidagi tayyorgarlikdan so'ng, "Xudo tomonidan yuborilganimizda", ya'ni bizga yangi samoviy sharob berilganda amalga oshadi. U bizga Muso, Dovud, Yusuf va boshqalar singari, qay tarzda samarali va mahsuldor bo'lish kerakligini ko'rsatadi.

Bizning yoshlar xizmatimiz boshdan kechirgan o'sha ruhiy o'sish, darhaqiqat notabiiy edi. Biroq shu bilan bir qatorda, men ichimda kuchli yukni his etar edim, bu yuk faqat bizning mahalliy guruhimiz bilan bog'liq emas edi. Men biz butun Markaziy Floridadagi yoshlarni Xudoga olib kelishimiz zarurligini his etar edim. Xullas, bir kuni ibodat vaqti menga quyidagicha g'oya keldi: "Yoshlar xizmatimizni oynaijahon orqali uzatsak qanday bo'ladi?" O'sha vaqtlarda – 1980-yillarning o'rtasida, - bu odamlarga voizlik qilishning eng yaxshi yo'li edi. O'sha paytlarda internet, ijtimoiy tarmoqlar, "YouTube", smartfonlar – bir so'z bilan aytganda, hech narsa yo'q edi. Men eng kuchli mahalliy

televizion tarmoqlardan biri, qariyb to‘rt million aholiga axborotni yetkazib berish imkoniga ega ekanini bilib oldim. Ajablanarlisi shundaki, bu tarmoqda shanba kuni soat 22:00 da bo‘sh efir vaqti bor edi. Bu yoshlarni “ushlash” uchun yaxshi vaqt ekanini bilar edim.

Men bu haqda katta cho‘ponga aytdim, u esa buni amalga oshirish uchun mablag‘ yo‘qligini aytdi. Men undan, oynaijahonda chiqish uchun yoshlarimizdan moddiy yordam yig‘ishim mumkinmi, deb so‘radim. U rozi bo‘ldi, men ularga giyohvandlikdan, aroqxo‘rlikdan yoki boshqa muammolardan azob chekayotgan Markaziy Floridadagi yoshlarni qay tarzda Rabbiyga olib kelish mumkinligi haqidagi o‘z g‘oyamni taqdim qildim. Yoshlar xizmatidagilar bu g‘oyani anglab yetishdi va o‘z maoshlaridan moddiy yordam ajratishga bel bog‘lashdi, ularning ayrimlari gazeta tarqatar, ayrimlari tezkor ovqatlanish joylarida, boshqalari shaxobchalarda ishlar edi. Natijada, biz har hafta shanba kunlari kechgi oynaijahon orqali xushxabar aytilish uchun yetarlicha mablag‘ yig‘ishga muvaffaq bo‘ldik.

Bizning katta cho‘ponimiz bundan hayratga tushdi va bu g‘oya Xudodan ekanini tushundi. Bu yangi sharobning natijasi edi, chunki hali hech kim shu paytgacha shanba kuni kech soat 22:00 da oynaijahon orqali jamoatdagi yoshlar xizmati uzatilishi haqida eshitmagan edi. Bu narsa ish berdi. Tez orada, Xushxabarni eshitgan jonlar xirmonining guvohi bo‘ldik, agar biz “yangi sharob”ni qabul qilmaganimizda edi, bu narsa sodir bo‘lmasdi. Men yoshlar xizmatining cho‘poni o‘rnidan ketganimdan keyin ham, bizning “Otashin yoshlar” deb atalgan teledasturimiz orqali hayoti o‘zgargan kishilarning guvohliklarini ko‘p yillar davomida eshitib yurdim.

O‘zgarishlar – bu yaxshi

Tez orada yoshlar xizmatiga yana qaytamiz. Lekin avval, keling, yangi sharob nima ekani va uning ahamiyati haqida gapiramiz.

Xudo bizni undaydigan o‘zgarishlar, aksariyat hollarda o‘ta

qiyin kechadi, ammo doim yaxshi va mahsuldor bo'ladi. Odatda biz o'zgarishlarga qarshi chiqamiz, negaki ular bizning qulaylik darajamizga ta'sir ko'rsatadi. Biz o'z odatlarimizdan tashkil topganmiz deyishimiz mumkin. Ularni tadbiq etganimizdan e'tiboran, ularni o'zgartirish juda qiyin. Lekin Uning shohligida yanada samarali bo'lish uchun, biz o'zgarishlarga ochiq turishimiz lozim.

Agarda biz xudojo'y oilada o'sgan bo'lsak, bizning odatlarimiz, uslublarimiz va imonimiz bilan bog'liq an'analarimiz yoshligimizdan boshlab bizda shakllanib kelgan va chuqur ildiz otgan. Albatta, hamma an'analar ham noto'g'ri emas, biroq odamlar yuraklariga quloq solib emas, faqatgina an'anadan kelib chiqib harakatlansalar, unda bunday kishi o'z imonini faqat o'lik ishlar orqali ko'rsatishi mumkin.

Aslida, bunday ishlar, borib-borib ruhiy qal'aga ham aylanib ketishi mumkin. Inson dindorlik holatigacha inqirozga uchragan bo'lsa, u xudojo'ylikning faqat tashqi ko'rinishiga ega bo'ladi. Bunday kishi Xudo oldin amalga oshirgan narsalarni ushlab olib, hozir amalga oshirayotgan narsalarga qarshilik qilishi mumkin.

Iso davridagi farziylar va boshqa diniy rahbarlar aynan shunday bo'lishgan. Ular Ibrohimning farzandi, ahdning o'g'illari va Musoning shogirdlari bo'lganidan maqtanishgan. Xudo qilgan ishlarni qattiq tutib, o'rtalarida turgan Xudoning O'g'liga qarshilik ko'rsatardilar. Ular o'z an'alariga va sajda qilish timsoliga rashk bilan yondoshar edilar, shu bois Xudoning O'g'li kelib, ularning hayotidagi har bitta qulay va turg'un bo'lgan sohalariga o'zgarish olib kelmoqchi bo'lganida, Unga qarshi chiqardilar. Iso ularga bir narsani, Xudo ularning shartlariga moslashmasligini aniq ko'rsatdi... aksincha, ular Xudoning shartlariga moslashishi zarur edi. Ular esa ushbu o'zgarishlarga qarshi kurashar va o'zlarining an'alariga tish-tirnog'i bilan yopishar edilar.

Faqat diniy bo'lgan odam, o'ziga nisbatan oq suyaklik munosabatini, - "Xudo faqat biz orqali va bizning chiziqlarimiz bo'yicha harakatlanadi" – degan munosabatni shakllantiradi. Bunday munosabat xurofotga va buning oldi olinmasa, oxir-oqibat nafrat va

xoinlikka olib keladi. Iso davrida, aynan mana shunday hodisa yuz berdi va bu Jamoat tarixi bo'ylab ham yuz berib kelmoqda.

Biz o'zgarishimiz, imonning bir darajasidan, ikkinchi darajasiga o'tishimiz uchun qulaylik doiramizni qoldirib, Xudoning Ruhi boshqarayotgan tomonga qarab borishimiz kerak. Bu yo'l bizni odatda, Xudo berayotgan yangi hayotning boshi bo'lmish, cho'lga olib keladi.

Biz bu ketma-ketlikni Yahyo cho'mdiruvchining hayotida ko'rishimiz mumkin. Uning otasi ruhoniy edi va bir vaqt kelib, oliyruhoniy ham bo'ldi. Yahyo Yerusolimdagi maktabda o'qib chiqishi va Gamaliil ismli mashhur ruhoniy boshqaruvida o'qishi shart edi. Biroq Rabbiyning Ruhi bir kuni uni cho'lga undadi. Yahyo ibodat qilgan sari, cho'lga borish uchun ichki undovni kuchliroq his etar edi. Aminmanki, uning ichida ziddiyat tug'ilgan, ehtimol, u quyidagicha mulohaza qilgandir:

“Mening birga o'sgan barcha o'rtoqlarim “Muqaddas Kitobni o'rganish maktabi”ga kiradilar. Ular u yerni tugatgach, xalq ardoqlaydigan rahbarlar bo'lib yetishadilar.

Ular ruhiy xizmatga bag'ishlanib, davlatning har bitta sinagogasida voizlik qilishlari mumkin. Ular men haqimda nima deb o'ylaydilar? Agar men “Muqaddas Kitobni o'rganish maktabi”ga kirmasam, o'z da'vatimni qanday amalga oshira olaman?

Men hayotimda da'vatga ega ekanimni bilaman. Mening otam, yuqori o'rindagi farishta, unga mening tug'ilishim va xizmatkor bo'lishim haqida bildirganini aytgan. Bordi-yu, men mana shu cho'lga ketsam, hech kim mening kimligimni bilmaydi. Odamlar meni hech qachon voizlik qilish uchun taklif qilmaydilar”.

Biroq Yahyoning yuragidagi kuydirayotgan cho'lga borish undovi, uning ongiga hujum qilayotgan barcha savollarni bosib ketdi va u Ruhning ortidan cho'lga borishga qaror qildi. Biz u haqda o'qiymiz: “Chaqaloq esa ulg'ayib va ruhan quvvatlanib, Isroilga zohir bo'ladigan kunigacha sahrolarda bo'ldi” (Luqo 1:80). Qizig'i shundaki, Yahyo o'z cho'lga tayyorgarlikni bolaligidan boshlagan va bor-yo'g'i olti oy davom etgan xizmatiga yillar davomida tayyorlangan. Lekin, baribir,

Iso u haqda “ayoldan tug‘ilganlarning” orasida undan buyukroq payg‘ambar bo‘lmagan deydi.

Xudoning So‘zida Yahyo duch kelgan cho‘llarning va holdan toydiradigan vaziyatlarning soni, ularning qancha vaqt davom etganligi yozilmagan. Luqo 3:2 da aytilgan: “Hanan va Kayafa oliyruhoniyligi paytida, sahroda yashayotgan Zakariyoning o‘g‘li Yahyoga Xudoning so‘zi keldi”. Hanan va Kayafa Xudodan uzoqdagi diniy tizimga aylanib qolgan e‘tiqodda yashab yurgan bir paytda ayovsiz va qurg‘oqchil bo‘lgan joyda yangi idish shakllanayotgan edi. Mana yangi sharob qayerda namoyon bo‘lishi kerak edi.

Xudo Yahyoni, uning kunlaridagi dong‘i ketgan “Muqaddas Kitobni o‘rganish maktabi”da emas, balki cho‘lda tayyorladi! Yahyo tomonidan cho‘lda voizlik qilinayotgan Xudoning So‘zini tinglash uchun Yahudiya va Yerusalimdan tumonat odam kelar edi. Diniy muassasalarda emas, balki cho‘lda Ruhning yangi harakati boshlandi – yangi sharob quyildi. Diniy ikkiyuzlamachilikdan va an‘analardan charchagan va chin yurakdan o‘zgarishni istaydigan kishilar, Xudo O‘g‘lining kelishiga tayyorgarlik ko‘rish uchun Yahyoning oldiga cho‘lga kelar edilar.

Bundan tez o‘tmay, Iso Yahyo tomonidan cho‘mdirilish uchun Yordan daryosiga keldi. Yahyo Isoni cho‘mdirishga loyiq emasligini bilsa-da, Iso uni bunga majburladi. Isoning xizmati, Xudoning Ruhi o‘sha paytda yerda amalga oshirayotgan ishlaridan kelib chiqishi zarur edi. Shundan so‘ng, Iso Ruh bilan to‘lishdi va shu zahoti, cho‘lga olib ketildi.

Muqaddas Kitob Iso cho‘lga olib ketilishidan oldin Ruh bilan to‘lishganini aniq ko‘rsatmoqda, qirq kunlik sinov va vasvasalardan keyin, U cho‘ldan Ruhning kuchida qaytib kelgani aytilgan. Iso yerga qanday xizmatni ko‘zlab kelgan bo‘lsa, shu xizmat uchun cho‘ldagi vaqt orqali otlangan edi. Shundan so‘ng, Yahyoning xizmati boshlanganiga bir necha oy o‘tib, cho‘lda yana bir yangi harakat – Iso Masihning xizmati boshlandi.

Cho'ldan qanday o'tish kerak

#5 Uy qurmang; chodirda yashang.

Cho'l vaqtinchalik joy ekanini va siz undan o'tib, manzilingizga yetishingiz kerakligini hech qachon unutmang. Shu bois, cho'lda bo'lganingizda, chodirda yashang. Va uy qurishni hayolingizga ham keltirmang!

Isroilliklar cho'lda bir necha o'n yillar davomida kezgan bo'lsa-da, bu Xudoning rejasi emas edi. Xudo haqiqat tuyulgan holatning ta'siriga tushib, isroilliklarga yaxshiroq joy topib, u joyga o'rnashishni va uy qurishni buyurmadi. Yo'q, ular chodirda yashadilar va har safar yo'lbo'shchi bulut qo'zg'alganida, narsalarni yig'ishtirib, yo'lda davom etishga tayyor edilar. Cho'l har doim oxirgi manzil emas, balki vaqtinchalikka belgilangan joy edi. Xudo biror marta ularga shunday deb aytmedi: "Bilasizlarmi, cho'l unchalik ham yomon joy emas. Va'da qilingan Yerni kimga keragi bor? Poydevor solish uchun mana shu yerni kovlanglar hamda o'zlaring va Men uchun mustahkam uylar quringlar". Hatto Xudoning O'zi ham butun cho'l safari davomida chodirda yashadi.

Chaylalardan qurilgan shaharchada dam olish, balki qiziqarli va hatto qisqa vaqt uchun yoqimli ham bo'lishi mumkin, biroq ko'pchiligimiz ochiq joyni qoldirib, haqiqiy uyda yashashni ma'qul ko'rgan bo'lar edik. Yanglishib ketmang, cho'lda poydevor solmang. Doim narsalaringizni yig'ib, to eski chaylangizni uyingizning omborxonasiga qo'ymaguningizcha, yo'lingizda davom etishga tayyor turing.

Yangi idishlar

Iso O'z xizmatini boshlagach, tez orada quyidagi so'zlarni o'qiymiz: "Shunda ular Unga: – Mana, Yahyoning hamda farziylarning shogirdlari tez-tez ro'za tutib, ibodat qiladilar. Sening shogirdlaring esa yeb-ichib

yuribdilar, – dedilar” (Luqo 5:33). Avvalambor, Uning yoniga kelganlar, ya’ni “ular” kimlar ekanini bilib olish zarur. Biz buning javobini Matto Xushxabarida topamiz: “Shunda Uning oldiga Yahyoning shogirdlari kelib...” (9:14). Ko’p yillar davomida, bu yerda farziylar haqida gap boryapti deb o’ylab yurar edim, biroq ular Yahyo Cho’mdiruvchining shogirdlari bo’lganini bilib olgach, Xudoning Kalomidagi bu matn menga umuman boshqacha tarzda ochildi! Bu odamlar g’azabda edilar, chunki ular ko’pincha ovqatdan ro’za tutishar va uzoq vaqt davomida ibodat qilishar edilar, ammo Isoning shogirdlari bunday qilmas edilar. Yahyoning izdoshlari fidokorona hayotda yashar, biroq ularning bor e’tibori Isoning shogirdlariga qaratilgan edi.

Yahyoning kunlarida Xudo Ruhi harakatining muhim jihatlaridan biri, behisob ro’zalarda edi. Ammo Yahyoning shogirdlari yangi davrga o’tmadilar yoki Yahyo xizmatining namunasidan, Xudoning Ruhi hozir amalga oshirayotgan faoliyatga o’zgarmadilar. Uning shogirdlari faqat, ularning xizmat va sajda uslubi hosil keltiradi, deb ishonar edilar. Ular Yahyo Cho’mdiruvchining ortidan borganlarida, o’z oilalarini qoldirib, cho’lda yashashni boshladilar va hashoratlar bilan oziqlanib, o’z xizmati uchun katta narx to’ladilar, biroq endi ularning rahbari qamoqqa tushib qoldi. Yangi Xizmatkor esa Yahyo izdoshlarining qoidalarini bo’yicha yurmaydigan, O’z shogirdlariga ega edi. Yahyoning jamoasidagilar xafa bo’lishgan edi va ular diniy bo’lib qolish xavfiga ega edilar.

Yodingizdami, diniy ruhlar, doim Xudo shu paytgacha amalga oshirgan narsalarni ma’qullashadi, biroq U hozir amalga oshirayotgan narsalarga qarshi chiqadilar. Ehtimol, Yahyoning izdoshlari Xudo hozir aytayotgan va amalga oshirayotgan narsalardan ko’ra, o’z rahbariga bo’lgan sadoqatini saqlab qolish va uning izdoshiga loyiq tarzda yo’l tutish uchun ko’proq qayg’urgandirlar. Ularning diqqati endi Xudoning yuragiga qaratilmagan edi. Ularning diqqat markazida, ularni qachonlardir Xudoning yuragiga olib kelgan uslub turar edi.

Ularda mag’rurlik va xafagarchilik paydo bo’lishni boshladi. Yahyoning shogirdlari, uning xizmati uchun o’z vaqtini, balki pullarini

ham sarflagandirlar. Endi ular amalga oshirgan, asragan yoki qo'lga kiritgan yutuqlari xavf ostida edi. Oqibatda ularning yo'l boshchisi Iso haqida, hatto: "U o'sishi, men esa kichrayishim kerak" (Yuhanno 3:30) deb aytgan bo'lsa ham, ular o'zgarishlarga yuragini yopdilar va bunga qarshi turdilar.

Iso ularga nima deb javob berganiga qarang: "To'ydagi mehmonlarni kuyov ular bilan birga bo'lganida, ro'za tutishga majbur qila olasizmi?" (Luqo 5:30). Iso ularning dindorligini fosh qilib, shunday dedi: "Xudoning O'g'li ularning o'rtasida turganda, ularga ro'za tutishning nima keragi bor? Agarda ular Xudodan nimanidir so'rashni istasalar, shunchaki Mening oldimga kelishlari mumkin!" (Bizning tilimiz bilan aytganda). Dindorlarcha tafakkur, ularni Xudoga faqat ro'za yoki boshqa diniy faoliyatlar orqali ma'qul bo'lish mumkin deb ishonishga majbur etar edi. Ular uchun ro'za Xudoga kelishning yo'li edi va ular o'zlarini ro'za tutmaydiganlardan (yoki ularda bor bo'lgan uslublardan foydalanmaydiganlardan) ustunmiz deb hisoblar edilar. Shu asnoda, ular kibrga berildilar. Uslubning o'zi, u boshida olib kelgan hosildan ko'ra muhimroq bo'lib qoldi.

Ovqatdan ro'za olishning imtiyozlari ko'p bo'lishiga qaramay, bu inson Xudoni yo'lga solishining bir uslubi emas; ro'zaning maqsadi – sizni Xudoning gaplarini yaxshiroq eshitish holatiga olib kelishdir. Xudo ularning yonida turgan bo'lsa, Uni eshitish uchun ro'za tutishning nima keragi bor? Keling, Luqo 5:34-35 da Isoning javobini o'qishda davom etamiz: "Iso ularga: – To'ydagi mehmonlarni kuyov ular bilan birga bo'lganida, ro'za tutishga majbur qila olasizmi? Ammo kuyov ulardan olinadigan kunlar keladi, o'shanda ro'za tutadilar, – dedi".

U "balki ular o'sha kuni ro'za tutarlar" demayapti. U ular ro'za tutadilar deb aytayapti. Bu odamlar faqat ovqatdan ro'za olish haqida so'ragan edilar, ammo Iso ularga ro'zaning boshqa turi haqida aytdi. E'tibor bering, ular o'rtalaridan Kuyov olib qo'yilganda ro'za tutadilar. Iso ovqatni emas, balki O'zining yaqqol huzurini nazarda tutyapti. Biz buni, u bu so'zlardan so'ng aytgan hikmat orqali bilamiz.

Yodingizdami cho'lining sifatlaridan biri – Xudo huzurining sezilarli darajada yetishmasligi hisoblanadi.

Keling, U nimani nazarda tutganini tushuntirib beradigan hikmatni o'qiymiz:

“Shuningdek, hech kim yangi sharobni eski meshga quymaydi. Aks holda, yangi sharob meshni yirtadi va to'kilib ketadi, mesh ham yaroqsiz bo'ladi” (Luqo 5:37).

Muqaddas Kitobda sharob Xudo huzurining timsoli hisoblanadi. Pavlus Efesliklarga 5:18 da deydi: “Shuningdek, buzuqlik keltiradigan sharob ichib mast bo'lmanglar, balki Ruhga to'lib-toshinglar”.

Biz ruh, ya'ni Xudoning huzuri bilan to'lishimiz zarur! Yangi sharob – Xudo Ruhining yangi harakatini bildiradi.

Ushbu muhim savolni yana bir marta qisqacha ko'zdan kechirishga ijozat bering. Siz endigina ruh bilan to'lishgan, o'sha ajoyib damlar yodingizdami? O'shanda Xudoning huzuri yoqimli va serob edi. Siz har safar ibodat qilganingizda, shu zahoti Uning huzuri sizni to'ldirar va siz butun kun davomida Uni yonginangizda his etar edingiz. Vaqti-vaqti bilan, jamoatda shunchaki o'tirib, Uning yaqinligidan, yig'lar edingiz.

Ammo ko'p vaqt o'tib, bir kuni, Uning huzuri sizdan uzoqlashib qolganini sezib qoldingiz. Siz oldingidek ibodat qilishni davom ettirar edingiz, biroq endi: “Xudo, qayerdasan?” – deb so'rayapsiz. Siz cho'lga keldingiz!

Cho'l yoki Xudoning huzuridan ro'za tutish ma'lum bir maqsadga ega. Siz yangi mesh bo'lishingiz uchun Xudo sizni tayyorlayapti. Siz yangi sharobni yoki Muqaddas Ruhning yangi harakatini eski meshlarga quya olmaysiz.

Iso davrida ishlatilgan meshlar qo'yning terisidan yasalgan edi. Bu meshlarga birinchi marta sharob quyilganda, ular egiluvchan va yumshoq bo'lgan. Sharob kengayganida, mesh osongina cho'zilar va hech qanday to'sqinliksiz o'zgarish xususiyatiga ega bo'lgan. Biroq Yaqin Sharqdagi havo yillar o'tib, uni quritib tashlar va idish qattiq

va mo'rt bo'lib qolar edi. Shunda undan eski sharobni olib, yangisini qo'ymoqchi bo'lsangiz, u qattiq va mo'rt bo'lib qolgani sababli, sharobning og'irligini ham, uning bijg'ishini ham ko'tara olmas edi va u osonlikcha yorilishi yoki yirtilishi mumkin edi. Bu muammoni bartaraf etish uchun eski meshlar bir necha kun davomida suvga ivitib qo'yilib, so'ng unga zaytun yog'i surtilgan. Bu meshning yumshoqligini va egiluvchanligini tiklagan.

Bu jarayon bizning hayotimizda ham sodir bo'ladi, negaki biz ham yangi ruhiy sharob uchun meshlar sanalamiz. Biz Xudoning huzurini olib yurish uchun da'vat etilganmiz. Biz yashayotgan muhit, bizni Xudoning yo'llariga sezgir bo'lishdan mahrum etishi mumkin. Biz samoda yashayotgan emasmiz; biz dunyo deb ataladigan chirik muhitda yashamoqdamiz. Shu bois, bizning ongimiz yangilanib turishga muhtoj. Bizning meshlarimiz doim egiluvchan bo'lishi yoki yangi sharob quyilishiga tayyot turishi uchun, biz "ivitilib" qo'yilgan yoki Xudoning So'zi bilan singdirilgan bo'lishimiz zarur. Pavlus Efesliklarga 5:26 da quyidagicha yozgan: "Masih jamoatni muqaddaslash uchun hammom suvi bilan yuvib, So'z orqali tozaladi". Meshlarga zaytun yog'i surilishi, bizning ibodatda o'tkazgan vaqtimizga o'xshaydi. Biz Xudo bilan So'z o'qishda va ibodat qilishda vaqt o'tkazganimizda, bizning ongimiz yangilanadi va biz shafqatsizlikdan shifolanamiz hamda o'z yo'llarimizda va uslublarimizda qattiq turib olmaymiz.

Eski meshlarni yangilashdan avval, undagi eski sharobni to'kish lozim! Meshdagi sharobning yo'qligi – Xudo huzurining yaqqol tarzda yo'qligini bildiradi! Bu Xudoning sezilarli darajadagi huzuridan ro'za olish yoki biz yuqorida aytganimizdek, quruq mavsumni boshdan kechirishdir. Bunday davrda siz o'zgarishlarga tayyorlanasiz!

Xudo nega O'zining sezilarli huzurini sizdan olib qo'yadi? Siz noumidlikka tushishingiz uchunmi? Yo'q, garchi bunday holatlar yuzaga kelib tursa ham! Xudo siz Unga kerak bo'lib qolguningizcha, sizni "javonga olib qo'yadi"mi? Yo'q! Siz Uning huzurini yanada tirishqoqlik bilan izlashingiz uchun, U O'z huzurini sizdan olib qo'yadi.

Uni qidirish, sizni yana yumshoq va egiluvchan qiladi. Qattiq va mo'rt odamlar – Xudoni qidirishdan to'xtaydilar. Ular o'zlarining ilk haqiqiy kechinmalaridan olgan tajribalardan kelib chiqqan uslub va formulalariga mahkam tirmashib oladilar.

Yahyo Cho'mdiruvchining shogirdlari aynan shunday vaziyatga tushib qoldilar. Ular Xudo Yahyo orqali qudratli ishlar amalga oshirganini ko'rib, unga ergashdilar. Biroq samoviy mukofotga – Xudoni yaqindan tanib-bilishga intilishda davom etishning o'rniga, o'z e'tiqod va uslublaridan nariga o'tmaydigan bo'lib qoldilar.

Xudoning har bitta harakatida yangi ta'limotlar paydo bo'ladi. Sog'lom ta'limot va nazariyalar – bizni Xudoning yuragiga yaqinlashtirishga qodir. Ammo, bordi-yu biz ta'limot yoki nazariyaning o'ziga to'xtalib qolsak, oxir-oqibat ular bizni dindorlik qulligiga, qonunchilikka, adashishlarga yoki biryo'la bularning hammasiga duchor qiladi.

Siz shunga o'xshash sajdaning mo'rt uslubi bilan Xudoni tanib-bila olmaysiz, biroq aksariyat masihiylar o'zlari sezmagani holda, mana shunday hayot tarziga tushib qoladilar. Ular o'zlarining sajda qilish yo'li va qoidasini o'rnatadilar. So'ng, oxir-oqibat, namunali masihiy bo'lish kerakligi haqidagi bilimlarga ega bo'lgach, Uni izlashni to'xtatib, o'zlari belgilagan odat va an'analar bo'yicha yashashni boshlaydilar. Shunga qaramay, ular Xushxabarga binoan yashayapman deb hisoblasalar-da, o'zlarini bo'm-bo'sh his etadilar.

Yermiyah 29:12-13 da yozilgan:

“Sizlar kelib, Meni chorlaysizlar va ibodat qilasizlar, shunda Men sizlarni eshitaman. Sizlar Meni izlaysizlar va agarda butun yuragingiz bilan izlasangizlar Meni topasizlar”.

Uni topish uchun birgina ibodatning o'zi yetarli emas. Diniy formulalar bilan bog'liq bo'lgan va doimiy ravishda ibodat qiladigan odamlar ko'p. Xudo ibodatlarimizda g'ayrat bilan Uni izlashimiz zarurligini aytgan. U bu matnda, Uni qidirishimiz zarurligini aniq tarzda ko'rsatmoqda va buni amalga oshirishda shunchaki odatlarni

bajarishdan ko'ra ko'proq narsa talab etiladi. Buning uchun yonib turgan yurak va Uning yuragini tushunish uchun intilish kerak bo'ladi. Mana nima uchun Xudo Ibroniylarga 11:6 da degan: "Imonga ega bo'lmasdan esa Xudoga ma'qul bo'lishning imkoni yo'q. Chunki Xudoning oldiga keladigan odam Uning borligiga va Uni izlovchilarni U taqdirlashiga ishonishi kerak".

Endi, keling, Isoning so'zlarini yana bir marta o'qiyviz:

"Shuningdek, hech kim yangi sharobni eski meshga quymaydi. Aks holda, yangi sharob meshni yirtadi va to'kilib ketadi, mesh ham yaroqsiz bo'ladi. Aksincha, yangi sharobni yangi meshga quyish kerak, shunda u ham, bu ham saqlab qolinadi. Hech kim eski sharobni ichib, o'sha zahoti yangisini istab qolmaydi. Lekin u: "Eskisi yaxshiroq", – deb aytadi" (Luqo 5:37:39).

Eski sharobga o'rgangan birorta kishi, o'sha zahoti yangisini istamaydi. Bu matndagi muhim so'z "shu zahoti" hisoblanadi, negaki biz – odamlar, ma'lum bir odat va xatti-harakat tarzidan tashkil topganmiz. Xudo bu qulaylik doirasini buzishi, bizni eski sharobdan bo'shatishi va bizda yangi sharobga chanqoqlik paydo bo'lishi uchun, sharobsiz, quruq tayyorgarlik vaqtiga borishimizga zamin yaratishi lozim. Siz chanqab, ichishga hech narsa topolmaganingizda: "Yangi sharobni istamayman, eskisini istayman" – deb shikoyat qilmaysiz. Agarda siz Xudoning huzuri va kuchini istasangiz, siz hayotingizda Xudo Ruhining yangi harakatiga ochiq bo'lasiz. Siz Dovudga o'xshab, o'z cho'lingizda quyidagicha gapirasiz:

"Yo, Xudo! Sen mening Xudoyimsan, Seni erta tongdan izlayman. Mening jonim Senga tashna. Qurg'oq, chanqoq va suvsiz yerda mening tanam Senga talpinadi, toki Muqaddas Makonda ko'rganimdek, Sening kuchingni va shuhratingni ko'rayin" (Sanolar 62:2-3).

Dovud Uning huzuriga va kuchiga chanqoq bo'lgan. Natijada, u da'vat etilgan yumushiga qo'yilganida, Rabbiyning istaklari uchun

egiluvchan bo'lgan. Shoul esa undan farqli o'laroq, Xudoning yo'llari emas, o'z xohishlari bo'yicha yo'l tutgan.

Yana bitta cho'l

Ushbu bobning boshida aytib o'tganimdek, yoshlar cho'poni bo'lish, mening ilk chinakam o'qituvchilik xizmatim edi. Oynaijahon orqali uzatiladigan yoshlar yig'inlari katta muvaffaqiyatga ega bo'ldi. Biz shuningdek, bizning mintaqamizdagi mushhurligi bo'yicha ikkinchi o'rinda turadigan radio bekati orqali qisqa xushxabar dasturlarini havola etar edik. Hammasi ko'ngildagidek edi.

Lekin bir kuni ibodat qilayotgan paytim, Xudoning Ruhi menga o'zgarishlar kelayotgani haqida aytib: "Sen yoshlar cho'poni xizmatidan chetlatilasan va Men seni Amerikaning G'arbiy Qirg'og'idan Sharqiy Qirg'og'igacha, Kanadaning chegarasidan Meksikaning chegarasigacha, Alyaska va Gavaydagi jamoat va anjumanlarga yuboraman..." – dedi.

Lizaga Xudo menga ochganlarini aytib berdim va biz bu haqda yuragimizda o'ylay boshladik. Biz buni boshqa shtatdagi cho'pon do'stimizdan tashqari, hech kimga aytmagan edik. Xudo buni O'zi amalga oshirishini aytdi va bordi-yu, bu so'z Undan kelgan bo'lsa, buni amalga oshishida mening yordamimning hojati yo'q edi.

Biroq, bir yildan ko'proq vaqt o'tsa ham, hech narsa sodir bo'lmadi. Bu kutish davri mobaynida, Xudoning huzuriga kirishim tobora qiyinlashib boraverdi va oqibatda bu umuman imkonsizdek tuyulib qoldi. Men ibodatga har qachongidan ko'ra ko'proq vaqt ajratishni boshladim, ammo hech qanday natija bo'lmadi. Bundan tashqari, mening yoshlar xizmati uchun olgan g'oyalarim o'z ahamiyatini yo'qota boshladi (eski sharob to'kilib ketayotgan edi). Qancha ibodat qilsam, mening xizmatimning shashti shuncha pasayib ketaverdi. Tashqi tomondan hech narsa o'zgarmagan bo'lsa-da, biroq ichimdagi intilish susayib borar edi.

Men yoshlar xizmati boshlangunicha soatlab ibodat qilar edim, hatto bir-ikki marta Xudodan, voizlik qilish uchun biror kishini yuborishini yolvorgan edim. Men xizmatga bo'm-bo'sh holda jo'nardim, ammo xizmat payti Xudoning huzuri meni yoping'ichdik qoplar edi. Xizmatni tugatib, uyga yetay deb qolganimda, Uning huzuri bir-necha haftaga, yana qayoqqadir g'oyib bo'lar edi!

Ustiga-ustak, bizning hayotimizga, biz bundan oldin hech qachon boshimizdan kechirmagan tashqi va ichki qiyinchiliklar boshlandi. Men bularning bariga, ehtimol, o'zim sababchiman deb o'ylab, har bitta esimga tushgan gunohlarim uchun tavba qilar edim, ammo qurg'oqchilikdan ozgina bo'lsa-da yengillik sezilmasdi.

Bir kuni qaytadan gunohlarim uchun tavba qilishga uringanimda, Rabbiiy shunday dedi: "Sen bu cho'lga gunoh qilganing uchun kelganing yo'q! Men seni oldindagi o'zgarishlar uchun tayyorlayapman".

Xudo xizmatimning keyingi bosqichidagi Uning da'vatini qabul qilishim uchun zarur bo'lgan ichki fe'l-atvorimni rivojlantirayotgan edi. Keling, Isha'yo 43:18-19 ni o'qiyimiz:

"Sizlar avvalgilarini esga olmaysizlar va qadimgilar haqida mulohaza qilmaysizlar. Mana, Men yangisini bunyod qilyapman. Endi u unib chiqadi. Nahot buni ham bilishni istamaysizlar? Men sahroda daryolar va dashtda yo'l o'tkazaman".

Kitobning davomida, Rabbiiy O'z vaqtida, qanday qilib mo'jizaviy tarzda "tayyorlab qo'yilgan o'zgarishlar"ni namoyon qilganini so'zlab beraman. Bu vaqt ichida, hatto, cho'ldagi eng og'ir kunlarimda ham, Rabbiiy meni yangi tug'iladigan xizmatga tayyorlayotgan edi. Bu xizmatning ta'siri butun Amerika bo'ylab, keyinchalik butun dunyo bo'ylab yoyildi.

Do'stim, Xudo yangi sharob kelganida, sizdagi eski sharobni to'kib tashlaydi. Siz eskisiga qaytishni istamasligingiz uchun, yangisi bilan birga sinovlar ham keladi.

6


SAMOVIIY MUKOFOT

“Ba’zi odamlar o’zining o’tmishiga qaytadilar va qachonlardir boshdan kechirgan mashaqqatlarini kovlaydilar, so’ngra kelajakka qarab, ularda yanada ko’proq qiyinchiliklar bo’lishini kutadilar, shunday asnoda ular butun hayoti davomida tebranib va ikkilanib yuradilar”.

- D. L. Mudi

“Birodarlarim, men o’zimni bularga erishganman, deb hisoblamayman. Faqat orqamdagilarni unutib, oldimdagilarga intilyapman. Men bir maqsad sari, ya’ni, Iso Masihdagi Xudoning oliy unvonining sovrini sari intilyapman”.

- Filippiliklarga 3:13-14



Havoriy Pavlus Yangi Ahd maktublarining uchdan ikki qismini yozgan va ma'jusiylar orasida ko'plab jamoatlarga asos solgan shaxsdir. Uning xizmati butun dunyo bo'ylab tarqalgan, biroq hayotining yakunida u shunday degan: *"Men hali erishganim yo'q"*. U qanoatlanmagan va o'z masofasining yakuniga yetib bormaguniga qadar va samoviy mukofotni olmaganiga qadar tinchlanish payida bo'lmagan.

O'z masofamizni yakunlash va mukofotni olish uchun, biz birinchi navbatda hali bunga erishmaganligimizga o'z yuragimizda qat'iy ishonchga ega bo'lishimiz lozim.

Biz hali komillikka erishmadik; biz o'zgarishda va o'sishda davom etishimiz lozim.

Muso ham buyuk da'vatga ega bo'lgan, u uch millionli xalqni boshqargan va boshqalarga qaraganda qadimgi ahd mo'jizalarining va alomatlarining eng ko'p ishtirokchisi bo'lgan. Lekin Xudo Musoni yer yuzidagi eng kamtar (o'rganadigan) inson deb aytgan. U o'zini erishgan deb hisoblamagan, biroq o'zining masofasini tugallash va samoviy mukofotni olish uchun oldinga borishda davom etgan. O'sish va o'zgarish uchun, bizlar o'rganuvchan bo'lishimiz zarur.

Biz Xudo uchun o'z yo'limizni tugallash maqsadida qilishimiz lozim bo'lgan ikkinchi narsa, bu orqada qolgan hamma narsalarni (yutuqlarni va g'alabalarni) unutushimiz lozim!

Xudo Isha'yo 43:18-19 da yana quyidagilarni aytyapti:

“O‘tmishdagini unutinglar; Kechmish haqida o‘ylamanglar. Mana, Men yangisini qilyapman! U allaqachon sodir bo‘lyapti – nahotki tushunmasangiz? Men cho‘lda yo‘l, va qaqragan yerda daryo o‘tkazyapman”.

O‘tmishdagi muvaffaqiyatsizliklar, xo‘rlanish yoki gunohlar haqida doimiy ravishda fikrlash, Masihda oldinga yurishga yo‘l qo‘ymaydi. Biroq, bizni o‘tmishdagi g‘alabalar ham ushlab qolishi mumkin. Agar biz o‘zimizga bino qo‘ysak yoki o‘zimizga haddan ziyod ishonsak va o‘tmishdagi yutuqlarimizdan tasalli olib o‘tiraversak, Xudo biz uchun hozir tayyorlab qo‘ygan narsalarni qo‘ldan boy beramiz. Xudo Isha‘yo 43-bobda aynan shuni nazarda tutgan. Ilgarigi harakatlar ham Undan bo‘lgan, lekin oldinga yurish va U biz uchun belgilagan narsalarni amalga oshirishimiz uchun, Xudo avval boshqargan yo‘llarni qoldirishga tayyor bo‘lishimiz lozim. Aks holda biz eski mesh bo‘lib qolish xavfi ostidamiz.

Pavlus mana shu haqiqatni ta’kidlayapti:

“Men go‘dak bo‘lganimda, go‘dak kabi gapirar, go‘dak kabi fikr yuritar, go‘dak kabi mulohaza qilar edim. Ammo voyaga yetgach, go‘dakligimni qoldirdim. Hozir biz go‘yo xira oyna orqali taxminan ko‘rayapmiz, o‘sha kunda esa yuzma-yuz ko‘ramiz. Hozir men qisman bilmoqdaman, ammo o‘sha kunda men o‘zim tanib-bilingandek tanib-bilaman” (1-Korinfliklarga 13:11-12).

Bolani nohaq deb aytib bo‘lmaydi: u shunchaki hali yetuk emas. Men besh yoshda bo‘lganimda, mening dunyoim o‘yinchoq avtomobillar va qurilmalardan iborat edi. Alifboni aytib berish katta yutuq deb hisoblar edim. O‘sha paytlar men hayotni xira oyna orqali ko‘rar edim, chunki uning murakkab va bepoyon masalalarini anglay olish uchun yetarlicha yetuk emas edim.

Men o‘n sakkiz yoshga kirganimda esa, o‘yinchoq avtomobillar va qurilmalar o‘tmishda qolgan edi. Endi yillar o‘tib, men hayotga xira

Cho'ldan qanday o'tish kerak

#6 Nima qilish kerak emas.

Xudoning So'zi bizga isroilliklarning sahradagi o'kinchli tajribasi haqida aytganiga asosan, biz qaqshagan joyda vaqtinchalik bo'lgan vaqtimizda, qilishimiz kerak bo'lmagan ba'zi narsalar bor. Aslida bu ro'yxat masihiylik hayotining har qanday mavsumiga taalluqlidir, ammo ehtimol, biz sahrada bo'lganimizda ushbu gunohlarning vasvasasi kuchliroq bo'ladi va biz bundan qiynalamiz. Mana biz qilishimiz kerak bo'lmagan ishlarning asosiy bandlari yoki hech bo'lmasa qisman ro'yxati.

1. Yovuzlikka nisbatan hirsli bo'lish. Ba'zan, ayriliqlardan so'ng noto'g'ri narsalar, o'zimizni yaxshiroq, hatto baxtiyorroq his etishga yordam beradi deb o'ylaymiz.
2. Butparast bo'lish. Bu bizning istaklarimiz Xudoning So'ziga qarshi ekanini bila turib ularga intilishni anglatadi, shuningdek, biror kishini yoki biror narsani Isodan ko'ra ko'proq sevishni bildiradi.
3. Zino va axloqsizlik vasvasasiga og'ish.
4. Rabbiyni sinash.

oyna orqali qaramas edim. Mening ilg'ash darajam va qobiliyatim o'sgan edi. O'n sakkiz yoshli kishi besh yoshli bolaga o'xshab yo'l tutsa, bu normal hol emas. Ulg'ayib, bizlar ilgarigi bolalik yo'llarini va tushunchalarni qoldiramiz yoki ularni unutamiz, ular endi bizning ehtiyojlarimizni qondirish va istaklarimizni bajarishda ish ham, foyda ham bermaydi.

Xuddishuningdek, biz Xudoda o'sganimizda va hayot bosqichlaridan o'tayotganimizda, ilgarigi xom narsalarni qoldirishimiz lozim. Pavlus biz hozir Xudoning yo'llarini va Uning shuhratini xira ko'rmoqdamiz, lekin samoviy mukofotga qanchalik ko'p intilsak, to Xudoni yuzmayuz ko'rmagunga qadar, shunchalik aniqroq ko'rishimizni aytgan.

5. Nolish, nolish, nolish.

Pavlus Korinfdagi imonlilarga yozgan birinchi maktubida, biz sahodagi otalarimizdan qanday yo'l tutmaslik kerakligi haqida ko'p narsalarni o'rganishimizga ishora qilyapti:

Birodarlarim, sizlar bu haqida bilimsiz qolishingizni xohlamayman: otalarimizning hammasi bulut ostida bo'lgan edilar va dengizning o'rtasidan o'tgan edilar. Lekin Xudo ularning ko'plariga iltifot qilmadi, zero ular sahroda yo'q qilindilar. Ular yovuzlikka hirs qo'yanlariday, bizlar ham yovuzlikka hirs qo'ymasligimiz uchun ular bizlarga namuna bo'ldilar. (1-Korinfliklarga 10:1, 5-6)

Isroilliklar o'zlarining qilmishlari uchun katta narx to'ladilar; shunday ekan, kelinglar, ularning misolidan dars olamiz.

Do'stim, siz sahroda Xudoning yo'llarini va hatto, Uning yuragini topishingiz mumkin, lekin siz matonatli bo'lishingiz va o'z yuragingizda sabot bilan: "Xudo, men Sening ezgu Xudo ekaningga, men Sening ezguligingni va sevgingni his etmaganimda ham, Sen meni sevishingga ishonaman" – deyishingiz zarur.

Boshqacha so'zlar bilan aytganda, biz Xudoni, U bizni bilgani kabi bilib olamiz!

Pavlus ta'kidlab o'tgan samoviy mukofot nima? U ushbu savolga oldingi oyatda javob bergan. Filippiliklarga 3:10 da shunday deb yozilgan: "Xudoning samoviy mukofoti – bu Uning O'g'li Iso Masihning suratiga o'xshab o'zgarishdir – U bizni tanib bilganidek, biz Uni tanib bilishimizdir!" Biz maqsadga erishmagunimizcha, chekinmasligimiz zarur. Buning uchun hech qachon Xudoning yuragini qidirishdan to'xtamasligimiz lozim.

Samoviy mukofotga erishishimiz uchun qilishimiz kerak bo'lgan uchinchi narsa bu "maqsadga intilishdir". Intilish biz qarshiliklar yoki

bosim bilan to'qnash kelishimizni anglatadi. Rabbiyni tanib-bilishga nisbatan qarshilik mavjud.

Shayton uchun eng buyuk tahdid – bu Iso Masihning suratiga o'zgargan inson hisoblanadi, zulmat kuchlari boshqalarga qaraganda, bunday kishiga qarshi ko'proq g'azab bilan kurashadi. Imonlilar Iso Masihning suratiga o'zgarganida, ular o'zlari uchun yashamaydilar, biroq ularning ichida yashaydigan Iso uchun yashaydilar. Bu imonlilar o'zlarining Masihdagi hayoti bilan bu dunyoga yanada ko'proq ta'sir o'tkazadilar. Mana nima uchun Pavlus Uni tanib-bilish uchun, biz Uning azoblarida ishtirok etishimiz kerakligi haqida aytgan. U aytgan tanaviy azob – bu mendagi “menimni” o'lishidir, uning ortidan esa tirilish hayoti keladi! Petrus shunday deb yozgan:

“Shunday qilib, Masih biz uchun O'z tanasi bilan azob chekkanidek, sizlar ham xuddi shu fikr bilan qurollaninglar. Chunki tanasi bilan azob chekayotgan odam gunoh qilishdan to'xtaydi, toki bu tanada qolgan vaqtida insoniy hirsalar bo'yicha emas, balki Xudoning irodasi bo'yicha kun kechirsin” (1-Petrus 4:1-2).

Tanasida azob chekkan odam, o'zi bilgan yo'ldan bormaydi va bu dunyoning gunohli maqsadlariga intilmaydi. Shunda bizda Masihning tabiati amal qiladi! Bu biz erishishimiz lozim bo'lgan nishondir!

Masih bilan azob chekib

Masihning azoblari nima? Ko'plab odamlar, ayrim diniy ta'limotlar Muqaddas Kitobning ushbu atamasini buzgani uchun, buni noto'g'ri tushunadilar. Masih bilan azob chekish kasallikdan o'lishni yoki hisoblarni to'lash uchun yetarlicha pulga ega bo'lmaslikni bildirmaydi. Bu bir necha haftalab ozuqasiz qolib, o'zingizni Xudoga qurbon qilib ko'rsatish ham emas. Azob – bu jafo emas; bu itoatkorlik! Ibroniylarga Maktubining muallifi Masih azoblari nima ekanini aniq ko'rsatyapti:

“Masih tanadagi kunlarida Oʻzini oʻlimdan qutqarishga qodir boʻlgan Xudoga kuchli faryod hamda koʻz yoshlari bilan ibodatu iltijolar qildi va xudojoʻyligi tufayli Uni Xudo eshitdi. U Xudoning Oʻgʻli boʻlsa ham, azob chekish orqali itoat qilishni oʻrgandi” (Ibroniylarga 5:7-8).

Iso itoatkorlikni oʻzi bilan olib kelmadi; U itoat qilishni oʻrganishi lozim edi. Unga itoat qilmaslik osonroq boʻlgan paytda, U Oʻz Otasiga boʻysunishni oʻrgandi. U odamlarga emas, Xudoga maʼqul boʻlishga intilar edi. Iso Uning itoati natijasida, odamlar koʻproq foyda koʻrishini bilar edi. Petrus haqiqiy azob insoniy istaklar boʻyicha emas, balki Xudoning irodasi bilan yashashni bildirishini koʻrsatdi. (1-Petrus 4:2).

“Masihning azoblari” iborasi Xudoning yoʻli bilan borishni anglatadi, bizning ongimiz, hissiyotimiz va tuygʻularimiz bizni begʻamlik, bu dunyoga qoʻl berish va lazzat tomonga tortadi. Bu koʻpincha toʻqnashuv avjiga chiqqanda sodir boʻladi, Xudo bizga bir yoʻnalish boʻyicha yurishni buyurganida, bizning doʻstlarimiz, oilamiz, hamkasblarimiz va boshqalar bizni boshqa yoʻl bilan borishimizni istaydilar. Afsuski, odatda bunday qarshilik, bizning eng yaqinlarimiz tomonidan keladi. Ushbu haqiqatning biz uchun misol boʻlgan tomonini – Petrus Isoning oʻlimi va uning dafn etilishi bilan rozi boʻlmaganida koʻramiz:

“Shu vaqtdan boshlab, Iso Oʻzining Yerusalimga borishi va oqsoqollar, oliy ruhoniylar, ulamolardan koʻplab azob chekib, oʻldirilishi va uchinchi kuni tirilishi kerakligini shogirdlariga ochiq ayta boshladi. Shunda Petrus Uni chetga chaqirib, taʼna qila boshladi va Unga: – Oʻzingga rahm qil, Hazrat. Sen bilan bunday boʻlmasin! – dedi. Lekin U oʻgirilib, Petrusga: – Yoʻqol Mening oldimdan, shayton! Sen Men uchun vasvasasan, chunki sen Xudoning narsalari haqida emas, balki insonning narsalari haqida oʻylayapsan, – dedi” (Matto 16:21-23)

Iso O'zining shogirdlariga gapirib, U Xudoga bo'ysunishi uchun Yerusalimga borib, azob chekishi, o'ldirilishi va uchinchi kuni tirilishi kerakligini oshkor qildi. Shubhasiz, Petrus Isoning tirilishi haqidagi gaplarini eshitmadi, bo'lmasa, u Iso O'zining yaqinlashayotgan o'limi haqidagi gaplarini eshitib, bunchalik hayajonga tushmas edi.

Nahotki siz Petrus o'ylagan narsalarni eshitmayapsiz?

“To'xta, axir Sen – Masih-sanku (bu unga hozirgina ochilgan edi) va Sen Isroilning shohligini tiklashing va mustahkamlashing kerak. Men Senga ergashish uchun o'zimning ishimni, xotinimni va oilamni qoldirdim. Qolaversa do'stlarimni yo'qotdim. Men Sening ortingdan borish uchun juda ko'p vaqtimni sarfladim va endi mening muayyan obro'yim bor. Sinagogalarning yetakchilari Seni aqldan ozgan deb o'ylashadi. Gazeta va jurnallar Sening turgan-bitganing ziddiyat ekani haqida yozishadi. Sen ijtimoiy tarmoqlarda eng ko'p muhokama etiladigan mavzus va ko'pchilikning fikri Sen tarafdin emas. Ko'plab obro'li dinshunoslar va rahbarlar Seni bid'atchi deb hisoblashadi. Endi esa Sen o'lim haqida gapiryapsan. Men bilan esa nima bo'ladi? Sen bilan birga bo'lish uchun sarflagan vaqtim zoya ketadi va men faqat yomon otliq bo'lib qolaman”.

Petrus o'ylab o'tirmay dedi: “Yo'q, Rabbiy! Sen bunday qilolmaysan!” (o'z so'zlarim bilan aytganda).

Iso shu zahotiyiq, Petrusni xudbinga o'xshab, dunyoviy-larcha fikr yuritayotganini ko'rsatishga majbur bo'ldi. Petrus Xudoning ko'zlari bilan qaramadi. Bu dunyo o'z manfaatini ko'zlashni shaytondan o'rgangan (shayton dunyoning xudosi (2-Korinfliklarga 4:4). Osmon shohligi – buning to'liq teskarisidir. Shu bois, Xudoning irodasini bajarish uchun, biz o'zimizning madaniyatimizning oqimiga qarshi borishimiz lozim, hattoki, tafakkuri bu dunyoning ta'siri ostiga tushib qolishga o'ta moyil bo'lgan “Rabbiydagi ba'zi birodarlar va opa-singillarga” qarshi borishga to'g'ri kelsa ham. Petrus yomon odam

bo'lmagan, biroq bu masalada uning fikrlari Masihning emas, balki bu dunyoning ta'siriga tushib qolishga moyil bo'lgan. U bunday o'zgarishlarga qarshilik qilgan, chunki ularning bari qanday sodir bo'lishi kerakligini boshqacha tasavvur qilgan.

Kan'on yerini ko'rishga borgan ayg'oqchilar ushbu haqiqatning yana bir misoli bo'la oladi. Xudo Musoga va'da qilgan Yerni o'rganib kelish uchun odamlarni yuborishini buyurgan paytda, isroilliklar bir yildan ortiq vaqt davomida sahroda yurgan edilar. Xudo ular bu yerni zabt etishlarini istagan edi. Muso har bitta qabiladan bir kishini olib, ulardan o'n ikkita sardorni tanladi. Ularning ikkitasi Yoshua Nun o'g'li va Kaleb edilar.

Ayg'oqchilar yerni o'rganib qaytganlaridan so'ng, ular ko'rgan narsalar va ularning nima qilish kerakligi to'g'risidagi gaplari bir-biriga qarama-qarshi edi. Ularning o'ntasi shunday dedilar:

“Ular unga so'zlab dedilar: “Sen bizlarni yuborgan yerga bordik, haqiqatan ham unda sut va asal oqmoqda, mana bular — uning hosillari. Biroq u yerda yashaydigan xalq kuchli va shaharlari mustahkamlangan, o'ta katta shaharlar. Boz ustiga, biz u yerda Anak o'g'illarini ko'rdik. Lekin Kaleb xalqni Musoning oldida tinchlantirib: “Borib, uni bosib olamiz, chunki biz ularni yenga olamiz”, — dedi. U bilan birga borgan kishilar esa: “Biz bu xalqqa qarshi bora olmaymiz, zero ular bizdan kuchliroq”, — der edilar. (Sonlar 13:28-29, 31-32).

Kaleb va Yoshua Nun o'g'li boshqacha xabarni keltirdilar:

“Lekin Kaleb xalqni Musoning oldida tinchlantirib: “Borib, uni bosib olamiz, chunki biz ularni yenga olamiz”, — dedi... agar Rabbiy bizga iltifot qilsa, U bizni o'sha yerga olib boradi va uni: sut va asal oqadigan yerni bizga beradi. Faqat Rabbiyga qarshi isyon qilmanglar va u yerning xalqidan qo'rqmanglar, zero ular bizning o'ljamiz bo'ladi. Ularning himoyasi yo'q, bizlar bilan esa Rabbiydir; ulardan qo'rqmanglar” (Sonlar 13:31; 14:8-9).

Va'da qilingan yerni o'rganib chiqish uchun o'n ikki kishi jo'nab ketdi. Ular o'sha yerlarni, shaharlarni va odamlarni ko'rdilar. Nima uchun ularning o'ntasi bitta xabar bilan, ikkitasi esa umuman teskari xabar qaytib keldilar? Gap ularning vaziyatga bo'lgan munosabatida edi!

Xudo Kaleb va Yoshua Nun o'g'lining ichida o'zgacha ruh bo'lganini aytdi, chunki ular Xudoga to'liq bo'ysunishgan (Sonlar 14:24). Boshqacha so'z bilan aytganda, ular insoniy istaklardan Xudoning irodasi tomonga o'tdilar. Ular vaziyatga o'zlarining hayotini saqlab qolish istagi bilan emas, balki Xudoning ko'zlari bilan qaradilar. Bu o'nta ayg'oqchi nima sababga ko'ra o'sha bir xil narsalarni Yoshua Nun o'g'li va Kalebga o'xshab ko'rmaganliklarini tushunishning kalitidir. O'nta ayg'oqchi Xudoning istaklaridan ko'ra, ko'proq o'zining shinam hayoti, xavfsizligi va oilasi haqida tashvish qilishdi. Ular Xudoning Shohligi emas, balki o'zlarining hayoti haqida o'ylashdi. Xudo ularni hech qachon qoldirmasligini va U ularni chaqirgan hamma narsada ularga muvaffaqiyat berishini anglamadilar. Xalqning orasidagi boshqalar ham noto'g'ri tafakkurga ega bo'lishgan, chunki ular shunday dedilar:

“Isroilning barcha o'g'illari Muso va Aharonga nolib, butun jamoa ularga dedi: “Qani edi, bizlar Misr yerida o'lganimizda edi yoki mana shu sahroda o'lganimizda edi! Nima uchun Rabbiiy bizni ushbu yerga bizlar qilichdan qulashimiz uchun olib bormoqchi? Bizning xotinlarimiz va bolalarimiz dushmanlarga o'lja bo'ladi-ku. Bizlar Misrga qaytganimiz yaxshi emasmi?” (Sonlar 14:2-3).

Isroilliklar Misrdagi “yaxshi kunlarni”, ular to'yib yegan kunlarni, ularning hayotida muayyan barqarorlik bo'lganini esladilar. Garchi ular Misrda qul bo'lgan bo'lishsa ham, ular to'qnash kelgan vaziyat, ularning qulligidan og'irroq bo'lib tuyuldi. Ularning hammasi zarur bo'lgan o'zgarishlarga qarshi chiqdilar. Garchi ularning ko'chmanchi hayot tarzi va ozuqasi namunali bo'lmasa ham, ular ko'nikib qolgan

sahroda o'zlarini xavfsizlikda his qilishni boshladilar. Natijada, ular va'da qilingan Yerni ko'rmadilar va o'zlarining hayotidagi Xudoning irodasini bajarmadilar.

Biroq Yoshua Nun o'g'li va Kaleb maqsadga intilishlari lozim edi. Ular to'qnash kelgan qarshilik, o'zlarining "birodarlari" tomonidan yuzaga keldi. Xalq ularni bu haqda batamom, og'iz ochmay yurishga majburlamoqchi bo'ldilar. "Butun jamoa esa: —Ularni toshbo'ron qilinglar! — dedi"". (Sonlar 14:10). Yoshua Nun o'g'liga va Kalebga qarshilik qilgan kishilar yangilangan tafakkurga ega emas edilar, ular hali hanuz bu dunyoga o'xshab o'ylashga va ko'rishga moyil edilar. Ular o'zlarining yo'llariga ... va sahro tafakkuriga chirmashib olishgan edi.

Yoshua Nun o'g'li va Kalebga o'xshab, havoriy Pavlus orqadagilarning barisini unutish va maqsadga, samoviy mukofotga intilish kerakligi haqida aytgan (Filippiliklarga 3:14).

Keling yana Isha'yo 43:18-19 ni o'qiymiz; ushbu nasihat bugun bizni shubhasiz ruhlantiradi:

"O'tmishdagini unutinglar; Kechmish haqida o'ylamanglar.

Mana, Men yangisini qilyapman! U allaqachon sodir bo'lyapti — nahotki tushunmasangiz? Men cho'lda yo'l, va qaqragan yerda daryo o'tkazyapman".

Afsuski, bugun ham ko'pchilik Xudoning irodasini bajarib g'alabaga intilishning o'rniga, o'zining "xavfsiz" qulligida qolishni afzal ko'radi. Ular oldindagi, o'zlarining o'rganib qolgan, lekin sitamli hayotidan boshqacharoq bo'lgan o'zgarishlardan qo'rqadilar. Xudo hayotida shu paytgacha amalga oshirgan narsalar bilan kifoyalanadigan odamlar ham bor, ular yangi cho'qqilarga ko'tarilishni istamaydilar. Aslida Xudo ular orqali buyuk ishlarni amalga oshirdi, biroq ular oldingi yutuqlari bilan to'xtab qolishdi.

Xudoning irodasiga bo'ysunish hayot va ozodlikni keltiradi, shuningdek, bu chinakam qanoatni topishning yagona yo'lidir. Biroq

samoviy mukofotga intilish sizning hozirgi vaziyatingizda imkonsizdek tuyulishi mumkin. Xudo Isha'yo payg'ambar orqali yangi narsani qilishini, biroq bu yangi narsa sahroda sodir bo'lishini aytyapti. Boshqacha so'z bilan aytganda, biz Xudoning irodasini bajarish uchun, Uning Ruhining ketidan ergashganimizda, bizga imkonsiz bo'lib tuyulgan vaziyatga tushib qolamiz. Ammo biz bilamiz – inson uchun imkonsiz bo'lgan narsa, Xudo uchun imkonlidir (Luqo 18:27). Sizning hozirgi sahrongizining narigi tomonida g'alabalar, qanoatlanish va to'laqonli hayot bor.

Xudoning istaklarini qabul qilishni istamagan o'nta ayg'oqchilarga va o'sha qarshi turgan odamlarga o'xshamang, bu odamlar ularni sahrodagi yo'qchilikdan ozod qiladigan o'zgarishlarga qarshilik qildilar. Buning o'rniga va'da qilingan Yer sari – siz uchun tayyorlab qo'yilgan, Xudoning samodagi mukofotiga qattiq ishonch bilan intiling!

7


XUDONING YUKSAK YO‘LI

“Qiyinchiliklar – bu oddiy qurol emas. Qiyinchiliklar bizning ruhiy hayotimizni oldinga siljitish uchun eng samarali quroldir. Biz inqiroz sifatida qarayotgan vaziyatlar va hodisalar ko‘pincha bizni jo‘shqin ruhiy o‘sish bosqichlariga olib keladi. Biz buni tushunishni boshlagan va ruhiy voqelik deb qabul qilgan zahotimiz, biz uchun qiyinchiliklarni ko‘tarib o‘tish osonroq bo‘ladi”.

– Charlz Stenli

Mana, sahroda xitob qilayotganning ovozi: “Rabbiyga yo‘l tayyorlanglar, Xudoyimizga cho‘lda yo‘lni tekislanglar”.

– Isha‘yo 40:3



Ajblanarlisi shundaki, Xudo aynan cho'l orqali yuksak yo'lni o'tkazdi! Aynan shu yerda Uning yo'li tayyorlanadi – bu Xudo yashaydigan va fikr yuritadigan yuqori yoki tepalikdagi hayot sari yo'ldir.

Butun tarix mobaynida juda oz kishilar bu yo'l bo'ylab Unga ergashishgan. Biroq hozir Xudo ko'plarni bu yo'ldan yurishga tayyorlamoqda. Bu haqda Isha'yo 35:6, 8 da yozilgan:

“Zero cho'lda anhorlar, sahroda esa suvlar yorib chiqadi... U yerda katta yo'l bo'ladi va u yo'l “muqaddas yo'l” deb ataladi”.

Xudoning cho'ldagi yo'li “M-5” yoki “M-10-Yo'nalish” singari belgi raqamga ega emas. U shunchaki *Muqaddaslik* deb ataladi.

Muqaddaslikning ifodalaridan biri – bu “tozalik holati”. Iso dedi: “Yuragi poklar baxtlidir, zero ular Xudoni ko'radilar” (Matto 5:8). Iso nomuqaddas yoki nopok jamoat ketidan qaytib kelmaydi; U dog'siz va nuqsonsiz jamoat ketidan keladi.

Bir marta, bir necha o'n yillar muqaddam, men hali yosh yigit bo'lgan paytimda, xizmatda ilk qadamlarimni bosishni boshlaganimda, ibodat vaqti Rabbiy menga, U mening hayotimni tozalash payida ekanini ko'rsatdi. Men ilhomga to'lib ketganimdan Lizaga dedim: “Xudo mendagi barcha aralashmalarni yo'q qiladi”. Unga Xudo mendagi tozalamoqchi bo'lgan barcha noma'qul narsalarni sanashni boshladim (balki, rafiqam men tilga olmay o'tgan boshqa narsalarni ham qo'shgandir!).

Ammo kelgusi uch oy davomida hech narsa sodir bo'lmadi. Aslida hammasi qaytanga yomonroq bo'la boshladi va men tozalanishga oldingidan ham ko'proq muhtoj bo'lib qolganimni payqadim. Ibodatda men Rabbiydan so'radim: "Nima sababdan mening yomon odatlarim yo'qolishning o'rniga, hammasi battar bo'lyapti?"

"O'g'lim", – dedi U, – "Men senga seni Men tozalamoqchiman degan edim. Sen esa buni o'z kuching bilan qilishga urinding. Endi esa Men buni O'zim istagandek amalga oshiraman". Men o'zimning sahradagi birinchi safarimga otlanayotganim hayolimga ham kelmagan edi, bu safar o'n sakkiz oy davom etdi.

Uning yo'llari – bizning yo'llarimiz emas

Men masihiylik hayotimning boshlang'ich davrida Ti El Osbornning xizmati bilan tanishdim. Doktor Osborn ajoyib xizmatkor va muallif edi. U o'zining rafiqasi Deyzi bilan butun dunyo bo'ylab, bir necha o'n yillar davomida harakat qilgan hamda shifolarga va mo'jizalarga to'lgan zabardast xushxabar xizmatini boshqargan. Ularning xizmati o'n millionlab odamlarni najotga olib keldi.

Shunday ekan, doktor Osborn bizning Jamoatimizda voizlik qilish uchun Dallasga kelganida, men uni kutib olganimdan qanchalik boshim ko'kka yetganini tasavvur eta olasizmi? Bundan tashqari, mening vazifam mehmon bo'lib kelgan voizlarni kutib olish bo'lgani sababli, men u bilan shaxsan tanishdim. Ti El e'tiborni tortadigan odam edi. Men u bilan birga bo'lganimda, go'yo Iso bilan birgadek tuyulardi.

Ti El bizning jamoatimizga bir necha marta keldi va biz bir-birimizga juda yaqin bo'lib qoldik. U menga, yoshligida xizmatga tayyorlangan paytida o'rgangan barcha kitoblarini sovg'a qildi. Shuningdek, u ikki marta o'zining kiyimlaridan ko'p narsalar berdi (bizning o'lchamimiz bir xil edi). O'sha paytlari Liza bilan menda kiyim xarid qilish uchun yetarlicha mablag'imiz yo'q edi; shu bois, bu sovg'alar menga juda ham yordam berdi. O'sha mehmondorchiliklardan so'ng, u bilan

Deyzi men va Liza uchun ota-onadek bo'lib qolishdi.

Bir necha yillar avval, men hali amerikaning bitta shirkatlaridan birida ishlagan paytim, Ti El Osborn voizlik qilayotgan xizmatlarning birida Muqaddas Ruh menga pichirladi: “Shunday payt keladiki sen unga xizmat qilasan. Sen doktor Osborn bilan birga ishlaysan”. Shundan keyin, bu men uning jamoasida bo'lishimning tasdig'i va kelajakda unga o'xshab xushxabar xizmatini boshlayman deb o'yladim.

Lekin hech narsa sodir bo'lmadi; men hali hanuz sahroda edim. Osbornlar xizmatining markaziy ishxonasi Talsada joylashgan edi, lekin ular Orlandoda yashar edilar. Vaqt o'tardi va men o'z xizmatimni boshlash uchun ichimda shunchalik kuchli bosim bor ediki, Osbornlarga yaqinroq bo'lish uchun Orlandoga ko'chib o'tishim kerak deb qaror qildim. Mening maqsadim ikki yoqlama edi. Birinchidan, Ti El men endi birorta ham jamoatda xizmat qilmayotganimni tushungan bo'lar edi, chunki u yaxshi nomga ega halol inson edi. U meni bizning jamoatimizdan olib ketib, o'zining xizmatiga olmasligini bilar edim. Ikkinchidan, agar Orlandoga ko'chib o'tsak, Liza bilan men uchun ularning xizmatiga qo'shilish osonroq bo'lar edi. Florida shtatining ana shu shahriga ko'chib o'tsam, men u bilan yaqin masofada bo'lgan bo'lar edim.

Albatta, men mulohazalarimda biroz oshirib yuborganimni bilaman. Men Xudoga, mening haqiqiy da'vatimga yo'naltirishida “yordam” berishni juda ham istagan edim.

Shunday qilib, men Dallasdagi cho'ponimga xizmatdan ketishim va Orlandoga ko'chib o'tishim haqida xabar berishim uchun uchrashishni so'radim. Lekin o'sha uchrashuvdan bir kun oldin turli xil shaharlardan uchta cho'pon menga qo'ng'iroq qildi. Ularning har biri, men ertasi kuni nima qilmoqchi bo'lganimni bilib olib, bir xil savol berdi: “Liza sen bilan to'liq rozimi?”

U rozi emas edi. U bir necha bor menga: “Jon, men senga bo'ysunaman, lekin sen noto'g'ri ish qilayotganingni yuragim bilan sezyapman” – der edi.

Men uning gaplariga qo'limni siltardim. Men: “Liza shunchaki

tushunmayapti va men oila boshlig'i bo'lganim uchun u menga bo'ysunishi shart" – deb o'ylar edim. O'shanda mening fikrlarim qanchalik xom va ahmoqona ekanligini bilsam edim!

Allamahalda menga uchinchi cho'pon qo'ng'iroq qilib, undan oldin ikki kishiga o'xshab, o'sha bir xil savolni berganida, mening ichimda nimadir sindi. Mening ko'zlarim ochildi va men Xudoga O'z rejasini amalga oshirishi uchun yo'l berishning o'rniga, Unga yordam bermoqchi bo'lganimni ko'rdim.

Keyingi kuni Liza bilan men cho'ponim va uning rafiqasi bilan uchrashdik. Men ular ikkoviga nima sababdan uchrashishni so'raganimni, biroq o'sha o'tgan kechadagi uchta qo'ng'iroqdan so'ng fikrimni o'zgartirganimni aytdim. Ular ikkalovi ham menga iltifot ko'rsatishdi va Liza bilan menga xizmatda qolishimizni istashlarini aytdi. Shunda men xizmatimni davom ettira oldim.

Men yelkamdanda bir og'ir yuk tushganini his etdim va Xudoning O'zi biz uchun harakat qilishiga tayyor edim. Tozalanish jarayoni hali tugamagani umuman hayolimga kelmagan edi. O'sha kunning o'zida mening ustimga yana bitta to'lqin yog'ildi.

Cho'ponim va uning rafiqasi bilan bo'lgan uchrashuvdan bor yo'g'i olti soat o'tgandan so'ng, jamoatimizning boshqa ishchilari bilan birga basketbol o'ynash uchun uyimda sport kiyimimni kiyayotgan paytim, telefon jiringlab qoldi. Bu Ti El Osborn edi! Ochig'ini aytsam, men qotim qoldim!

To'qson daqiqa davom etgan ushbu telefon orqali bo'lgan suhbatda u Liza bilan menga, ularning xizmatida ish taklif qildi. Biz Deyzi bilan unga yordam berishimiz kerak edi, shuningdek, ular bilan birga butun dunyo bo'ylab safar qilishimiz kerak edi. Qolaversa, biz boshqa jamoatlarga asos solish uchun o'rnak bo'ladigan jamoatni boshlashimiz kerak edi. Bundan maqsad ularning butun dunyo bo'ylab katta xushxabar yig'inlarini o'tkazayotgan joylarda jamoatlar boshlash edi.

Ushbu telefon suhbat chog'ida men nuqul o'yladim: "Otam, Sen harakat qilishingni bilar edim, lekin Sen buni shunchalik tezlik

bilan amalga oshirganingdan hayratdaman!” Ti El bilan telefon orqali suhbat qilganimda, men boshimdan kechirgan hayratimni va ko’taringki ruhda bo’lganimni aytishga til ojiz. Bu men kutgan sahrodan chiqishning yo’li ekaniga ishonchim komil edi. Men naqadar baxtiyor edim! Men sakrasam boshim uyimizning tepasiga borib uriladigandek tuyulardi. Go’shakni qo’yib, men Xudoga rahmatlar aytdim, lekin ruhimda taqiq va tebranishni sezdim. Bu yoqimsiz va ichni chuqur tilka-pora qiladigan hissiyotga o’xshar edi.

Men shunday deb o’yladim: “Yo’q, Xudoyim, yo’q, yo’q, yo’q, Sen bunday qila olmayсан! Sen menga buni bir necha yillar avval, vaqti kelib men Ti El Osborn uchun ishlashimni va’da bergan eding! Sen endi buni taqiqlay olmayсан!”

Taqiq hissi meni tark etmasdi. Ketma-ket uch kun davomida men ibodatda bor kuchim bilan buni o’zimdan haydashga va xavotirdan qutulishga harakat qildim. “Xudoyim, menga bu ishni boshlash uchun quvonch ber!” – deb xitob qilar edim. Liza ham taqiqni his qilgan edi, garchi u ham Osbornlar bilan ishlashni juda istagan bo’lsa-da.

Axyri, men bu tebranish Xudodan ekaniga ishonmaslikka qaror qildim (bu mening yana bitta xom va xavfli qadadim edi). Shunday qilib, Liza va men Oklaxomaga uchib ketdik va go’yo hammasi qovushgandek edi. Ti El va Deyzi bizga rasmiy ish taflik etishdi va Tavallud oqshomida ular bizni xizmatidagi butun jamoasi bilan tanishtirdi.

Biz Dallasga qaytib bordik va men jamoatdagi lavozimimni qoldirdim. Biroq taqiq hissi meni tark etmas edi. Men soatlab ibodat qilar edim, lekin baribir o’sha xavotirni his etardim. Men ko’proq ibodat qilib bu yoqimsiz hissiyotdan qutulishga urinardim, ammo hech nima o’zgarmas edi.

Oxir-oqibat men Lizaga dedim:

- Men nima bo’layotganini bilmayman, lekin nimadir joyida emas.
- U: Men ham shuni his qilyapman, – deb gapimga qo’shildi.

Men Ti Elga qo’ng’iroq qilib nimalarni his qilayotganimni aytib berdim. U:

- Kel ko'rishamiz va bu haqda gaplashamiz deb, – taklif qildi.

Biz Talsaga uchib bordik va ikki soatlik uchrashuvdan so'ng, Ti El dedi:

- Biz sizlarga ushbu lavozimni sizlarni chindan ham sevganimiz uchun va sizlar ham bizlarni sevishingizni bilganimiz uchun taklif qildik. Lekin biz buning ketida Xudo turgani yo'q deb o'ylashni boshlayapmiz.

- Men ham nima bo'layotganini tushunmayapman, lekin siz haqsiz deb o'ylayman – dedim men.

Men bu so'zlarni o'z og'zim bilan aytganimga ishongim kelmasdi. Buni aytilish uchun men o'zimni to'liq tuta olishim kerak bo'ldi. Ti El Osborn bilan birga ishlash butun hayotimning orzusi edi.

O'sha yillar men uydin erta tongda chiqar edim va yarim soatdan to ikki soatgacha ibodat qilar edim. Lekin mening qahramonim Ti El Osborn bilan bog'liq bo'lgan ushbu hodisadan hafsalam pirligidan, ikki hafta davomida erta tongda uydin chiqib ibodat qila olmadim.

Men faqat yig'lar edim. Men oxirgi ikki oy davomida sodir bo'lgan narsalarni esga olib bunga ishongim kelmas edi. Mening g'amimni ta'riflashga til ojiz edi. Men go'yoki sevgan kishimning o'limi ustida ko'z yosh to'kayotganga o'xshar edim. Ikki haftadan so'ng men xilvat joyda bo'lganimda, bor ovozim bilan baqirib dedim:

- Nima uchun?! Nima uchun Sen meni bu taklifdan voz kechishga majburlading? Olti yil muqaddam Sen menga gapirganingda, men u bilan ishlashim to'g'risida aytgan eding. Nima uchun?

O'shanda Rabbiiy menga aytgan so'zini hech qachon unutmayman: "Chunki Men, sen Menga xizmat qilasanmi yoki o'zingning orzuingga xizmat qilasanmi, shuni ko'rmoqchi edim".

Men dovdirab qoldim.

U davom etib dedi: "Ana shu sababdan Men Ibrohimga Is'hoqni qurbonlikka keltirishni buyurdim. Uning Menga bo'lgan sevgisi, Men unga va'da bergan barakaga qaraganda kamroqmi yoki yo'qmi, ko'rmoqchi edim. Bu u faqat o'z orzusini qo'lga kiritish uchun Menga xizmat qiladimi yoki

Cho'ldan qanday o'tish kerak

#7 Do'st tanlashda ehtiyotkor bo'ling.

Ehtimol, bu bizni hayron qoldirmasligi mumkin, biroq ko'pincha bizning eng o'tkir tanqidchilarimiz va eng ashaddiy raqiblarimiz – bizning tarafdorlarimiz deb o'ylagan odamlardir! Ko'pincha quvg'inlar, siz do'stim deb o'ylagan kishilar orqali keladi.

Cho'lda haqiqiy quvg'inlar bo'lishi mumkin va biz Masih ortidan bora turib quvg'inlarga duch kelishimizdan voqif bo'lishimiz zarur. Havoriy Pavlus shunday degan: “Zotan Iso Masihda xudojo'y yashamoqchi bo'lganlarning barchasi ham quvg'in qilinadilar” (2-Timo'tiyga 3:12). Quvg'inlar – bu tozalanish jarayonidir. Kim sizni quvg'in qilishi mumkin? Masalan, qallob odamlar, ular Xudo xalqining orasiga kirib olishgan, ular chetdan imonlidek tuyuladi, aslida esa ularning yuragi Xudoga intilmaydi. Mana nima sababga ko'ra Pavlus Musoga qarshilik qilgan Yanniy va Yambriy haqida yozyapti. Bu odamlar chetdan emas edilar, ular Rabbiiy jamiyatining odamlari edi.

Pavlus boshidan kechirgan bir necha quvg'inlar va

Mening haqgo'yligimga ishonib va Men ushbu orzuni amalga oshirishimga ishonib, Menga xizmat qiladimi, shuni ko'rsatdi”.

Uning so'zlari, men oxirgi ikki hafta ichida kurashgan savollarimga javob bo'ldi. Va o'n sakkiz oy o'tib, birinchi marta mening ruhimdan quvonch otilib chiqdi. Mening hayotim go'yoki qayta gullagandek bo'ldi va men o'sha paytda qanchalik barakaga to'lganimni tushundim. Men go'zal ayolga uylangan edim, bizning ajoyib go'dagimiz bor edi. Men turmush o'rtog'imni va o'g'limni qaytadan sevib qoldim. Biz yangi ko'p qavatli uyda, bor yo'g'i o'ttiz qadam narida joylashgan chiroyli basseyn oldida yashar edik, osmon qariyb har kuni yorqin va serquyosh edi. Men Xudoga ma'qul bo'lish uchun, xizmatga judayam sho'ng'ib

xavf-xatarlarni ta'riflab beryapti va u to'qnash kelgan ba'zi qiyinchiliklar "soxta birodarlar" tomonidan kelganligini aytyapti (2-Korinfliklarga 11:26).

Cho'lda bo'lganingizda yoningizda sizni sevadigan va siz haqingizda g'amxo'rlik qiladigan odamlarga ega bo'lish juda foydali; sizga Xudoning irodasi bo'yicha nasihat beradigan odamlarga. Sizga tanqidchilar va Ayubning turmush o'rtog'i va uning do'stlariga o'xshab, Xudoga itoat qilmaslikka ishontiradigan kishilar kerak emas. Va diyonatli tuzatilish kerak bo'lgan bir paytda, sizga tilyog'lamalik qiladigan soxta payg'ambarlar ham kerak emas. Siz bunday paytda sizni sevadigan va Xudoning donoligi bilan bo'lishadigan odamlar kerak.

Sergak bo'ling. Agar kimdir sizga, cho'lga tushib qolishda o'zingiz aybdorsiz deya, sizni tanqid qilishni va hattoki sizni ayblashni boshlasa, bu odam sizga do'st bo'lmasligi mumkin. Muqaddas Ruh bizning gunohimizni fosh qiladi va ko'pincha U biz o'z gunohimizni o'zimiz ko'rishimizga va tavba qilishimizga yordam berish uchun yana kimnidir ishlatadi. Lekin umid uyg'otmaydigan doimiy ayblovlar dushmandan keladi. Ehtiyot bo'ling!

ketganim sababli buning barchasini sezmagani ekanman.

Hozir barchasini eslab tushunamanki, Xudo aytgani bo'yicha Ti El Osbornaga xizmat qilishga allaqachon muvaffaq bo'lgan ekanman. Chunki u bizning Dallasdagi jamoatimizga kelganida men unga juda ko'p xizmat qilganman.

Endi esa men ishsiz edim. Men jamoatdagi o'z ishimga qaytishim mumkinmi yoki yo'qmi bilish uchun u yerga kamtarlik bilan qaytib bordim. Men cho'ponning yordamchilaridan biri bo'lgan do'stimga qarab aytgan so'zlarim haligacha esimda:

- Menimcha men shunchalik kichikmanki, hatto mana shu eshikning ham ostidan o'ta olaman.

Men aynan shunday aytdim. Men barchaga Ti El va Deyzi qo'lida ishlayman deb aytib chiqqan edim. Cho'ponimiz buni hattoki sahnada e'lon qilgan edi, biroq bu narsa sodir bo'lmadi.

Jamoat xushmuomalalik bilan menga yarim stavkali boshqa ish berdi va men u yerda yana sakkiz oy xizmat qildim. Shundan so'ng, mening da'vatimning keyingi bosqichi boshlandi – bu Xudo meni tayyorlagan xizmat edi. Mendan Amerikadagi eng tez o'sayotgan jamoatlarning guruhiga a'zo bo'lishimni so'rashdi. Men ularning yoshlar cho'poni bo'lishim kerak edi. Bu mo'jizaviy tarzda sodir bo'ldi. Biz Liza bilan, bu Xudoning eshigi ekanini bilar edik. Men allaqachon yangi hayotni boshlagan edim, menda yangi maqsad bor edi, chunki men shu kungacha yangi xizmat uchun tayyorlangan mesh edim va o'z ichimda yangi sharobni olib yurgan edim.

Tozalanish yo'li

Iso yerdan ko'tarilib ketganidan boshlab, aslar davomida, Uning izdoshlari o'z kuchi bilan muqaddaslikka erishishga urinishgan. Bunday puch harakatlarning natijasida, butun boshli jamoat yo'nalishlari yuzaga kelgan. Biz o'zimizni osongina qonunbozchilikka qul qildik, chunki muqaddaslik – bu tashqi tomondan tanani cheklash emas, balki Xudo inoyatining faoliyatidir.

Xudo mag'rurlarga emas, kamtarlarga inoyat beradi. Mag'rur kishi Xudoning yordamisiz ham muqaddaslikka erishib bo'ladi deb o'ylaydi, u yozilgan qoidalarga va qarorlarga ergashadi. Kamtar odam buni befoyda ekanini biladi va Rabbiyning inoyatiga (kuchiga) tayanadi. Xudo bilan yaqin munosabatlar sofdir, chunki faqatgina shunday suhbat orqali odam yuraklarda yozilgan amrlarni bajarish uchun kuch olishi mumkin.

Ko'plarimiz Yangi Ahdning harfiga yoki Muqaddas Kitobdan bo'lmagan muayyan e'tiqodlarga itoat qilish orqali muqaddaslikka erishmoqchi bo'ldik va qarsillab yiqildik. Qonunning harfini bajarish

orqali najotga erishish uchun behuda harakat qilgan ibroniylarga o'xshab, biz ham bu qoidalarni bajarib muqaddaslikka erisha olmaymiz. Ko'plar o'zlarini qonunchilik g'oyalari bilan cheklab, muayyan xulq-atvor yoki harakatlarga amal qilishdi. Ular ichki muqaddaslikka erishishga urinib, tashqi cheklanishlardan foydalandilar.

Lekin Xudo muqaddaslikning tashqi ko'rinishiga qaramaydi; U yuragingizda ichki o'zgarish sodir bo'lishini istaydi, chunki toza yurak toza xulq-atvorga olib keladi. Iso Matto 23:26 da aytgan: "Kosa-yu laganning (yurakning) sirti toza bo'lishi uchun sen avvalo uning ichini tozalagin".

Agar sizning yuragingiz toza bo'lsa, siz Isoning nomiga dog' tushiradigan ishlarni qilishni istamaysiz. Siz internetdagi buzuq saytlardan nari yurasiz yoki shahvat uyg'otadigan kiyimlar kiymaysiz. Ko'pgina erkaklar va ayollar hech qachon ajrashmaganligi bilan maqtanishlari mumkin, lekin ularning yuragi ish joyidagi hamkasbiga nisbatan hirs bilan to'lgan bo'lsa yoki ular vaqti-vaqti bilan internetdagi buzuq suratlarni ko'rsa, buni muqaddaslik deb atash mumkinmi?

Agar sizning yuragingiz toza bo'lsa, kompyuter yoki smartfon sizga foydali materiallarni qidirishingizda pand bermaydi. Texnologiya o'z-o'zidan sizni ifloslantirmaydi. Siz yuragingizda bo'lgan narsalar tufayli ma'lum bir qarorlarni qabul qilasiz. Agarda sizning yuragingiz toza bo'lsa, siz faqat Xudo istagan narsani istaysiz.

Cho'l – bu Xudo bizning maqsadlarimizni va niyatlarimizni tozalash uchun ishlatadigan toblanma joylardan biridir. Xudo O'z jamoatining ortidan qaytib kelishidan oldin, bizning yuraklarimizni tayyorlaydi. Xudo inson o'zining emas, balki Uning shuhratini ko'rsatadigan, Uning surati bo'yicha yaratilgan va Uning tabiatiga muvofiq tarzda ish tutadigan odamlar avlodini ko'taryapti.

“Katta bir uyda nafaqat oltin va kumush idishlar, balki yog'och va sopol idishlar ham bor; ularning ba'zilari sharaflı, ba'zilari esa sharafsizdir. Shunday qilib, kim bulardan (gunohdan/ qonunsizlikdan) o'zini poklasa, u sharaflı, muqaddaslangan va

Egasi uchun foydali, har bir yaxshi ish uchun tayyorlangan idish bo'ladi" (2-Timotiya 2:20-21).

E'tibor bering, ikki turdagi idishlar bor – ular sharaflı va sharafsiz ish uchun ishlatiladi. Yunoncha "atimiya" so'zi, "past" deb tarjima qilinadi, bu so'z "badnomlik, o'pkalamoq, sharmandalik, jirkanchlik" ma'nolarini bildiradi. Yunoncha "time" so'zining tarjimasi esa "hurmat" va u "qimmatli" degan ma'noni bildiradi. Xudo shunday deydi: "Agarda arzimaydigan narsadan qimmatbaho narsani ajratib olsang, Mening og'zim kabi bo'lasan" (Yermiyah 15:19). Qimmatbaho buyum uni aralashmadan sinchiklab tozalash yoki ozod qilish orqali chiqarib olinadi.

Malaxi – qadimgi ahd payg'ambari bo'lib, u yangi ahd davrlari haqida ko'p bashorat qilgan. Lekin gap shundaki, u yangi ahd atamalarini bilmagan. Shuning uchun u, Muqaddas Ruh unga yangi ahd masihiylari haqida aytgan va ko'rsatganlarini ta'riflash uchun "levitlar" va "ruhoniylar" kabi so'zlarni ishlatgan.

Malaxi, Rabbiiy O'z ma'badining ortidan qaytib kelishidan oldin, O'zining ma'badiga (O'zining jamoatiga) kirishi haqida bashorat qilgan. Buning maqsadi – bizni tozalash hisoblanadi. U shunday deb yozgan:

"Rabbiiy kumushni erituvchi va tozalovchi kabi o'tirib, Levi o'g'illarini tozalaydi. Ular haqlikda qurbonlik keltirishlari uchun Rabbiiy ularni oltin va kumush kabi eritadi" (Malaxi 3:3).

Levitlar – bu "shohona ruhoniylarning" (1-Petrus 2:9) yoki Masihning jamoatdagi izdoshlarining timsolidir. Xudo bu ruhoniylarning oltin va kumushni tozalash jarayoni bilan solishtirayotgani sababli, oltin va kumushning xususiyati haqida va ular qanday tozalanishi haqida bilib olish foydali bo'ladi. Men faqat oltin haqida gapiraman, chunki ushbu metallarni tozalash jarayoni o'xshashdir.

Oltinning rangi sariq va ko'rkam, u mayin metal kabi yarqirab nur

sochadi. U tabiatda keng tarqalgan, lekin oltin doim kam miqdorda va kamdan kam toza ko'rinishda topiladi. Tozalangandan so'ng oltin yumshoq, egiluvchan bo'lib qoladi, unda zang va boshqa moddalar bo'lmaydi. U boshqa metallar (miss, temir, nikel) bilan aralashib yanada qattiroq bo'ladi, uning egiluvchanligi kamayadi va zangni ko'proq yuqtiradi. Bunaqangi qorishma qotishma deb ataladi. Boshqa metallarning foizi qanchalik yuqori bo'lsa oltin shunchalik qattiqroq bo'ladi. Va aksincha, qotishma miqdorining foizi qanchalik past bo'lsa u shunchalik yumshoqroq bo'ladi.

Biz shu tarzda o'xshashlikni ko'ryapmiz: Xudoning oldidagi toza yurak toza oltinga o'xshaydi. Toza yurak yumshoq, mayin va egiluvchan bo'ladi. Shuning uchun Muqaddas Ruh aytganidek:

“Bugun agar Uning ovozi eshitsangiz, sahrodagi vasvasa
kunida Xudoning jig'iga tegish vaqtida bo'lganidek,
yuraklaringizni tosh qilmanglar! Hali “bugun” deb aytish
mumkin ekan, sizlardan hech kim gunohning aldovi bilan
yuragini tosh qilmasligi uchun har kuni bir-biringizga nasihat
qilib turinglar (Ibroniylarga 3:7-8, 13)

Gunoh — bu qo'shilgan moddadir, u bizning yuragimizni qattiqlashtirib sof oltinimizni qotishmaga aylantiradi. Yumshoq yuraksiz, biz sezgirlikni yo'qotamiz va Rabbiyning ovozi eshita olmaymiz.

Afsuski, bugun ko'p odamlar shunday holatda yashaydilar, ular diyonatning ko'rinishiga ega, lekin Iso uchun loyullaydigan sezgir yurakka ega emaslar. Xudoga nisbatan oppoq cho'g' qadar qizdirilgan sevgi faqat lazzatni, qulaylikni va o'z manfaatini izlaydigan, o'ziga nisbatan yo'naltirilgan va sovuq sevgiga almashtirilgan. Diyonat shaxsiy manfaat uchun xizmat qiladi deb o'ylab (1-Timo'tiyga 6:5), bu odamlar faqat va'daning foydasini izlashadi va anglamagan holda yoki o'ylamasdan ushbu va'dalarni bergan Xudoni rad etishadi. Aldangan

holatida bo'lib, ular ushbu dunyodan lazzat oladilar, shuningdek, samoga borishni ham kutadilar! Bu Xudo istagan hayot emas:

“Otamiz Xudo oldida pok va benuqson diyonat – yetimlarning va bevalarning qayg'ularida ularga g'amxo'rlik qilish hamda bu dunyodan o'zini beg'ubor saqlashdir” (Yoqub 1:27).

Iso muqaddas, dog'i yo'q, benuqson jamoat (Efesliklarga 5:27) – yuragi bu dunyoning yo'llari bilan bulg'anmagan odamlardan tashkil topgan tananing ketidan qaytib keladi.

Oltinning yana bitta xususiyati bor – bu kuyaga yoki zangga nisbatan chidamlilikdir. Garchi boshqa metallar atmosfera sharoitida xiralashsa ham, toza oltin bunday ta'sir ostiga tushmaydi. Jez moddasi (mis va ruxning sariq qotishmasi) oltinni eslatgani bilan u oltin emas. Jez osonlik bilan xiralashadi. U oltinga o'xshaydi, lekin u oltinning xususiyatiga ega emas. Jamoatda oltin ko'rinishiga ega, lekin oltinning xususiyatlariga ega bo'lmagan idishlar bor. Faqatgina tozalovchi olovgina bu ikki xil idishning farqini ko'rsata oladi. Malaxi tozalanishdan so'ng nima sodir bo'lishi haqida aytyapti:

“O'shanda haq odam bilan betavfiq orasida hamda Xudoga xizmat qiladigan va Unga xizmat qilmaydigan odam orasidagi farqni yana ko'rasizlar” (Malaxi 3:18).

Keling, oltinni tozalashga qaytamiz. Oltinda boshqa moddalarning miqdori yuqori bo'lgani sababli u nafaqat qattiqroq bo'ladi, shuningdek, zanglashga va buzilishga yanada moyil bo'ladi. Biz yashaydigan dunyoning atmosferasi unga osonlikcha ta'sir o'tkaza oladi.

Hozirgi vaqtda bu dunyoning yo'llari jamoatga sizib kirmoqda. Biz bu dunyoning madaniyatini shimib olib, o'zimizga dog' tushirdik. Amerikadagi qadriyatlar dunyoning qadriyatlari bilan ifloslangan. Ko'plab odamlar sezgir emas va tozalanishi kerakligini anglamaydilar.

Malaxi 3:3 ko'rsatyaptiki, temirchi oltinni olovda tozalashiga

o'xshab, Iso ham O'zining jamoatini bu dunyoning ta'siridan tozalamoqchi. Tozalash jarayonida oltin kukundek maydalanib ketadi, so'ngra flyus ohaktosh bilan aralashtiriladi. Ushbu qorishmani pechga qo'yishadi va kuchli olov bilan eritishadi. Boshqa metallar yoki aralashmalar flyusga yopishadi va yuqori qatlamga ko'tariladi. Oltin (og'irroq bo'lib) tubda qoladi. So'ng aralashmalar (mis, temir va flyus bilan birikkan rux) olib tashlanadi.

Endi esa Xudo bizni qanday tozalashiga e'tibor bering:

“Men O'z qo'limni senga qarshi o'giranman. Ishqor kabi seni aralashmalaringdan poklayman va sendan hamma qo'rg'oshinni ajratib tashlayman. Shunda senga yana ilgaridagidek sudyalarni va azaldagidek maslahatchilarni tayinlayman. O'shanda seni: “Haqlik shahri, sodiq shahar!” deb ataydilar” (Isha'yo 1:25-26).

Bizni tozalash uchun Xudo qanaqa olovni ishlatadi? Buning javobini keyingi parchada o'qiymiz:

“Ana shuning uchun, endi agar kerak bo'lsa, turli vasvasalarda biroz qayg'ursalaringizda quvoninglar, toki sizlarning sinalgan imoningiz olovda sinaladigan, ammo nobud bo'ladigan oltindan ham qimmatroq bo'lsin. O'shanda, Iso Masihning namoyon bo'lishida sizlarga hurmat-izzat, maqto'v va sharaf bo'ladi” (1-Petrus 1:6-7).

Sinovlar va qiyinchiliklar Xudoning tozalash olovi bo'lib, ular cho'ldagi asosiy qurol hisoblanadi. Ularning kuchli olovi bizning aralashmalarimizni ichimizdagi Xudoning xulqidan ajratadi. Bu bizni nazariya jihatidan muqaddaslikka yetaklaydi (tez orada men “nazariya jihatidan” so'zini nima sababga ko'ra ishlatganimni tushuntiraman).

Oltinning eng toza ko'rinishdagi keyingi xususiyati – bu uning shaffofligidir (oyna orqali ko'rishdek, buyum orqali ko'rinish

qobiliyati). “Shaharning ko’chalari tiniq shishadek sof oltin edi” (Vahiy 21:21). Siz olovli sinovlar bilan tozalangan zahotiyoq, shaffof bo’lib qolasiz! Shaffof idish o’ziga shuhrat olib kelmaydi, balki ichidagini ulug’laydi. U odamlarni o’zi bilan chalg’itmaydi va uni qariyb sezib bo’lmaydi.

Biz tozalanganimizdayoq dunyo yana Isoni ko’radi. “Agar biz shaffof bo’lsak, – agar biz haqiqatni gapirsak, o’zimizni mag’rur tutmasak, so’zimizda tursak, rostgo’y bo’lsak va yashiradigan narsalarimiz bo’lmasa, – bu dunyoning odamlari buni sezishadi”.

Isha’yo payg’ambarning kitobida buni aniqroq ko’ramiz:

“Mana, Men seni eritdim, lekin kumushga o’xshatib emas; seni azob-uqubat o’tida sinadim. Men O’z haqim, Men O’z haqim buni qilyapman, zero Mening nomim qanday bulg’anishi mumkin? O’z shuhratimni o’zgaga bermayman” (Isha’yo 48:10-11).

Olov va toblanma – bu kumush (yoki oltin) tozalanadigan haqiqiy olov emas, balki azoblardir. Bu nima sababdan U: *“kumushga o’xshatib emas”* – deganini tushuntiradi. Bizning sinovlarimiz – bu arzimaydigan narsadan qimmatbaho narsani ajratib oladigan olovdir.

Xudo bu narsalarni bizning irodamizga qarshi tozalamaydi. Ana shu sababga ko’ra Pavlus 2-Timo’tiyga 2:21 da toza bo’lishni istagan odam “o’zini tozalaydi” deb aytgan.

Agarsizni nuqsonlar ushlab turishiga yo’l qo’yib, o’zingizni oqlashda davom etsangiz, Xudo sizni ulardan voz kechishga majburlamaydi. Azoblardan o’tish jarayoni befoyda bo’ladi (shu sababdan men bundan avval “nazariya jihatidan” so’zini ishlatdim). Muqaddaslik yo’lidagi tozalanish – bu doim davom etuvchi va ko’pincha og’riqli jarayondir. Biroq, uning hosillarini bilib, men uni qabul qilaman.

Ibroniylarga Maktubning muallifi ta’kidlayapti: “Hamma bilan tinchlikda bo’lishning va muqaddaslikning payida bo’linglar, chunki

muqaddasliksiz hech kim Rabbiyni ko'ra olmaydi" (Ibroniylarga 12:14). Iso shunday deydi: "Yuragi poklar baxtlidirlar, chunki ular Xudoni ko'radilar" (Matto 5:8). Dovudning yuragi Xudoga intilgan va u shunday xitob qilgan: "Kim o'zining xatolarini anglay oladi? Meni yashirin gunohlarimdan poklagin..." (Sanolar 18:13).

Bu bizning ibodatimiz bo'lsin. Agar biz Xudodan yuraklarimizni tozalashini so'rasak, U bizning ko'zlarimizga ko'rinmay turgan iflosliklardan bizni tozalaydi. Xudo hatto biz o'zimiz bilmagan bizning ichki fikrlarimizni va niyatlarimizni biladi.

Men sizni ruhiy vaqtni va cho'l mavsumini bilishga va qabul qilishga o'rganishga da'vat qilmoqchiman. Olovli sinovlar kelganida ranjimang va boshqalarni ayblamang; buning o'rniga buning maqsadini tushunishga harakat qiling.

O'z yuragingizni o'rganib chiqing va Xudoga arzimaydigan narsadan qimmatbaho narsani ajratib olishiga yo'l bering. U shunday deb buyuryapti: "Muqaddas bo'linglar, chunki Men muqaddasman" (1-Petrus 1:16).

Esda tuting, tozalanish barcha yaxshi narsalarni mustahkamlaydi va zaiflashtiradigan hamda iflos qiladigan narsalarni yo'q qiladi. Xudoning tozalash maydoniga xush kelibsiz, toki siz Uning shuhratini e'tiborga loyiq tarzda va shaffoflik bilan ko'rsatishga qodir bo'lgan sharaflı idish bo'ling.


MUSTAHKAM QURING

*“Eng yorqin yulduzlar – bu qutbdagi osmonda porlayotganlari.
Eng shirin suv – bu sahroda qum oʻrtasidan oqib chiqqan
suv. Eng qimmatbaho imon – bu qiyinchiliklardan oʻtib,
yashayotgan va gʻalaba qozonayotgan imon. Sinalgan
imon tajribaga ega. Siz qiyinchiliklardan oʻtishga majbur
boʻlmaganingizda edi, hech qachon zaif ekaningizni bilmas
edingiz. Sinovlardan oʻtish uchun Xudoning kuchiga muhtoj
boʻlmaganingizda edi, uning mavjudligini hech qachon bilmas
edingiz”.*

– Charlz Stenli

*“Chunki tana izmi boʻyicha yashovchilar tanaviy narsalar
haqida, Ruh izmi boʻyicha yashovchilar esa ruhiy narsalar
haqida fikr yuritadilar”.*

– Rimliklarga 8:5



Xudoning xizmatkorlari sanalgan erkaklar va ayollar moylanish orqali emas, o'z fe'l-atvori orqali tasdiqlanadilar. Aynan cho'lda, ya'ni bosim kelganida, umidsizlik ortib borganida, orzular etib bo'lmas tuyulganida, zarur bo'lgan tozalanish sodir bo'ladi – insonning xulq-atvori shakllanadi.

Men cho'ldagi davrimda, ichimdan ko'tarilayotgan kuchli g'azab bilan kurashganim yodimda. Men bu haqda birinchi bobda aytib o'tgan edim. Men Xudodan so'radim: "Nega men bunchalik hammaga nisbatan jahldaman? Men hayotimdan nimani haydab chiqarishim yoki nimani bog'lashim kerak?"

U shunday dedi: "O'g'lim, sen tanaviy tabiatingni haydab chiqarolmaysan yoki uni bog'lab qo'ya olmaysan; sen uni xochga mixlashing zarur".

Men yanada taassuf bilan so'radim: "Bunday qahr menda qayerdan paydo bo'ldi? Men oldinlari, najot topmagan paytlarimda ham, bunaqasini hech his qilmagan edim".

"Senda u doim bor edi", – dedi U, – "biroq u ham sening tillo uzugingdagi aralashmalarga o'xshab, o'tda erimasa, ko'rinmay turaveradi. Bordi-yu, uni o'tga solsang, aralashmalar yuzaga chiqadi. Men seni qiynoqlar qozoniga solib, sendagi qahrni ko'rsatdim".

Men Xudoning aytganlarini hayotimda qay tarzda qo'llashni, unchalik ham tushunmas edim. Shunda U menga yotig'i bilan tushuntirishni

boshladi: “Sen xotining, hamkasblaring, do’stlaring, yangi tug’ilgan chaqaloqning tashvishlarini va o’z vaziyatlaringni ayblashing mumkin. Agar sen shunday qilsang, sendagi g’azab o’zing bilan qoladi va olov biroz pasayganda, u yana senga singib ketadi, oqibatda hammasini yana qaytadan boshlash kerak bo’ladi. Yoki sen tavba qilib, ibodat qilishing: “Xudojon, meni kechir; iltimos, mendan bu g’azabni olib tashla” – deyishing mumkin. Agarda sen shunday qilsang, Men O’zimning katta cho’michimni olaman va buni sendan chiqarib tashlayman”.

Men shunday qildim. Sahro alangasining bosimi mendagi qahrni yuzaga chiqarganida, men bu gunohni tan oldim, buning uchun tavba qildim va Xudodan mendan buni olib tashlashini so’radim.

Cho’ldan o’tish naqadar og’ir bo’lishiga qaramay, bu o’ta darajada qimmatli ekanining yana bir sababi shundaki, u oxirida buyuk quvonchga olib keladi:

“Ana shuning uchun, endi agar kerak bo’lsa, turli vasvasalarda biroz qayg’ursalaringizda quvoninglar, toki sizlarning sinalgan imoningiz olovda sinaladigan, ammo nobud bo’ladigan oltindan ham qimmatroq bo’lsin. O’shanda, Iso Masihning namoyon bo’lishida sizlarga hurmat-izzat, maqto’v va sharaf bo’ladi” (1-Petrus 1:6-7).

Cho’l – bu biz tozalanadigan va fe’limiz rivojlanadigan joy. Aynan mana shu qiyinchiliklar va quvg’inlar girdobida, chinakam imonli kishining shakllanishi sodir bo’ladi. Rimliklarga 5:3-4 da shunday deb yozilgan: “Faqat bular bilangina emas, balki qayg’ular bilan ham maqtanmoqdamiz, chunki qayg’u sabr-toqatni keltirib chiqarishini bilamiz. Sabr-toqat esa tajribani, tajriba esa umidni keltirib chiqaradi”.

Dovud Xudoga ma’qul bo’lganining sababi, u yerdagi shohlikka emas, Xudoning yuragiga intilgan edi. Shoh Shoul esa tozalanish uchun cho’lga kelmadi ham; shu bois, u poklanmadi va o’ziga nisbatan qat’iyatsizlik holatida qolib ketdi. Dovud esa sahroda tozalandi va Xudo uni o’sha yerga olib borish uchun hatto, Shouldan foydalandi!

Xudoning yo'llarini ongimizga sig'dira olmasligimiz mumkin, biroq Uning rejalari doim ezgulikka!

Tushning amalga oshishi keyinga qoldirildimi?

Shunga qaramay, poklanish og'riqli bo'lishi mumkin. Sizni aldab nima qildim: cho'l – bu Disneylendga tashrif buyurish emas. Qiynalish degani qiynalishni bildiradi va ba'zida u o'ta og'riqli bo'ladi.

Ehtimol, Xudo sizni da'vat etgan narsalarning orzu va maqsadlarini ko'rsatgandir. Ammo cho'lda, ko'pincha, Rabbiyni qancha izlagan va Uning So'ziga bo'ysungan sari, U yuragingizga qo'ygan orzudan shuncha uzoqlashayotgandek tuyuladi.

Keling, Yusufning hayotini ko'rib chiqamiz. U hukmdor bo'lishi haqida tush ko'rdi. Tushida hatto uning aka-ukalari va butun oilasi unga bo'ysunishini ko'rdi. Shundan so'ng, nima sodir bo'ldi? Aslida uni himoya qilishi kerak bo'lgan akalari, uni chuqurga tashladilar, keyin tez o'tmay, u begona yurtga qul qilib sotildi. Uning sarosimasini, umidsizlikka tushganini va alamini tasavvur eta olasizmi?

U Xudo g'ayritabiiy ravishda va tez orada uni qutqaradi deb o'ylagani, muqarrar. Biroq uning umidlari ro'yobga chiqmadi, chunki uning qulligi bir necha oy yoki bir yilga emas, balki o'n yildan ziyod vaqtga cho'zildi. Bu juda uzoq muddat! U har doim, uni azobga duchor qilgan odamlar ozodlikda yashayotganini va boy otasining uyida baxtiyorlikda hayot kechirayotganini bilib yashar edi.

Yusuf nima qildi? U o'zining cho'l mavsumiga qanday munosabatda bo'ldi? U o'z imonini saqladi, xizmat qildi va Xudoning va'dalarini unutmadi. U sadoqatli, dono, g'ayratli edi, natijada, marhamat va muvaffaqiyatga erishdi.

Kutilmaganda, uning vaziyatlari yana yomon tomonga yuz burdi. Uning rahbarining xotini unga hirs bilan qaradi. U bir-ikki marta emas, ko'p marta uni zino tuzog'iga ilintirishga urindi. Shunga qaramay, Yusuf Xudoga itoat etardi va har safar jinsiy axloqsizlikdan nari yurardi. Oxir-oqibat, bu ayol shu qadar tajovuzkorlikka o'tdiki, hech mubolag'asiz, Yusuf uning changalidan qochib ketishiga to'g'ri

keldi. Rad etilgan ayol, Yusufni qilmagan ishida yolg'on aybladi. Yusuf adolatsizlarcha hukm etildi va zindonga tashlandi (odatda, mansabdor kishining hovlisida xizmat qiladigan begona yurtlik qul, xo'jaynining xotinini zo'rlashga uringan bo'lsa, u umrining oxirigacha nurni ko'rishdan mahrum etilar edi).

Qamoqda o'ylash uchun odamning vaqti ko'p. Yusuf qanday fikrlar bilan kurashishiga to'g'ri kelganini ko'z oldingizga keltirib ko'ra olasizmi? "Men butun umr Xudoga sadoqat bilan xizmat qildim, lekin bu menga nima berdi? Men aybsiz bo'la turib, shu zindonga tushdim va shu yerda chirib ketaman. Endi hayotdan umid uzsam ham bo'ladi! Mening yovuz akalarim esa ozodlikda, haynahoy farovon hayotda yashab yurishibdi. Men nimani noto'g'ri qildim? Men shunchaki ularga, Xudodan berilgan deb o'ylagan tushimni aytib berdim xolos, bu esa meni qayergacha olib keldi! Xudoga xizmat qilganimdan foyda nima? Menimcha, Unga qancha bo'ysunsam, hayotim shuncha yomonlashib boryapti".

Kim Yusufni mana shunday fikrlar uchun ayblay oladi? Ular juda mantiqli tuyuladi, shunday emasmi?

Yusuf qamoqdaligi paytida, bir kuni cho'ldagi eng og'ir sinovga duch keldi. Xudo uni ikki kishi – non tarqatuvchi va sharbatdor bilan tanishtirdi. Ularning ikkisi ham tush ko'rishdi va sarosimaga tushishdi. Ular tushlarining ta'birini bilishni istashdi. Bordi-yu Yusuf Xudoga va Uning va'dalariga bo'lgan imonini yo'qotganida edi, diqqat e'tibori faqat o'zida bo'lib, bu ikkilasiga xizmat qilmagan bo'lar edi. U bularga: "Sizlar shu kecha tush ko'rdingizmi? Eh! Men ham bir kuni tush ko'rgan edim. Men ham o'sha tushni Xudodan deb o'ylagan edim. Biroq haqiqat shundaki, orzular amalga oshmaydi. Orzular quruq, foydasiz va aldoqchi xayollardir. Shunday ekan, meni tinch qo'yinglar!" – degan bo'lar edi.

Agarda Yusuf shunday qilganda edi, u yana ko'p yillarga yoki ehtimol, hayotining oxirigacha cho'lda qolib ketgan bo'lar edi. U ozodlikka chiqish uchun chiptasini yo'qotib qo'ygan bo'lardi (keyinroq sharbatdor fir'avnga, Yusuf uning tushini ta'birlaganini aytib berdi,

buning sharofati bilan Yusuf qamoqdan chiqarildi va yuqori mansabga tayinlandi). Bordi-yu, u o'ziga achinib o'tirganda edi, o'sha qamoqda alamzada, surbet va umidsiz odam bo'lib o'lib ketgan bo'lardi. U doim boshqalarga: "Xudo yolg'onchi; U O'z va'dalarini amalga oshirmaydi!" – deb e'lon qilib yashagan bo'lar edi.

Ammo Yusuf bunday yo'l tutmadi. U ongiga kelgan fikrlarni va Xudoning va'dalariga zid bo'lgan mantiqiy xulosalarni haydab yuborib, non tarqatuvchi va sharbatdorga xizmat qildi. U Xudoga itoat etishda davom etdi. Natijada, nima sodir bo'ldi? Oxir-oqibat, u ozodlikka chiqdi va bir kunda Misr fir'avnidan ikkinchi o'rinda turadigan shaxs mansabiga erishdi!

Yusuf hukmdor bo'lganiga to'qqiz yil o'tib, og'ir qahatchilik tufayli, uning akalari Misrga kelishdi va u bilan yuzma-yuz turishdi. Yusuf ko'plarga o'xshab, ulardan o'ch olishga urinmadi. Chunki uning fe'li endi Xudo shohligining haqqoniy rahbarinikiga mos edi. Unga yovuzlik qilganlarga, u yaxshilik bilan qaytardi. U alamzada emas edi; u imonga, sevgiga va unga xiyonat qilganlarga nisbatan kechirimga to'lib-toshgan edi. Sanochi Yusuf haqida shunday deydi:

“(Xudo) ularning oldidan odamni yubordi: Yusuf qullikka sotildi. Uning oyoqlarini kishanlar bilan siqdilar, uning joni temirga kirdi, toki Rabbiyning so'zi amalga oshgunicha; Rabbiyning so'zi uni sinadi” (Sanolar 104:17-19).

Xudo Yusufga bergan va'dasi qachon amalga oshishini, faqat Uning O'zi bilar edi (bu u ko'rgan tushidan, yigirma yil o'tib, amalga oshdi). Cho'l uning fe'lini tarbiyaladi va u mana shunday fe'li bilan hayotini, oilasini va rahbarlik holatini mustahkam ravishda qurdi. Uning barcha muvaffaqiyatlarining kaliti, Rabbiyning qarshisidagi hurmatga ega bo'lgan qo'rquv edi. Yusuf atrofidagi vaziyatlardan qat'iy nazar, Xudoning So'zi bo'yicha harakatlandi va Xudoning So'ziga itoat etdi.

Sizdachi? Yuqorida aytilganidek, ehtimol, Xudo sizga ham, Uning O'zi sizni chorlagan narsalar haqida tush, maqsad bergan bo'lishi

mumkin. Ehtimol, U siz uchun tayyorlab qo'ygan rejalar to'g'risida sizga aytgandir. Lekin Yusuf bilan sodir bo'lganidek, siz bugun cho'ldasiz va Xudoga qancha itoat etmang, xuddi U sizning yuragingizga joylagan orzulardan shuncha yiroqlashayotgandek tuyulayпти.

Ehtimol, sizga qarshi harakat qilgan odamlar, allaqachon xizmatida (yoki boshqa sohalarda) oldinga siljiyotganini, siz esa Xudo ko'rsatgan maqsadlarga nisbatan qarama-qarshi yo'nalishda ketayotganingizni ko'rayotgandirsiz. Ehtimol, maqsadlar amalga oshishi uchun hamma narsa qilib ko'rdingiz, lekin ular amalga oshmayotgandir.

Sizning yoningizdagi hatto, tanaviy bo'lgan odamlar ham, taraqqiyot va gullab-yashnashga egadek tuyuladi. Ular moliyaviy va ijtimoiy "marhamatlar"ni qo'lga kiritadilar. Ehtimol, ular tilyog'lamachilik va hiylalar yordamida ko'tariyaptilar yoki yolg'on va kazzoblik yo'li bilan muvaffaqiyatga erishib, insofsizlarcha harakat qilyaptilar. Lekin, baribir, ular sizga "marhamatliroq" bo'lib ko'rinadi, siz esa Yusufga o'xshab – fir'avnning zindonida zanjirband bo'lib o'tiribsiz.

Siz bu vaziyatga qanday baho berasiz? Siz noliysizmi? Xudo bu haqda mana nima deb aytgan:

"Menga qarshi aytadigan so'zlaringiz qo'pollikdir, — deydi Rabbiy. — Sizlar esa: "Biz senga qarshi nima deyapmiz?" — deysizlar. Mana, sizlar: "Xudoga xizmat qilish behudadir. Uning nizomlariga rioya qilganimizdan va Qo'shinlar Xudovandining oldida g'amgin yurganimizdan nima foyda? Endi biz mag'rurlarni baxtli deb hisoblaymiz. Betavfiqlik qiladiganlar farovonlikda yashamoqdalar. Ular Xudoni vasvasa qilsalar ham, ammo tirik qolmoqdalar," — deb aytasizlar" (Malaxi 3:13-15).

Bunday noluvchi odamlar nima deyishadi? Ular: "Xudoga itoat etganimizdan nima foyda? Hayotimizda baribir, hech narsa o'zgarmayapti. Biz emas, aynan yovuz – tanaviy va o'zbilarmon odamlar oldinda bormoqda, Xudodan marhamat olmoqda va gullab-yashnamoqda" – deydilar (bu Biverning o'z so'zlari bilan aytgani).

Xudo buni qo'pol so'zlar demoqda va bu so'zlar Unga qaratilgan deb hisoblamoqda. Qisqacha aytganda, bu shikoyat va nolişdir.

Norozilik isroilliklarni va'da qilingan Yerga kirishiga to'siq bo'ldi. Nega noliş Xudoga qaratilgan haqorat hisoblanadi va nega u shafqatsiz hukmga mahkum bo'ladi? Norozilik bilvosita Xudoga deydi: "Sen mening hayotimda amalga oshirayotgan narsalar menga yoqmaydi, men Sening o'rningda bo'lganimda boshqacharoq yo'l tutgan bo'lar edim. Noliş – bu Xudoga nisbatan zarracha ham hurmatning yo'qligini bildiradi.

Xudo kim Unga intiladi-yu, kim o'z foydasini ko'zlashini oydinlashtirmoqda. Birinchi toifadagi odamlar o'z intilishlarida barqarordirlar; ikkinchisi esa vaziyatlar ular istagandan boshqacharoq tomonga yuz bursalar, zorlanishni boshlaydilar. Ayrimlar marhamat deb ataydigan narsalar va chindan ham marhamat hisoblangan narsalarning o'rtasida juda katta farq bor. Agarda sizning munosabatingiz (yuragingiz) noto'g'ri bo'lsa, ayrim marhamatlar sizdan olib qo'yilishi mumkin. Rabbiiy g'arazli niyatga ega bo'lgan va noliydigan odamlarga qarata, U bundaylarning marhamatlari bilan nima qilishini aytgan:

"Shunday qilib, ey ruhoniylar, bu amr sizlar uchundir:

"Agar sizlar bunga quloq solmasangiz, Mening nomimni ulug'lashni yuraklaringizga qabul qilmasangiz, — deydi Qo'shinlar Xudovandi, — unda Men sizlarning ustingizga la'nat yuboraman va sizlarning duolaringizni la'natlayman. Hatto allaqachon la'natladim ham, chunki sizlar buni yuraklaringizga qabul qilmayapsizlar" (Malaxi 2:1-2).

Bizning mukofotimiz va merosimiz buyumlardan yoki holatimizdan iborat emas! Bizning merosimiz yoki taqdirimiz – bu Rabbiiy!

Ezekil 44:28 da shunday deb yozilgan: "Ular uchun ulush mana shudir: Men ularning ulushiman. Ularga Isroilda mulk bermanglar, Men ularning mulkiman".

Aksariyat Masihiylar chinakam merosdan yuz burdilar va buning o'rniga buyum va mansab orttirishga diqqat qaratdilar. Ehtimol, bu buyumlarni va yaxshi narsalarni ularga Xudo bergandir. Bu o'g'ilga otasi bilan o'zaro munosabatlardan ko'ra, ko'proq undan oladigan narsalarga qiziqishiga o'xshaydi. Mening to'rtta o'g'lim bor va men ularga o'zim ega bo'lgan narsalar bilan ulashishni yoqtiraman. Biroq ular mendan faqat biror narsa undirish uchungina men bilan munosabatda bo'lishsa, yuragim chilparchin bo'lar edi. Malaxi davom etmoqda:

“Lekin Xudodan qo'rqadiganlar bir-birlariga shunday deyishadi:
 “Rabbiy bunga diqqat qiladi. Rabbiydan qo'rqadiganlar haqida
 va Uning nomini hurmat qiladiganlar haqida Xudoning huzurida
 xotira kitobi yozilmoqda” (Malaxi 3:16).

Bunday odamlar ham “noliydiganlar” o'tadigan cho'ldan o'tadilar, biroq bu guruhning asosiy maqsadi – mansab, e'tirof yoki buyum emas. Ular Xudoning yuragini izlaydilar! Ularda Xudoni bilish istagi yonadi. Siz ular bilan ijtimoiy mavzularda yoki tadbirkorlik haqida gaplashishingiz mumkin, biroq ular bilan Rabbiy va Uning So'zi haqida gapirganingizda, ularning yuraklari jo'shib ketadi.

Luqo bunday odamlar haqida yozib, shunday deydi: “Ular esa bir-birlariga: “U yo'lda biz bilan gaplashib, Yozuvlarni tushuntirayotganida, yuragimiz yonib turmaganmidi, axir!” – dedilar” (Luqo 24:32). Ularning istaklari Ruhiiy narsalar bilan tasdiqlangan: “Men Xudoni bilishni istayman. Men Unga ma'qul bo'lishni xohlayman. Men Rabbiyning So'ziga nisbatan ochlik va tashnalikni sezyapman. Men Uni quvontirishni xohlayman, chunki U – mendagi quvonchning manbai”. Ular uchun mana nima muhim. Ular birinchi navbatda nufuz, nom yoki mulk emas, balki – Isoni sevadilar.

Ular cho'lda bo'ladilarmi yoki millionlab odamlarga voizlik qiladilarmi, ularning xatti-harakatlari o'zgarmaydi.

“Chunki biz Xudoning hamkorlarimiz, sizlar esa Xudoning ekinzori, Xudoning imoratisizlar. Men Xudodan berilgan inoyat bo'yicha

dono quruvchi sifatida poydevor qo'ydim, boshqasi esa uning ustida qurmoqda. Lekin har kim qanday qurayotganiga e'tibor bersin" (1-Korinfliklarga 3:9-10).

Biz hayotimizni qanday qurayotganimizga e'tibor berishimiz zarur! Yozuvda uyning qurilishi bizning hayotimiz va shohlikdagi xizmatimiz qurilishining timsoli hisoblanadi. Biz Xudoga tegishlimiz, chunki – biz Uning inshoatimiz:

"...Masihni chuqur anglanglar. Muso Xudo uyining hamma narsasiga sodiq bo'lgani kabi, Iso ham Uni tayin Etganga sodiqdir. Chunki uyning quruvchisi o'zining qurgan uyidan ko'ra ko'proq hurmatga sazovor bo'lganidek, Iso ham Musodan ko'ra ko'proq shuhratga munosibdir. Zero har bir uy biror kishi tomonidan quriladi; hammasini qurgan esa – Xudodir" (Ibroniylarga 3:1-4).

Uyni kim qurayotganiga e'tibor bering: uni Rabbiiy qurmoqda. Bu uy bizning tana kuchimiz bilan qurilmaydi. Xudo quradigan hamma narsa doimiy, biz quradigan narsalar esa – doimiy emas. "Agar uyni Rabbiiy qurmasa, uni qurayotganlar behuda xizmat qiladilar" (Sanolar 126:1). Inson o'z hayotini, uyini yoki hatto xizmatini ham Xudosiz quradigan bo'lsa – bu uzoqqa cho'zilmaydi.

Ibtido 11:4 da buning misolini ko'ramiz: "Ular: "Kelinglar, o'zimizga shahar hamda boshi osmonga yetar minora quramiz. Shu tariqa, butun yer yuziga tarqalib ketishdan avval, nom chiqaramiz", – dedilar".

Bobil minorasini qurgan kishilarning niyati nima edi? Ular inshoatini o'zlarining sharafi uchun ko'tarib, shaxsiy xudbin maqsadlarini amalga oshirishni istagan edilar. Ular xuddi Xudodek bo'lishni, biroq Undan tamoman mustaqil yashashni xohladilar. Bu intilish Xudoning irodasini emas, ularning shaxsiy istagi va irodasini qondirishga qaratilgan edi. Xudosiz bo'lgan qurulish hech qachon muvaffaqiyatga ega bo'lmaydi, negaki bizning niyatlarimiz qanchalik ezgu ko'rinmasin, Xudoning aralashuvisiz, bu befoydalikdir. Mana nima uchun bizga shunday ogohlantirish berilgan:

“...har kim qanday qurayotganiga e’tibor bersin. Chunki hech kim qo’yilgan poydevordan, ya’ni Iso Masihdan boshqa poydevorni qo’ya olmaydi. Bu poydevor ustida kimdir oltindan, kimdir kumush va qimmatli toshlardan, kimdir esa yog’ochu xashak yoki somondan qurmoqdaki, har bir kishining ishi oshkor bo’ladi, chunki o’sha kun buni ko’rsatadi. Bu olovda fosh bo’ladi va olov har kimning ishi qanday ekanligini sinaydi” (1-Korinfliklarga 3:10-13).

Oltin, kumush va qimmatbaho toshlar Xudoga ma’qul tarzda qurishni bildiradi. Yog’och, xashak va somon bu dunyoning rejasi bo’yicha qurishning timsoli hisoblanadi. Nahotki ushbu oyatlar samoda bo’ladigan hukmnigina ta’riflasa? Yo’q! Bu yerda Xudo O’z ma’badiga kelishi haqida aytilgan (Malaxi 3:16-4:1 va 1-Korinfliklarga 3:16-17). U yog’och, xashak va somonni kulga aylantiradigan yoki oltin hamda kumushni tozalaydigan olov bilan keladi. Mana nima uchun u davom etib shunday deb yozgan: “Kimning qilgan ishi yonib ketsa, u ziyon ko’radi. Biroq o’zi najot topadi, lekin olov ichidan qutulgandek bo’ladi” (15-oyat).

Agarda siz o’z hayotingizni, ishingizni yoki xizmatigingizni qo’lbola g’ishtlardan, ya’ni shaxsiyatingizning kuchi ta’sirida yoki dunyoviy dasturlar va uslublar bilan qursangiz... agarda odamlarni xiyla bilan aldash, ularni nazorat qilish yo’li bilan qursangiz... agarda nufuzga erishish maqsadida boshqalarning mavqeidan foydalansangiz va ayyorlik qilsangiz... agarda qurish jarayonida tanqid yoki g’iybatlar bilan atrofingizdagilarni buzsangiz... shunda, yuqoridagi yo’llar bilan nimaga erishgan bo’lsangiz, hammasini yo’qotasiz va ular yonib ketadi.

Ko’pchilik yolg’on uslublardan foydalanib, o’zini oldinga suradi yoki odamlarni ochiqchasiga aldab, imtiyozga erishmoqchi bo’lishadi. Bu ham yonib ketadi! “Hech kim o’z-o’zini aldamasin: sizlardan kim bu dunyoda dono bo’lishni o’ylasa, u dono bo’lish uchun aqlsiz bo’lsin. Chunki bu dunyoning donoligi Xudoning huzurida telbalikdir. Xuddi yozilganidek: “U donolarni ularning hiylagarligi bilan ovlaydi” (1-Korinfliklarga 3:18-19).

Xudoning ko'zlari qarshisida hayotingizning qaysi sohasida g'arazli niyat bo'lsa, bu yog'och, xashak va somon hisoblanadi. Hatto siz buni boshqalarga yordam beryapman, Rabbiyning nomi bilan harakat qilyapman yoki vaqtimni qurbonlik qilyapman deb amalga oshirgan ishlaringiz ham yonib ketadi.

Dunyoviy donolikning markazida – shaxsiy “men” turibdi.

“Agarda yuragingizda sizlar achchiq hasadga va raqobatga ega bo'lsangiz, unda maqtanmanglar va haqiqatga qarshi yolg'on gapirmanglar. Bu yuqoridan tushayotgan donolik emas, balki dunyoviy, shaytoniy, jonga oid donolikdir” (Yoqub 3:14-15).

Hasad aslida raqobat va shubhani tug'diradi. O'z mavqeimizni saqlab qolish uchun, biz o'z hokimiyatimiz uchun kurashishni boshlaymiz, bu bizni do'stlarimizdan, samimiylikdan yoki eng muhimi, Xudo bilan munosabatlarimizning butligidan mahrum qilishi mumkin. Hatto cho'ponlar va boshqa xizmatkorlar ham Xudoning yuragi bilan yaqinlikka putur yetkazishning hisobiga, o'z nufuzi, nomi va maoshi uchun qayg'urish payida bo'lishlari mumkin.

Xudoning yuragini haqqoniy ravishda izlaydiganlar esa, Xudoni qancha ko'p izlasalar, shuncha Undan uzoqlashayotgandek bo'lib ko'rinishi mumkin. Umidsizlikka tushib, ular faryod qiladilar: “Xudojon, Seni qancha izlasam, yuqoriga emas, shuncha pastga tomon ketmoqdaman”.

Xudo esa deydi: “Chuqurroq kovla!”

“Mening oldimga kelgan va so'zlarimni tinglab, ularni bajargan har bir kishining kimga o'xshashini sizlarga ko'rsatayin: U uy qurayotganida, chuqurroq qazigan va poydevorini tosh ustiga o'rnatgan odamga o'xshaydi. Sel toshib, o'sha uyni suv bosdi, lekin uyni qo'zg'ata olmadi. Chunki u tosh ustiga mahkam o'rnatilgan edi” (Luqo 6:47-48).

Biz oilamiz bilan Dallasda yashaganimizda, men quruvchilar

osmono'par binolar ko'targanini kuzatganman. Qurilishning boshidagi jarayon asta-sekin kechar edi, chunki ular bir necha oylar davomida poydevor uchun yerni kovlar edilar. Imorat qancha ulkan bo'lsa, o'ra ham shuncha chuqur kovlanar va uning poydevori ham shuncha keng qo'yilar edi. Tashqaridan, quruvchilar aytarli natijalarsiz, sekin ishlayotgandek tuyular edi. Keyin to'satdan, baland bino tezda bitib qolar edi. Binoning tayyorgarlik jarayoni bilan taqqoslaganda, uning qurilishiga bir kun ketgandek bo'lib ko'rinardi.

Ustki qismidagi izchillik pastki qismidagi tayyorgarlikning oldida hech narsa emas edi.

Men ishonamanki, Masihning tanasidagi ko'pchilik, ehtimol, ayniqsa yosh avlod vakillari, bugun pastki qismdagi tayyorgarlik jarayonidan o'tmoqdalar. Men bu uchun Xudoni sharaflayman! Ehtimol, ular xizmatda da'vatga yoki Rabbiydan biror bir orzuga ega bo'lsalar-da, bugun ular xizmatda muhim o'rinlarga ega emasdir. Hamma narsa sekin sodir bo'ladi, biroq men ishonaman, ular cho'lda Xudoning boshqaruvi ostida puxta tayyorgarlikdan o'tmoqdalar. Ularga poydevor solinmoqda – Masihning tabiati shakllanmoqda. Bu tabiat Masihga va Uning shohligida g'ayrat bilan xizmat qiladiganlarning ko'pchiligini uzoq yillar davomida mustahkamlaydi.

Cho'lda bo'lmaganlar siyosat orqali yoki o'zini oldinga surish evaziga jadal ko'tarilayotgandek tuyuladi. Bizning cho'lda yashayotganlarga, ular xuddi qopqonda o'tirgandek bo'lib ko'rinishi mumkin. Ular hatto tez va yengil yo'lni tanlash vasvasasiga yo'liqishlari ham mumkin. Lekin ular bu yo'l orqali fe'l-atvori barqaror bo'lmasligini va o'zida shakllanib ulgurgan fe'lini xatarga qo'yishini bilib, xavf o'ta ulkanligini tan oladilar. Ular Bosh Quruvchi Qoya ularga mustahkam poydevor solishiga imkon berish uchun Xudoni kutadilar.

Hozirda Xudoni jon-jahd bilan izlaydigan cho'ponlar bor, biroq ularning hayotida juda kam narsa sodir bo'layotgandek yoki, hatto umuman hech narsa sodir bo'lmayotgandek tuyuladi. Ular qurg'oqchilik vaqtida yoki joyida yashamoqdalar. Ular boshqalar

dunyoviy marketing uslubidan foydalanib, muvaffaqiyat bilan o'zini va o'z xizmatini yurg'izayotganini ko'radilar. Bundaylar ijtimoiy tarmoqlarda soxta baxt va muvaffaqiyat tushunchasini yaratadilar. Cho'lda bo'lganlarga esa, Xudo bunday uslublar orqali qurishiga yo'l qo'ymaydi, chunki U ularga mustahkam va uzoq vaqtga chidaydigan poydevor tayyorlamoqda.

Yana shunday toifadagi odamlar borki, Xudo ularga hali muayyan vaziyat yoki joyni ko'rsatmagan, lekin U ularga orzu bergan. Ular bu orzu qay tarzda amalga oshadi deb so'raydilar va orzularidan yanada uzoqlashayotgandek bo'ladilar.

Xudo bu quruq yoki cho'l vaqti uchun o'zini oldinga surish yoki nayrang bilan yolg'ondan foydalanadiganlarning ichidan itoat bilan Uni kutadiganlarni ajratib oladi. Xudoni O'z ma'badiga kelishini kutadiganlarga Xudodan chinakam taraqqiyot va cho'ldan chiqish keladi. Xudo deydi:

“Men belgilagan vaqtda adolat bilan hukm qilaman... Zero ko'tarilish – sharqdan ham, g'arbdan ham, sahrodan ham emas, lekin Xudo – sudyadir: birovni pasaytiradi, boshqasini yuksaltiradi” (Sanolar 74:3-8).

Tananing behudaligi

Tana va Ruhning jangi haqidagi haqiqat faqat xizmatga emas, balki hayotning barcha sohalariga taalluqlidir. Xudoning va'dalari tana orqali tug'ilmasligini hech qachon unutmang! Agar tana biror narsani tug'sa, bu sizga muammo olib keladi, chunki uni aynan tana qo'llab turishi kerak bo'ladi. Agar biror narsa Ruhdan tug'ilsa, buni Xudo ta'minlaydi.

Tanaviy harakatlar odatda nayrang va nazorat uchun muhit yaratadi. Yetakchilar natijalarga erishish uchun odamlarni yoki majburlaydilar, yoki ularning hissiyotini o'yinchoq qiladilar. Agar siz shundaylarning izdoshlari qatorida bo'lsangiz, tez orada, siz ularning muvaffaqiyati

Cho'ldan qanday o'tish kerak

#8 Yeshua Nun o'g'li hammasini to'g'ri tushundi.

Agar cho'l bizning ezguligimiz uchun belgilangan bo'lsa, qanday qilib cho'lda yaxshilikni olishimiz va yovuzlikdan saqlanishimiz mumkin?

Yeshua Nun o'g'li – yuragi cho'lda to'g'ri bo'lgan kishining ajoyib namunasi. Muso Sinay tog'iga chiqqanida, Yeshua Nun o'g'li tog'ning etagida qolgan. U Xudoning huzuriga iloji boricha yaqin bo'lishga harakat qilgan. Muso Xudo bilan chodirda uchrashganda, Yeshua Nun o'g'li ham u yerda bo'lgan. Hatto Muso Rabbii bilan gapirishni tugatganda ham, Yeshua Nun o'g'li yig'in chodirida qolgan (Chiqish 33:11).

Yeshua Nun o'g'li kitobida birinchi avloddagi isroilliklar qutula olmagan hayotining beshta sohasidagi gunohlar ikkinchi avlodda (Yeshua Nun o'g'li avlodida) bu qadar oson namoyon bo'lmadi. Bu narsa faqat bitta Axan ismli kishi orqali namoyon bo'ldi. Biroq yetakchilar bilan xalq buni hal etish uchun zudlik bilan Xudoni izladilar. Ikkinchi avlod hammasini to'g'ri tushundi, chunki ular oldingi avlodning muvaffaqiyatsizliklarini ko'rgan edilar. Bu avlod ularning ota-onalari Xudoning va'dasiga erishmay cho'lda o'lib ketganini ko'rdi.

Yeshua Nun o'g'li va uning avlodi o'z diqqatini Yaratuvchiga qaratdi va va'da qilingan yerga kirdi. Ular Xudoning So'zini bajarishda kuchli edilar va tushkunlikka tushmadilar. Ular nolihsdan bosh tortdilar va Xudoga ishonishda tez edilar.

yoki muvaffaqiyatsizligi uchun javobgar bo'lib qolasiz, bu siz ularning ko'rsatmalariga qanday javob berishingizga bog'liq bo'ladi. Bunday muhitda bosim, qonunbozlik, xo'jayinlik va nayrang ko'p bo'ladi.

Garchi men asosan xizmat haqida aytayotgan bo'lsa ham, bu

faqat xizmatga taalluqli emas. Men tananing kuchi bilan yaratilgan har qanaqa muhit haqida gapiryapman. Bu bizning tadbirkorlikka, ta'limga, sog'liqni saqlash sohasiga, hukumatga, armiyaga, professional sportga va Xudo O'zining xalqini xizmat qilishga chaqirayotgan boshqa ko'plab da'vatga taalluqli bo'lishi mumkin.

Aksincha, Ruhdan tug'ilgan esa o'zining shakllanishida hech qanday hissa qo'shmaganini biladi, shu bois o'ziga o'zi homiylik qila olmasligini yoki o'z kuchi bilan o'zini o'sтира olmasligini tushunadi. Xudo yaratgan (qurgan) narsa uchun Uning O'zi mas'uldir.

Is'hoq tug'ilganida, Ismoilning taqdiri hal bo'ldi (Ibtido 16-21). Men o'z tajribamda ko'rdimki, Ismoil tug'ilishi uchun mumkin bo'lgan imkoniyat, har doim va'da qilingan Is'hoq haqidagi orzu tug'ilishidan avval keladi. Xudo bizga va'da qilgan o'g'il tug'ilishi uchun o'z kuchimizdan foydalanish vasvasasiga qarshi turish kerak. Keyingi oyatni eslang: "Ibrohimga: "Bu cho'rini va uning o'g'lini haydab yubor! Chunki bu cho'rining o'g'li mening o'g'lim Is'hoq bilan merosxo'r bo'lmaydi", – dedi" (Ibtido 21:10).

Rabbiy O'zining xalqiga: "O'zingiz Ismoilni tug'ish uchun qilayotgan harakatlaringizni bas qiling, chunki tanadan tug'ilgan va'dadan tug'ilgan bilan birga merosxo'r bo'lmaydi" – deydigan kun kelyapti. – "Hattoki, bu uslublar mahsuldor bo'lib ko'rinsa ham, Xudo shunday deydi: "Buni o'zingizdan uloqtiring!", toki biror kishi Uning huzurida maqtanmasin!"

Xudoning hukmi kelganida, siz o'z mahoratingiz bilan hayotingizda qurgan har qanday narsa tozalaydigan olovga bardosh bera olmaydi. Agar hayotingizda barcha urinishingiz o'zingizni saqlab qolishga va o'zingizni olg'a surishga qaratilgan bo'lsa, bularning bari yonib ketadi. Lekin biz "olov ichidan qutulgandek" bo'lamiz.

Faqat va'da orqali olingan Xudoning Ruhi va inoyati bilan hosil bo'lgan hamda tug'ilgan narsagina qoladi.

9


KUCHNI MASHQ QILDIRISH

“Rabbiy O‘zining eng a‘lo askarlarini azoblar cho‘qqisidan topadi”.

– Charlz X. Sperdjen

“Chaqaloq esa ulg‘ayib va ruhan quvvatlanib, Isroilga zohir bo‘ladigan kunigacha sahrolarda bo‘ldi”.

– Luqo 1:80



Ko'p yillar avval men to'qnash kelgan qiyinchiliklar shuni ko'rsatdiki, biz Masihning izdoshlari kuchga to'lishimiz va imonimizni mustahkamlashimiz uchun tayyorgarlik vaqtiga ega bo'lishimiz kerak ekan. Ishonasizmi yoki yo'qmi, bu sinovlar quruq, behosil cho'lda emas, balki sport majmualarida va sog'lomlashtirish markazlarida amalga oshdi.

Men o'ttiz besh yoshda edim va Jorjiya shtatining Atlantadagi jamoatlaridan birida, chin yuragimdan voizlik qilganimdan so'ng, sahnada turgan paytim qariyb hushimdan ketib yiqildim. O'shanda men jismonan zaif bo'lib qolganimni tushundim va agar men sadoqat bilan xizmat qilishni davom ettirishni istasam tanamni mustahkamlashim kerakligini bilar edim.

Men Jorjiyadan uyga qaytib kelib, bo'lgan voqeani Lizaga aytib berdim. So'ng:

- Men mashg'ulot zaliga qatnayman dedim.

U esa meni o'zining javobi bilan lol qoldirib, shunday dedi:

- Xudoga shukur! Men, sen mashg'ulot zaliga qatnashing uchun ibodat qilgan edim!

Chindan ham o'zining eri uchun qanday ibodat qilish kerakligini bilgan xotining bo'lsa bu e'tiborga loyiq.

O'sha vaqti biz Floridada yashar edik va bizdan ikkita uy narida Kip ismli Umumjahon Restling Federasiyasining kurashchisi yashar edi.

Biz u bilan oilaviy do'stga aylangan edik, chunki bizning farzandlarimiz chamasi bir xil yoshda edilar. U bir necha marta meni mashg'ulot zaliga birga borishni va birgalikda mashq qilishni taklif etar edi, lekin men doim: "Yo'q, men juda ham bandman. Mening vaqtim yo'q" – der edim. Men band edim, lekin shuningdek, men biroz qo'rqardim ham; kim ham professional kurashchi bilan mashq qilishni xohlardi?

Kipning gavdasi katta edi: bo'yi – 190 santimetr, vazni – 108 kilo va bor yo'g'i olti foiz badan yog'iga ega edi. Uning jussasi namunali "V" shaklda edi va qornidan mashq qilingan to'rt juft mushaklar ajralib turardi.

Ko'pincha u, bizning farzandalarimiz va men ko'cha basbetboli yoki xokkey o'ynar edik. Men u bilan to'qnashganimda u hatto joyidan jilmasdi, men esa bir yarim, ikki metr orqaga uchib ketar edim!

Atlantaga qilgan safarimdan so'ng, uning oldiga kirib dedim:

- Kip, men mashq olishim kerak. Sen menga yordam beraman degan eding. Sen hali ham yordam berishga tayyormisan?

U uzoq o'ylamay dedi:

Albatta, men seni o'zim bilan mashg'ulotlarga olib boraman.

Men uning beshafqat tabassumiga diqqatliroq bo'lishim kerak edi. O'shanda meni nima kutayotganini umuman tasavvur ham qilmagan edim!

Keyingi kun ertalab ikkovimiz mashg'ulot zaliga bordik. Men u yerda faqat jiddiy sportchilar shug'ullanishini birdaniga tushundim. Atrof-muhit testosteronga to'lgan va terning hidiga esa deyarli chidab bo'lmas edi. Birinchi kuni men o'zlashtirgan darslardan biri quyidagicha edi. Shtangaga yengil vaznni osib, uni yigirma yoki o'ttiz marta ko'tarib mushak hajmini o'stirib bo'lmaydi. Buning o'rniga shtangaga siz bor yo'g'i uch yoki to'rt marta ko'tara oladigan katta vaznni osishingiz kerak.

Sizning mushaklaringizda mashqni uchinchi yoki to'rtinchi marta qaytarishdan boshlab, yaxshi o'zgarishlar sodir bo'ladi. Shu payti ichingizdagi hamma narsa: "Men buni boshqa ko'tara olmayman!" – deydi. Lekin o'rindig'ingiz atrofida yig'ilgan yigitlarning hammasi

baqirib: “Itar, itar, portlagin!” – deganda, ichingizda nimadir butun kuchni oxirigacha sarflashga va ana shu vaznni to’rtinchi yoki beshinchi marta ko’tarishga majburlaydi. Juda murakkab bo’lgan jarayonni oddiy qilib tushuntirsak, mushaklar aynan shunday tarzda o’sadi.

Tan olishga uyالaman, lekin birinchi kuni yotgan holda, siltamasdan bor yo’g’i 40 kiloni ko’tara oldim. Kip o’sha paytda qo’shnisining safari uzoq davom etishini anglaganiga aminman! Ikki haftadan so’ng mashg’ulot zalida men 45 kiloni ko’tardim. Yana bir necha haftadan so’ng men 55 kiloni ko’tardim. 60 kiloga yetib borganimda, men shuqadar g’ururlandimki, men shtanganing har bir tarafiga ikkita standart o’ttiz kiloli disklarni osa oldim. Men shtangani ko’tarishga boshqa uyalmas edim.

Men o’zimning hikoyamni ushbu bobda yana davom ettiraman, lekin mening asta-sekinlik bilan jismoniy kuchga to’lishish jarayonim, Rabbiy bizni O’zining cho’ldagi “mashg’ulot zaliga” olib borib bizga ruhiy mushaklarni o’stirishda yordam berishga o’xshaydigan yaxshi misoldir.

Bizning ruhimiz aynan cho’lda kuchli bo’ladi, chunki bu nafaqat biz: “Xudo, qayerdasan?” – deb xitob qiladigan qurg’oqchil joy, qolaversa, katta sinovlar va imtihonlar joyidir. Xushxabar shundaki, garchi cho’l – murakkab va og’ir joy bo’lsa ham, biz ruhiy kuch mashg’uloti vaqtida vaznni ko’tarish uchun, kim bizni ruhlantirishini esda tutishimiz kerak.

“Agar Xudo biz tomonda bo’lsa, kim bizga qarshi?”
(Rimliklarga 8:31).

U biz tomonda ekani va bizni ruhlantirishidan tashqari, bizga yana bitta mustahkam va’da bergan:

“Boshingizga oddiy insoniy vasvasadan boshqa vasvasa kelgan emas. Xudo esa sodiqdir, U kuchingiz yetmagan vasvasaga tushishga yo’l qo’ymaydi, lekin vasvasa paytida bardosh berishingiz uchun xalos bo’lish yo’lini ham beradi”
(1-Korinfliklarga 10:13).

Shuning uchun qanaqa sinov bilan to'qnash kelishingizdan, qaqshatqich va qurg'oq joylardan o'tayotganingizdan qat'iy nazar, Xudo bizga biz hech qachon yengib o'ta olmaydigan sinovga tushmasligimizni va'da beryapti. Agar o'ylab ko'rsak, bu juda hayratomuz.

Siz sinovlar bilan to'qnash kelganingizda, kim ekaningizni unutmang. Iso sizga, ya'ni Xudoning suyukli farzandiga shunday deyapti: "Mana, Men sizlarga ilonlari chayonlarni hamda dushmanning butun kuch-qudratini bosish uchun hokimiyat beryapman va hech narsa sizlarga zarar yetkazmaydi" (Luqo 10:19). Demak, dushman bizga nima ulotqirayotgani muhim emasligini tushunyapmiz; biz boshimizga tushgan sinovni yenga olamiz. Aks holda Xudo bunga yo'l qo'ymagan bo'lar edi!

Biroq, bu yerda yana bitta muammo yashiringan. Ko'p odamlar katta muammolarni uddalash qobiliyatini o'stirmaydilar. Ular mashg'ulot zalidan qochishadi yoki u yerga tushib qolganidan nolishadi va shikoyat qilishadi desa ham bo'ladi. Shunday bo'lsa-da, Pavlus umuman boshqa munosabatni ta'riflayapti. U shunday deb yozgan:

"Chunki sizlarga Masih haqi Unga ishonishgina emas, balki U uchun azob chekish ham berilgan (yoki sovg'a qilingan)" (Filippiliklarga 1:29).

Azoblar sizga berilgan yoki in'om qilingan deb o'qiganingizda bu sizga g'alati bo'lib tuyulmaydimi? Aslida bu nima degani? Agar kimdir menga: "Senga nimadir berilgan" – desa, men barakalarni kutgan bo'lardim. Men buni kutgan holda shunday der edim: "Qiziq, men nimani qo'lga kiritar ekanman?"

"In'om qilingan" va "azoblar" so'zlarini qanday qilib bitta gapda qovushtirish mumkin? Bu kimgadir shunday deyishga o'xshaydi: "Sizga tug'ilgan kuningizda tish shifokoriga borib, tishingizning ildiz yo'lidagi pulpasini oldirish uchun borish sovg'a qilingan". "Siz jiddiy aytyapsizmi? Rahmat, lekin men istamayman". Bu bema'nilikdek tuyuladi, chunki Qo'shma Shtatlarga o'xshagan zamonaviy davlatda yashab, biz qulay

va birmuncha yengil hayotga intilamiz. Shuning uchun, azoblar sizga in’om etilgani haqidagi g’oya sarosimaga solib qo’yishi mumkin. Ko’p odamlar qiyinchiliklarga duch kelib shunday deydilar:

“Men bilan shu narsa sodir bo’layotganiga ishongim kelmayapti”.

“Nima uchun men?”

“Nima uchun bu narsalardan men o’tishim kerak?”

“Bunga toqatim yetmaydi!”

“Hech kim men nimadan o’tayotganimni tushuna olmaydi”.

“Nima uchun men normal hayot bilan yashay olmayman?”

“Xudoyim, iltimos, mening hayotimdan bu narsani olib tashla!”

“Kurashishning nima keragi bor? Bundan ko’ra birdan taslim bo’lganim yaxshi...”

Aminmanki, vaqti-vaqti bilan biz shunday deb o’ylaganmiz, yoki qiyinchiliklar bilan to’qnash kelganimizda, shunga o’xshash gaplarni aytganmiz. Afsuski, ko’pincha biz (cho’ldagi) sinovlarning va azoblarning maqsadini tushunmaymiz.

Lekin, doimgidek, Xudo biz nimaga muhtoj ekanimizni va Uning shohligida yanada mahsuldor bo’lishimiz uchun bizga qancha kuch kerakligini tushunadi. Pavlus mana shu sababdan bizga Xudoning va’dasi haqida xabar qiladi, bizning imon mushaklarimiz kattarishi uchun bizga “maqsadga asoslangan azoblar” beriladi yoki in’om qilinadi.

Vasvasaning roli

Men ilgari eslatib o’tganimdek, bizning kuch mashg’ulotlarimizning maqsadlaridan biri – bu vasvasani aniqlash va unga qarshilik ko’rsatish qobiliyatida o’sishdir. Iso bunaqa vaziyatdan O’z xizmatining boshida o’tdi, Ota shaytonga Isoni cho’lda vasvasaga solishga ruxsat bergan paytda: “Iso Muqaddas Ruhga to’lib, Yordan daryosidan qaytib keldi. U Ruh tomonidan sahroga olib borildi. U sahroda qirq kun iblis tomonidan vasvasaga solindi. O’sha vaqtda U hech narsa yemadi. Bu kunlar tugagach, U oxiri och qoldi” (Luqo 4:1-2).

Men “ruxsat berdi” soʻzini ataylab ishlatdim, chunki Xudo har qanday vaziyatda vasvasaning muallifi emas: “Vasvasaga tushganda, hech kim: “Xudo meni vasvasaga solyapti”, – demasin. Chunki Xudo yovuzlikka vasvasaga tushmaydi, Oʻzi ham hech kimni vasvasaga solmaydi” (Yoqub 1:13).

Biz vasvasa qilinganimizda, biz bilan nima sodir boʻladi? Biz shaytonning maqsadi – bizni Xudoga itoat qilish quvonchidan va U bilan boʻlgan munosabatimizdan olib ketish uchun bizni gunohga yetaklash ekanini bilamiz. Agarda shayton shunday maqsad bilan bizni vasvasa qilsa, unda Xudo bu vasvasa bilan toʻqnashishimizga yoʻl qoʻysa, unda U qanday maqsadni koʻzlaydi? Havoriy Petrus bizga shu savolga javob beryapti?

“Shunday qilib, Masih biz uchun Oʻz tanasi bilan azob chekkanidek, sizlar ham xuddi shu fikr bilan qurollaninglar. Chunki tanasi bilan azob chekayotgan odam gunoh qilishdan toʻxtaydi” (1-Petrusning 4:1).

Boshqacha soʻzlar bilan aytganda, biz choʻlda toʻqnash keladigan vasvasa orqali boʻlgan sinov va gunoh yoki boshqa muammolar ustidagi gʻalabaning maqsadi – bizga ruhiy mushaklarimizni oʻstirishga va yanada yetukroq boʻlishimizga yordam berishdir. Bu oyatdagi asosiy soʻz “qurollaning” hisoblanadi.

Jangga qurolsiz borayotgan harbiy qismni tasavvur qila olasizmi? Jangovar vertolyot, tanklar, vintovka va oʻq-dorilarsiz – umuman qurolsiz? Bu holat falokatga aylangan boʻlar edi. Azob chekish va sinovlardan oʻtish uchun qurollanmagan Masihning izdoshi, xuddi shunday falokatga duchor boʻladi.

Xususiy aviayoʻnalishlarning uchuvchilari – turli xil muammolar uchun tayyorlangan odamlarning yaxshi misoli boʻla oladi. Bunday aviayoʻnalishlari har olti oyda ishchilarini vaqti-vaqti bilan oʻquvga yuborishadi. Bu uchuvchilar simulyatorga oʻtirib, sodir boʻlishi mumkin

Cho'ldan qanday o'tish kerak

#9 Ismoilni tug'mang.

Biz cho'lda ekanimizni anglanimizda, bu yerda uzoq ushlanib qoldim deb o'ylasak, bizga o'zimizning orzuimizni amalga oshirish uchun "shunchaki nimanidir qilish" vasvasasi keladi. Men buni Ismoilning tug'ilishi deb atayman va bu Xudo bizga va'da qilgan narsani o'zimizning kuchimiz bilan amalga oshirishga harakat qilishimizdir. Ko'pincha Ismoillar qandaydir asoslangan muhtojlikka javob tariqasida tug'iladi, lekin ular tana izmi bo'yicha tug'iladi.

Albatta, bu g'oya Ibrohim va Soro haqidagi hikoyaga borib taqaladi, Xudo ularga o'g'il va'da qilgan edi. Ular bu va'dani o'n bir yil kutdilar; Ibrohim 86 yoshda edi, Soro esa farzand ko'rish uchun juda kekxa edi. Shuning uchun ular "B rejaga" o'tdilar – Soro Ibrohimga Hojarni olishni va va'da qilingan o'g'ilni u orqali tug'ishni taklif etdi. Bu reja yaxshi reja emas edi. Ismoil bilan bog'liq bo'lgan har qanaqa reja, garchi bu arzigulikdek tuyulsa ham, bu yomon reja

bo'lgan eng yomon vaziyatlarda uchoqni samarali boshqarishni o'rganishadi. Maqsad har bitta uchuvchining favqulotdagi vaziyatlarni uddalay olish mahoratini mustahkamlashdan iborat.

Odatda, uchoqda yuzaga kelgan xavfli holat paytida nima qilishga o'rgatilmagan yo'lovchilar shunchaki ta'sirga tushib qoladilar, uchuvchi esa chora ko'radi. Nima uchun? Chunki uchuvchi o'rgatilgan yoki qurollangan. Cho'l itoatli masihiy bilan mana shu narsani amalga oshiradi. U bizning yo'llarimizga qiyinchiliklarni qo'yadi, ularning maqsadi – bizni kutayotgan g'alabalar uchun qurollashdir. Biz cho'lda qiyinchiliklar bo'lishini tushunishimiz kerak. Iso, biz bu dunyoda qiyinchiliklar va azoblar bilan to'qnash kelishimiz haqida, biroq ularni yengishda U bizga yordam berishi haqida aytgan. Biz ular orqali o'tib kuchliroq bo'lamiz.

hisoblanadi. Doim yodda tuting: agar siz biror nimani o'z kuchingiz bilan tuqqan bo'lsangiz, siz buni o'z tanangizning kuchi bilan qo'llab turishingizga majbur bo'lasiz.

Bir necha marta cho'lda bo'lganimda, men "B rejani" ishlatib ko'rganman. Xudo menga bir kuni kelib, menga umumjahon voizxon bo'lish xizmatini va'da qilganini bilardim. Lekin bu amalga oshmayotgani sababli men o'zimni mahalliy jamoatning xizmatida "botib qolgan" dek his qilardim. Shu bois, men bir necha marotaba cho'ldan qutulib qochib ketishga uringanman. Men bunday urinishlar uchun katta narx to'ladim va bunday urinishlar menga baribir hech qanday foyda keltirmadi. Men taslim bo'lganimdanoq, Xudoning O'zi ishlashni boshladi va hamma narsani o'zgartirdi.

Sizga maslahatim: o'zingizni be'mani azoblardan xalos qiling – Ismoilni tug'mang. Xudo sizga va'da qilgan narsalarni amalga oshirishi uchun yo'l bering.

Buyuk imkoniyat

Biz cho'lga, o'zimizning ruhiy mushaklarimizni quvvatlash va Rabbiy hayotimizning keyingi bosqichida bermoqchi bo'lgan narsalar uchun yanada kuchliroq bo'lishimizda, buyuk imkoniyat deb qarashimiz kerak. Havoriy Yoqub shunday deydi:

"Birodarlarim, sizlar turli vasvasalarga tushib qolganingizda ham, buni butun quvonch bilan qabul qilinglar" (Yoqub 1:2).

Biz barchamiz imkoniyat nimaligini bilamiz, chunki biz amerikaliklar tadbirkorlarni sevamiz. Biznesda, masalan o'sish, muvaffaqiyatga erishish va farovonlik uchun imkoniyatlar mavjud. Bu bizning

sarhadlarimizni kengaytirishning imkoniyatidir. Biz qiyinchiliklarimizga aynan shunday tarzda qarashimiz kerak, Yoqub aytganidek:

“Shuni bilinglarki, imoningizning sinalishi sabr-toqat hosil qiladi. Sabr-toqatingiz esa amalda mukammal bo’lsin, toki sizlar hamma narsada kamchiliksiz, yetuk va komil bo’linglar” (Yoqub 1:3-4).

Cho’lda bizda o’zimizning chidamlilik mahoratimizni o’stirish imkoniyati tug’iladi. Bugun biz “chidamlilik” so’zini qanday ma’noda ishlatamiz? Ko’pincha, chidamlilikni o’stirish mashg’ulotlari – chidamlilikni rivojlantirish uchun bir qator mashqlar qilish ma’nosida ishlatamiz. Oddiy so’z bilan aytganda, chidamlilikni o’stirish mashg’ulotlari, kelajakda bizning qiyinchiliklarimizni yengib o’tish qobiliyatimizni kengaytiradi.

Buning ma’nosi quyidagicha: biz duch kelgan har qanday sinovda, Xudo qiyinchiliklarning kelishiga muayyan maqsad bilan yo’l qo’yadi, maqsad – bizning qobiliyatlarimizni o’stirishdir. Xudo qiyinchiliklarga yo’l qo’yadi va men bu so’zni yana ta’kidlab o’taman, ertaga biz qiyinchiliklar bilan to’qnash kelishimizni Xudo bilgani sababli, bosim darajasini imitasiya qiladigan (uchish simulyatorining misolini eslang) qiyinchiliklarning kelishiga bugun yo’l qo’yadi. Aynan shuning uchun sinov doim bugungi tayyorgarlik va mas’uliyat darajamizdan ko’ra kattaroqdek tuyuladi. Shunday qilib, biz kelajakda yirik g’alabalarga ega bo’lishimizda, Xudo bizning hozirgi qiyinchiliklarimizni bizni mustahkamlash uchun ishlatadi.

Endi esa mening mashg’ulotlarimga qaytamiz. Men avval aytib o’tganimdek, Kip meni shunday shug’ullantirdiki, men jimda yotgan holda 60 kiloni ko’tara oladigan bo’ldim. Garchi bu men uchun katta yutuq bo’lgan bo’lsa ham, men bundan ko’prog’ini qila olarmikinman deb o’ylar edim. Agar mening kuch yig’ish mashg’ulotimni ruhiy tayyorgarlik va kuch bilan solishtirsam, bunday holda Rabbiyda men

uchun, 60 kiloni ko'tarishdan ko'ra ko'proq kuchni talab etadigan vazifa bo'lgan bo'lsachi?

Shunday qilib, men mashg'ulot zaliga qatnashni davom ettirdim. Nihoyat men 90 kiloni ko'tardim, lekin men ikki yil mobaynida mana shu og'irlikda qolib ketdim. Men Kaliforniyadagi anjumanlarning birida voizlik qilayotgan edim va bir necha xizmatkorlar menga: Jon, sen biror marta 100 kilo ko'targanmisan deyishdi?

- Men biroz umidsizlik bilan: Yo'q, lekin men besh yildan beri urinyapman, – dedim.

- Ular: Biz senga yorib o'tishga yordam beramiz, – deyishdi.

Men chindan ham, o'sha kuni yotgan holda jim bilan 100 kilo ko'tardim! Men o'ta ilhomlanib ketdim!

Shundan so'ng bizning "Messenger Interneyshnl" xizmatimizga yangi ishchi qo'shildi. Men uni og'ir atletika bilan shug'ullanishini bilib qoldim va biz birgalikda shug'ullanishni boshladik. Uning yordamida men 105 kilo va hatto bir marta 110 kilo ham ko'tara oldim. Biroq men bundan ko'prog'iga qodirmidim?

Bir yildan so'ng men Deytroyt shahridagi jamoatlarning birida voizlik qildim. Yakshanba xizmatidan so'ng cho'pon menga:

Jon mening trenerim – butun Amerika bo'ylab mashhur fitnes-yo'riqchi, u bizning jamoatimizga qatnaydi. Ertaga mening navbatdagi mashg'ulotim bo'ladi. Men bilan borasanmi? – dedi.

- Men ko'tarinki ruhda albatta, deb javob berdim.

Keyingi kuni biz u yerga bordik. Bu trener meni baholadi-da, keyin so'radi:

- Shunday qilib, sen eng ko'p ko'targan og'irlik 110 kilo edimi?

- Ha, lekin bu faqat bir marta bo'lgan edi.

- Bugun sen bundan ham og'irrog'ini ko'tarasan.

"Nima?!" Men bunday deganim yo'q, lekin ichimda o'yladim: "*Sen aqldan ozibsan! Buning iloji yo'q!*". Lekin ozgina mashg'ulot va maslahatlardan so'ng men 120 kilo ko'tardim.

Men ilhomga to'ldim. Men og'ir atletchi ishchimizning yoniga,

Koloradoga qaytib bordim va o'sha yo'riqchi bizni har hafta elektron xat orqali shug'ullantirdi. Biz g'ayrat bilan mehnat qilishda davom etdik va keyingi yili Deytroydagi o'sha jamoatga yana qaytib bordim. O'sha payti men 42 yoshda edim.

O'sha yakshanba kuni men Muqaddas Ruhning ajoyib sifatleri haqida voizlik qildim. Dushanba kuni biz birgalikda mashg'ulot zaliga bordik. O'sha trener menga:

- Jon o'tgan oqshom men tush ko'rdim, tushimda sen 140 kilodan ko'proq ko'taribsan, – dedi.

- Men: Aql bovar qilmaydi! – dedim. Ammo men: “Barakalla, lekin men bunaqa tush ko'rmadim-ku!” – dedim.

- Jon, sen kecha Muqaddas Ruhning kuchi haqida voizlik qilding. Bu tushni kecha menga U berdi! Kursiga yot. Bu bizning qo'limizdan keladi!

Ozgina mashg'ulotdan keyin shtangaga toshlarni ildik va azamat ovoz bilan men 150 kiloni ko'tardim!

Men nihoyatda ilhomlanib ketdim va Lizaga Deytroyt aeroportidan qo'ng'iroq qilib, dedim:

- Men uyga uchishim uchun uchoq kerak emas, men hozir mana shunday ko'tarinki ruhdaman!

Men 150 kiloni ko'targanimdan so'ng 100 kilo bilan bimalol shug'ullandim. Men hattoki bu og'irlikni o'n martagacha ko'tarib qayta-qayta ko'tarardim. Lekin yetti yil ilgari nimadan boshlaganimni eslab ko'ring. Agarda 35 yoshimda Kip shtangaga 40 kiloning o'rniga 100 kilo qo'rganida nima sodir bo'lardi? Bu shtanga meni o'ldirishi mumkin edi! U bor og'irligi bilan ustimga tushib meni ezib tashlagan bo'lar edi! Hozirgi kuchimga ega bo'lishim uchun yillar davomida ketma-ket urinishlar kerak bo'ldi. Hozir men uchun oddiy hisoblangan og'irlik, meni yetti yil oldin o'ldirishi mumkin edi!

Ana shu sababdan biz o'tayotgan sinovlar, hayotimizda ko'pincha uzoq vaqtga qolib ketib, ruhiy kuchimizni mashq qildiradi va biz kelajakdagi yanada yirikroq bo'lgan sinovlarga tayyorlanishimiz uchun yordam beradi. Biz Rabbiyda kuchliroq bo'lganimizda, bizda Uning

shohligini qurishda ko'proq harakat qilish qobiliyati hosil bo'ladi.

Afsuski, Masih hukmi oldida turadigan odamlar bo'ladi va U ko'z yoshlari bilan ularga shunday deydi: "Men sen uchun ancha ko'proq rejam bor edi, lekin sen ular bilan birga keladigan qiyinchiliklarni eplash uchun sening qobiliyating yo'q edi". Bu juda ham fojeali, chunki Xudo bizga hech qachon biz bardosh bera oladiganimizdan ortig'ini bermaydi. U bizga buni va'da qilgan!

Shunday ekan, keling mening mashg'ulotlarimni namuna sifatida ishlatamiz. Agar siz 60 kilo ruhiy qarshilikni ko'tara olsangiz, Xudoda esa 80 kilo qarshilikni, quvg'inlarni, vasvasalarni va mashaqqatlarni ko'tara oladigan qobiliyatni talab etadigan reja yoki xizmat bo'lsa, U bunga hozir yo'l qo'ymaydi, chunki siz yetarlicha kuchli emassiz. Buning o'rniga sizni o'qish jarayonini boshlashga yo'naltiradi. Ehtimol, U sizni tekshirishda davom etadigan, lekin sizni yakson qilolmaydigan 65 kilo qiyinchilikning kelishiga yo'l qo'yadi (lekin buni O'zi yaratmaydi).

Masalan, ehtimol kimdir siz haqingizda g'iybat qilar va mish-mishlar tarqatar. Bunday hujumga qarshi turib, o'zingizni himoya qilishning va o'zingiz ham o'sha odam haqida g'iybat qilishning o'rniga, siz Xudoning So'ziga bo'ysunib, hech nima demay, buning o'rniga duo qilishni afzal ko'rasiz. Ajoyib – siz 65 kiloli sinovni ko'tardingiz! Endi siz keyingi darajaga – 70 kiloga ko'tarilishingiz kerak! Agar siz Xudoga keyin ham qiyinchiliklar orqali bo'ysunsangiz, sizning mashg'ulotingiz, siz to 80 kilo darajasiga erishmaguningizcha davom etadi. Endi siz, Xudo O'zining shohlidagi hayotingiz uchun rejalashtirgan yanada yuqoriroq rejaga yoki mansabga tayyorsiz.

Agar siz g'iybat haqida bilib qolib, xafa bo'lsangiz va u insonga javob qaytarsangiz, o'zingiz payqaganingizdek, Rabbiiy ko'z yoshi bilan sizga: "Men senga achinaman, lekin sen 60 kilolik ruhiy qarshilikka qaytishing kerak" – deydi. Siz hali hanuz "mashg'ulot zalidasiz", lekin bundan foyda olmayapsiz.

Mashg'ulot davom etyapti, biroq u o'sha ilgarigi darajada turibdi.

Keyingi sinov, U hayotingizda moliyaviy muammolarga yo'l qo'yadi – bu ham 65 kiloli yana bitta sinov bo'ladi. Ammo Xudoning ta'minotini izlashning o'rniga siz birdaniga shunday deysiz: "Bu muammo emas! Bizning kredit tariximiz hali tugagani yo'q!" Shunda Xudo qo'shimcha og'irlikni olib tashlab: "60 kiloga qayt" – deydi.

Lekin shunday vaqt keladiki, siz Xudoga Uning shohligidagi 80 kiloli qarshilikka mo'ljallangan muayyan vazifa yoki muayyan mansab uchun kerak bo'lasiz. Agar sizning cho'ldagi sinovlaringiz – kuch mashg'ulotlaringiz nuqul muvaffaqiyatsiz bo'lgan bo'lsa, U sizni yangi pog'onaga olib kirolmaydi, chunki sizda bunday vazifadagi yoki mansabdagi qarshiliklarni ko'tarish uchun ruhiy mushaklar yo'q. Bunday holda U bu vazifani uddalay oladigan yoki bu mansabni egallay oladigan boshqa kishini topishga majbur bo'ladi.

Ko'proq hokimiyat va kuch

Mana nima uchun cho'l juda muhim; u bizning kuchimizni ko'paytiradi.

Yahyo Cho'mdiruvchi aynan cho'lda ruhan kuchli bo'ldi.

Iso aynan cho'lda ruhan mustahkam bo'ldi.

Ularning ruhiy mushaklari yengil davrlarda emas, balki qiyin davrlarda, ularning imoni sinalgan paytda rivojlandi.

Yoqub bizga yaxshi xabarni ma'lum qiladi: siz qiyinchiliklardan Xudoga ma'qul tarzda o'tganingizda, to'liq tayyor bo'lasiz – Xudo sizni tayyorlagan hamma narsa uchun sizda kuch bo'ladi:

"Shuni bilinglarki, imoningizning sinalishi sabr-toqat hosil qiladi. Sabr-toqatingiz esa amalda mukammal bo'lsin, toki sizlar hamma narsada kamchiliksiz, yetuk va komil bo'linglar" (Yoqub 1:3-4).

Yoqub bizning qobiliyatimiz va chidamliligimiz o'sishi kerakligini nazarda tutyapti. Yoqub shuningdek, agarda biz cho'lda to'g'ri harakat

qilsak, bizda kutish mahorati hosil bo'lishi haqida aytyapti: "Vasvasaga bardosh bergan odam baxtlidir. Chunki u sinovdan o'tgach, Rabbiyni sevadiganlarga va'da qilingan hayot tojini oladi" (Yoqub 1:12).

"Toj" so'zi hokimiyatning timsolidir, hokimiyat ortidan kuch keladi. Iso shayton tomonidan vasvasa qilinish uchun cho'lga yuborilgani, O'zining itoati va O'zining turg'unligi tufayli cho'ldan katta hokimiyat va kuch bilan chiqqani kabi, biz ham o'zimizning cho'l mavsumimizdan katta hokimiyat va kuch bilan chiqa olamiz.

Sizni bilmadimu, lekin men Xudo tayyorlab qo'ygan narsalar uchun mening ruhiy kuchim borligiga amin bo'lishni istayman.

Biror kishi mashq qilishni istaydimi?


CHO‘LDA SUV

“Vaziyatlar bizga qarshi bo‘lganida Xudoga ishona olmasak, demak biz umuman Unga ishonmaymiz”.

– Charlz X. Sperjen

“Iso unga javoban dedi: – Bu suvdan ichayotgan har bir odam yana tashna bo‘ladi. Men unga beradigan suvni ichadigan esa abadiy tashna bo‘lmaydi. Ammo Men unga beradigan suv uning ichida abadiy hayot tomon oqayotgan suv manbaiga aylanadi”.

– Yuhanno 4:13-14



Cho’lda yomg’ir kam bo’ladi. U yerda suv topish mushkul va agarda suv topish mumkin bo’lsa, uni quduq yoki buloqdan qazib chiqarish kerak bo’ladi. Cho’l – bu quruq va tashna yer hisoblanadi (Sanolar 62:2). Shuning uchun, Iso bizni shunday so’zlar bilan chorlayapti:

“Ulug’ bayramning oxirgi kunida Iso tik turib, baland ovoz bilan shunday xitob qildi: “Kim tashna bo’lsa, Mening oldimga kelib ichsin” (Yuhanno 7:37).

O’zim cho’lda bo’lgan paytlarimni eslayman, men ibodat qilishga uringanimda, tirik suv bilan to’lishish qiyin bo’lar edi. Bir kuni men mana shunday holatdaligimda, Rabbiyni izlagan paytim, chodirimni oldim va davlat bog’iga ketdim. U yerda butun kecha davomida ertalabgacha ibodat qilishga qaror qildim. O’sha kecha, avval ibodat qildim, so’ng Yozuvni o’qidim, so’ng hamdu-sano kuyladim. Bu uch soatlar davom etdi va menga hech narsa sodir bo’lmayotgandek tuyuldi. Men yangilanishni emas, balki batamom quruqlikni his etar edim. Kuchli umidsizlikka tushib, oxiri, yotoq qopimga kirib, uyquga ketishga harakat qildim.

O’sha kecha barcha jinlar bayram uyushtirganga o’xshar edi; men umuman uxlay olmadim. Men nega meni Xudo to’ldirmadi deb o’zimdan so’rab, u yonboshdan, bu yonboshga ag’darilib yotdim.

Ertasi kuni chodirimdan chiqib, ruhda ibodat qildim, lekin o'zimni bo'm-bo'sh his etgan holda, xiyobonlar bo'ylab yura boshladim. Bu holat yana bir yarim soat davom etdi. Nihoyat, men boshimni ko'tarib: "Rabbiy, men cho'lga kelganga o'xshayman" – dedim. Men: "Yaxshisi, men uyga borib, Uni izlashni to'xtatishim kerak; bu quruq joyga meni Xudoning O'zi olib keldi, shu bois, Uning O'zi meni bu yerdan olib chiqmaguncha, hech narsa o'zgarmaydi" – deb o'yladim.

Bu noto'g'ri tafakkur edi! Xudo O'z ixtiyori bilan vaziyatimizni o'zgartirmagunicha, umidsizlikka tushurish yoki taslim bo'lishga majburlash uchun bizni cho'lga olib kelmaydi! Cho'l muvaffaqiyatsizlik emas, g'alaba joyidir! To'satdan, ichimda mayin ovoz: "Kurash!" – deganini eshitdim. Mana shu kichik so'z men muhtoj bo'lgan olov uchquni va hayot edi. Men shu zahoti dedim:

Xudoning in'omi menda yondi! Tirik suv daryolari, quyilinglar! Yuragimning chashmasi, to'lib-toshgin!

Men isroilliklar bilan cho'lda sodir bo'lgan bir voqeani esladim:

"Ular bu yerdan Beerga jo'nab ketdilar. Bu Rabbiy Musoga:

"Xalqni yiqqin va Men ularga suv beraman", — deb aytgan o'sha quduqdir. O'shanda Isroil ushbu qo'shiqni kuyladi:

"Quduq, to'lgini; unga kuylang" (Sonlar 21:16-17).

Men Xudoning Kalomidagi bu so'zni takrorlayverdim va mening ibodatim yanada kuchayib bordi va men bog'ning xiyobonlarining birida u yoqdan bu yoqqa yurib, Xudoning So'zini katta kuch va olov bilan e'tirof etdim va ibodat qilishni boshladim. Yangilanish keldi va men umuman boshqa odamga aylanib qolgandek bo'ldim! Men Uning kuchli huzurini his etdim. Bundan bir necha daqiqa avval, men og'irlik va zaiflikni sezib turgan edim; endi esa Rabbiyning So'zi yordamida har qanday dushman bilan to'qnashishga ham tayyor edim!

Bu holat yigirma besh daqiqa davom etdi, ammo bu menga besh daqiqada bo'lib o'tgandek tuyuldi. Men yangilanish bilan to'ldim va dunyoni zabt etishga tayyor edim!

Iso Uning oldiga kelgan va Undan ichgan kishining yuragidan tirik suvlar manbasi yoki daryolar oqib chiqadi degan. Biz cho'lda Muqaddas Ruhning (yomg'ir) yog'ilishini ko'rmaymiz. Ushbu quruq yerda yangilaydigan suvni biz o'z yuragimizdan – Xudoning manbasidan yoki quduq'idan qazib chiqarishimiz zarur.

E'tibor bering, Iso quduq yoki chashma – bu Muqaddas Ruh ekanini va imonlining yuragidan (birlikdagi) daryo emas, balki (ko'plikdagi) daryolar oqib chiqishini ko'rsatgan.

Qay tarzda bizning yuragimizdan Rabbiyning Ruhi daryolar kabi oqib chiqadi? Isha'yo payg'ambar Ruh harakatining tabiatini tushuntirib, deydi: "Uning ustida Rabbiyning Ruhi, donolik va anglash ruhi, maslahat va quvvat ruhi, bilim va Rabbiydan qo'rqish ruhi bo'ladi" (Isha'yo 11:2).

Muqaddas Ruh Donolik Ruhi, Ong Ruhi, Maslahat Ruhi, Kuch Ruhi, Bilim Ruhi va Rabbiyning Qo'rquvi Ruhi deb ataladi. Iso Ruhni daryolar deb atayotgan bo'lsa, bu Donolik daryosi, Ong daryosi, Maslahat daryosi, Kuch daryosi, Bilim daryosi va Rabbiyning Qo'rquvi daryosi borligini anglatadi. Men chodirimning oldida turganimda, yuragim alangalanib ketgani bejiz emas!

Men ushbu fikrni tasdiqlaydigan bir nechta haqiqatlarni keltirib o'taman:

- Hikmatlar 18:4 da yozilgan: "Inson og'zining so'zlari – chuqur suvlardir, donolik bulog'i esa oqayotgan irmoqdir".
- Hikmatlar 16:22 da yozilgan: "Idrok o'zining egasi uchun hayot bulog'idir, ahmoqlarning nasihati esa ahmoqlikdir".
- Hikmatlar 20:5 da yozilgan: "Insonning yuragidagi niyatlari – chuqur suvlardir, ammo aqlli odam ularni suzib oladi".

Bu chuqur suvlarga to'la quduq imonlining yuragida joylashgan, negaki aynan o'sha yerda Ruh yashaydi. Biroq Xudoning yo'llarini tushunadigan insongina undan suv chiqara oladi. Bu yerdagi eng muhim so'z – bu "suzib olish". Qaytaraman, cho'lda Ruhning yomg'iri

ko'inishidagi toza suv bo'lmasligini unutmasligimiz zarur. Uni yurakdan suzib chiqarish kerak.

Hikmatlar 10:11 da yozilgan: "Haq odamning og'zi – hayot manbai".

Hikmatlar 15:23 da yozilgan: "Inson o'z og'zining javobidan quvonch topadi".

Bordi-yu, men: "Yaxshisi, men uyga borib, Uni izlashni to'xtatishim kerak; bu quruq joyga U meni olib keldi, shu bois, Uning O'zi meni bu yerdan olib chiqmaguncha, hech narsa o'zgarmaydi" – deb o'ylab, chodirimni yig'ishtirib, uyimga ketganimda, men ichimdagi og'irlik bilan ketgan bo'lar edim. Lekin Xudo yuragimga joylagan so'zni e'tirof etganim uchun, chuqur quduqdan suv chiqarib olishga muvaffaq bo'ldim. Men yer osti najot manbalarigacha yetib bordim va yangilaydigan suvni qazib chiqardim. Bu chindan ham cho'lning o'rtasida salqin suv ichishga o'xshadi!

Ko'pchilik qurg'oqchilik mavsumida taslim bo'ladilar, biroq Xudo deydi: "Oldinga borishda davom et! To'xtama!" Bizning ichimizda Uning irodasi amalga oshmaguncha, bizga mag'lub bo'lishga yo'l qo'ymaydigan qat'iy va sabotli intilish bo'lishi zarur.

Aksariyat kishilar quruqlikni his etganlarida, ibodat qilishni to'xtatib qo'yadilar; ular buni quduqdan suv kelmay qolgani uchun to'xtatadilar va suvni chiqarish ularga o'ta mushkuldek tuyuladi. Ular zaiflashadilar, Xudo esa kelajakda ularni kutib turgan jang uchun o'z kuchini ko'paytirishini istaydi.

Bu suvni chiqarib olish uchun qayerdan kuch olish kerak? Bu kuch quvonchda! Isha'yo 12:3 da yozilgan: "Sizlar najot buloqlaridan quvonch bilan suv tortasizlar", chunki "Rabbiyning qarshisidagi quvonch – bizni quvvatlaydi" (Nehemiyah 8:10). Quvonch – bu bizni mustahkamlaydigan ruhiy kuch sanaladi.

Rabbiyning qarshisidagi quvonch bu nima? Ko'p yillar mobaynida, men Rabbiyning qarshisidagi quvonch, U ega bo'lgan quvonchga ega bo'lish deb hisoblar edim va buni tushunish men uchun qiyin edi.

Cho'ldan qanday o'tish kerak

#10 Quvonchning sirli vositasi.

Cho'lda bo'lganingizda diqqatingizni vaziyatlarga qaratish juda oson. Men cho'l mavsumlarida tirik qolishimga va farovon hayot kechirishimga yordam bergan kichkina sir haqida siz bilan bo'lishmoqchiman. Men buni quvonchning Sirli vositasi deb atayman.

Hayotda meni deyarli hech narsa ruhlantirmaganda, hech nima sodir bo'lmayotgandek tuyulganda, men qayta va qayta ibodat qilaman-u, lekin natijalarni ko'rmaganimda, men fikrimni Iso amalga oshirgan narsalarga qarataman.

U meni olovi hech qachon o'chmaydigan va oltingugurt hidi tugamaydigan do'zaxdan qutqargani esimda.

Biroq ushbu oyatda bu haqda yozilmagan. Siz biror marta: “Ovqat tayyorlashdan keladigan quvonch” – degan iborani eshitganmisiz? Ovqat tayyorlash o'z-o'zicha quvonchga ega emas. Bu ovqat tayyorlash jarayonida quvonchni his etishni bildiradi. “Rabbiyning qarshisidagi quvonch” – bu U bilan muloqotdan keladigan quvonchni tuyishdir. U bizga quvonch beradi!

Ibodot qilayotganimizda Uning huzurini his etmaslik, U bizdan yuz burayotganini bildirmaydi. Shu bois, bizning quvonchimiz his etayotganlarimizga bog'liq emas. U Xudoning Shaxsiyatiga va U bilan muloqot imtiyoziga ega ekanimizga bog'liq. Xullas, biz U bizni tashlab ketganligi haqidagi yolg'ondan ancha yuqoriroqni ko'ryapmiz va U aslida, bizni yanada chuqurroq manbalar tomon chorlayotganini tushunyapmiz!

Ko'mib tashlangan quduqlarni ochish

Ibrohimning mo'jizaviy tug'ilgan o'g'li Is'hoq – bir kuni qurg'oqchilikni boshdan kechirdi:

U yerda azob hech qachon tugamaydi. Do'zax men uchun emas, balki shayton uchun yaratilgan. Lekin shayton insoniyatni aldadi va endi u insonlarni o'zining ketidan tortib ketyapti. Biroq, Iso O'zining hayotini qurbon qildi – mening Yaratuvchim meni bundan qutqarish uchun O'z hayotini qurbon qildi.

Men bu haqda o'ylashni boshlaganimda, o'z nigohimni Unga qaratganimda, hayotga shukur bilan qaraganimda va hayotga abadiyat nuqtai nazari bilan qaraganimda, mening vaziyatim ahamiyatli bo'lib ko'rinishdan to'xtaydi. Bu mening quvonchimning Sirli vositasidir – men minnatdor bo'lishim uchun qilingan hamma narsalarni eslayman va o'z nigohimni Isoga qadayman.

“Yer yuzida Ibrohimning kunlaridagi ocharchilikdan tashqari yana ocharchilik bo'ldi... Rabbii unga zohir bo'lib dedi: “Misrga borma, Men senga aytadigan yerda yasha. Shu yerda musofirdek yasha va Men sen bilan birga bo'lib, seni duo qilaman. Chunki Men barcha bu yerlarni senga va sening avlodingga berib, otang Ibrohimga bergan qasamimni bajo keltiraman” (Ibtido 26:1-3).

Xudo xususan, Is'hoqqa, qulay sharoitni izlab – Misrga qochib ketmasligini, balki U qo'ygan joyda qolishi kerakligini aytdi. Aksariyat hollarda, biz sahrada bo'lganimizda, hayolimizga keladigan birinchi narsa bu “Men bu yerdan ketaman!” Agarda ertalabki ibodatimizda Xudoning huzurini sezmasak, kun davomida biz nimalar qilishimiz kerakligi haqida o'ylab, fikrlarimiz to'zishni boshlaydi. Biz tezda ibodat vaqtini tugatib, ongimizda ishlarimizning ro'yxatiga o'tib ketamiz.

Bordi-yu, jamoatda qurg'oqchilikni his etsak, biz Xudodan ham so'rab o'tirmay: “Ruhiy ilhom va ruhlangan voizliklar bor joyga ketaman!” – deb qaror qilamiz.

Shuningdek, ijtimoiy yoki biznes sohasida qurg'oqchilikni sezsak, iqtisodiyoti taraqqiy etayotgan shaharni topib, o'sha yerga ketishni o'ylaymiz. Biz: "Agarda men bu yerda qolsam, qurib qolaman va Xudoning mening hayotim uchun belgilagan rejalari amalga oshmay, qolib ketadi" – deb o'ylaymiz.

Amerikadagi ko'p masihiylar shunday deb o'ylaydilar. Ular qurg'oqchilik yo'q joyni topishga urinib, bir ijtimoiy tarmoqlardan, boshqasiga, bir faoliyatdan ikkinchisiga, bir jamoatdan boshqa jamoatga, bir shahardan ikkinchisiga chopadilar. Xudo ularning cho'liga yangilaydigan suv olib kelishi uchun ulardan foydalanishiga imkon berishning va quduq kovlashning o'rniga, timsolan aytadigan bo'lsak, yengilroq va tinchroq hayotni izlab, "Misrga jo'naydilar". Ular bu quruq mavsumlarning aksariyat qismida Xudo ularga bergan maqsadni amalga oshirishga bel bog'laganini chindan ham tushunmaydilar. To'g'ri, har doim ham shunday bo'lavermaydi, chunki ba'zida Xudo biz uchun yangi joy tayyorlaydi va eskisi qurib ketishiga yo'l qo'yadi. Buning kaliti, Xudoning Ruhi tomonidan boshqarilishdir! Agarda U senga hech nima demayotgan bo'lsa, o'z joyingda qol va kurash!

Is'hoq Xudoga bo'ysunib, ocharchilik bo'lgan joyda qolgani uchun quyidagilar sodir bo'ldi:

"Is'hoq o'sha yerda ekin ekib, o'sha yili yuz karra hosil oldi. Rabbiy uni shunday duo qildi. U ulug' odam bo'ldi. U yanada yuksalib, o'ta ulug'vor odam bo'ldi. Uning qo'y-echkilari, mol podalari, xizmatkorlari ko'p edi. Shuning uchun filistinliklar unga hasad qila boshladilar. Otasi Ibrohimning hayotlik paytida otasining qullari qazigan barcha quduqlarni filistinliklar ko'mib, tuproqqa to'ldirdilar. Is'hoq otasi Ibrohimning kunlarida qazilgan, Ibrohimning o'limidan so'ng filistinliklar ko'mgan suv quduqlarini qaytadan qazidi va ularni otasi atagan o'sha nomlar bilan atadi" (Ibtido 26:12-15, 18).

Is'hoq otasining filistinliklar ko'mib tashlagan quduqlarini qayta

qazib, o'zining hosilini o'stirish uchun zarur bo'lgan suvni qo'lga kiritdi. Is'hoq bilan sodir bo'lgani kabi, biz ham Xudoning chirimas urug'i o'sishi va yuraklarimizda yetilishi uchun zarur bo'lgan suvni, odatda ko'mib tashlangan quduqlardan chiqarib olishimiz talab etiladi. Filistinliklar bu dunyoga va uning tizimiga tegishli edilar. Ko'pincha, bu dunyoning tizimi bilan o'ta yaqindan muloqotda bo'lishni boshlaganimizda, bizning quduqlarimiz ko'milib ketayotganini sezmay qolamiz. Bizning qalbimiz zarur bo'lgan sug'orilishni olishi uchun, quduqlarimizni ochishimiz juda muhim.

Bugungi kunda Masihning tanasiga madaniy qadriyatlarning kirib kelishi, ko'plab quduqlarni "ko'mib" tashlayotganiga ishonchim komil. Jamoat dushmanning yolg'oniga uchib, o'z quduqlarini ko'milib qolishiga yo'l qo'ygani uchun, u oqar suvlar manbai bo'lishning o'rniga, quruq yerga aylanib qoldi, deyishimiz mumkinmi?

Biz navbatdagi savolni berishimiz lozim: "Xudo jamoatini toza suv bilan tiklay oladimi?" Albatta, tiklay oladi! Isha'yo bu haqda hayratli tarzda deydi:

"Rabbiy doimo sening yetaklovching bo'ladi, qurg'oqchilik vaqtida U sening joningni to'yg'azadi va suyaklaringni baquvvat qiladi. Sen mo'l-ko'l sug'orilgan bog' va suvlari hech qurimaydigan buloq kabi bo'lasan. Sening avloding azaliy sahrolarni obod qiladi, sen ko'p avlodlarning poydevorini qayta tiklaysan. Seni xarobalarni qayta tiklovchi va yashash uchun yo'llarni qayta soluvchi, deb ataydilar" (Isha'yo 58:11-12).

Is'hoq o'zicha yo'l izlamaslikka va a'loroq sharoitlari bor davlatga jo'nab, rohatga intilmaslikka qaror qildi. Agarda biz ham o'zimizcha yo'l izlashni, rohatga intilishni va o'zimiz bilganimizcha yashashni bas qilib, aksincha Rabbiyni hurmat qilsak, sug'orilgan bog'dek va tirik suv chashmasidek bo'lamiz, shunda bizdagi suvlar oqishdan to'xtamaydi. Biz Xudo istagandek harakat qilsak, U biz orqali qurib qolgan va tashna odamlarga O'zining tirik suvini beradi.

Xudo bizni bu dunyo tomonidan ko'mib tashlangan quduqlarni qayta kovlashga undamoqda. Bu o'z navbatida matonatni talab etadi va bu bir necha soat, kun, hafta, oy yoki hatto yildan ham ko'proq vaqtni talab etishi mumkin.

Intilishni yo'qotish

Aminmanki, ushbu kitobda cho'l – bu ko'pgina turli xil vaziyatlarni ta'riflovchi kinoya ekanini aniq-ravshan aytib o'tdim. Ularning umumiy muvofiqligi shundaki, biz o'z vaziyatlarimizda nimadandir mahrumlikni yoki qurg'oqchilikni his etamiz. Aksariyat hollarda, da'vatimizga yoki Xudo bilan munosabatlarga intilish va ilhomning sustligi yoki batamom tugaganligi cho'lning alomatidir.

Men yoshlar cho'poni bo'lib xizmat qilgan paytim kechirgan ikkinchi cho'ldagi ahamiyatli tajribam haqida qisqacha to'xtalib o'tishga ijozat bering.

Florida jamoatidagi birinchi to'qqiz oy shunchaki aql bovar qilmas darajada edi – xizmat kengayib, yoshlar jamoasi o'sib borar edi. Men ruhlangan, kuchga va intilishga to'la edim. Keyinchalik, xuddi kuch kelmayotgandek va mening barcha urinishlarim hamda zahmatlarim tugagandek tuyulardi.

Men har qachongidan ham ko'proq vaqtimni ibodatda o'tkazar edim, biroq hech narsa sodir bo'lmayotgandek bo'lib ko'rinar edi. Bundan tashqari, menga yoshlar xizmati uchun berilgan maqsad asta-sekinlik bilan sustlashib borardi (eski sharob to'kilayotgan edi). Men qancha ibodat qilsam, u shuncha so'nib borardi. Tashqaridan hammasi avvalgidek edi, ammo ichimda nimadir o'zgargan edi.

Ustiga-ustak biz tashqi tomondan kelgan sinovlardan ham o'tishimizga to'g'ri keldi, bunday turdagilariga hali hech qachon duch kelmagan edik. Eng og'ir sinov bu mening bevosita rahbarim mening ketishim uchun, menga qarshi ish tayyorlab qo'ygani edi. Uning o'g'li yoshlar xizmatining a'zosi edi va bir kuni xizmatdan so'ng, u rafiqamning yoniga kelib, dedi:

“Liza xonim, mening ota-onam uyda mana shunday ishlarni qilsa, qanday qilib, Jonning voizliklariga rioya qilib, yashay olishim mumkin?” (ularning nima qilganini aytishning hojati yo‘q; faqat ular yaxshi narsa qilmaganini aytishim mumkin).

Rafiqam hayratda qolgan edi, shunday bo‘lsa ham, unga dono maslahat berdi:

“Xudoning So‘ziga sodiq qol va Xudoga ota-onang bilan ishlashiga imkon ber”.

O‘sha kundan boshlab, rahbarim mening obro‘imni to‘kish va mendan qutulishga qaror qildi. U sezdirmasdan, biroq keskin hujum qilishni boshladi. U katta cho‘pon bilan mening oramga sovuqchilik solishga muvaffaq bo‘ldi. O‘n olti hafta davomida men cho‘ponim bilan biror marta uchrashmadim va gaplashmadim.

Bu odamning bir necha oylik fitnalaridan so‘ng katta cho‘pon meni xizmatdan chetlashtirishga qaror qildi. U yakshanba kuni ertalabki xizmatda, yoshlar xizmatida ajoyib o‘zgarishlar sodir bo‘lishini e‘lon qildi.

Lekin Xudo mo‘‘jiza qildi va katta cho‘ponimiz o‘z shahdidan tushdi. Ushbu yakshanba kun ertalabki xizmat vaqtidagi e‘lon va dushanba kuni ertalabga belgilangan uchrashuvimiz o‘rtasida Xudo unga gapirdi. Biz u bilan uchrashganimizda, u dedi:

“Jon, seni bizga Xudo yubordi, Uning O‘zi seni ketishing kerak demagunicha, sen hech qayerga ketmaysan”.

Olti oydan so‘ng, rahbarimning fitnalari oshkor bo‘ldi va u zudlik bilan o‘z o‘rnidan bo‘shatildi. Uning qilgan ishlari, bizning ongimizga kelishi mumkin bo‘lgan narsalardan ham ancha jiddiyoq bo‘lib chiqdi.

Bu mavsum davomida, men nafaqat mana shu va boshqa tashqi hujumlarga duch keldim, shuningdek, oldin hech qachon boshdan kechirmagan ko‘plab ichki hujumlar bilan ham to‘qnashdim. Shunda men, ehtimol, muammo menda bo‘lsa kerak deb o‘yladim va yodimga tushgan barcha gunohlarim uchun tavba qilishni boshladim, lekin

hayotimdagi hujumlardan va qurg'ochilikdan yengillikni sezmadim.

Men bir kuni gunohlarim uchun qaytadan tavba qilishga uringanimda, Rabbiy menga dedi: “Sen bu cho'lga gunoh qilganing uchun kelganing yo'q. Men seni kelajakdagi o'zgarishlarga tayyorlayapman”. Bu beshinchi bobda aytilgan “yangi sharob” edi.

Ushbu cho'lning bir yili o'tgach, Rabbiy meni ovqatdan ro'za olishga undadi. Ro'zaning bir necha kuni o'tgach, mening og'zimdanda quyidagicha ibodat so'zlari chiqdi. Ularni men o'z og'zim bilan aytganimdan so'ng quloqlarim bilan eshitdim. Yuragimdan chiqqan bu faryod ongimni chetlab o'tgan edi. Men bor yuragim bilan hayqirdim: “Rabbiy, men hech kim yo'q sahroda bo'lamanmi yoki millionlab odamlarga voizlik qilamanmi, buning ahamiyati yo'q. Men bu ikkala joyda ham bir xil yo'l tutaman. Men Sening yuragingga intilaman!”

To'satdan mening ichimda qo'ng'iroqlar chalingandek bo'ldi va U menda nimalarni amalga oshirganini anglab yetdim! “Xudojon, Sen yuragimda aynan shu narsani amalga oshirding”, – dedim men. – “Sen meni shunday holatga olib keldingki, mening merosim va birinchi sevgim – bu xizmat yoki boshqa narsa emas, balki Sen bo'lib qolding. Shu bois, o'zgarishlar kelganida, men uni butimga aylantirmayman. Men Seni – birinchi sevgimni hech qachon qoldirmayman va Sening o'rningga xizmatni sevmayman. Mening yuragim doim to'g'ri holatda qoladi”.

Kutilmaganda, Xudo Dovudga aytgan gaplarini esladim:

“Uni rad etib, Xudo ularga Dovudni podshoh qilib ko'tardi va u haqida guvohlik berib, shunday dedi: “Men yuragimdagidek bir erkakni – Yessey o'g'li Dovudni topdim. U Mening barcha istaklarimni bajo keltiradi” (Havoriylar 13:22).

Sizga muhim bir haqiqatni – Shoh Shoul hech qachon cho'ldan o'tmaganini yana bir bor eslatib o'tishga ijozat bering. U boshida, shoh deb e'lon qilish uchun payg'ambar uni izlagan payt aravaning ichiga yashiringanda, kamtar insondek bo'lib tuyulgan edi. Biroq bir necha muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritgach, undagi aralashmalar yuzaga

chiqishni boshladi. U ulkan jangda g'alaba qozondi, ammo buni o'zi bilganicha amalga oshirdi va Xudoning buyrug'iga itoat etmadi. Bu ham yetmagandek, shu ishidan so'ng o'ziga haykal qurdirdi. Bu uning asta-sekin yuzaga chiqayotgan betavfiq ishlarining boshlanishi edi. Oxir-oqibat, u umrining oxirigacha bir yoqlik qilishni istamagan aralashmalari yoki kamchiliklari tufayli o'z hayotini yo'qotdi.

Sizning ichingizdagi narsani yuzaga chiqaradigan ikkita holat bor. Ulardan biri, yuqorida aytib o'tganimizdek, tozalovchi olov. Ikkinchisi – bu muvaffaqiyat. Muvaffaqiyat sizdagi aralashmalarni atrofingizdagi barchaga ochib beradi, lekin o'zingiz esa ularga nisbatan ko'r bo'lib qolaverasiz. Ko'pchilik xizmatchilar ularni tozalovchi olov poklashiga imkon bermadilar. Shunga qaramay, ular keyinchalik Shoulga o'xshab, o'z da'vatiga kirishga chaqirilgan edilar. Biroq, afsuski, ular zarur bo'lgan tayyorgarlikdan o'tmagan edilar. Muvaffaqiyat ularning ichidagi aralashmalarni yuzaga chiqarganida, bu ular da'vat etilgan ishini barbod qildi.

Shoul o'z "xizmatini" shu qadar sevardiki, uni saqlab qolish uchun odamlarni o'ldirar edi. Dovud hech qachon taxtni qo'lga kiritishga urinmagan; u Xudoning yuragiga intilgan. Dovud cho'lda o'zining haqiqiy quvonch manbaini topdi va bu manba Xudodan boshqa hech narsa emas edi. Dovud taxtni qo'lga kiritish uchun ikki marta Shoulni o'ldirish imkoniga ega bo'lgan edi va atrofidagi odamlar ham uni bunga undar edilar. Dovudda ham Shouldagidek niyatlar bo'lganida, Xudo unga payg'ambar orqali va'da bergan narsani qo'lga kiritish uchun uni o'ldirgan bo'lar edi.

Bugun Xudo ularga va'da bergan narsani qo'lga kiritish uchun boshqalarni qarg'aydigan, g'iybat qiladigan yoki aldaydigan erkaklar va ayollar bor; buning naqadar istehzoli ekani haqida o'ylab ko'ring! Ular Shoulga o'xshaydilar; ular o'z merosiga ega bo'lish yoki uni saqlab qolish uchun qariyb hamma narsaga tayyor. Xudo yuragi mansab, nufuz, pul yoki sharafga emas, Unga intiladigan "Dovudlarni" izlamogda. Eski meshning tiklanishi – bu bizning ichimizda Xudo

tabiatinining ildiz otishi hisoblanadi. Aynan Xudoning tabiati Ruhning yangi sharobining (moylanish va Uning huzurining) bosimiga dosh bera oladi. Biz Xudoning ortidan borish uchun Uni izlaganimizda, xulq-atvorimiz rivojlanib boradi.

Siz: “Buning uchun qancha vaqt kerak bo’ladi?” – deb so’rashingiz mumkin.

Mening javobim qo’yidagicha: “Vaqt sizni o’ylantirmasin; shunchaki suv oqmaguncha kovlashda davom eting”. Ko’pincha javob bitta ibodatdan so’ng kelmaydi. Siz keyingi ibodatingizda, avval to’xtagan joyingizdan boshlashingiz lozim va ehtimol, uzoq vaqt dovomida shunday harakat qilishingizga to’g’ri keladi.

Men Dallasda yashab, katta cho’ponga va uning xotiniga xizmat qilgan paytlarim, mening yaqin do’stlarimdan biri – cho’ponning yordamchisi va jamoat xodimlarining rahbari bilan qariyb har ertalab ibodat qilardim. Biz soat 07:00 da ibodat xonasiga kelib, ibodat qilishni boshlar edik, u yerda ko’p marta Xudoning huzurini va biz uchun amalga oshirayotgan harakatini his etar edik. Biroq, aksariyat hollarda soat 08:30 bo’lib, biz o’z ish joyimizga borishimiz kerak bo’lgan payti, deyarli hafsalamiz pir bo’lar edi, chunki umuman hech qandan yorib o’tish sodir bo’lmas edi... hech qanday yangilaydigan suv kelmas edi. Quduqlar hali ochilmagan edi!

Ertasi kuni ibodatga qaytib kelganimizda o’sha to’xtagan joyimizdan davom ettirar edik. Bu ba’zida ikki kun, ba’zida uch kun davom etar edi, bir marta esa yodimda, biz bir hafta davomida yangilaydigan suvsiz ibodat qildik! Lekin, yorib o’tish kelganida, biz kuch va yangilanish bilan to’lar edik.

Amerika bo’ylab jamoatlarda bo’lib, quduqlari ko’milib qolishiga yo’l qo’ygan ko’pchilik masihiylarni uchratdim. Ular mana shunday ahvolda yashashga qulay tarzda o’rganib olgan edilar. Xavotirga soladigan jihat shundaki, bunday ahvoldagi kishilar kamchilikni emas, aksincha juda ko’pchilikni tashkil etadi, deb o’ylayman. Agar bu odamlar o’zlaridagi samoviy in’omni qizdirib tursalar va bu ular orqali

harakat qilishiga imkon bersalar, nimalar sodir bo'lishi mumkin edi?
Odamlar, oilalar, jamoatlar – butun Amerika o'zgargan bo'lar edi!

Xudoning in'omi juda ko'plarning hayotida harakatsiz qolib ketmoqda.
Quduqlar ko'mib tashlangan bo'lsa ham, Ruh kutayotgan bo'ladi.

Qazishni davom ettiring! Cho'lda toza suv topasiz!


RABBIYNING YO‘LINI TAYYORLANG

“Qiyinchilik har doim kutilmaganda va istalmaganda keladi. Qiyinchilik – yovuz niyatli va o‘g‘ri, biroq u Xudoning qo‘llarida, Uning g‘ayritabiiy kuchi namoyon bo‘lishi uchun qurolga aylanadi”.

– Charlz Stenli

“Rostini, sizlarga rostini aytaman, agar O‘g‘il Otasining nima qilayotganini ko‘rmasa, O‘z O‘zidan hech narsa qila olmaydi. Chunki Ota nima qilsa, O‘g‘il ham shuni qiladi”.

– Yuhanno 5:19



Cho'l – Rabbiyning yo'li tayyorlanadigan joy, u yerdagi har bitta tog' pasayadi va har bitta vodiy to'ladi. Isha'yo buni bizga tanish matnda esda qolarli tarzda ta'riflagan:

“Mana, sahroda xitob qilayotganning ovozi: “Rabbiyga yo'l tayyorlanglar, Xudoyimizga cho'lda yo'lni tekislanglar. Har qanday vodiy ko'tarilsin, har qanday tog' va qo'rg'on pasaysin, qiyshiqliklar to'g'rilansin va g'adir-budur yerlar tekislansin. Shunda Rabbiyning shuhrati namoyon bo'ladi va har qanday bashar buni ko'radi, zero buni Rabbiyning og'zi aytdi. Ovoz: “Xitob qil!” – deb aytyapti. Men esa: “Nimani xitob qilay?” – dedim. “Har qanday bashar – o't, uning butun ko'rki – dala guli kabi. Rabbiy nafasini puflaganida, o't qurib qoladi va uning guli so'lib qoladi; haqiqatan ham xalq – o'tdir. O't qurib qoladi va guli so'lib qoladi, Xudoyimizning so'zi esa abadiy turadi” (Isha'yo 40:3:8).

Hozirgi kunda cho'l mavsumida bo'lgan kishilar uchun ushbu matn nimani anglatadi?

Masihning tanasida hammamiz Rabbiy bizga yuklagan majburiyatlarga egamiz. Biroq, Xudo ularni amalga oshirishimizga ruxsat berishidan avval, biz tanamiz xochga mixlanishi uchun sahroda sinov va mashqlardan o'tishimiz zarur. U yerda biz Rabbiyni kutishni va Uning irodasini itoatkorlik bilan amalga oshirish uchun

U nima qilayotganini tushunmagunimizcha va Uning ovozini eshitmagunimizcha, jim turishni o'rganamiz.

Cho'ldagi jo'nash nuqtasi, yetib borish nuqtasigacha har doim ham tekis yo'l emasligini sizga ko'rsatish uchun, ko'proq o'z hayotimdan so'zlab berishni istayman. Shuningdek, u yerda mo'ljaldan chalg'itadigan aylanma yo'llar va rejalashtirilmagan bekatlar ham bo'lishi mumkin.

Men 1979-yil, "Perdyu" oliygohining talabasi bo'lgan chog'larim, oliygohimizning erkaklar yotoqxonasida yuqoridan tug'ildim. Bundan to'rt oy o'tib, Muqaddas Ruhga to'lishdim va Xudo meni Unga xizmat qilishga undashni boshladi. Ishoning, xizmat qilish umuman mening rejalarimga kirmas edi; men bunga o'xshash narsalarga yaqin yurishni umuman istamas edim. Men yoshligimdan bilgan xizmatkorlar men uchun namuna emas edilar. Bilaman, mening bunday fikrim asossiz bo'lgan, ammo o'sha xizmatkorlar men uchun juldur uylarda yashaydigan va bolalari g'alati bo'lgan, "g'ayritabiiy odamlar" turiga kirar edilar. Albatta, keyinroq, mening ular haqidagi taassurotlarim noto'g'ri bo'lganini – aslida, yaxshi uylarda yashaydigan va ajoyib bolalarga ega bo'lgan xizmatkorlar ko'pligini bilib oldim! Yosh imonli sifatida men xizmatkor bo'lish, to'laqonli hayotda yashashdan voz kechish yoki Afrikaga borib, chaylada yashash va bitta ham oyoq kiyimsiz o'lib ketish deb o'ylar edim.

Men uch ming kishidan iborat kichik shaharda katta bo'lganman. Men bilgan xizmatkorlar, atigi katolik ruhoniysi (ruhoniy bo'lish men uchun to'g'ri kelmas edi, chunki ularga uylanish ta'qiqlangan edi) va kichik jamoatning cho'poni edi. Bu cho'ponning men qatori ikkita g'alati farzandlari bor edi va men ularning uyiga kelganimda, doim allaqanday badbo'y hidni sezar edim! Bir kuni ularning uyiga yana bir bor kelganimda, bu hid shu qadar kuchli ediki, men u yerdan ketishga bahona topmagunimcha, nafas olmay o'tirdim! Shu bois, nega men xizmat qilishni kuchli istamaganimning sababini tushundingiz deb o'ylayman. Men ruhoniy bo'lishni yoki bolalarim g'alati va uyimdan

badbo'y hid kelishini istamas edim. Qolaversa, men Afrikaga missioner bo'lib ketishni va chodirlarda bu dunyodan ko'z yumishni ham xohlamas edim.

O'sha paytlari men "Perdyu" oliygohida mashinasozlik ta'limini tugallashni, undan so'ng "Garvardda" tadbirkorlikni yuritish bo'yicha magistr darajasini qo'lga kiritishni rejalashtirib qo'ygan edim. Keyinchalik amerikaning shirkatlaridan biriga ishga kirib, xizmat zinasidan ko'tarilishni, ko'p pul topishni va jamoatni o'z qurbonliklarim bilan qo'llab-quvvatlashni o'ylagan edim. To'rt oy o'tib, yakshanba kuni ertalab, jamoat cho'ponining voizligini tinglayotgan paytim, Muqaddas Ruh menga o'ta jiddiy tarzda murojaat qildi: "Men seni voizlik qilish uchun chaqiryapman! Sening rejalaring qanday?"

Bu gal men buni aniq eshitdim va shu zahoti: "Rabbiy, hatto Afrikaga borib, oyoq kiyimsiz yurishga va somondan yasalgan chodirda yashashga to'g'ri kelsa ham, men voizxon bo'laman va Senga itoat etaman!" – dedim (Xudo bizning e'tiborimizni qanday yo'l bilan tortishni biladi. U bundan oldin menga sekin gapirgan paytlari, allaqachon xarajatlarni hisoblab yurgan edim). Endi esa nimaga rozi bo'lganimni to'la-to'kis anglagan holda, qanday narx to'lash kerakligidan qat'iy nazar, Uning istaklarini bajarishga tayyor edim!

Rabbiy meni tayyorlashga kirishdi. Ichimdagi olov yonishni boshladi; men yotoqxonamizdagi talabalarga Iso Masih haqida aytib berishga jazm qildim va ko'pchilik najotga keldi. Taxminan bir yarim yilcha o'tgach, yotoqxonamizda Muqaddas Kitobni o'rganish darslariga qo'l urdim, bu yig'inga oliygohimizning barcha bo'limlaridan talabalar kelar edi. Har hafta yangi odamlar o'z hayotini Masihga topshirar, shifo topar va ozodlikka erishar edi.

Men o'z qadriyatlarimni butunlay o'zgartirdim! Endi mendagi voizlik qilish istagi shu qadar kuchli ediki, mashinasozlik fakultetini oxirgi yili, o'qishni tashlash va Muqaddas Kitobni o'rganish maktabiga ketish xohishi keldi. Men quyidagicha fikrlar edim: men voizlik qilishga chaqirilgan bo'lsam, odamlar esa o'lib, do'zaxga ketayotgan bo'lsa,

hisobot va fizikani o'rganib nima qildim? Iso yaqinda qaytib keladi, shuning uchun men o'rim-terim dalasiga ertaroq borishim kerak.

Bir kuni kechga, allaqachon yomon ko'rib qolishga ulgurgan uyga vazifalarimni qila turib, javonda turgan Muqaddas Kitobga ko'zim tushdi. Men bu holatdan bo'g'zimgacha to'yib bo'lgan edim! Shunda termodinamika bo'yicha darslikni devorga uloqtirdim. Men boshqa kutmayman deb qaror qildim; men oliygohni qoldiraman va Muqaddas Kitobni o'rganish maktabiga kiraman.

Men ustozimga qo'ng'iroq qildim. U "Perdyu" oliygohining tadqiqotchisi va mening juda yaqin do'stim edi. Men baralla dedim:

Don, men Muqaddas Kitobni o'rganish maktabiga kirish uchun, o'qishimdan ketaman!

U menga dono javob berdi:

Kel bugun kechga ochiq havoda biroz aylanamiz va bu haqda ibodat qilamiz?

Biz shunday qildik va Xudo menga gapirdi: "Belgilangan vaqt kelganida, Menga xizmat qilasan... Mashinasozlik sohasidagi ta'limingni oxiriga yetkaz".

Keyinchalik, Rabbiy qay tarzda kichik shahardan bo'lgan bolakayni butun dunyo xalqlariga xizmat qilish uchun yuborar ekan degan fikrlar bilan olishganimda, U menga shunday deganini eshitdim: "Sen da'vat etilgan xizmatning asoschisi va o'rnatuvchisi kim, senmi yoki Menmi?"

"Sen", – dedim men.

"Bu xizmat dunyoga kelishi sendan ko'ra ko'proq Meni tashvishlantiradi deb o'ylamaysanmi?" Uning so'zlari mening diqqatimni tortdi.

Xullas, men tinchlandim va mashinasozlik fakultetini tamomladim. Ta'limning yakunida, men "Rokvell Interneyshnl" shirkatiga AQSh dengiz kuchlari loyihasi uchun muhandis-texnolog sifatida ishga qabul qilindim. Men bu mansabni egallagach, yaxshi bir jamoatga borishni boshladim. Bir yildan so'ng biz Liza bilan turmush qurdik.

Men bu jamoatga uylanishimdan avval kelgan edim va qayerga

kerak bo'lsa, hamma joyga xizmatga borar edim. Bu uylanganimdan so'ng ham davom etdi. Men tartibni saqlash xizmatida edim, qamoqxonaga xizmatga borar, cho'ponning bolalariga tennis o'rgatar va ko'pgina boshqa sohalarda yordamchi sifatida xizmat qilar edim. Shuningdek, jamoatimizda Muqaddas Kitobni o'rganish maktabi ham bor edi, men u yerdagi kechki darslarda qatnashar edim.

Ikki yildan so'ng jamoat meni cho'pon va uning rafiqasi uchun yordamchi qilib sayladi. Men cho'ponga va boshqa rahbarlarga, faqat bir yilga qola olishimni, chunki voizlik qilish uchun chaqirilganimni aytdim. Mening ishim ularning mashinasini yuvish, unga yoqilg'i quyish, cho'ponning oyoq kiyimlarini tozalash, turli xil topshiriqlarni bajarish, ularning maktabgacha yoshda bo'lgan bolalariga suzishni o'rgatish, jamoatimizga keladigan mehmon xizmatchilarni qabul qilish va boshqa ko'plab yumushlardan iborat edi.

O'sha payti Xudoning chorloviga rozi bo'lganimga yetti yil o'tgan edi. Men oliygohda talabalarning najot topgani, shifolangani va ozod bo'lganini ko'rib, da'vatimga kirishim uchun bir bahya qolgan deb o'ylardim. Lekin Xudo meni olib borayotgan yo'l haqida hech qanday tushunchaga ega emas edim.

Mana shu vaqt ichida, jamoatda xizmat qilgan chog'larim, men uch marta to'liq xizmatga kirishga urindim, lekin hammasi muvaffaqiyatsizlik bilan tugadi. Men Osiyodan Dallasga uchib kelib (Xudo menga belgilagan joy shu yermi yoki yo'qligini bilishga uchinchi marta urinishimdan so'ng), Yuhanno Xushxabarini o'qidim va kitobning betidan otilib chiqqandek ko'ringan oyatga duch keldim: "Xudo tomonidan yuborilgan bir odam bor edi, uning ismi Yahyo edi" (Yuhanno 1:6). Men Xudoning ovozi eshitdim: "Sen Jon Biver tomonidan yuborilishni istaysanmi yoki Men tomonimdanmi?"

"Men Sen tomoningdan yuborilishni istayman" – dedim.

Rabbiy javob berib, dedi: "Yaxshi, chunki sen Jon Biver tomonidan yuborilsang, sen Jonning hokimiyati bilan borasan, agarda Men tomonimdan yuborilsang, sen Mening hokimiyatim bilan borasan!"

Shundan so'ng men o'zimni bosib oldim va Xudo meni qo'ygan joyga diqqatimni qaratishga jazm qildim. Biroq bir necha vaqtdan keyin xavotirlanish yana qaytib keldi. Mening cho'ldagi ta'lim olish davrim hali tugamagan edi; men hali hamon tayyorgarlik jarayonida edim.

Xizmatda qandaydir ish joyi paydo bo'lgunicha, Xudo meni mana shu yetti yil davomida javonga qo'yib qo'ydi deb aytish mumkinmi? Yo'q va ming marotaba aytaman, yo'q! Men bu sahroga Uning yo'li tayyorlanishi uchun... menda to'g'ri fe'l rivojlanishi maqsadida olib kelindim. Men da'vat etilgan xizmatimda mahsuldor bo'lishim uchun mening fe'lim yetilishi zarur edi. Natijada, shuni angladimki, har bitta yangi ruhiy daraja uchun tayyorgarlik talab etilar ekan.

O'z kuchingiz bilan xizmat qilish fikrini unuting

Bizning maqsadlarimiz qanchalik ezgu bo'lmasin, biz Xudoning ishtirokisiz, abadiyat uchun biror bir qimmatli narsani amalga oshira olmaymiz, hatto Iso Masih nomi bilan ham! Rabbiyning O'zi aytgan: "Rostini, sizlarga rostini aytaman, agar O'g'il Otasining nima qilayotganini ko'rmasa, O'z O'zidan hech narsa qila olmaydi. Chunki Ota nima qilsa, O'g'il ham shuni qiladi" (Yuhanno 5:19). Qanday buyuk fikr! Iso – tanada kelgan va Xudoning moylangan O'g'li bo'la turib, U rostdan ham O'z-O'zicha hech narsa qila olmasligini aytgan. Men nimani nazarda tutayotganimni bir nechta misollar bilan tushuntiraman.

Iso Betaniyada yashaydigan Lazarni va uning ikkita singlisi bo'lmish, Marta va Maryamni yaxshi ko'rar edi. Ammo Lazar kuchli betob bo'lib qolganida, mana nima sodir bo'ldi:

"Opa-singil Isoga: "Hazrat! Mana, Sen sevgan odam kasal bo'lib yotibdi", – degan xabarni yetkazdilar. Iso buni eshitib:
"Bu kasallik o'limga emas, lekin Xudoning sharafigadir, toki bu orqali Xudoning O'g'li sharaflansin", – dedi. Iso Martani, uning

singlisini va Lazarni sevar edi. Iso Lazarning kasal ekanligini eshitganida, o'sha joyda yana ikki kun qoldi" (Yuhanno 11:3-6).

Iso Masih ekaniga qaramay, Uning yaqin do'stlari bor edi. U Lazarni yaxshi ko'rar va bajonidil uning oilasi davrasida vaqt o'tkazar edi. Lekin do'stining betobligini eshitgach, Iso ikki kun davomida hech narsa qilmaganini ko'ramiz. Nega U shu zahoti Bitaniyaga jo'nab ketmadi? Gap shundaki, U Xudodan bunaqa topshiriqni olmagan edi. Iso Xudoning Ruhi Unga borishni buyurmaganicha, itoatkorlik bilan kutib turdi. U buyruqni olgan zahoti, yo'lga chiqdi.

Bir kuni Rabbiy menga shuni ochdiki, bordi-yu Lazar mening do'stlarimdan biri bo'lganida, men tezlik bilan mashinamga o'tirib, uning uyiga borar va Ruhning boshqaruvini so'rashni ham o'ylab o'tirmay, unga qo'limni qo'yib, ibodat qilgan bo'lar edim. Afsuski, ko'plarimiz shunday tafakkurga egamiz. Xudo doim biz bilanligi uchun, shunga o'xshash vaziyatlarda Uning boshqaruvini so'rashning hojati yo'q deb hisoblaymiz. Biroq biz to'xtashimiz va Xudoning Ruhiga quloq tutishimiz lozim. Xudo Uning O'zi nimani istashini yaxshi biladi va agarda biz Undan topshiriq olishni kutib tursak yoki Uning yuragidagi istakni bilishga intilsak, U bizga nima qilish zarurligini aytadi.

Ehtimol, bemorlarga Ruhning boshqaruvisiz ham qo'limizni qo'ysak, Xudo ularni shifolashga majbur deb o'ylarmiz. Bordi-yu, bu shunday bo'lsa, biz barcha kasalxonalarga borishimiz va ularni bo'shatib tashlashimiz kerak emasmi?

Muqaddas Kitobning ayrim joylarida, Iso "kelganlarning hammasini shifolagani" haqida yozilgan (Matto 15:30), biroq har doim ham bunday bo'lavermagan. Jumladan, Iso nega Befezdadagi hovuz yonidagi barcha bemorlarni, ko'r, cho'loq va shollarni shifolamadi, lekin faqat o'ttiz sakkiz yildan beri yotog'iga mixlanib yotgan odamga shifo berdi (Yuhanno 5:1-9)? Ehtimol, Muqaddas Ruh Uni boshqalarni shifolash uchun yubormagandir?

Yana bir misol tariqasida, onasining qornidan cho'loq bo'lib

tug'ilgan odamni olaylik, uni har kuni ma'bad darvozasining oldiga olib kelib qo'yishar edi. Albatta, Iso har kuni ma'badga kirayotganida, uning yonidan o'tgan. Nega Iso uni shifolamadi? Chunki U Otasidan bu haqda buyruq olmagan edi.

Keyinroq, Iso samoga ko'tarilib ketganidan so'ng, Petrus va Yuhanno ma'badga bordilar va Ruhning boshqaruvi bilan, o'sha odamni sog'aytirdilar, buning sharofatida ruhiy uyg'onish barq urdi (Havoriylar 3).

Isoning xizmatida oldindan belgilangan formula bo'lmagan; U ayrimlarga tupurgan, ayrimlarning boshiga qo'l qo'ygan, boshqalariga esa faqat so'z aytgan. Bir kishi uchun U loy tayyorlab, loyni uning ko'zlariga surtgan. Ba'zilarni U ruhoniya ko'rinish uchun yuborgan va hokazo. Ushbu hayratlanarli rang-baranglik, U faqat Otasida ko'rganini yaratishi bilan tushuntiriladi! Xudo har bir kishining shifosi uchun eng to'g'ri vaqtni va uslubni bilgan.

Xudo O'z xizmatchilarida aynan shu narsa bo'lishini istaydi... U bizni har bir ishni Iso qanday qilganiga qarab, amalga oshiradigan va Uning boshqaruvi bo'yicha harakatlanadigan kishilar qilishni istaydi, biz o'zimiz o'ylagan yoki istagandek emas. Yuhanno Xushxabari 20:21 ga ko'ra Iso shunday degan: "Otam Meni yuborganidek, Men ham sizlarni yuboryapman". Iso Otasining boshqaruvisiz hech narsa qilmagan. Xuddi shunday, biz ham Isodan namuna olishimiz zarur. Biz Undek yashashimiz – Xudoning Ruhi bilan boshqarilishimiz va faqat U bizni boshlagani bo'yicha harakat qilishimiz lozim. Buning uchun bizning tanamiz Muqaddas Ruhga – Masihning Ruhiga bo'ysunishi kerak. Ruhning boshqaruvida yashashni o'rganish uchun cho'l eng ma'qul joy sanaladi. Cho'l chorlovlarga to'la bo'lgan va Rabbiyning yo'li tayyorlanadigan joydir.

Cho'ldagi qirq yillik tayyorgarlikdan so'ng Xudo Musoga dedi:

"Shuning uchun borgin, Men seni Misr fir'avnining huzuriga yuboraman. Sen Isroil o'g'illarini Misrdan olib chiqqin. Shunda

Muso Xudoga: – Men kim bo‘libmanki, fir‘avanning huzuriga borib, Isroil o‘g‘illarini Misrdan olib chiqsam?! – deb javob berdi. Xudo esa shunday dedi: – Men Sen bilan birga bo‘laman va mana bu Men seni yuborganimning alomati bo‘ladi: Sen xalqni Misrdan olib chiqqaningdan keyin, shu tog‘da Xudoga sajda qilasizlar” (Chiqish 3:10-12).

Naqadar shafqatsizlik! Hech birimiz Rabbiydan bunday maktub olishni istamas edik.

Muso qirq yoshga kirganida, birinchi marta isroilliklarni ozod qilishga urindi, lekin u ularga yordam bera olmadi yoki foyda keltira olmadi, chunki Xudo uni hali yubormagan edi. Hatto, U Misrda qo‘lga kiritgan maqtovgga loyiq bilimi, rahbarlik sifatleri va donoligi bo‘lsa ham, Xudoning qo‘llab-quvvatlovisiz va U belgilagan vaqtsiz, Muso Xudo uni da‘vat etgan ishni amalga oshira olmadi. Uning jonbozliklari atigi bitta misrlik zolimni o‘limiga olib keldi xolos. Uning niyati ezgulik bo‘lgan bo‘lsa-da, mana shu shaxsiy maqsadlarini amalga oshirish yo‘lidagi dastlabki urinishlari foydadan ko‘ra, ko‘proq zarar keltirdi.

Hech kim borishni istamaydigan cho‘lda qirq yil tayyorgarlikdan so‘ng, Xudoning buyrug‘isiz hech narsa qilishni bo‘yniga olmaydigan yangi Muso paydo bo‘ldi. Xullas, Xudo tomonidan tayyorlangan vaqt, Musoning rahbarligida butun Misr qo‘shini Qizil dengizning tubiga g‘arq bo‘lishiga olib keldi. Mana, o‘zimizning kuchimiz va Xudoning kuchining o‘rtasidagi farq – Muso bitta askarni o‘ldirdi, Xudo esa bir boshli qo‘shinni.

Yahyo cho‘mdiruvchi olti oy davom etgan xizmatiga o‘ttiz yil davomida tayyorlandi, ammo Iso ayol kishidan tug‘ilganlarning orasida, Yahyo eng buyuk payg‘ambar ekanini aytgan.

Bu haqiqat! Xudo o‘z kuchi bilan oltmish yil davomida shiddat ila ishlaydigan kishidan ko‘ra, O‘zi yuborgan kishi orqali olti oyning ichida ko‘proq narsalarni amalga oshirishi mumkin.

Iso: “Rostini, sizlarga rostini aytaman, agar O‘g‘il Otasining nima

qilayotganini ko'rmasa, O'z-o'zidan hech narsa qila olmaydi. Chunki Ota nima qilsa, O'g'il ham shuni qiladi" – deganida, aynan yuqorida aytib o'tganlarimizni nazarda tutgan.

Keling, Isha'yoning so'zlarini takroran o'qiyimiz:

"Mana, sahroda xitob qilayotganning ovozi: "Rabbiyga yo'l tayyorlanglar, Xudoyimizga cho'lda yo'lni tekislanglar. Har qanday vodiy ko'tarilsin, har qanday tog' va qo'rg'on pasaysin, qiyshiqliklar to'g'rilansin va g'adir-budur yerlar tekislandsin. Shunda Rabbiyning shuhrati namoyon bo'ladi va har qanday bashar buni ko'radi, zero buni Rabbiyning og'zi aytdi. Ovoz: "Xitob qil!" – deb aytyapti. Men esa: "Nimani xitob qilay?" – dedim. "Har qanday bashar – o't, uning butun ko'rki – dala guli kabi. Rabbiy nafasini puflaganida, o't qurib qoladi va uning guli so'lib qoladi; haqiqatan ham xalq – o'tdir. O't qurib qoladi va guli so'lib qoladi, Xudoyimizning so'zi esa abadiy turadi" (Isha'yo 40:3-8).

Xudo cho'lni – Rabbiyning yo'li tayyorlanadigan joy demoqda. Rabbiyning yo'li insoniy kuchda emas. Bu yerda tananing mag'rurligi pasayishi kerakligini, kamtarlar (Rabbiyni izlaydiganlar) esa – ko'tarilishini, egriliklar (yolg'on, adolatsizlik va riyokorlik bor sohalar) to'g'irlanishi va notekis (yoqtirmaydigan, qo'pol, keskin) joylar – tekislanishi zarurligini aytgan.

Oliygo'lda talaba bo'lib, Isoning yangi izdoshiga aylangan paytlarim, men boshqalarga xizmat qilib, bir dunyo marhamatlarni qo'lga kiritdim va "omad"ga erishdim, biroq o'zimning hayotimda pasayishi kerak bo'lgan tog'lar bor edi, shuningdek, to'g'irlanishi va tekislanishi zurur bo'lgan egri va notekis joylar ham bor edi. Xudo mening ayrim kamchiliklarim tekislanishi uchun cho'lda biroz vaqt o'tkazishim muhimligini bilgan.

Har qanday cho'l mavsumida Xudo O'zi istagandek harakatlanishi uchun Unga imkon berish o'ta muhim. Bir kuni men Dallasdagi

Cho'ldan qanday o'tish kerak

#11 Jamadonlaringizni yig'ishtirilgan holda saqlang.

Cho'ldagi vaqt cho'zilib ketgandek va abadiy shu yerda qoladigan-dek tuyulgan paytda ham, jamadonlaringizni ochishga va o'sha yerga o'rnashishga qaror qilishingiz mumkin deb hech qachon maslahat bermagan bo'lar edim. Ishonavering, Xudo ketish vaqti bo'ldi deganida, U buni juda tezlik bilan amalga oshiradi. Yusuf haqida fikr yuritib ko'ring: u umrining oxirigacha zindonda qolishi kerak edi, ammo to'satdan, ogohlantirishsiz, bir kunning o'zida Xudodan olgan orzusi tomon harakat boshlanib ketdi!

Men o'tgan cho'llardan birida, o'sha yerda qirq yil qolib ket-sam kerak deb o'ylagan edim. Lekin kutilmaganda Rabbiiy menga o'sha vaqtdagi xizmatimni qoldirishimni va voizlik qilish uchun turli safarlarga borishim kerakligini aytdi. Bu o'zgarish bir soatda sodir bo'lmadi, biroq u sodir bo'lganida, bu xuddi quyundek keldi. Lekin men o'sha payti da'vatimning keyingi mavsumiga o'tishga tayyor edim. Mening jamadonlarim yig'ilgan edi.

cho'ponimga xizmat qilganimda, Rabbiiy menga dedi: "Jon, ertaga keladigan voizxonning xizmatini kutib, senga Men bugun nima demoqchiligimni o'tkazib yuborma". Ochig'ini aytsam, o'sha cho'l mavsumi men uchun behudaga sarflanayotgan vaqtdan tuyular edi, chunki voizlik qilishni o'ta darajada xohlar edim.

Siz bu tuzoqqa tushib qolmang! Bilib qo'ying, Xudo vaqtni behuda sarflamaydi! U vaqtni o'rnini to'ldiradi! Tushuning, hozir siz turgan joy, yetib bormoqchi bo'lgan joyning ajralmas qismi hisoblanadi! Bu joy sizning tayyorgarlik ko'radigan sahnangiz. Bu va'dadan harakatga o'tadigan jarayon, ya'ni va'dani amalga oshish jarayoni. Xudo hammasini yig'ib, bir butun qilishiga imkon bering... shunchaki U bilan birga boring! Xudo – Boshlovchi va Yakunlovchi. Bizdan esa Unga

ishonish va U bugun ko'rsatayotgan narsalarga itoat etish talab etiladi!

Har safar U meni voizxonlik xizmatiga qo'ydi deb o'ylaganimda, U sevgi bilan der edi: "Jon, sen bu narsa amalga oshishi uchun yana bitta noto'g'ri yo'lni topding!" Bu haqiqat edi; U bu xizmatni menga butunlay kutilmagan tarzda berdi. Biz kundalik hayotimizda to'laqonli ravishda yashashimiz uchun Xudo bizni (o'ziga bino qo'ygan emas) minnatdor bo'lishga o'rgatadi.

Xudoga ma'qul tarzda harakat qiling

Xudo insonga O'z hokimiyatini va kuchini ato etganida, insonga berilgan kuch va hokimiyat qanchalik kuchli bo'lsa, Rabbiyning Ruhiga itoatsizlikning oqibati ham shunchalik og'ir bo'ladi. Muso qirq yoshida o'zi bilganicha yashaganida, Xudo uni jazolamadi, negaki unga hali kuch va hokimiyat berilmagan edi. Xalq Sin cho'lida Musoga qarshilik ko'rsatdi va U ularni boshlab kelgan yerdan nolidilar. Ular chanqagan edilar va suv ichishni istardilar. Shunda Xudo Musoga nima qilish zarurligini aytdi:

"Rabbiy Musoga so'zlab dedi: "Tayoqni olib, sen va sening birodaring Aharon jamoani yiqqin hamda ularning ko'z oldilarida qoyaga gapirgin va u o'zidan suv chiqarib beradi. Sen ularga qoyadan suv chiqarib berasan va jamoaga hamda uning chorvasiga suv ichirasan" (Sonlar 20:7-8).

Xudo Musoga qoyaga suv berishini aytishni buyurdi. Biroq quyidagi oyatlarda Muso nima qilganini o'qing:

"Muso qo'lini ko'tarib, tayog'i bilan qoyaga ikki marta urdi va juda ham ko'p suv oqib chiqdi. Jamoa va uning chorvasi suvdan ichdilar. Rabbiy Musoga va Aharonga dedi: "Mening muqaddasligimni Isroil o'g'illarining nigohi qarshisida namoyon qilish uchun Menga ishonmaganliklaringiz uchun sizlar bu xalqni Men unga beradigan yerga olib bormaysizlar" (Sonlar 20:11-12).

E'tibor bering, Xudo bularni kuzatib turgan million xalqqa suv berdi. Qiziq! Qoyadan suv chiqdi – yigirma birinchi asrda shunga o'xshash qudratli mo'jiza haqida kimdir eshitganmi? Xullas, Muso qoyadan suvni qay tarzda chiqarish borasida Xudoga itoat etmagan bo'lsa ham, ushbu buyuk mo'jiza baribir amalga oshdi. Suv odamlarning ehtiyojini qondirish uchun berilgan edi. Xudo Musoni jazolash uchun odamlardan suvni ushlab qolmadi. Ammo Musoning itoatsizligi o'z oqibatlariga ega edi; Xudo Musoga odamlarni va'da qilingan Yerga olib kirishga ruxsat bermadi.

Bu Xudoning g'ayritabiiy moylanishi, bunga ega bo'lgan kishining maqtanishi uchun emas, balki odamlarning muhtojliklarini qondirish uchun belgilanganining yaqqol misoli! Ehtimol, Musoning xalqdan ko'ngli qolgandir va mana shunaqa qaysar xalqning rahbari bo'lishga majburligi uchun Xudodan ham biroz xafa bo'lgandir. Muso birinchi marta Sin cho'lida sodir bo'lganidek, bu safar ham qoyaga urdi (Chiqish 17:1-7). Yoki Muso o'z mavqeiga unchalik jiddiy munosabatda bo'lmay qo'ygandir; balki u to'g'ri deb hisoblagan hamma narsani Xudo ma'qullaydi deb o'ylagandir. U qirq yoshida bo'lganidek, o'z bilganicha ish tutdi, biroq bu safar buning oqibati sezilarli darajada jiddiy edi. Muso Xudoning kuchi va qudratida yurar edi; undagi bor kuch uning Xudoga bog'liqligidan kelib chiqar edi. Endi esa xalqning oldida Xudodan mustaqil ravishda harakat qilib, u o'ziga mahkumlikni orttirdi.

Aynan shuning uchun Yoqub 3:1 da yozilgan: "Birodarlarim, o'qituvchilar ko'proq hukmga duchor bo'lishlarini bilib, ko'plaringiz o'qituvchi bo'lavermanglar". Mas'uliyat va sharaf qanchalik ko'p bo'lsa, hukm ham shunchalik ko'p bo'ladi.

Rabbiyning hokimiyati va sharafida yurib, itoatsizlik tufayli hukmga yo'liqmasligimiz uchun cho'l bizni tayyorlaydi. Qurib qolgan sahraning yo'lida mag'rurlik pasayadi, kamtarlik esa o'sadi. Haqiqiy kamtar inson Isodek, shunday deya oladi: "Rabbiyning Ruhi amalga oshirayotganini ko'rmasam, hech narsaga qo'l urmayman. Men shaxsiy kuchim va qobiliyatlarim bilan hech narsa emasman".

Xudo bugun ko'plab zamonaviy jamoatlarga O'z sharafi va kuchini bermay turganining sababi, balki U bizni ulkan hukmdan asrayotgandir. Men ishonamanki, aynan cho'lda U tanaviy xulqni ruhnikidan ajratib oladi va Uning sharafi namoyon bo'lganida, biz faqat U istaganidek yo'l tutishimiz va faqat Unga hurmat bildirishimiz uchun, bizni Unga faryod qilishga, Unga quloq solishga undaydi.

Ruhning ovozig a quloq soling. U biz uchun tayyorlab qo'ygan ishni O'zi istaganidek amalga oshirishni bizga ko'rsatsin. Rabbiy nima deb gapirayotganini va nimani amalga oshirayotganini ko'ring va eshiting:

“Men soqchiligimda turaman va U mening ichimda nima deyishini hamda shikoyatimga ko'ra nima javob berishini bilish uchun minorada turib, kuzataman. Rabbiy esa menga javob berib dedi: Sen ko'radigan vahiyini yozib qo'ygin va o'qiyotgan oson o'qiy olishi uchun lavhalarga yaqqol chizgin. Chunki vahiy tayinlangan vaqtga tegishlidir va oxirat haqida so'zlab aldamaydi. U kechiktirilsa ham, uni kutgin, chunki albatta amalga oshadi va bekor qilinmaydi. Mana, kekkayganning ichida joni to'g'ri emas, haq odam esa o'z imoni bilan yashaydi” (Habaquq 2:1-4).

Payg'ambar: “U mening ichimda nima deyishini kuzataman” – deydi. Xudo Ruhi turli yo'llar bilan gapiradi, shulardan biri bu vahiy. Iso Otaning ishlarini ko'rgandagina, O'zi ham nimadir qilganini aytgan. Habaquq ko'rgan narsalarini yozishini va belgilangan vaqtda ko'rganlarini so'zlashini aytyapti. U davom etib, kekkayganning (mag'urning) joni to'g'ri emas deydi (bu yerda Rabbiydan So'z kutmay, Xudo aytayotgan vahiy larsiz yugurib ketayotgan inson haqida yozilgan). Lekin haq kishi bironing emas, balki o'z imoni bilan yashaydi!

Biz Xudoning so'zini eshitib, unga itoat etganimizda imon keladi. Mana nima uchun Xudo isroilliklarni cho'lga olib keldi: “U seni bo'ysundirar edi, ochlikdan tinkangni quritar edi va sen ham, sening otalaring ham bilmagan manna bilan seni boqar edi, toki senga inson faqat non bilan emas, balki Xudoning og'zidan chiqadigan har bir so'z

bilan tirik ekanligini ko'rsatsin" (Qonunning takrorlanishi 8:3). E'tibor bering, Xudoning og'zidan "chiqayotgan" deganida, u Xudo oldin gapirgan gaplarini emas, hozir aytayotgan gaplarni nazarda tutgan.

Xudoning Kalomi bizga shunday deb ta'lim beradi: "Ehtiyot bo'linglar, (hozirgi kunda) So'zlayotgandan yuz o'girmanglar! Agar ular yer yuzida so'zlaganni rad etib, qutulmagan bo'lsalar, boz ustiga, biz osmondan So'zlayotgandan yuz o'girsak, qutula olmaymiz" (Ibroniylarga 12:25). Shunday bo'lishiga qaramay, unutmang, Xudo nima desa ham, doim Yozuvga mos ravishda gapiradi.

Agarda siz o'z fikringizni tasdiqlash uchun Muqaddas Kitobdan matnlarni izlaydigan bo'lsangiz, bu Xudoning yo'li emas. Iso O'zicha: "Men kasallarni shifolashga chaqirilganman; shu bois, Men borib, har doimgidek qo'limni qo'yib, ibodat qilaman" – deyishi mumkin edi. Buning o'rniga, U Xudoning Ruhi harakatlanishini kutib turdi va faqat shundan so'ng yo'lga chiqdi.

Cho'l – bu Xudoning boshqaruvisiz va Undan keladigan qobiliyatlarsiz biror narsaga qo'l urish behuda ekanini o'rgatish uchun, Uning O'zi bizni olib keladigan joy. Biz tana abadiylik uchun biror bir qimmatli bo'lgan narsani amalga oshira olmasligini chindan ham tushunganimizda, Xudo bizga topshirgan orzu va rejalarini amalga oshirishga tayyor bo'lamiz. Cho'l – va'daning amalga oshish jarayoni uchun tayyorgarlik joyidir. Keling, Isodan o'rnak olamiz va o'zboshimchalik bilan emas, Xudo istaganidek harakat qilish uchun Ruh bilan boshqarilamiz.


CHO‘LDAGI G‘ALABA

“Bizning azob-uqubatlarimiz bizga o‘xshab foniyydir. Foniyy insonlar uchun foniyy bo‘lmagan azob-uqubatlar mavjud emas. Ular keladi, lekin Xudoga shukurki, ular ketadi ham. Ular osmondagi qushlar singari boshimiz ustidan parvoz qilishadi-yu, lekin bizning jonimizga kirib maskan qurisholmaydi. Biz bugun azob chekyapmiz, ammo ertaga quvonamiz”.

– Charlz Sperdjen

“Yuqoridan keladigan vahiysiz xalq beboshdir, qonunga rioya qiladigan esa baxtlidir”.

– Hikmatlar 29:18



Cho'l - bu biz tashrif buyuradigan joy, lekin mo'ljal joyi emas. Agar siz to'g'ri ish qilayotgan bo'lsangiz, siz cho'lda g'alaba qozonasiz va uning sarhadlaridan chiqasiz!

Cho'llarimning birida mening intilishim tugadi. O'shanda men yoshlar cho'poni edim, bu cho'l men uchun haddan ziyod uzundek tuyulardi. Men vaziyatim qachon bo'lsa ham o'zgararmikan deb o'ylashni boshladim. Lekin bir marta, mening bevosita rahbarim bilan ko'ngilsizliklar boshlanishidan biroz avval, Muqaddas Ruh mening hayotimda o'zgarishlar sodir bo'lishini ko'rsatdi. Aynan o'sha payti Xudo menga "Amerikaning sharqiy qirg'og'idan g'arbiy qirg'og'igacha, Kanadaning chegarasidan to Meksikaning chegarasigacha, Alyaskaga va Gavayidagi shaharlarga va jamoatlarga yuborilishimni ochdi..."

Lekin men aytganimdek, bu keyingi kuni va hattoki keyingi hafta ichida ham sodir bo'lmadi! Aslida, keyingi olti oy mobaynida men buning biror bir qo'shimcha tasdig'ini ham olmadim. So'ng mening katta cho'ponim, Rabbii unga cho'ponlardan biri (jamoatimizda o'n bir kishi to'liq xizmatda edi) tez orada to'liq vaqtli safarda yuradigan voiz bo'lishini va bizning jamoatimizda boshqa xizmat qilmasligi haqida vahiy berganini aytdi.

- Jon Biver, o'sha odam – sen bo'lasan, – dedi u.

Yana vaqt o'tdi (aniq qilib aytadigan bo'lsam, yana olti oy o'tdi) – cho'lda yana ko'p vaqt sargardon bo'ldim. Qo'qqisdan atigi uch

hafta ichida men voizlik qilish uchun yettita taklif oldim. Bitta jamoat Kanada chegarasidan mashinada bir soatlik yo'l masofada edi, boshqasi sharqiy qirg'oq, Floridada edi, uchinchisi – Tinch okeanidan mashinadan bir soatlik yo'l edi, to'rtinchisi - Meksika chegarasida edi! Men cho'ponimning ofisiga kirib, bu taklifnomalar bilan nima qilay deb so'raganimda, u tabassum bilan dedi:

- Jon, Rabbiy buni menga ko'rsatganini senga aytgan edim. Aftidan, sening bu yerdagi vaqting o'z nihoyasiga yetdi.

Tez orada (1990-yilning yanvar oyida) cho'ponim bag'ishlov xizmatida Liza bilan menga o'z qo'lini qo'ydi va o'sha vaqtdan boshlab biz birga to'liq vaqt xizmat safarlariga boramiz! Men aminlik bilan ayta olamanki, men tayyorman deb o'ylagan paytda, o'zimiz xizmat qilishni boshlashimizning o'rniga, Xudoning vaqtini kutganimiz tufayli hayotimizda ancha ko'proq (men "ancha ko'proq" iborasini bundan ham yorqinroq ifoda etolmayman) hosillarni ko'rdik.

Men butun yuragim bilan sizning da'vatingizda ham shunday natijalar bo'lishini istardim. Shu bois, men qariyb oltmish yoshli va Xudoni juda sevadigan odam sifatida, siz bilan imkon qadar samimiy, rostgo'y va ochiq bo'ldim. Men sizni o'zingizning da'vatingizda muvaffaqiyatli bo'lishingizni istayman! Shuning uchun sizga bir necha muhim fikrlarni taqdim etishimga ijozat bering.

To'g'ri maqsad va mo'ljal

Bizning diqqatimiz qarshiliklarga emas, balki Xudoning maqsadiga qaratilgan bo'lishi kerak. Bu qarshiliklar bizni to'g'ri maqsaddan ushlab qolishga urinadi. Agar biz to'g'ri mo'ljalga yetib borishni istasak, bizda to'g'ri maqsad bo'lishi kerak. Masofani bosib o'tib noto'g'ri marra chizig'ini bosib o'tish dahshatli narsa! Qurolni noto'g'ri maqsadga yo'naltirib, biror joyni qirg'in qilish fojea bo'lgan bo'lar edi!

Farziylar judayam rashkli va tirishqoq bo'lishgan, lekin ularning maqsadi xudbinlik edi. Ularda to'g'ri maqsad bo'lmagan; shuning

uchun ular nishonga tekkiza olmadilar.

Xudoning biz uchun, ya'ni O'zining xalqi uchun bo'lgan maqsadi nimadan iborat?

Efesliklarga 1:11 da yozilgan "Hamma narsani O'z irodasining niyati bo'yicha amalga oshirgan Xudo O'zining maqsadlariga binoan bizni azaldan ana shu uchun tayinlagan".

Ko'pchilik odamlar "tayinlangan" yoki "tayinlanish" so'zini eshitib noaniqlikni his etadilar. Bu g'oyani tushunish uchun, keling bu ildiz bilan old qo'shimchani tahlil qilib o'tamiz. Old qo'shimcha "azaldan" so'zi "oldindan" yoki "boshidan" degan ma'noni bildiradi. Ularni qo'shsak "marra chizig'ini boshlanishdan avval o'rnatish" degan ma'no kelib chiqadi. Demak, Efesliklarga 1:11 da bizga Xudo O'zining maqsadini amalga oshirish uchun, U bizni yaratishidan avval butun insoniyat uchun maqsad tayinlaganini ko'rsatmoqda.

Rimliklarga 8:28-29 da yozilgan:

"Shuni bilamizki, Xudoni sevganlarga, Uning murod-maqsadi bo'yicha da'vat qilinganlarga hamma narsa birgalikda ezgulikka xizmat qiladi. Chunki Xudo kimlarni azaldan bilgan bo'lsa, o'shalarni O'z O'g'lining tasviriga o'xshash bo'lishlarini oldindan tayinladi, toki U ko'p birodarlarining orasida to'ng'ichi bo'lsin".

Xudo biz uchun dunyo yaralishidan avval tayinlagan maqsad – bu Xudoni sevish va Iso Masihning suratiga o'xshashdir. Hayotimizda yoki xizmatimizda qilingan hamma narsa, mana shu maqsadga erishishga qaratilgan bo'lishi shart! Xudo sizni yaratganidan birinchi maqsad, siz muvaffaqiyatli xizmatga qo'shilishingiz, Xudo shohligiga millionlab dollarlar qurbon qilishingiz, mashhur rassom bo'lishingiz yoki boshqa har qanday mansabga erishishingiz bo'lmagan. Uning maqsadi hattoki kasallarni shifolash, muruvvat yordami ko'rsatish, fahshbozlik maqsadidagi odam savdosi qurbonlarini qutqarish, tobe insonlarni

ozod qilish va darbadar odamlarni Isoga olib kelish ham bo'lmagan. Bularning barchasi qanchalik oliyjanoblik va xudojo'ylik bo'lmasin, biz bunday ishlarni qilgan ko'pgina odamlar marra chizig'ini bosib o'tmaganini bilishimiz kerak. Ular o'zlarining yo'lini muvaffaqiyatsiz tugallaganining sababi shundaki, ular o'z diqqatini ushbu xizmatning asl maqsadiga emas, balki xizmatning o'ziga qaratishgan.

Endi esa navbatdagi savolga javob berish kerak: "Xudo bizni Iso Masih suratiga o'xshash bo'lishimizni oldindan tayinlaganidan maqsad nima?" Javob oson – chunki U bizni sevdi va biz bilan muloqotni istadi:

“...toki kelajak asrlarda Xudo bizlarga nisbatan bo'lgan O'zining ezguligida O'z inoyatining behad boyligini Iso Masihda namoyon qilsin” (Efesliklarga 2:7).

Liza ikkimizning Leksi nomli itimiz bor. U ajoyib, o'yinqaroq va quvnoq. Shunday bo'lsa-da, bizning muloqotimiz cheklangan. Ba'zan u bilan og'zaki suhbat qila olmaganimdan alamim keladi. Lekin o'g'illarimiz bilan hammasi boshqacha. Ular ulg'aygani sari biz ular bilan suhbat qilib bahra olganmiz. Ular bizning hayotimizni naqadar bezadilar. Xudo bizni aynan shuning uchun yaratgan. Men Leksi bilan bo'lgan muloqotimda chidaganimdek, Xudo past darajada bo'lgan suhbatni istamaydi. Xudo Uning o'g'illari va qizlari U bilan Uning yuragiga ma'qul tarzda suhbat qilishlarini istaydi.

Bu Uning azaldan bo'lgan maqsadi edi. Rabbiy insonni yaratganda, uni Adan bog'iga joylashtirdi va U Odamni sevgani uchun u bilan suhbat qilgan, sayr qilgan. Odamning avlodidan bir kishi Xudoning rejasini mahkam tutdi, u haqda shunday deb yozilgan: "U Xudo bilan birga yurib, to'satdan yo'q bo'lib qoldi, chunki Xudo uni olib ketdi" (Ibtido 5:24). Ibroniylarga maktubning muallifi "Hano'h Xudoga ma'qul bo'lganligi haqida guvohlik oldi" deyapti (Ibroniylarga 11:5). Hano'h nima sababga ko'ra Xudoga ma'qul bo'ldi? Uning maxsus

xizmati bor bo'lgani sabablimi? Yo'q, chunki u Xudo bilan yurar edi va U bilan yaqin muloqotga ega edi.

Xudo o'tmishda nimaiki qilgan bo'lsa, hozir nima qilayotgan bo'lsa va kelajakda nima qiladigan bo'lsa, shu sababdan qiladi. Shunday qilib, cho'lining maqsadi – biz qanday qilib Iso Masihning suratiga o'xshashimizni ko'rsatishdan iborat.

Agar biz Xudoning biz haqimizda bo'lgan rejasini ko'zdan qochirsak, biz bebosh bo'lib qolamiz va ruhiy inqirozga uchraymiz. Agar biz jamoat sifatida Xudoning maqsadini ko'zdan qochirsak, biz so'lib qolib, bu dunyo tomonidan boshqariladigan inshootga aylanib qolamiz. Biz natijalarga urg'u beryapmiz, ya'ni Iso Masihning surati bo'yicha bo'lgan shogirdlikning o'rniga – jamoat a'zolarining ko'pligiga yoki katta binolarga urg'u beryapmiz (Matto 28:19).

Keling, yana bir bor Hikmatlar 28:19 ni o'qiymiz:

“O'z yeriga ishlov beradigan odam nonga to'yadi, bekorchilarga ergashadigan odam esa qashshoq bo'ladi”.

Ushbu oyatda Xudo bizda vahiy bo'lganda, u bizga past darajadagi da'vat bilan qanoatlanishimizga yo'l qo'ymasligini nazarda tutyapti, chunki aksincha bo'lsa biz Uning suratiga va siyratiga o'xshash bo'lolmaymiz. Vahiy toki biz Uning suratiga muvofiq bo'lmagunimizcha va Uning zohir bo'lgan shuhratini ko'rib, U bilan yuzma-yuz ko'rishmagunimizcha qanoatlanishimizga yo'l qo'ymaydi. Vahiy bizni Uning komil irodasidan past bo'lgan har qanday narsani qabul qilishdan asraydi. U bizni beg'am bo'lishimizga va bu dunyoga o'xshab tanaviy yo'l tutishimizga izn bermaydi.

Iso vahiy haqida gapirib dedi: “Ko'z – tananing chirog'idir. Agar ko'zing toza bo'lsa, butun tanang yorug' bo'ladi. Agar ko'zing yomon bo'lsa, butun tanang qorong'ilikka to'ladi. Shuning uchun sening ichingdagi nur qorong'i bo'lsa, qorong'ilik naqadar buyukdir” (Matto 6:22-23). U bizning jismoniy ko'zlarimiz haqida aytmayapti,

balki yuragimizning ko'zlari haqida yoki bizning vaziyatlarga bo'lgan munosabitimiz haqida aytyapti.

Siz real vaziyatlarni yuragingizda qanday qabul qilsangiz, o'zingiz shunaqa bo'lib qolasiz "...chunki uning ko'nglidagi fikrlari qanday bo'lsa, o'zi ham shundaydir" (Hikmatlar 23:7).

Siz tushib qolgan vaziyatni qanday qabul qilishingiz, ulardan qanday o'tishingizni belgilaydi. Va'da qilingan yerni ko'rishga borgan o'n ikkita ayg'oqchi bir xil narsani ko'rdilar – bir xil mustahkam shaharlarni, bir xil pahlavonlarni va kan'an xalqlarining qo'shinlarini ko'rdilar. Biroq, ularning ikkitasi – Nunning o'g'li Yoshua va Kaleb bu narsalarni qolgan o'n kishiga qaraganda umuman boshqacha tarzda ko'rdilar. Bu ikkovi bu vaziyatga Xudo qaragandek qaradilar, qolgan o'n kishi esa va'da qilingan Yerni o'zlarining tajribasiga va qobiliyatiga asoslanib baholadilar. Ularning ko'zlari yomon bo'lgani sababli, ularning xulqi (yoki Iso aytgandek "butun tanasi") ham yomon bo'lgan. Ularning so'zlari va harakatlari Xudoning irodasiga teskari edi, ular keltirgan xabar "yomon" yoki "yovuz" xabar edi.

"Ularga aytgin: "Men tirikman, – deydi Rabbiy, — sizlar Menga eshittirib nima degan bo'lsangizlar, sizlarga xuddi shuni qilaman: sizlarning tanalaringiz mana shu sahroda qulaydi. Hisobga olinganlarning hammasining to'liq soni, yigirma yosh va undan katta Mendan noliganlar — Men qo'limni ko'tarib sizlarni joylashtirishga qasam ichgan yerga kirmaysizlar. Faqat Yefunnehning o'g'li Kaleb va Nunning o'g'li Yoshua kiradi" (Sonlar 14:28-30).

O'nta ayg'oqchi olib kelgan yomon xabari uchun Xudo va'da qilgan Yerni hech qachon boshqa ko'rmadilar, ularni shunday xabarni olib kelishga nima majburladi? Buning sababi, ular vaziyatni qanday qabul qilishlarida edi: ular ko'rgan narsalarga bashorat ko'zi bilan emas, tabiiy ko'z bilan qaradilar; Ular faqat ko'zi bilan ko'rgan narsalarini aytib berdilar xolos.

Cho'ldan g'olib bo'lib chiqish uchun, biz Xudoning ko'zlari bilan qarashimiz kerak. Xudo ayg'oqchilarni va'da qilingan Yerga jo'natishidan avval Isroilliklar bir yil davomida shikoyat qilib yashagan edilar. Ular vaziyatni allaqachon salbiy qabul qilishgan edi. Shu bois, Xudo ularga sut va asal oqayotgan yerni ko'rishiga yo'l qo'yganida, ular ko'rgan barcha yaxshi narsalarni rad etdilar. Ular buning o'rniga o'z diqqatini o'sha mamlakatdagi pahlavonlarga qaratdilar.

Faqat cho'lni (u bilan bog'liq bo'lgan qiyinchiliklarni) ko'radigan odamlar o'z cho'lida halok bo'ladilar. Va'da qilgan Xudodan va U bergan maqsaddan o'z nigohini uzmaydigan odamlar, cho'ldan muqaddaslangan askar bo'lib o'tadilar hamda va'da qilingan Yerni zabt etishga va u yerda Xudoning shuhrati uchun yashashga tayyor bo'ladilar.

“Shuning uchun biz tushkunlikka tushmaymiz (zaiflashmaymiz va bebosh bo'lmaymiz). Chunki tashqi insonimiz barbod bo'lib borayotgan bo'lsa ham, bizning ichki insonimiz kundan-kunga yangilanmoqda. Chunki bu qisqa muddatli yengil qayg'ularimiz bizga behad mo'l-ko'l abadiy shuhrat vaznini keltiradi; faqatgina biz ko'rinadigan narsalarga emas, ko'rinmaydigan narsalarga qarasak (hamma narsaga Xudo qaragandek qarasak): chunki ko'rinadigan narsalar o'tkinchi, ko'rinmaydiganlari esa abadiydir” (2-Korinfliklarga 4:16-18).

Cho'lda o'tgan vaqt va u yerdagi boshimizdan kechirgan azoblar biz kelajakda ega bo'ladigan narsalar bilan solishtirganda qisqa va yengil hisoblanadi. Albatta, cho'lda bo'lganingizda, agar siz cho'ldan o'tganingizdan so'ng sizni nima kutayotgani haqida vahiya ega bo'lmasangiz kechinmalingizni yengil deb aytish qiyin.

Ilgari men qurg'oqchilik davrlarida bo'lganimda, ular albatta, menga yengil qisqa muddatli bo'lib ko'rinmagan. Ba'zan men: “Bu qachondir tugaydimi? Xudo va'da qilgan narsalar amalga oshadimi?” – deb o'ylardim. Bunday paytlarda men zudlik bilan bunday fikrlarni uloqtirib yuborishim va o'zimni Rabbiyda mustahkamlashim

kerakligini bilar edim. Menga berilgan bashoratlarni esga olar va ular yordamida jang qilishni boshlardim (1-Timotiyya 1:18). Bu bashoratlar Xudo mening hayotim uchun bergan vahiyalar edi, chunki Xudo ularni menga Muqaddas Ruhi bilan O'zining So'zi orqali ochgan edi.

Cho'ldagi jang maydoni – bu sizning joningizdir. Sizning joningiz aql, hissiyot va irodadan tashkil topgan. Iroda – bu sizning joningizning qismidir, u siz Xudoning yoki tananing yo'lini tanlashingizni hal qiladi, ya'ni vaziyatlarga siz Xudoning ko'zlari bilan qarashingizni yoki cho'ldagi qiyinchiliklarga qarashingizni hal qiladi. Petrus shunday deb yozyapti:

“Sevganlarim, bu dunyoda g'aribu musofirday bo'lganingiz uchun, sizlardan o'tinib so'raymanki, jonga qarshi jang qilayotgan tanaviy hirlardan o'zingizni tiyinglar” (1-Petrus 2:11).

Hamma gap sizning diqqat markazingizda kim turgani haqida ketyapti—Rabbiymi yoki sizmi? Sizning ongingizda va hissiyotlaringizda jang qilayotgan tanaviy istaklar o'z diqqatini xudbin manfaatlarga qaratadi. Ular sizni Xudo bergan maqsaddan chalg'itadi, chunki Xudoning yo'li – xudbinlik emas, balki o'zidan voz kechishdir.

Bugun ko'pchilik tomonidan voizlik qilinayotgan va qabul qilinayotgan xushxabar, beg'am tanaviy hayot xushxabaridir. Bugungi kunda hamma qabul qilgan maktublar bizni o'z tanamizni xochga mixlashga undamaydi; hoynahoy, ular o'z tanamizni erkalatishga va bizning yakuniy bo'lgan maqsadimiz – Iso Masihning suratiga o'xshashimizga qarshi kurashadigan istaklarga erk beradi.

Ushbu maktublarning asosiy fikri ko'pincha: “Xudo mendan nimani istaydi?” emas, balki “Xudo men uchun nima qila oladi?”—debjaranglaydi. Bunaqa beg'am xushxabar biz Masih ortidan ergashib quvg'inlarga duch kelishimiz haqidagi haqiqatni ta'kidlamaydi. Bunaqangi xushxabar tufayli ko'pchilik mag'rurona hayot kechirishni boshlaydi. Bu imonlilarni Xudoning askarlari bo'lishi uchun qurollantirmaydi.

Havoriy Pavlus o'zining shogirdi Timotiyya yozgan maktubida ushbu mavzuga to'xtalib o'tgan:

“Shunday qilib, Iso Masihning yaxshi bir askari sifatida qiyinchiliklarga bardosh bergin. Harbiy xizmatdagi hech qanday askar o‘z qo‘mondonini mamnun qilish uchun o‘zini tirikchilik ishlari bilan bog‘lamaydi” (2-Timotiya 2:3-4).

Ana shu “beg‘am xushxabar” tufayli, biz qarshilikka yoki qiyinchiliklarga duch kelib, ularni qarshi olib, yengib o‘tishning o‘rniga, chekinish yo‘lini qidiramiz. “Beg‘am xushxabar” ta‘limotidan tug‘iladigan vahiylar – bu samoviy emas, u bashorat orqali kelmagan, aksincha xudbinlik vahiylaridir.

Pavlus shunday deydi:

“Shuning uchun, podshoh Agrippa, men samoviy vahiylarga itoatsizlik qilmadim. Lekin avval Damashq va Yerusalim aholisiga, keyin butun Yahudiya yurtiga va majusiylarga voizlik qilib yurdim, toki ular tavba qilib va Xudoga o‘girilib, tavbaga loyiq ishlarni qilsinlar. Shu sababdan, yahudiylar meni ma‘badda tutib, o‘ldirishga harakat qildilar” (Havoriylar 26:19-21).

Bu dunyoda ko‘plab vahiylar bor, lekin faqatgina bittasi “osmondan kelgan vahiylar” va bu Otaning irodasi hisoblanadi. Pavlusning so‘zlariga e‘tibor bering: “Ba‘zi yahudiylar men bu haqda ma‘badda voizlik qilganim uchun meni hibsga olishdi”. Pavlus samoviy vahiylarga intilgan va bu yo‘lda katta qarshilikka duch kelgan. Bordi-yu bugun ko‘plab odamlar voizlik qilayotgan va ishonadigan beg‘am xushxabarga u ham ishonganida edi, u o‘z maqsadini hech qachon amalga oshira olmagan bo‘lar edi. U hattoki Agrippa shohining oldigacha yetib bora olmas edi, chunki u to‘qnash kelgan qarshiliklardan chekinish uchun yo‘l topgan bo‘lar edi.

Yermiyah – Muqaddas Kitobdagi samoviy vahiylarga ergashgan yana bir kishi bo‘ladi va u o‘z itoatining natijasida ko‘plab og‘zaki va fikriy quvg‘inlarni boshidan o‘tkazdi. Bir marta u bundan charchadi va biroz nolishni boshladi. U dedi:

Cho'ldan qanday o'tish kerak

#12 E'tibor bilan belgi qo'ying.

Hozir bu satrlarni yozar ekanman, men ellik to'qqiz yoshdaman. Hammasi qanday sodir bo'ldi?

Orqamga qarasam, mening cho'ldagi mavsumlarim umrimning eng ulug'vor o'sish davri bo'lganini anglayapman, garchi ora-orada, men oldinga emas, orqaga chekinayotgandek tuyulgan bo'lsada. Shu bois, bizning eski do'stimiz Ayub shunday deydi: "Biroq U mening yo'limni biladi, mayli meni sinasin: oltin kabi chiqaman" (Ayub 23:10).

Ishonch bilan ayta olamanki, kitoblarimdagi materiallarning 90 foizini (men allaqachon yigirmata kitob yozdim) men to'kinchilik davrlarida emas, balki cho'lda o'tkazgan qurg'oqchilik davrlarida bilib oldim. Shuning uchun, sizga maslahatim – cho'lda bo'lganingizda diqqat bilan belgi qo'yib boring. Ushbu mavsumlarda bilib oladigan narsalar ko'plarga (yillar o'tib sizga ham) kuch beradi. Kim biladi... balki vaqti kelib, siz ham o'z kechinmalarining haqida kitob yozarsiz!

Do'stim, men sizga hozirning o'zida bashorat qilmoqchiman! Men aytmoqchi bo'lgan gaplarimga iloji boricha diqqat qiling. Xudo belgilagan vaqtda U hayotingizda ko'plarga ta'sir o'tkazadigan qandaydir ahamiyatli narsani amalga oshiradi. U amalga oshirgan narsa, ko'plab odamlarga ta'sir o'tkazadi va siz o'z itoatingizning hosilini ko'rib, butun abadiyat mobaynida quvonasiz. Do'stim, siz sinalgan oltindek, kuchli va sodiq bo'lib chiqasiz.

"Nima uchun betafiqlarning yo'llari muvaffaqiyatli va barcha xoinlar huzur-halovatda yashaydilar?" (Yermiyah 12:1).

Xudo unga achinish bilan javob bermadi. U dedi: "Agar sen piyodalar bilan yugurgan bo'lsang va ular seni toliqtirgan bo'lsalar,

qanday qilib, sen otliqlar bilan musobaqalashasan?” (Yermiyah 12:5). Boshqacha soʻzlar bilan aytganda, “Yermiyah, agar sen iblisning piyoda askarlaridan charchayotgan boʻlsang, uning otliqlari bilan toʻqnash kelganingda nima qilasan?”

Urush janglardan iborat

Biz buyuk gʻalabalar buyuk janglarsiz kelmasligini yodda tutishimiz kerak. Yermiyahning ahvoli yanada ogʻirlashdi. Ogʻzaki haqoratlar ortidan, uni zindonga tashladilar, yana sal oʻtib, u oʻlishi uchun uni quvurga tushirdilar. Shunday boʻlsa-da, Xudo uni barcha qiyinchiliklardan va quvgʻinlardan xalos qildi.

Bugun Masih Tanasida koʻpchilik boshidan oʻtkazayotgan janglar Pavlus boshidan oʻtkazgan jismoniy quvgʻinlar emas, balki aqliy hujumlardir. Agar qarshilik turi oʻzgarsa biz oʻzimizni qanday tutamiz? Biz kelajakdagi katta janglarni uddalay olishimiz uchun, hozir boshimizdan kechirayotgan qiyinchiliklar bizni mustahkamlashi kerak.

Choʻl – bu harbiy oʻquv lageri va kelajakdagi janglarning mashgʻulot maydonchasidir. Biz askarlarni urushga tayyorlash uchun oʻquv lageriga yuborganimizdek, Xudo Oʻzining jangchilarini, Oʻz shohligining qurilishida daʼvat qilingan narsalarga tayyorlash uchun choʻlga joʻnatadi.

Askarlar oʻquv lagerida yengib oʻtishi kerak boʻlgan eng katta toʻsiqlar, bu ularning qoʻrquvi, zaifliklari va gʻamginligidir. Qolaversa, biz choʻlda toʻqnash keladigan ulugʻ janglar jonimiz sohasida joylashgan.

Biz choʻlda toʻqnash keladigan katta toʻsiqlardan biri bu gʻamginlikdir. Bir marta men ibodat qilganimda, Rabbiy mendan dadillikning teskarisi nima deb soʻradi.

Men: “Albatta, qoʻrquv-da” – deb javob berdim.

U pichirlab dedi: “Gʻamginlik”. Men “dadillik” soʻzini hech qachon bunday maʼnoda koʻrmagan edim. Men birdaniga Nunning oʻgʻli

Yoshuaga sakkiz marta dadil, mustahkam va mard bo'lishi haqida aytilganini tushundim (Sonlar 13:20; Qonunning takrorlanishi 31:6, 7, 23; Yoshua Nun o'g'li 1:6, 7, 9, 18), bu oyatdagi so'zlar g'amgin bo'lmaslik haqida nasihat ham edi. Rabbiiy bu jang katta kurashlardan biri bo'lishini bilardi. Biz cho'ldagi janglarimizda diqqatimizni Xudoga va o'z vazifamizga emas, balki o'zimizga qaratganimizda g'amginlik keladi.

Dushmanning maqsadi sizni o'z diqqatingizni o'zingizga qaratishga majburlashdir; u cho'lda aynan shu narsani qilmoqchi edi. Iso och qoldi, chunki qirq kun ovqat yemadi va iblis kelib dedi: "Agar Sen Xudoning O'g'li bo'lsang, buyurgin, bu toshlar nonga aylansin" (Matto 4:3). Vasvasa Xudoning kuchini Xudoning ta'minot rejasiga zid tarzda, Uning tanasining istaklarini bajo qilish uchun ishlatishdan iborat edi. Xudo bizga in'om berganida, in'om bilan birga jiddiy mas'uliyat ham kelishini yodda saqlashimiz zarur: biz uni noto'g'ri ishlatmasligimiz kerak, ammo uni Xudo istagandek boshqarishimiz zarur. Xudo Isoning ehtiyojlarini qondirmoqchi edi, lekin bu Uning ixtiyori bilan sodir bo'lishi kerak edi. Iblis ketganidan so'ng, farishtalar kelib Isoga xizmat qildilar.

Iso O'zining xizmati haqida nima deganini yana bir bor o'qiymiz:

"Bunga Iso javob berib dedi: "Rostini, sizlarga rostini aytaman, agar O'g'il Otasining nima qilayotganini ko'rmasa, O'z O'zidan hech narsa qila olmaydi. Chunki Ota nima qilsa, O'g'il ham shuni qiladi" (Yuhanno 5:19).

"Ko'rish" so'ziga e'tibor bering. Iso hech narsani Xudoning irodasidan tashqarida qilmagan.

Qurg'oqchilik kelgan paytda hamma narsani Xudoning ko'rsatmasini kutmasdan, o'zboshimchalik bilan qilish vasvasasi keladi. Bu Xudo belgilagan vaqtdan oldin nimanidir olish uchun Xudoning kuchidan foydalanishni bildiradi.

Jang vaqtida zobitning buyrug'iga asosan kurashmayotgan askarni tasavvur qila olasizmi? Bu uning o'ziga va u bilan birga jang

qilayotganlarga jiddiy zarar olib kelishi mumkin. Askar o'zining va o'rtoqlarining hayotini jang vaqtida be'mani xavfga qo'ymaslik uchun o'quv lagerida va butun tayyorgarlik vaqti mobaynida buyruqlarni bajarishni o'rganadi.

Osmon bizga ochib bergan narsalarni unutmasligimiz juda muhim. Shunday vaziyatlar bo'ladiki biz quyidagicha o'ylaymiz: "Men hozir javob berishim kerak!" yoki "Men hozir qadam qo'yishim kerak, aks holda hammasi vayron bo'ladi!" Agar Xudo sizga hech qanaqa javob bermayotgan bo'lsa, bu U siz bilan gaplashmayapti degani emas! Xudo bizning hayotimizda jiddiy tarzda ishtirok etadi. Bunday holda U quyidagi "xabarni beradi": "Hozir sen hech nima qilmasliging kerak". Bunday vaziyatlarda biz Rabbiydan so'z kutishimiz kerak va vaziyatni o'z kuchimiz bilan o'zgartirishga urinmasligimiz lozim:

"Rabbiyni kutgin, dadil bo'lg'in, yuraging mustahkamlansin!
Rabbiyni kutgin!" (Sanolar 26:14).

Agar biz diqqatimizni Unga emas, balki o'z muhtojliklarimizga qaratsak, bizning yuragimizga g'amginlik va og'irlik keladi. Biz o'zimizni chalg'ib qolishga va diqqatimizni "yengil azoblarga" qaratishga yo'l qo'ymasligimiz zarur. Buning o'rniga, biz bugungi qiyinchiliklar orqali keladigan behad mo'l-ko'l abadiy shuhratdan o'z nigohimizni olmasligimiz zazur (2-Korinfliklarga 4:17) Bu bizni kutayotgan quvonchdir va u bizning maqsadimiz bo'lishi shart.

Bizni kutayotgan quvonch

"Birodarlarim, sizlar turli vasvasalarga tushib qolganingizda ham, buni butun quvonch bilan qabul qilinglar. Shuni bilinglarki, imoningizning sinalishi sabr-toqat hosil qiladi. Sabr-toqatingiz esa amalda mukammal bo'lsin, toki sizlar hamma narsada kamchiliksiz, yetuk va komil bo'linglar" (Yoqub 1:2-4).

Quvonch – bu ruhiy kuch, u bizga azoblarni va sinovlarni ko'tarib o'tishimizga yordam beradi. Nima deb yozilganiga e'tibor bering: "Buyuk quvonch bilan qabul qilinglar", buni "Qisman quvonchli, qisman g'amgin" deb hisoblamanglar. Biz yuragimizda ham quvonch, ham g'amginlik bo'lishiga yo'l qo'ymasligimiz kerak. Bunga quyidagicha qarang. Sizning to'qson to'qqizta xalqasi quvonchdan va faqat bittasi g'amginlikdan tashkil topgan zanjiringiz bo'lsa, unda zanjiringizning mustahkamligi aynan mana shu zaif xalqa orqali baholanadi. Sizning zanjiringiz yuzta quvonch xalqasidan iborat bo'lishi shart, toki sizda hayotingizdagi vaziyatlarda kerak bo'ladigan quvvat bo'lsin.

Biz hamma narsa yaxshi bo'lganida buyuk quvonchga ega bo'lish qanchalik osonligini bilamiz. Lekin ushbu oyatda bu haqda aytilmayapti. "Buyuk quvonch bilan qabul qilish" vaqti – bu sinovlar vaqti, ya'ni cho'l, quvg'inlar, qiyinchiliklar, azoblar va boshqa musibatlardir. Xudo "Rabbiy oldidagi quvonchingiz siz uchun quvvatdir" (Nehemiah 8:10) deb, shu haqda aytyapti. Biz U bilan yaqin munosabatga egaligimiz natijasida keladigan quvonch bizni mustahkamlaydi.

Mening rafiqam va butun oilam – o'g'illarim, kelinlarim va nabiralarim menga quvonch keltirishadi! Men uyimdan uzoqda bo'lganimda, ularning suratini ochib tomosha qilaman va har safar bu menga quvonch bahshida etadi. Shuningdek, bu menga kuch beradi.

Nehemiyah o'zining odamlariga shu narsa haqida aytyapti. Ular qiyin davrlardan o'tishgan, Nehemiyah hayqirib deydi: "Qiyinchiliklar tufayli g'am chekmanglar; o'z nigohingizni Rabbiyga qaringlar. Chunki Unga yaqinlashganingizda, sizning yuragingiz quvonchga to'ladi va sizga kuch keladi" (bu mening o'z so'zlarim bilan aytgan gaplarim).

Maqtov sizning diqqatingizni o'zingizdan chalg'itib Rabbiyga qaratadi. Sinovlar avjiga chiqqan chog'da, biz to'qnash kelgan kuchli bosim tufayli Xudoning qudratini unutib yuborishimiz oson. Dovud o'z sanolarining aksariyatini sinovlar orasida yozdi. Xudoni ulug'lab, u o'ta noqulay vaziyatlarda kuchli bo'lib qolishga muvaffaq bo'ldi.

Isha'yo 61:3 da Xudo bizga: "...kulning o'rniga zeb-ziynat, yig'ining o'rniga quvonch moyi, tushkunlik ruhining o'rniga shuhrat kiyimi ..." berilishi haqida aytmoqda.

Men kuchli qurg'oqchilikni boshimdan o'tkazganim esimda, shunda bu oyatni yangicha tushundim. Men uyimda bir o'zim bo'lganimda o'ta darajada kuchli og'irlikni his qildim. Men Muqaddas Kitobni qo'limga olganimda uni arang o'qidim. Men ibodat qilishni boshlaganimda, ahvol yanada og'irlashdi. Ichimda Muqaddas Ruh menga: "Hamdu-sano yozilgan disklardan birini qo'sh" deganini his qildim. Men magnitofonimiz turgan xonaga kirib hamdu-sanoni qo'shdim va biroz kuylashni boshladim. Bu yetarli emas edi va men Rabbiyning oldida raqsga tushishni boshladim. Mening yuragimda shu qadar og'irlik bor ediki, o'zimga xuddi suyuq qo'rg'oshinning ustida raqsga tushayotgandek tuyulardi. Men kurashganimni aytishning hojati yo'q.

Qo'shiqlar tugaganidan so'ng ularni qaytadan qo'shish kerakligini his qildim. Ikkinchi marta men nima kuylayotganimni eshitishni boshladim. To'satdan bir zumga, men o'z yuragimda taxtda o'tirgan Isoni chaqnaganini va Uning buyuk sevgisining shu'lasini ko'rdim. Mening yuragim quvonch bilan to'ldi va bemalol raqsga tushishni boshladim. Men nigohimni o'zimdan olib, Isoning buyukligiga qadaganimni sezdim. Keyingi o'ttiz daqiqa davomida men kuyladim, raqsga tushdim va kichkina uyimizning ichida yovvoyiga o'xshab yugurdim. Og'irlik ketdi va menda atigi o'ttiz daqiqa oldin bo'lmagan hayotga va kuchga to'ldim.

Uni ulug'lagan paytim, men yana o'z diqqatimni Unga qaratdim. Men Isha'yo payg'ambar yozgan narsani boshimdan o'tkazdim: "Sizlar najot buloqlaridan quvonch bilan suv tortasizlar" (Isha'yo 12:3), Rabbiyning quvonchi orqali men najot buloqlaridan kuch olishni boshladim.

Maqtov bizga o'z nigohimizni, bizni o'rab turgan vaziyatlarga emas, balki oldimizda turgan quvonchga qaratishimizga yordam beradi.

“Shuning uchun bizlar atrofimizda guvohlarning shunday buyuk bulutiga ega bo'lib, har bir og'irlikni hamda bizlarni oson qurshab olayotgan gunohni ag'darib tashlaylik va tayinlangan musobaqada sabr-toqat bilan yuguraylik. Imonning asoschisi hamda tugatuvchisi bo'lgan Isoga ko'z tikaylik. U sharmandalikni mensimay, O'ziga tayinlangan quvonchning o'rniga xoch azob-uqubatiga chidadi va Xudo taxtining o'ng tomonida o'tirdi. Sizlar darmonsizlanib, joningiz holsizlanib qolmasligi uchun gunohkorlarning Unga qarshi haqoratlariga chidagan Iso haqida fikr yuritinglar. Sizlar gunohga qarshi jang qilib, hali qoningiz to'kilishiga qadar kurashmadingizlar” (Ibroniylarga 12:1-4).

Iso kimdir qachondir to'qnash kelgan yoki to'qnash keladigan sinovni, oldinda turgan quvonch – xochga mixlanish ortidan kelgan tirilishga qarab, buyuk sinovni boshidan o'tkazdi. Bu Uning azoblarida ko'rsatgan itoat ortidan kelgan shuhrat edi va natijada, ko'plab o'g'il va qizlarni Xudoning shohligiga olib keldi, ularning orasida siz va men ham bormiz!

Biz shu yo'sinda Uning izidan boryapmiz. O'zimizni rad etganimizning va tanamizni xochga mixlashimizning ortida, bizni tirilish hayoti kutmoqda. Tanamizning azoblari ortida bizga kerak bo'lgan yetuklik turibdi, uning yordamida biz Iso bilan yanada yaqinroq munosabatlar quryapmiz. Cho'lning qiyinchiliklari ortidan ulkan shuhrat yuradi. Pavlus shunday deb yozgan:

“Chunki o'ylaymanki, hozirgi azoblar kelajakda bizlarda ochiladigan shuhrat bilan taqqoslanganda, hech narsaga arzimaydi” (Rimliklarga 8:18).

Xudoning shuhrati Uning qaytib kelishidan avval jamoatda namoyon bo'ladi. Bu shuhrat shuqadar keng miqyosda bo'ladiki, u shaharlarni va mamlakatlarni qutqaradi. Yer Uning bu qadar qudratini ilgari ko'rmagan. Bu qudrat Xudoga o'zini tozalashiga imkon bergan Masih izdoshlari orqali namoyon bo'ladi. Xudo O'zining Ruhini

quyadi, bu buyuk hosilga olib keladi, bu hosil inson yordamiga muhtoj bo'lmaydi. Xudoning qudrati va shuhrati uni qo'llaydi!

“Sevganlarim! Sizlarni vasvasa qilish uchun boshingizga tushayotgan alangali sinovni g'alati voqea deb hayron bo'lmanglar. Aksincha, Masihning azoblariga sherik bo'layotganingiz uchun quvoninglar. Uning shuhrati zohir bo'lganida, sizlar yanada ko'proq quvonib, tantana qilasizlar” (1-Petrus 4:12-13).

Yana aytadigan bo'lsak, oldinda turgan quvonch nima? Bu Masihga bo'ysungan holda azob chekkan odamlar orqali namoyon bo'ladigan Uning shuhratidir. E'tibor bering, sizning azob me'yoringiz quvonch me'yoringiz bilan barobar bo'ladi; bilingki, qarshilik qanchalik ko'p bo'lsa, shuhrat ham shunchalik ko'p bo'ladi!

O'z hayotingizni yo'qoting

Do'stim, qarshilik kelganida Xudoning ortidan borishdan to'xtamang! U sizni hayotdagi qiyin vaziyatlar aro olib boradi, chunki qanchalik ko'p jang bo'lsa, Xudoning shohligi uchun va siz uchun shunchalik ko'p g'alaba keladi. Lekin bu janglarning avjida ushbu va'dalarni esda saqlang:

“Boshingizga oddiy insoniy vasvasadan boshqa vasvasa kelgan emas. Xudo esa sodiqdir, U kuchingiz yetmagan vasvasaga tushishga yo'l qo'ymaydi, lekin vasvasa paytida bardosh berishingiz uchun xalos bo'lish yo'lini ham beradi” (1-Korinfliklarga 10:13).

Sinov sizga qanaqa bo'lib ko'rinmasin, uni muvaffaqiyat va shuhrat bilan ko'tarib o'tish uchun sizda kuch bor. Aks holda siz bu sinovlar bilan to'qnash kelmagan bo'lar edingiz; Xudo bunga yo'l qo'ymagan bo'lardi!

Agar siz o'z hayotingizni sevsangiz, siz qiyin daqiqada taslim bo'lasiz. Siz Uning ortidan borishdan to'xtaysiz va sizning hayotingizda hosil bo'lmaydi.

Vahiy 12:11 da yozilgan: "Ular Qo'zining qoni va o'zlarining guvohlik so'zi bilan uni yengdilar. Ular to o'lguncha o'z hayotlarini sevmagan edilar".

Xudoning irodasidan ko'ra o'zi haqida ko'proq qayg'uradigan odamlar o'zini sevadilar, lekin Iso shunday deyapti: "Chunki kim jonini saqlab qolmoqchi bo'lsa, uni yo'qotadi. Lekin kim Men uchun jonini yo'qotsa, uni topadi" (Matto 16:25).

Bizni oldinda kutib turgan narsaga bardosh bera olishimizning yagona yo'li bu o'z jonimizni yoki hayotimizni yo'qotishdir. Men sizni oldinga intilishda davom ettirishga chaqirmoqchiman, "Bizning ustimizga yuqoridan Ruh quyilmagunicha, sahro boqqa aylanmagunicha, bog'ni esa o'rmon deb hisoblamagunlaricha shunday bo'ladi" (Isha'yo 32:15).

Cho'l – bu biz qurollarimizni yig'ishtirib, taslim bo'lishimiz kerak bo'lgan joy emas. Biz Xudoning irodasini bajarishimiz uchun, cho'lda kuchli, dadil va dovyurak bo'lishimiz shart. Bu biz Xudoga qat'iyat bilan bo'ysunishimiz va iblisga qarshi turishimiz kerak bo'lgan joydir.

Agar siz hozir cho'lda bo'lsangiz, Xudo sizning yuragingizda nima borligini o'zingiz bilishingiz uchun bu joyga olib keldi. Ko'pincha men iblisning vasvasasi deb hisoblagan narsalar, aslida Masihga bo'ysundirishim lozim bo'lgan hayotimning sirli sohalari ekan.

Samoviy mukofotga intilib quyidagi oyatlarni esda saqlang:

"Lekin Xudoga shukronalar bo'lsinki, U bizni Masihda hamisha zafarona tantanada olib yurmoqda ..." (2-Korinfliklarga 2:14).

"Kim bizni Masihning sevgisidan ajratar ekan: qayg'umi yo tanglikmi, yo quvg'inmi, yo ochlikmi, yo yalang'ochlikmi,

yo xavf-xatarmi yoki qilichmi? Ammo bizni Sevgan orqali bularning hammasidan biz g'olibdan ko'ra ustunroqmiz" (Rimliklarga 8:35, 37).

"Lekin Xudoga shukurki, U bizga Rabbimiz Iso Masih orqali g'alaba berdi!" (1-Korinfliklarga 15:57).

Xudoning ortidan borishdan to'xtamang. Vaziyatlarga qaramasdan, U sizga bergan maqsadni saqlang.

Yusufning vaziyati umidsiz tuyular edi, u quvurga tashlandi, so'ng begona yurtda zindonband qilindi. Uning hayoti tamom bo'lgandek ko'rinardi. Uni qanaqa kelajak kutayotgan edi? Yodingizda bo'lsin, "Odamlar uchun bu imkonsizdir, ammo Xudo uchun emas, chunki Xudo uchun hamma narsaning imkoni bor..." (Mark 10:27).

Bu sizga ham taalluqli – vaziyatlar qanchalik og'irlashishidan qat'i nazar, esda saqlang: "...ishongan odamga hamma narsaning imkoni bor..." (Mark 9:23).

Sizni oldinda kutayotgan quvonchga – siz orqali namoyon bo'ladigan Uning shuhratiga qarang. Bu siz to'qnash keladigan barcha sinovlarni yengib o'tishga kuch beradi. Uni butun qalbingiz bilan izlashda davom eting va U sizga O'zining Ruhi bilan, O'zining So'zi orqali gapirishiga ishonang. Agar shunday qilsangiz cho'lda g'alaba qozonasiz.

"Sizlarni yiqilishdan saqlab qolishga, O'zining shuhratining huzurida benuqson va shod-xurram qilib qo'yishga qodir bo'lgan yakkayu yagona, dono Najotkorimiz Xudoga Iso Masih orqali azaldan, hozir va abadulabad shon-shuhrat, ulug'vorlik, saltanat va hokimiyat bo'lsin! Omin" (Yahudo 1:24-25).

MULOHAZA UCHUN SAVOLLAR

Agar siz bu kitobni “Cho’l” nomli o’quv dasturi bilan birgalikda o’qiyotgan bo’lsangiz (bu juda yaxshi fikr deb bilaman), haftalik video darslarni ko’rib borishni va guruhdagi mulohaza uchun savollarga mos ravishda javob berishni maslahat beraman. Video darslar ushbu kitobdagi asosiy g’oyalarni takrorlaydi va yanada kengaytiradi. Shu bois, guruhning hamma a’zolari kitobni o’qish bilan birgalikda video o’quv dasturlarni ko’rib borsa, nur ustiga a’lo nur bo’ladi.

Vaqtiniz maroqli o’tsin!

1-dars

Birinchi bobni o’qing

1. Xudoning hamma joyda mavjud tabiati bilan yaqqol huzurining o’rtasida qanday farq bor? Biz bu farqni tushunishimiz nima uchun muhim?
2. Nega biz bugun yashayotgan mavsumimizni farqlay olish va cho’ldamizmi yoki yo’qligimizni bilish muhim hisoblanadi?
3. Nima deb o’ylaysiz, nega shayton, biz atayin gunoh qilishimizni yoki o’z imonimizdan kechishimizni ko’zlab, vasvasaga solish uchun cho’l mavsumidan foydalanadi?
4. Nega Xudo, biz cho’ldagi vaqtimizni o’zimiz uzaytirishimizga yo’l qo’yadi?

2-dars

Ikkinchi va uchinchi boblarni o'qing

1. Cho'l davri bir nechta maqsadga ega. Ushbu darsda tilga olingan cho'lning yettita maqsadidan qaysi biri sizda ko'proq taassurot qoldirdi va nima uchun?
2. Nima deb o'ylaysiz, nega cho'l mavsumida Xudoga itoat etish ruhiy o'sishga olib keladi?
3. Cho'l – bu o'z-o'zini tanib-bilish vaqti. O'zingiz haqida va cho'lida Xudo bilan o'tkazgan vaqt to'g'risida bilib olgan narsalardan ayrimlarini sanab o'ting.
4. Ushbu ko'nikish davrida Xudoda qay tarzda mustahkamlandingiz?

3-dars

To'rtinchi bobni o'qing

1. Va'da va uning amalga oshirishining o'rtasida doim jarayon bor. Nega bu muhim jarayon hisoblanadi?
2. Tayyorgarlik jarayoni sizning hayotingizda amalga oshirgan ishni kuzatganmisiz?
3. Nima deb o'ylaysiz, nega Xudo siz tayyorgarlik jarayonidan o'tishingizdan oldin va'dalarni beradi?
4. Nega hayotingiz uchun o'zingiz tuzgan besh yillik rejadan ko'ra Xudoning va'dasiga ega bo'lish muhim?

4-dars

Beshinchi va oltinchi boblarni o'qing

1. Shoul va Dovudning qiyosi Xudo cho'l orqali tozalashining muhimligini tushunishga bizga qay tarzda yordam beradi?
2. Oltin tozalanganda yanada egiluvchan bo'ladi va Xudo bizni tozalaganda ham biz Unga nisbatan egiluvchan bo'lamiz. Xudoga nisbatan yumshoq yoki egiluvchan bo'lish nimani anglatishini ta'riflang.
3. Xudoning poklash jarayoni yashirin gunohni yoki zaiflikni yuzaga chiqarganida bizning bunga munosabatimiz qanday bo'lishi lozim?
4. Tozalanish jarayoni qay tarzda biz Isoni aniqroq namoyon etishimizda yordam beradi?

5-dars

Ettinchi bobni o'qing

1. Xudo nega norozilikdan nafratlanadi? Sizning hayotingizda noliq qanday o'rinni egallaydi?
2. Malaxi kitobidagi odamlarning noroziligi va Yermiyahning shikoyati o'rtasida qanday farq bor? Xudo nega birinchi guruhga nisbatan g'azablandi, lekin Yermiyahning shikoyatiga javob berdi?
3. Hukm mahkumlikni emas, balki qarorni bildiradi. Hukm Xudoning uyidan boshlanganida, Xudo kim Unga xizmat qilishga loyqligini hal qiladi. Sizningcha Xudo ushbu qarorni qabul qila turib, qaysi sifatlarga e'tibor beradi?
4. Xudo xizmat uchun yaroqli idishlarni izlaydi. Da'vat va saylovning o'rtasidagi farqni qanday izohlagan bo'lar edingiz?

6-dars

Sakkizinchi bobni o'qing

1. Siz azoblar – bu in'om ekanini ilk bor eshitganingizda, ongingizga qanday fikrlar keldi? Darsning oxiriga kelib, dunyo qarashingiz qay tarzda o'zgardi?
2. Xudo siz ko'tara oladigan sinovdan ortig'iga yo'l qo'ymaydi. Bu haqiqat sizni ruhlantiradimi va qay tarzda ruhlantiradi?
3. Xudo sizdagi kuch hozirgi darajada qolib ketishiga yo'l qo'ymaydi. Bu Xudoning hayotingizdagi rejalarini qanday ifodalaydi?
4. Biz kelajakda duch keladigan bosim mavjud. Endi esa Xudo mana shu bosimga o'xshagan sinovdan o'tishimizga yo'l qo'yadi. Xudo sizning kelajagingiz haqida nima degan va siz hozir boshdan kechirayotgan bosimni anglab yetishga qay tarzda yordam bermoqda?

7-dars

To'qqizinchi bobni o'qing

1. Xudoning ortidan borish har doim ham mantiqiy emas. Nega Xudo bizning odatiy xatti-harakatlarimizni "buzganida", Unga ishonish qiyin kechadi?
2. Xudo siz istagan paytda harakat qilmaganida, nimalarni his etasiz? Xudoning va'dalari kechiktirilgandek tuyulganida qanday bosimni va vasvasalarni boshdan kechirasiz?
3. Hayotingizda quyidagi haqiqatga amin bo'ldim deb ayta olasizmi: "Tana nimanidir tug'sa, aynan tana uni o'stirishi kerak bo'ladi"? Xudodan tug'ilgan narsa, tanadan tug'ilgan narsa bilan nimasi bilan farq qiladi?

4. Nima sizga o'z hayotingizda Xudoning yo'lidan borayotganingizga aminlik beradi?

8-dars

O'ninchi bobni o'qing

1. Cho'l – bu Xudo O'zini namoyon qiladigan joy. Shunday bo'lsa, nega Xudo cho'lga bizdan uzoqdadek tuyuladi?
2. Birinchi navbatda marhamatlarga emas, balki Xudoga intilish nimani bildiradi?
3. Sizning da'vatingiz yoki Xudodan olgan va'dalaringiz, Uning O'zidan muhimroq bo'lib qolishi nimasi bilan xavfli?
4. Xudo Muqaddas Kitobdagi qahramonlarga O'zini namoyon qilganini ko'rganingizda, bu sizning cho'l mavsumidagi kutish vaqtingizni qay tarzda o'zgartiradi?

9-dars

O'n birinchi bobni o'qing

1. Nima uchun, ayniqsa, ruhiy qurg'oqchilik payti tasalli keladigan manbaga ehtiyotkorlik bilan yondoshishimiz o'ta muhim?
2. Biz istamagan paytlarimizda ham, ibodatni va Xudoning So'zini chuqur o'rganganimizda, qay tarzda ruhiy tomirlarimiz mustahkamlanadi?
3. Aynan hosil kelishidan sal avval ulkan hujumlar vujudga kelishini bilish sizni ruhlantiradimi?
4. Nima uchun Xudoning sadoqati to'g'risida mulohaza yuritish cho'ldagi hayotingizni o'zgacha tusga o'zgartiradi?

10-dars

O'n ikkinchi bobni o'qing

1. Qanday qilib, siz o'tgan cho'llarning biri, qay tarzda sizni hayotingizdagi yangi darajaga tayyorladi?
2. Nega o'zgarish qiyin? Ko'pincha o'zgarishlarga moslashish uchun nima to'siq bo'ladi?
3. Meshlarning yangilanish jarayonida sizda ko'proq nima taassurot qoldirdi? Nima uchun bu sizning e'tiboringizni tortdi?
4. Biz yangi narsaga ega bo'lishimiz uchun eskisidan voz kechishimiz zarur. Yangi narsalarni qabul qilishingiz uchun, siz nimalardan voz kechishingiz zarur?

ILOVA

HAR BIR INSON UCHUN NAJOT MAVJUD

“Shunday qilib, agar sen Isoni Rabbim deb, o‘z og‘zing bilan e‘tirof etsang va Xudo Uni o‘liklardan tiriltirganiga o‘z yuraging bilan ishonsang, najot topasan. Chunki inson haqlikka erishish uchun yuragi bilan ishonadi va najot topish uchun og‘zi bilan e‘tirof etadi”.

– Rimliklarga 10:9, 10

Xudo sizning hayotingizda abadiy muvaffaqiyatni ko‘rishni istaydi. U sizni otashin sevadi va sizning hayotingizda Uning rejasi bor. Lekin sizni o‘z taqdiringizga eltadigan faqat bitta yo‘l bor – bu Xudoning O‘g‘li, Iso Masih orqali najotni qabul qilish.

Isoning o‘limi va tirilishi orqali Xudo O‘zining sevikli o‘g‘li va qizi uchun O‘z Shohligiga tomon yo‘l hozirlagan. Masihning xochdagi qurbonligi tufayli siz uchun abadiy to‘kin hayot berilgan. Najot – Xudoning siz uchun bo‘lgan in‘omidir, uni ishlab qo‘lga kiritishning, unga sazovor bo‘lishning imkoni yo‘q.

Ushbu qimmatli in‘omni olish uchun, o‘zingizning gunohlaringizni va siz Yaratuvchisiz yashaganingizni (chunki bu barcha qilingan gunohlarning negizidir) tan olishingiz kerak. Tavba – najotni qabul qilishning eng asosiy qismi. Petrus Havoriylar kitobida, besh ming kishi najot topgan vaqti bu haqda aniq aytgan: “Shuning uchun gunohlaringiz

o'chirib tashlanishi uchun tavba qilinglar va Xudoga o'girilinglar..." (Havoriylar 3:19). Yozuv har birimiz gunohning quli bo'lib tug'ilganimiz haqida aytadi. Bu qullik Odam Atoning o'zboshimchalik va itoatsizlik qilgan gunohidan kelib chiqqan. Tavba – bu tanlov, bu o'zingizga va yolg'onning otasi bo'lmish shaytonga bo'ysunishni bas qilganingizni hamda siz uchun O'z hayotini qurbon qilgan, yangi Xo'jayiningiz Iso Masihga itoat qilishni boshlashingizni bildiradi.

Siz o'zingizni Masihga bo'ysundirishingiz, Uni o'z Xo'jayiningizga aylantirishingiz, Unga hayotingiz (ruhingizni, joningizni va tanangizni) topshirishingiz, Unga butunlay o'zingiz va sizda bor bo'lgan narsa ustidan hokimiyatni berishingiz kerak. U hayotingiz ustidan to'liq hokimiyatga ega bo'lishi lozim. Siz shunday qilganingizdan so'ng, o'sha zahotiyiq Xudo sizni zulmatdan qutqaradi va sizni O'z Shohligining nuriga va shuhratiga olib kiradi. Siz o'limdan hayotga o'tasiz va Uning farzandiga aylanasiz!

Agar siz Iso orqali najotni qabul qilishni istasangiz, mana shunday so'zlar bilan ibodat qiling:

"Osmondagi Xudo, men gunohkor ekanimni va Sening haqlik o'lchamlaring bilan yashay olmasligimni tan olaman. Qilgan gunohlarim uchun abadiy jazoga loyiqman. Meni shunday ahvolda qoldirmayotganing uchun O'zingga shukur, chunki men ishonaman, men o'lmasligim uchun va mening jazoyimni xochga olish uchun, Sen bokira Maryam orqali tug'ilgan Yagona O'g'ling Iso Masihni yubording. Uning uchinchi kun tirilganiga va hozir Sening o'ng tomoningda o'tirganiga ishonaman. U mening Rabbim va Najotkorim. Bugun men Sendan mustaqil ravishda yashaganim uchun tavba qilaman va hayotimni to'liqligicha Rabbiy Isoga bag'ishlayman.

Iso men Seni o'zimning Rabbim va Najotkorim deb e'tirof etaman. Mening hayotimga O'z Ruhing bilan kelgin va meni o'zgartirib, Xudoning farzandiga aylantirgin. Men shu

paytgacha yurgan zulmatdan voz kechaman va shu kundan e'tiboran o'zim uchun yashamayman, balki Sening inoyating bilan Sen uchun yashayman, chunki men abadiy hayotga ega bo'lishim uchun Sen O'zingni qurbon qilding.

Rabbiy O'zingga shukur. Endi mening hayotim Sening qo'llaringda va Sening So'zingda aytilganidek, men uyatda qolmayman. Iso Masih nomi bilan, omin".

Xudoning oilasiga xush kelibsiz! Men sizni o'zingiz bilan sodir bo'lgan voqea haqida boshqa imonlilar bilan bo'lishishga chorlayman. Muqaddas Kitobga ishonadigan biror bir mahalliy jamoatga borishni boshlang, chunki sizni imonda qo'llab-quvvatlaydigan imonlilar bilan muloqotda bo'lish juda ham muhim.

Siz eng g'aroyib sayohatni boshladingiz. Xudo sizni marhamatlasin, toki siz har kuni Uni tanib-bilishda, inoyatda va do'stlikda o'sib boring!

ABADIYAT TOMONIDAN BOSHQARILAYOTGANLAR




Bu yerdagi hayot – bor-yo‘g‘i bug‘ kabidir, biroq ko‘pchiligimiz xuddi u dunyo yo‘qdek yashaymiz. Mana shu hayotdagi yashab o‘tgan umrimiz abadiylikdagi taqdirimizni belgilaydi. Xudoning Kalomi, imonlilar turli darajadagi mukofotlarga erishishini aytgan. Bu mukofotlar insonning barcha yutuqlari uning ko‘z o‘ngida yonib ketishidan tortib, Masih bilan birgalikda hukmronlik qilishigacha boradi.

Ikkinchi Korintliklarga 5:9-11 da keltirilgan qoidalarga asoslanib, Jon Biver hamma imonlilar bu dunyoda qo‘lga kiritgan narsalarini olish uchun Masih qarshisida turishini eslatib o‘tgan. Ko‘pchiligimiz umrimizning katta qismini abadiy mukofot berilmaydigan narsalarga sarflaganimizni tushunib, hayratda qolamiz.


Shunday qilib, hayotimizni qay tarzda ma’noli o‘tkazishimiz mumkin? Abadiyat tomonidan boshqarilayotganlar kitobida o‘z da’vatingizni qanday bilib olishni va Xudo sizga bergan narsalarni qanday ko‘paytirishni o‘rganasiz. Hayotga abadiylik nuqtai nazaridan qarab, siz mangu turadigan narsalar ustidan mehnat qilish uchun kuch olasiz.

X MessengerX

Har bir kishi uchun, hamma joyda shogirdlikka yo'l



- 130 dan ortiq tillarda bepul
- Ilova hamda onlayn sifatida olish mumkin
- Sizning ruhiy o'sishingiz uchun mo'ljallangan manbalar
- O'zingizning o'tmishingizni va shogirdlik yo'lingizni kuzatib boring



“Messenger” yordamida o'qish uchun zahiralarni kutubxonasini oling – elektron kitoblar, video va audio darsliklar, audio kitoblar, Muqaddas Kitob va hokozolar. O'zingizning barcha moslamalaringizda ko'ring, o'qing va tinglang.

MessengerX.com



Dunyoning barcha joyida App Store va Google Play orqali olish mumkin.

HAYOTNING QIYIN DAVRLARIDA O'ZINGIZNI PARISHON HIS ETIB: «XUDO, QAYERDASAN?!» – DEB SAVOL BERASIZMI?

Ehtimol, siz shu paytgacha Xudoning ovozi eshitgandirsiz, biroq hozir U sukut saqlayotgandek bo'lib ko'rinyapti. Ehtimol, siz shu paytgacha imonda harakatlanib kelgansiz, ammo hozir Uning huzurini topa olmayapsiz. Xudodan va'dani olish va uni amalga oshishi o'rtasidagi joy bo'lmish – cho'lga marhabo.

Yaxshi xabar shundaki, cho'l – bu maqsadsiz va quruq yer emas. Xudo sizni da'vatingizga tayyorlash va anjomlash uchun cho'ldan foydalanadi. Aksariyat kishilar nima deb o'ylashidan qat'iy nazar, biz Xudoni shunchaki kutib o'tiraversak, bu davrdan o'ta olmaymiz. Cho'ldan o'tish uchun sizning ishtirokingiz ham kerak va sizning ishtirokingizning ahamiyati katta. Agar siz vaqtni behudaga sarflashni va bir joyda aylanib yurishni istamasangiz, cho'l nimaligini bilib olishingiz joiz.

Ushbu vahiylarga boy kitobda, ommabop kitoblar muallifi Jon Biver, Xudo siz uchun tayyorlab qo'ygan barcha narsani qo'lga kiritishda va hayotingizning qiyin va quruq mavsumidan o'tishda yordam beradigan Muqaddas Kitobdagi muhim bilimlar va sermazmun voqealar bilan otlantiradi.



JON BIVER – xalqaro voizxon va ommabop kitoblar muallifi bo'lib, u Xudoning So'zidan chetga chiqmasligi bilan keng tanilgan. Jon va uning rafiqasi Liza «Messenger Interneshnl» xizmatining asoschilari bo'lib, ularning maqsadi va Muqaddas Kitobdan chetga chiqmaydigan, dunyoni o'zgartiruvchi Masihning izdoshlarini ko'tarishdir. Jon uyida, Koloradada bo'lganida, o'zining to'rt o'g'li bilan stol o'yinlarini o'ynaydi yoki Lizani u bilan golf o'ynashi uchun ko'ndirishga harakat qiladi.



Bepul yuklash va video tomosha qilish uchun
MessengerX.com sahifasiga tashrif buyuring.



Bu kitob – muallifdan tuhfa.
Sotish man etiladi.

ko'proq ishtiasizmi?
Skaniqlang:

